


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ZARIF QUVONOV
MEHRINISO RIZOYEVA**



*(5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun o‘quv
qo‘llanma)*

Navoiy -2021

Annotatsiya

Mazkur o‘quv qo‘llanma 5111200 - O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun mo‘ljallangan. Unda jahon adabiyotining eng qadimgi-antik davri adabiyoti (qadimgi yunon va rim adabiyoti), shuningdek, uyg‘onish davri, ma‘rifatchilik davri, romantizm va tanqidiy realizm, XX asr realizm, modernizm adabiyoti vakillari hamda ularning asarlari haqida ma‘lumotlar o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanma “Jahon adabiyoti” fanidan tuzilgan o‘quv fan dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, talabalar bilimini baholash uchun test savollaridan namunalar, savol va topshiriqlar ham berilgan.

Аннотация

Учебник предназначен для студентов факультета узбекского языка и литературы 5111200. Он содержит информацию о древнейшей литературе мировой литературы (древнегреческой и римской), а также о эпохах Возрождения, Просвещения, романтизме и критическом реализме, реализме XX века, модернизма и их произведениях.

Учебник основан на учебной программе предмета «Мировая литература», которая включает образцы контрольных вопросов, вопросов и заданий для оценки знаний учащихся.

Annotation

The textbook is intended for students of the Faculty of Uzbek Language and Literature 5111200. It contains information about the ancient literature of world literature (ancient Greek and Roman), as well as about the Renaissance, Enlightenment, romanticism and critical realism, XX century realism, modernism and their works.

The textbook is based on the curriculum of the subject "World Literature", which includes samples of control questions, questions and assignments to assess the knowledge of students.

Taqrizchilar: A.Xolmurodov, filologiya fanlari doktori

S.Sariyev, filologiya fanlari doktori

M.Matquliyeva, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas‘ul muharrir: Z.Jumayev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

“Jahon adabiyoti” fanidan tuzilgan mazkur o‘quv qo‘llanma Navoiy davlat pedagogika institutining Ilmiy Kengashi tomonidan 2021- yil, 27- noyabrdagi yig‘ilish qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

© **Z.Quvonov, M.Rizoyeva. Navoiy, 2021**

KIRISH

“JAHON ADABIYOTI” FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

Reja:

1. *“Jahon adabiyoti” fanining ob’ekti, geografik miqyosi, davrlashtirilishi.*
2. *Fanning maqsad va vazifalari.*
3. *Jahon adabiyotining antik davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Rim va turkiy tillar adabiyoti.*
4. *Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv.*

Tayanch tushunchalar: jahon adabiyoti, mif, asotir, mifologiya, Sharq mifologiyasi, qadim Sharq adabiyoti, antik adabiyot, madaniy aloqalar, geroizm, tragizm, dramatism, kollizm, adabiy janrlar (epos, lirika, drama), bosh qahramon, yordamchi qahramon, syujet, adabiy ta’sir, mushtaraklik.

Jahon adabiyoti tarixi fanini o’rganishdan asosiy maqsad—yer yuzidagi katta-kichik xalq, millat, elatlardan yetishib chiqib, yuksak mahorat bilan asar yaratgan adabiyot kishilarining ijodini tahlil qilish, yutuqlarini belgilab berish, ma’lum bir xududdagi adabiyotlar o’rtasidagi mushtaraklikni aniqlab, jahon adabiyotida ro’y berayotgan umumiy va xususiy o’zgarishlarni qayd qilishdir. Ayni vaqtda ana shu o’zgarishlar asosida umumadabiyotning qonun-qoidalarini keltirib chiqarishga, uning taraqqiyot tendensiyalarini belgilab olishga ham yordam berishdir.

Jahon adabiyoti fani bo’yicha ma’lumotlar juda katta hajmda bo’lib, u faqatgina antik adabiyotni emas, balki bugungi kungacha bo’lgan davr adabiyotini o’z ichiga qamrab oladi. Bunga Antik adabiyotdan tashqari O’rta asrlar adabiyoti va uning ijtimoiy siyosiy xarakterini yoritish, ilk o’rta asrlardagi lirika. Xalq qahramonlik eposlari, ritsar-kurtuaz adabiyotiga, antik adabiyotning ta’siri, o’rta asrlardagi shahar adabiyoti uning taraqqiyot bosqichlarini o’z ichiga oladi. XVII asr klassitsizm adabiyoti, borakko adabiy oqimi va XVIII asr ma’rifatchilik adabiyoti, XIX asr realizm va tanqidiy realizm adabiyoti vakillarini hamda XX asr jahon adabiyotidagi taraqqiyparvar adiblarning ijodi yangi ijodiy yo’nalishlar haqidagi ma’lumotlarni o’z ichiga qamrab oladi.

«Jahon adabiyoti tarixi» fani umumadabiyotni o’rganishni ma’lum bir tizimga solish uchun, avvalo, uni hududlarga asoslangan holda bo’lib chiqadi. Bunday xududiy bo’linish quyidagichadir:

1. Sharq adabiyoti: hindixitoy xalqlari adabiyoti, yapon adabiyoti, avstraliya, zellandiya va okeaniya xalqlari adabiyoti, O’rta Osiyo va Qozog’iston xalqlari adabiyoti, Kavkaz xalqlari adabiyoti.

2. G'arb adabiyoti: yevropa xalqlari adabiyoti, Skandinaviya xalqlari adabiyoti.

3. Afrika xalqlari adabiyoti.

4. Arab xalqlari adabiyoti.

5. Amerika xalqlari adabiyoti.

Ushbu hududiy bo'linishlar o'sha xalqlarning o'rinishgan joyi, etnik yaqinligi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy taraqqiyot bosqichlaridagi rivojning yaqinligi bilan belgilanadi. Bu bo'linishlar o'z navbatida yana kichik-kichik qismlarga bo'linib boradiki, bu masala keyingi mavzularda hal qilib boriladi. Masalan, O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari adabiyoti: o'zbek adabiyoti, qirg'iz adabiyoti, qozoq adabiyoti, tojik adabiyoti, qoraqalpoq adabiyotidan iborat. Hududiy bo'linishning ilmiy afzalligi shundaki, har bir o'kuvchi jahon xalqlari adabiyotini o'rganar ekan, turli-tuman adabiyotni bir-biri bilan adashtirib yubormaydi, ularni bir-biriga qiyoslay oladi. Har bir katta xududiy adabiyotning o'ziga xos tomonlarini o'zlashtira oladi.

Ushbu soha o'ta keng, o'rganilishi kerak bo'lgan adabiyotlar ko'pligi sababli jahon adabiyotini taraqqiyot bosqichlariga ham bo'lib chiqishga to'g'ri keladi. Chunki tarixiy jarayonlar, tuzumlar adabiyotga ham kuchli ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta.

Jahon adabiyotining tarixiy taraqqiyoti eng avvalo quyidagi katta davrlardan iborat:

1. Antik adabiyot. Bu davr adabiyoti eramizdan avvalgi yillardan to yangi eraning boshlarigacha bo'lgan badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Masalan, qadimgi yunon adabiyoti.

2. Yangi davr adabiyoti. Bu davr adabiyoti esa, eramizning birinchi asridan boshlab, to XIII-XV asrlargacha bo'lgan adabiyotni qamrab oladi.

3. O'rta asrlar adabiyoti. Bu davr adabiyoti XVII asrdan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davrda yaratilgan jahon adabiyoti namunalarini o'z ichiga oladi.

4. Zamonaviy davr adabiyoti. Bu adabiyot XX asr boshlaridan to shu kungacha bo'lgan jahon xalqlari adabiyotining eng yaxshi namunalarini o'zida jamlagan.

Ushbu katta davrlar ham o'z navbatida yana yangi bosqichlardan iborat bo'lib, unda ikki xil manzarani ko'ramiz: umumjahon adabiyotiga xos taraqqiyot bosqichlari, alohida olingan millat adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.

Antik davr adabiyotining hududi eramizdan avvalgi ming yilliklardan boshlanib to era boshiga qadar davom etgan. Antik davr adabiyotining yuksak taraqqiyoti qadim yunon adabiyoti va san'ati bilan bog'liq. Chunki davlatning qaror topishi, turli urushlar tufayli uning kengayib va boyib borishi yunon ijtimoiy ongiga kuchli ta'sir qildi. Natijada adabiyot, haykaltaroshlik, rassomlik, musiqa, teatr kabi san'at turlari boshqa joydagiga nisbatan bu yerda kuchli taraqqiy topdi.

Yangi davr adabiyoti eramizning birinchi yuz yilliklaridan boshlanib, to XV asrga qadar davom etgan. Bu davrda endi Sharq adabiyotida katta bir ko'tarilish– uyg'onish davrini ko'ramiz. Eng noyob asarlar «Avesto», «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'otit turk», «Hibbat-ul haqoyiq», Navoiy ijodi ana shu davr mevasidir. Bu asarlar o'z navbatida jahon adabiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi: unga tasavvuf falsafasini olib kirdi, «inson adabiyotning eng chuqur o'rganishi kerak bo'lgan perdmetidir» degan qoidani ham ana shu adabiyot olib kirdi.

O'rta asrlar adabiyoti asosan XVII-XIX asrlar bilan (shartli ravishda) belgilanib, bu davr yevropa adabiyotining o'ta tez yuksalishi bilan belgilanadi. Chunki XVI asrlardan boshlab yevropada avval sanoat, keyinroq esa texnika tezkorlik bilan rivojlandi. yevropa mamlakatlari dengiz yo'li bilan juda ko'p joylarni mustamlakaga aylantirdilar. Natijada iqtisodiy daromad ijtimoiy ong taraqqiyotiga ta'sir qildi. Aynan shu davrdan boshlab Amerika adabiyoti davriga kelib endi adabiyotlar taraqqiyot bosqichlari ma'lum bir tartibda, deyarli bir xil rivojga tushdi. Chunki jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy, texnikaviy hamkorliklar madaniyatni, xususan, adabiyotni ham bir chiziqqa olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Аристотель. Поэтика. Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1980.
2. Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи. Тошкент, Ўқитувчи, 1975.
3. Азизов Қ., Қаяюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. Тошкент, Ўқитувчи, 1987.
4. U. Hamdam., Qosimov A. Jahon adabiyoti (Darslik)., -Toshkent. 2018/
5. Алексеев М.П. и др. История зарубежной литературы (средние века и возрождения). Москва, Высшая школа, 1987.
6. Артаманов С.Д. История зарубежной литературы XVII-XVIII в.в. Москва, Просвещения, 1978.
7. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Тошкент, Маънавият, 1999.

8. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Тошкент, Ўзбекистон, 1997.
9. Ҳессе Х. Жаҳон адабиёти кутубхонаси. “Жаҳон адабиёти” журнали, 2003, 6-сон.
10. Куронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. Тошкент, Фан, 2008.

MIF VA BADIY IJOD

Reja:

1. *Mif va jahon adabiyoti. Mifning jahon adabiyoti tadrijidagi o' rni.*
2. *Mifologiya va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishda adabiy-nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida.*
3. *Mifologik maktab: tarixi, vakallari. Mif va falsafa*
4. *Mifning shakllari: tabiat jamiyat, inson, o' tmish, kelajak, yaratilish va inqiroz haqidagi miflar.*

Tayanch tushunchalar: *mif, asotir, mifologiya, Sharq mifologiyasi, qadim Sharq adabiyoti, antik adabiyot, madaniy aloqalar, syujet, adabiy ta'sir, mushtaraklik.*

Antik dunyo adabiyoti va uning mifologiyasi. Antik adabiyot o'z ichiga xalq adabiyotini oladi. 1- Yunon, ya'ni grek adabiyoti. 2- Rim, ya'ni Rumo adabiyoti.

Antik adabiyoti bizgacha bo'gan erada, ya'ni qulchilik jamiyatida yuzaga kelgan. Miloddan avvalgi V-IV asrlarda grek tragediyasida, ya'ni sahnasida shunday aktual masalalar qo'yilganki, ular o'z qiymatlarini to keyingi zamonlargacha yo'qotgan emas. Bu masalalar davlat bilan shaxs o'rtasidagi masalalardir. Antik dunyo adabiyotida hozirgi adabiy janrlarning boshlang'ich nuqtatasi bo'lgan. Masalan: Tragediya, komediya. Epos, lirika, satira so'zlari antik terminlardir. Satira so'zi rimcha, boshqalari esa grekchadir. Shu tariqa antik madaniyati va adabiyoti o'zidan so'nggi jamiyat madaniyatiga va uyg'onish davr adabiyotiga kattata'sir ko'rsatgan.

Grek mifologiyasi. Antik adabiyotni o'rganishimizdagi birinchi vosita mifologiyadir. Antik adabiyoti mifologiya asosida yuzaga kelgandir.

Mifologiya mif, afsona va ertaklardan iborat. Buyuk adib Gorkiy mifologiya xalq badiiy faoliyatining alohida badiiy ustqurmasi, deb ko'rsatilgan.

Mifologiya hali kishilar ongi juda past bo'lgan paytida yuzaga kelgan. Shuning uchun insonlar o'zlariga turli tuman xudolaryaratganlar. Masalan, mifoloriyaning ko'rsatishicha, engavvalgi xudo Uran, so'ng Geyavujudga kelgan, bularning birlashuvidan Kron, Okean. Reylartug'ilgan. Kron bilan Peya birlashuvidan yana boshqa xudo avlodlari yuzaga kelgan, shulardan biri Zevs edi. Zevs katta bo'lgach, otasini taxtdan tushirib, o'zi taxtga chiqdi. Uning hukmronligiga qarshi chiqqan xudolarni Zevs qattiq qo'llik bilan boshqaradi. Zevs Olimptog'larida yashovchi xudolarning Xudosi bo'lib qoladi. Miloddan ilgarigi XII asrda vujudga kedgan «Illiada» va «Odisseya» afsonalarida Zevs bulutlarni haydovchi xudo sifatiga tasvirlanadi.

Antik dunyo, xususan Misr, Bobil, Yunoniston kabi mintaqalar bilan Markaziy Osiyoning madaniy aloqalari qadim-qadim zamonlargacha borib bog'lanadi. Miflarni qadimgi yunon adiblaridan Gesiod va Gomerlarning, yunon dramaturglari Esxil, Sofokl, Evripid hamda ancha keyinroq yashagan yozuvchilarning asarlarida ko'ramiz. Shuning uchun ham yunon miflarini har xil manbalardan to'plab bir tizimga yig'ishga to'g'ri kelgan.

Hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o'z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo'lmagan bo'lar edi.

Eng qadimiy va antik davlarda uzoq masofalarni ot-ulovda bosib o'tish ancha mushkul bo'lgan vaqtlarda ajdodlarimiz Misr, Bobil, Markaziy Yunoniston kabi mintaqalar bilan aloqa qilganlar. Ipak yo'lining ko'p qismi mamlakatimizdan o'tishi hunarmandchilik, savdo-sotiqning erta va keng rivojlanishiga olib keldi. Ajdodlarimiz shunchalik ishchan va uddaburro bo'lganlarki, Vizantiya imperatorlari uzoq vaqtlarga qadar o'zlarining diplomatik va moliya ishlariga samarqandliklarni, umuman, vatanimiz vakillarini jalb etganlar.

Antik, ayniqsa, yunon madaniyati, adabiyoti hech qachon Sharq adabiyoti va madaniyatidan ayrim, ajralgan holda bo'lmagan. Har ikki mintaqaning aloqasi ikki davrni boshdan kechirdi: biri miloddan avvalgi birinchi ming yillik adabiyotning shakllanish davri bo'lsa, ikkinchisi va yakunlovchisi ellinizm davrini o'z ichiga oladi. Bu davrdagi Sharq va G'arb adabiyoti bir-biridan farq qilsa-da, bir-biriga qarama-qarshi emas.

O'zaro munosabat, bir madaniyat va adabiyot ikkinchisini boyitishi uzoq o'tmishdan boshlangan bo'lsa kerak degan fikr, qarash Gopatshoh bilan Minotavr, grek mifologiyasi Markaziy Osiyo xalqlarining islomga qadar

bo'lgan mif, afsona va folklor asarlari o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlaganimizdan keyin kelib chiqdi.

Umuman, har ikki mintaqa adabiyotlari uchun mushtarak hodisa bu mifologiya, asotirlar zaminida badiiy adabiyot namunalarining yaratilganligidir. Bir so'z bilan aytganda, miflar qadim adabiyotning qon tomiri bo'lgan.

Mifologiya muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmuidir. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, o'zbek mifologiyasi. Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining ilk bosqichi sifatida muhim amaliy ahamiyat kasb etgan mifologiya ibtidoiy madaniyatning negizi, olamni idrok etishning asosiy vositasi, badiiy tafakkurning ibtidosi hisoblangan. Uning asosini qadimiy odamning koinot, tabiat, inson, samo jismlari, narsa va hodisalar, uning paydo bo'lishi haqidagi asotirlar tashkil etadi.

Mifologiyaning arxaik qatlami quyosh, oy va yulduzlar to'g'risidagi shamsiy, qamariy va astral miflar, olamning paydo bo'lishi haqidagi samoviy miflar, odamzotning yaratilishi haqidagi antropogenik miflar, qadimiy e'tiqodiy qarashlarni o'zida ifoda etgan totemistik, animistik va kult miflaridan tashkil topgan. Dehqonchilik madaniyati yuksak darajada rivojlangan hududlarda esa tabiiy-iqlimiy o'zgarishlarning metaforik-ramziy talqinlari asosiga qurilgan taqvimiy (kalendar) miflar va o'lib-tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar keng tarqalgan. Xususan, Osiris (Qadim Misr), Adonis (Finikiya), Dionis (Yunoniston), Siyovush (O'rta Osiyo) haqidagi mifologik syujetlar shu tariqa yuzaga kelgan. O'zining ilk taraqqiyot bosqichida eng sodda ibtidoiy ishonchlardangina iborat bo'lgan mifologiya insoniyat tafakkurining tadrijiy rivoji davomida olam, tabiat va jamiyat haqidagi asotiriy syujetlar, mifik obraz hamda tasavvurlar silsilasini o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylangan.

Miflardan hikoya qilinishicha, yerda dastavval dahshatli mahluqlar: DEVLar, oyoqlari o'rnida bahaybat ilonlar bilanglab turgan GIGANTlar, kattaligi tog'day YUZ-QO'LLIKlar, peshonasi o'rtasida bittagina chaqchaygan ko'zi bor vahshiy KIKLOP (SIKLOP)lar, Yer va osmonning dahshatli bolalari -- qudratli TITANlar yashagan. Yunonlar GIGANTlar va TITANlar obrazida tabiatning yovuz kuchlarini gavdalantirganlar. Miflarning hikoya qilinishicha, tabiatning bu yovuz kuchlari dunyoda tartib o'rnatgan va unga hukumronlik qilgan Chaqmoq, Bulut osmon ilohi ZEVS tomonidan jilovlangan va bo'ysundirilgan. TITANlar o'rniga ZEVS saltanati bunyodga kelgan.

Folklorning yozma adabiyotga ta'siri masalalari Alisher Navoiy zamonida qanday dolzarb ahamiyatga ega bo'lsa, bugun ham xuddi shunday. Alisher

Navoiyning barcha asarlarida biz folklarga ijodiy yondoshuvni, milliylikka suyanib, umumbashariy qadriyatlar ulug'langanini kuzatamiz. Bu an'ana Navoiy, Bobur zamonidan so'ng Abdulla Qodiriydan to bugungi kunda ijod etayotgan adiblarimizgacha, Cho'lpondan to zamonamiz shoirlarining izlanishlarida ham u yoki bu darajada davom etayapti. Faqat bizda emas, dunyo adabiyotida ham shu hol kuzatilmoqda. Aytish mumkinki, so'nggi yuz yillikda adabiyotda folklarga qayta yuzlanish davri boshlandi. Joys, Borxes, Markes, Kafka, Kavabata kabi adiblar ijodi buning misolidir. XXI asrda dunyo miflariga qaytadan murojaat, yangicha talqin qilish davri, neomifologizm davri boshlandi.

Folklor har bir ijodkorga o'z yo'li, uslubi, o'zligini, o'q tomir ildizini topishga yordam beradi.

Lotin Amerikalik ulug' adiblardan biri Xorxe Luis Borxes: «Adabiyot mif bilan boshlanib, mif bilan tugaydi», – deydi. Buni boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday san'at, jumladan, badiiy so'z san'ati ham folklor bilan boshlanib, folklor bilan birga taraqqiy etadi.

Birgina yunon afsonalarini olaylik. Buyuk Homerning “Illiada” va “Odissey” dostonlariga asos bo'lgan mazkur afsonalar ayni paytda Evripid, Sofokl hamda Esxil singari olamshumul fojiana-vislarning benazir asarlariga mavzu bergan. Umuman olganda, dunyo adabiyoti, san'ati va falsafasi rivoji dunyo mifologiyasi bilan chambarchas bog'liq

Bizga ma'lumki, san'at va mifning tili bitta – ramzlarga asoslanadi. Har ikkalasini ham ramzlarni sharhlab o'rganish mumkin.

Momoqaldiroqni nayza deya tushunish bu miflarni yaratgan ibtidoiy ajdodlarimiz uchun tashbeh emas, shunday tushunilgan, qabul qilingan. Xalq og'zaki ijodini tadqiq etuvchi bunday metod miflarni, ramzlarni sharhlashni inson ruhiyatini tadqiq qilish bilan birga qo'sha oldi. Garchi ushbu metod yagona bo'lsa-da, miflardagi ramzlarni sharhlashda har xil qarashlar dunyoga keldi.

Mif – insonning faqat o'tmishi, ajdodlarning xayolparastligi emas, balki ularning kayfiyati va o'zi anglab yetmagan, biroq miyada singib yotgan kechinma va taassurotlaridir. Mifga ajdodlarning jo'n xomxayollari yoki cho'pchaklari sifatida emas, inson ruhiyatining in'ikosi sifatida qarash zarur, shu sababli ham mif o'tmish sadosi emas, u kecha, bugun va ertaning mujassami, inson ruhiyatining manzarasidir. Mif odam bilan birga yashaydi, odam yashar ekan u o'zicha mif yaratadi. Biroq hamma ham o'z miyasi yaratgan mifni “o'qiyvermaydi”.

Amerikalik olim Erix Fromm hamma bilishi shart bo'lgan umumiy til – ramzlar tili mif, umuman badiiyatni sharhlashda eng zarur va yagona vositalardan biridir, deya ta'kidlaydi.

Bugun ibtidoiy davr deb baho beriladigan paytlarda ajdodlarimiz bizga qaraganda yuz karra shoirroq bo'lganlar. Minglab yillar avval ajdodlarimizning tafakkur tarzi "poetik mushohada" tarzida edi: ular hayotlari va tabiatdagi har bir narsani tasavvur qilgan tushunchalarining ramzi sifatida qabul qilardilar. U paytlar osmon, suv, ko'kat, quyosh, oy, yorug'lik va zulmatning joni bor deb tushunilgan; kunduz o'rnini tun egallarkan, ezgulik va yovuzlik kurashi ketayapti deb o'ylashgan.

Adabiyotda mifologik tasvirga ehtiyoj hech qaysi zamonda pasaymagan. Alisher Navoiy asarlarining asosi mifga qurilgan. Buyuk shoir mifga o'z g'oyalari, inson haqidagi tadqiqot va ta'limotini singirdi.

Mif va adabiyot mavzusi yozma ijod paydo bo'lgandan buyon faylasuflar, olimlar, shoirlarning eng qizg'in munozara maydoni bo'lib kelgan. Mifning adabiyotga ta'sirini aniqlovchi, tahlil qiluvchi turli-tuman oqimlar paydo bo'ldi; bu oqimlarning bir qismi adabiyotni real hayotga, real tasavvurlarga yaqinlashtirish, undan mifologik tasavvurlarni surib chiqarish tarafdori bo'lsa, bir qismi adabiyotni mifga yaqinlashtirish masalasini ko'tardilar. Insoniyat aqli mifdan, mifologik olamdan, ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib va taraqqiyot zinalaridan ko'tarilgan sayin bu mavzu yana ham qizg'inroq tus oldi. Yuksak texnika taraqqiyoti asri bo'lgan XX asrda ham fizika va ximiyaning yutuqlariga qaramay mifologiya yana adabiyotning asosiy mavzusiga aylandi. Dunyo adabiyotining durdonalari hisoblangan «Ulis», «Yolg'izlikning yuz yili», «Qo'rg'on», «Yusuf va uning birodarlari», «Pedro Paramo», «G'azab va Shovqin» kabi asarlar buni tasdiqlaydi. XVIII-XIX asrdagi tanqidiy, romantik realizmlarni o'zlashtirgan, insonni o'rganishda o'zigacha bo'lgan boy tajribadan unumli foydalangan XX asr adabiyoti inson dunyosi va ruhiyatini tahlil qilar ekan, ya'ni u o'zigacha bo'lgan adabiyotlardan ham ko'ra inson ruhiyati va qalbiga ko'proq yaqinlashar, uni tadqiq etar ekan, ana shu ruhiyat va qalbda ilk insonlar dunyosi kabi mifologik timsollarga duch keldi. Shundagina mifni faqat ifoda usuli, badiiylashtirish vositasi sifatida emas, balki insonni tahlil va tadqiq qiluvchi poetik til sifatida qabul qilish boshlandi. Shu sababli bugun mif va adabiyot aloqasi haqida gap ketganda, bu aloqani faqat syujetlashtirish va tasvir usuli, badiiylik vositasi sifatida emas, inson ruhiyatini aks ettiruvchi poetik til sifatidagi o'rniga katta ahamiyat berish kerak. Zero, Tomas Mann, Frans Kafka, Joys kabi adiblar asarlarida biz ilgari ko'nikkan parallel mifik syujetlar emas, balki ichki va tashqi olamdagi mifologik jarayon modelining yaratilishiga urg'u berilgan.

Umuman, XX asr adabiyoti mifologiyaga yangi munosabatni shakllantirdi. Bu mifologiyani tushunish uchun mifologiyani talqin qilishda yangi nazariyani

yaratgan psixoanalitiklarning inson va ijod jarayonlari haqidagi qarashlarining o'ziyoq mifologiyani adabiyotga, san'atga yaqinlashtiradi.

Shu sababli ham bizning asrimizda adabiyotda miflar ma'lum ma'noda yangilandi va inson ruhiyatiga kirib borilgan, uning ong qatlamlari kashf etilgan, adabiyot haqiqiy insonshunoslikka aylangan sayin sivilizatsiya yangi bir cho'pchak deb qaragan mifga ehtiyoj shunchalik kuchaydi.

Mif, aytish mumkinki, badiiy ijodda uslub imkoniyatlarini kengaytirdi, poetik mushohadaga erkinlik berdi, uni falsafiy ko'lam bilan to'ldirdi. Ma'lumki, mif olamning yaralishi, xaosning kosmosga aylanishi, tartibsizliklarga tartib berilishi, umuman, dunyo va insonning yaratilishi haqidagi tasavvurlar yig'indisidir. Xo'sh, bu tasavvurlarning poetik tasavvurga, asar poetikasiga qanday aloqasi bor?! Bu shu bilan ifodalanadiki, asarda ham mifdagi dunyo kabi yozuvchi dunyosi yaraladi; ya'ni keng olam haqida asarda faqat shu yozuvchiga xos ma'lum g'oya singdirilgan va shu g'oya ifoda etilgan dunyo yaraladi. Ana shu kichik olam yozuvchining katta olam haqidagi mifologik mushohadasining mahsuli o'laroq paydo bo'ladi. Mifni shunchaki qaytarish, bayon qilish – bu hali ijod emas. G'arbda ham ilg'or adabiyot tug'ilishidan ilgari miflarni shunchaki qaytarib yoki ozgina o'zgartirishlar kiritib, mifologik ruhdagi asarlar e'lon qilgan yozuvchilar ko'p bo'lgan, biroq bu yuksak badiiy adabiyotning ilk bosqichi edi. Uning yuqori bosqichi yozuvchi asarida, u yaratgan dunyo modelida aks etadi. Qadimgi odamning dunyoning yaralishi, ilohiyot, atrofni o'rab turgan kuchlarning ta'sirida tug'ilgan tasavvuri bilan yozuvchi yaratgan dunyo tasavvuri o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik mifologiyani poetikaga aylantirishdagi eng muhim jihatdir. Miflar insonning koinotdagi o'rniga ma'lum ma'noda javob bergan, javob topgan. Adabiyot esa haligacha bu masalaga tugal oydinlik kiritganicha yo'q. Bugungi adabiyot ham insonning o'rnini va vazifasini(missiyasini) aniqlashga urinar ekan, tabiiy ravishda miflar bilan uyg'unlashadi va mifologik tafakkur qonuniyatlariga amal qiladi.

QADIMGI SHARQ ADABIYOTI

Reja:

- 1. Hududiy va milliy tarkib: Shumer-Bobil adabiyoti, Misr, Eron, Hind, Xitoy va Markaziy Osiyo adabiyoti.*
- 2. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida.*
- 3. "Avesto" Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorli.*

Adabiyotning o'zini anglash ehtiyoji uning o'ziga egiz tug'ilgan, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, badiiy ijod tabiati, adabiyotning mohiyati va vazifalari haqidagi o'y-mulohazalar bizgacha yetib kelgan eng ko'hna yozma manbalarda ham uchraydi. Shuni ham qayd etish lozimki, ko'hna yozma manbalar orasida ilmiy muomalada kengroq ommalashgani va chuqurroq o'rganilgani qadimgi yunon-rim yozma yodgorliklaridir. Shu bois ham qadimiyat haqida so'z ketganda ko'proq shu manbalarga tayaniladi. Holbuki, qadim Shumer yoki Misr, Xitoy yoki Hind madaniyati ahamiyati jihatidan aslo kam emas, biroq yuqoridagi sabablarga ko'ra ularni istifoda etish hozircha qiyinroq. Masalaning yana bir jihatini ham e'tiborda tutmoq zarur: aslida, agar folklorning yozma adabiyotdan qadimiyligini e'tiborga olsak, adabiyot haqidagi qarashlarning ildizlari xalq og'zaki ijodidan suv ichishi tayin. Biroq bu haqiqatni e'tirof etgan holda, xalq og'zaki ijodi namunalarining yozuvda muhrlanishi keyingi davrlarda amalga oshgani, bunga qadar ularning qadimiy matni saqlanmaganini hisobga olib, yana yozma manbalarga qaytishga majbur bo'lamiz.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodi bilan miloddan avvalgi 2800 yillarda yashagan Gilgamishxon va uning sharafiga sopol lavhalarda bitilgan dostonlar davrining ma'lum jihatdan o'xshashlik tomonlari bor. O'tgan asrning 40 – yillarida ingliz arxeologi Leyard Ossuriya poytaxti Nineviya xarobalarini o'rgana boshladi. Tekshirish natijasida Ossuriya podshosi Ashshurbanipal saroyi qoldiqlaridan mixxat belgilari bilan qoplangan 20 ming sopol kitobga ega bo'lgan kutubxona qo'lga kiritildi.

Ashshurbanipal Ossuriyaning eng ilmsevar, ma'rifatparvar shohlaridan biridir. Uning shohlik davri (miloddan avvalgi 669-630 yillar) jahonda kimmer hamda skiflar katta mavqyeni egallagan vaqtga to'g'ri keladi. Ashshurbanipal davlatni mustahkamlash uchun o'z mamlakati atrofidagi Misr, Bobil, Urartu, Lidiya kabi mamlakatlar bilan ittifoq tuzgan. Lekin Shimol tomondan kimmer va skif qavmlarining Kichik Osiyo tomon yurish qilishlari Ashshurbanipalni tashvishga sola boshlaydi. Ossuriya shohi Lidiya davlatidan ham xavfsirar edi. Kichik Osiyoning keng dalalarida hukmronligini o'tkazib, Egey va O'rta dengizga chiqishga urinayotgan kimmeriyalar Lidiya davlatining kuchi zaiflashishiga sabab bo'ldi. Bu esa bir muncha vaqt Ashshurbanipal o'z mavqyeini saqlab turishiga yordam berdi.

Ashshurbanipal podsholigining so'nggi yillarida Kichik Osiyoga kimmeriyalar orqasidan skiflar bostirib kelishdi. Ular dastlab Suriya va Falastin mamlakatlarini ishg'ol etishib, Ossuriya va Misr chegaralariga yetib keladilar. Sais davlatining hukmdori Psammetik skiflarga sovg'a berib, jon saqlaydi. Barcha

jabrni Ossuriya davlati tortadi. 612- yilda Midiya podshosi Kayxisrav va Bobil hukmdori Nabupalasar kelishgan holda Ossuriyaga hujum qilishadi. Ular mamlakat poytaxti Nineviyani ishg'ol qilishib, shoh saroyiga o't qo'yadilar. Ashshurbanipal asos solgan kutubxona vayron etilib, sopol kitoblar parchalanadi, lekin yong'indan zarar ko'rmaydi. Ingliz arxeologi Leyard ikki yarim ming yil yer ostida yotib chirimagan sopol kitoblarni qo'lga kiritmaganida, ehtimol, biz jahon madaniyatining nodir xazinasidan balki hali bahramand bo'lmas edik.

Midiyalik va bobillik johillar tomonidan yondirilgan kutubxona xazinasida qadimgi ajdodlarimiz yaratgan adabiy yodgorliklar borligini tan olish g'oyat faxrlanarlidir. Bu sopol kitoblar eramizdan oldingi 2000 yillarda so'zlashuvdan qolgan shumer (sumer) tilida bitilgan deb hisoblanadi. Amerikalik shumersunos S.N.Kramerning isbotlashicha, shumeriyalar yaratgan adabiy syujetlar va ilmiy kashfiyotlarni boshqa xalqlar, jumladan, bobilliklar o'zlashtirganlar. Shumeriyalar Messopatamiyada – Dajla va Frot (turkiylar buni O'kuz deb atashgan) daryosi oralig'ida yashashgan.

Ashshurbanipal kutubxonasidan topilgan sopol kitoblar orasidan ikki daryo oralig'i — Messopatamiyaning ulug' tarixiy – afsonaviy qahramoni Gilgamish haqidagi she'rlar turkumi ham uchraydi. Bu she'rlarni keyinchalik akkadlar o'zlashtirib olishgan va o'z tillarida 12 qismdan iborat tugal doston yaratishgan. Shumer tilidagi sopol kitoblar topilgunga qadar bu doston akkadlarning adabiy merosi sifatida mashhur bo'lgan. Zotan, doston ijodkorlari shumerlardan yetib kelgan adabiy parchalarni ma'lum bir tizimga solishgan, qahramonlarning asl nomlarini o'z tillari va urf-odatlariga moslab o'zlashtirishgan, qo'shimcha voqyealar kiritishgan. Akkadlar dostoni «Gilgamish» deb atalgan. Qadimshunoslar bu asarning mukammaligini asos qilishib, ko'proq akkad shakllariga murojaat etishgan. Chunonchi, shumer va akkadshunos I.M.Dyakonov ham dostonni rus tiliga akkadchadan tarjima qilgan.

Shumer tilidagi sopol hujjatlar doston qahramoni tarixiy shaxs bo'lganligini ko'rsatadi. I.M.Dyakonov ma'lumot berishicha, miloddan avvalgi XXVII asr yozuvlarida Bilgames yoki Belgemes shaklidagi shumer xudolarining nomlari uchraydi. 2800-2700 yillarda esa Unug shahrining qoxini va qo'shin boshlig'i Gilgamish (yoki Bilgames) bo'lgan. Bu shaharning nomi qadimgi yahudiy tilida Erex, akkadlarda Uruk, yunonlarda Orxoy, hozirda esa Varka nomi bilan aytilgan. Arxeologlar Unug shahri tarixda bo'lgan va qalin devorlar bilan ko'tarilganligini isbotlashgan.

«GILGAMISH» DOSTONI

«Gilgamish» dostonining shumer tilida saqlangan syujeti bilan akkad nusxasi syujeti o'rtasida farq bor. Masalan, shumer tilidagi nusxada birinchi qo'shiq «Gilgamish va Akka» deb nomlangan. Unda Gilgamish hukmronlik qilgan shahar Kish shahrining hukmdori Akkaga buysungan. Gilgamish o'z do'sti Enkidu, xalq yig'ini va oqsoqollari maslahati bilan Akkad zulmidan qutilish uchun kurashga o'tlanadi. Jang Gilgamishning g'alabasi bilan tugaydi. Akkadlar yaratgan dostonda shumeriylar qo'shig'ida aks etgan tasvir berilmagan. Akkad dostonining syujetida Gilgamish bir muncha zulmkor shoh sifatida ko'rsatilgan. Gilgamish erkaklarni shahar devorlarini qurishga majbur etib, xotin-qizlarni haramiga olib boradigan hukmdorga aylangan. Gilgamish do'sti Enkidu bilan bir qancha qahramonliklar ko'rsatadi. Masalan, Kedr o'rmonida yashovchi pahlavon Xumbaboni kurashda halok etadi. Gilgamishning pahlavonligiga qoyil qolgan ma'buda Ishtar (shumerlarda Innin) unga sevgi izhor etadi. Gilgamishdan rad javobini oladi. Ishtar bundan g'azablanadi va otasidan yordam so'raydi. Otasi xudo Anu unga qarshi samoviy xo'kizni yuboradi. U shunchalik bahaybatli ediki, Frot daryosining suvini bir simirishda ichib qo'yadi (M.Koshg'ariy turkiylarning o'g'uz qabilasi Frot daryosini Oko'z – Ho'kiz nomi bilan ataganligini yozadi. Qarang: I, 91-bet). Dami bilan yerni yoradi. Gilgamish Enkidu bilan birgalikda samoviy xo'kizni o'ldiradi.

Gilgamish xudolarga bas kelaolmasligini anglab yetadi. Shu sababli u o'lmaslik – boqiy yashash sirini axtarib kemada Okeandan suzib o'tadi va O'tnapishtim yashayotgan orolga yetib keladi. Uning maslahati bilan dengiz tubiga tushib, qari odamlarni yashartiradigan sehrli o'tni olib chiqadi. Lekin qarshisida ilon paydo bo'lib, o'tni olib qochadi.

«Gilgamish»ning mantiqiy hukmi kuchli pahlavonlar ham abadiy yashay olmaydi, xudoga itoat et, hamma ish uning roziligi bilan bo'ladi, degan g'oya asosida qurilgan.

Dostonning turkiylar bilan yaqinlik tomoni. Qadimshunoslar «Gilgamish» yaratilgan shumer tilini biror til oilasiga kiritish qiyin, deb hisoblaydilar. Shu sababli ham bu tilni ba'zan turkiylar, ba'zan hindlarning qadimgi mund tiliga taqqoslashlar bo'lgan. Xo'sh, «Gilgamish»ning qadimgi turkiylarga aloqador tomoni bormi? Kuzatishlar dostonning turkiylar bilan aloqador tomonlari ham borligini ko'rsatadi.

1. «Gilgamish» yaratilgan tilni qadimshunoslar o'lik til deb hisoblashadi. Shumer tili miloddan avvalgi 4 minginchi yillikning oxirlaridan birinchi ming yilliklargacha amalda bo'lgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, shumerlar miloddan avvalgi ikki minginchi yillikning birinchi yarmida akkadlar, keyinchalik Bobil

davlati tarkibiga qo'shilgan. Natijada, ularning tili bu xalqlar tili bilan chatishib ketgan.

Shumer xalqining ijtimoiy-siyosiy tarixi nuqtai nazaridan bu fikrlar to'g'ri. Lekin uch ming yil davomida fan, madaniyat, adabiyot, din va turli xil davlat hujjatlari yaratilgan tilning tarix sahnasiga kirib kelishi va yo'qolib ketishini ertaklardagi voqyealardek tushunish ajabla-narlidir. Uch ming yil davomida yaratilgan madaniyatni hozirgi davrda yashayotgan aniq bir xalqning ota-bobolari nomi bilan bog'lash jahonda ulug' sanalgan biror xalqning madaniyatini kamsitmaydi. Shumer tilining grammatik va leksik tarkibi turkiy tilga mos tushishini aytishga uringan olimlarni, ikkinchi guruhlarini faraziya, deb tanqid qilishdi. Masalan, F. Xommel birinchilardan bo'lib, shumer tilini turkiy tilga nisbat bergan. Bizning zamonamizga kelib qozoq shoiri O'. Sulaymonov bu tilni ural-oltoy tillari oilasiga kiritishga harakat qilgan. Polyak olimi Ya. Braun tibet, M.Serotelli gruzin tillari oilasiga mansub deb hisoblaydi. Shumersunos I. M. Dyakonov esa bu fikrlarni faraz deb tushunadi va ularning taqqoslarini inkor etadi. O'rni kelganda aytish kerakki, bu olim Olmaotadan 50 kilometr uzoqlikda Issiq daryosi bo'yidagi qo'rg'ondan topilgan yozuvni ko'pgina turkiyshunoslar sak turklariga nisbat berganida va o'qib asoslashganida ham tan olishni istamagan edi.

Shumer tilini hozirgi qaysi tillar oilasiga kiritish mumkin deb aytishdan ko'ra, masalaga hozirgi qaysi tillarni shumer tili oilasiga kiritish mumkinligi nuqtai-nazaridan yondashish to'g'ridir. Chunki, shumer tili 4 ming yil oldin muomalada bo'lgan. Bu tilda gaplashuvchi jamoa ming yillar davomida jahonning turli qit'alariga ko'chgan, turli qabilalar bilan qo'shilib ketgani, tabiiy. Zotan, qadimshunoslar ham shundan guvohlik berishadi. Shumer tilini hozirgi bir xalq tili bilan grammatik va leksik jihatdan qiyosan o'rganish masalani yorqin oydinlashtirmaydi. Chunki, ba'zi tillarning rivojlanib ketishi, taraqqiyoti o'zining qadimiyligini saqlab qolgan emas. Agar hozirgi turkiy tillarning kelib chiqish oilasi shumer tilidan deb olinadigan bo'lsa, u holda barcha turkiy tillar tadqiqot doirasiga tortilmog'i kerak.

Masalan, shumer tilida ama – ona. Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, qaysidir o'lkalardan turkiylar mamlakatiga ko'chib kelgan tubutliklar onani uma deb atashadi. Turkiy qavmlarning ayollardan tashkil topgan jangovor guruhi Ama – zonkadir. Ada – otadir. Bu so'z turkiylar uchun tushunarli. Kisikil- qiz, ayol. Qadimgi turkiylarda bu ma'no kis, kishi so'zlari orqali ifodalangan. Shumerlarga xos «s» va «sh»ning almashinuvi e'tiborga olinsa, uning turkiycha bilan yaqinligi bor. Bizning tilimizdagi egar so'zi shumerlarning eger – bel orqani ifodalaydigan so'ziga yaqin turadi. Kusa – kursidir. Turkiylarning «r» harfini aytolmaydigan

(masalan, kursi – kussi, mardon – maddon, to’rt – to’t kabi) lahjalari mavjud. Shumerlarda ug’ – xalq, ken – kengash ma’nosini beradi. Ug’ken – xalq yig’ilib kengashadigan joy. Demak, ken – kengash, ayni paytda turli joylardan keladigan xalqlarning to’planib, maslahat o’tkazadigan markazi ma’nosini ham anglatadi. Bu, albatta, turkiylarda ken (kent) shahar (Toshkent kabi) mazmuniga ham mosdir.

Shumer va turkiy tillar o’rtasidagi yaqinlikni qiyosan o’rganish ishiga O’.Sulaymanov birinchilardan bo’lib kirishgan, shumer tilidagi oltmishdan ortiq so’zning hozirgi turkiy tillarda qo’llanilishi hamda bu tillardagi so’zlar bilan o’zakdosh ekanligini isbotlagan edi. Olim shumer atamasining ma’nosi haqida ham fikr yuritar ekan, bu so’zni «sub – yer», «sibir», «yer — sub» so’zlari bilan o’zakdosh deb tushunadi hamda yer–suv mazmunini beradi, degan farazga keladi. Chindan ham turkiylarga xos tovush o’zgarish hodisalari («sh» - «s», «m» - «b») shumerni «sub - yer» deb o’qishga imkon beradi.

Badiiy asarni ma’lum bir xalq adabiyotiga nisbat berish uchun faqat tilni asos qilib olish yetarli emas. Bunday muammoli masalalar tug’ilganida badiiy asarda aks etgan diniy e’tiqodlar, qabila yoki xalqlarning urf-odatlarini, obrazlarning xarakteri va qahramonligi so’ngi asrlardagi qaysi xalqning turmushida saqlanganligi nuqtai nazaridan ham yondashish kerak. «Gilgamish» dostonini turkiy xalqlar adabiy merosiga nisbat berish uchun unda ko’pgina qadimiylik belgilari saqlanib qolgandir.

Turkiy qabilalarning eng qadimgi qavmi gumer hisoblanadi. Bu qavm o’zlarini Nuh to’fonidan so’ng dunyoda paydo bo’lgan birinchi xalqlardan deb tushunishgan. Qadimshunoslar turkiylarning kimmer qabilasini gumer qavmining nomi sifatida e’tirof etishadi. Antik yunon va ossuriy tarixchilarining kitoblarida kimmerlar haqida boy ma’lumotlar berilgan. Tarixiy asarlarda bu turkiy qabilaning nomi gimmer, kimmer shaklida, shumer esa ba’zan sumer shaklida ham yozilgan. Shumer va kimmer nomlarida mantiqan bog’lanish hamda ohangdorlik bor. Qolaversa, gumerlar ham shumerlardek dunyodagi eng qadimgi qabilalardan biridir.

2. Antik davr yunon va ossuriy tilida yaratilgan tarixiy kitoblarda kimmeriylarning vatani Shimolda – Qrim atroflarida deb ko’rsatilgan. Shumerlar esa Mesopotamiyada yashaganlar. Uzoq Mesopotamiya bilan kimmerlar o’rtasida yaqinlik bo’lganmi? Shumer va kimmer xalqini bir-biriga bog’laydigan asoslar nimada?

«Injil»da ko’rsatilgan gumerning o’g’illaridan biri Ashkanoz. Bu qavm tarixda skiflar nomi bilan yuritiladi. Gumerning yana bir o’g’li Tugarma deb atalgan. Undan Mesopotamiyada yashagan xalqlar tarqalishgan. Demak, kimmer

va skiflar Kichik Osiyo mamlakatlariga tez-tez hujum qilishi hamda o'z hukmronligini o'tkazishga urinishining mantiqiy zamini mavjud. Axir, Ossuriya shohi Ashshurbanipal o'z kutubxonasida shumeriylarning sopol kitoblarini bekorga saqlamagan. Skif–kimmerlar hukmdori Prototeyga ossuriylar shohi tinchlik ittifoqini mustahkamlash uchun o'z qizini xotinlikka bergan edi. Shu kundan boshlab Prototey ossuriylarning shohi sifatida ham tan olingan. Yoki I.M.Dyakonov Midiya tarixiga bagishlangan kitobida skiflar sarkardasi Madi xam Ashshurbanipalning kuyovi bo'lganligini qayd etadi. Midiya shohi Kiaksar Madini o'ldirib, Ossuriya kutubxonasini yoqib yuborishga tashkilotchilik qilishida katta mantiq bor. Kiaksar Ossuriya kutubxonasida kimmeriy va skiflar madaniyati, tarixi va adabiyoti bitilgan xazina borligini sezgan bo'lishi kerak.

Shumer va qadimgi mesopotamiyaliklar turkiylar bilan yaqinligini asoslovchi yana bir necha dalillarni keltirish mumkin. Chuvashlar turkiylarning qadimgi qavmlaridan biridir. Chuvashiya jumhuriyatida Shumeriya deb ataluvchi shahar mavjud. X asrda yashagan arab tarixchisi ibn Xovqal ma'lumot berishicha, Samarqand atrofida mesopotamiyalik – iroqliklarning qishloqlari bo'lgan. Ular o'zlarini doimiy yashaydigan xalq sifatida ko'rsatishgan. Aytish kerakki, Shumer viloyati hozir janubiy Mesopotamiya – Iroqda. Arab tarixchilari iroqliklarning Jizzax, Toshkent atroflarida ham qishloqlari bo'lishganini yozishadi. Iroqliklarning Urgutdagi qishlog'i Vazkerd, Jizzaxdagisi Vinkerd, Toshkent atrofdagisi Binkent deb atalgan. Arxeolog V.L. Vyatkin mesopotamiyaliklarning Urgutdagi manzili bo'ylab kuzatish ishlari olib borib, ular yashagan joyni Qing'ir kishlogida deb ko'rsatadi. Qing'irni kimmer, gimmer, qimmerning o'zgargan shakli deb hisoblash mumkin. 1920 yilda akademik V.V.Bartold Urgut tog'larining Gulbog' soyidagi qoyadan Suriya tilidagi yozuvlarni ham ko'rgan. Ajabmaski, arablargacha Markaziy Osiyo shaharlarida yashay boshlagan va o'zini iroqlik deb hisoblagan xalqlar shumerlar avlodidan bo'lishsa.

Shumeriylar tarixi haqidagi izlanishlar Urgut nomining yangicha talqinini ham beradi. Bu esa qadimgi mesopotamiyaliklarning Urgutda yashaganligidan yana bir dalildir. Miloddan avvalgi uch minginchi yillarning o'rtalarida akkad va shumer davlatlari birlashtirilgan. Akkad davlati taxminan 120 yil yashagan. Miloddan avvalgi 2200-yilda Sharq tomondan kelgan tog'lik gutiylar deb nomlangan urushqoq xalqlar akkadlar hukumatini ag'darishgan. Bunday qahramonlikka shumerlarning Lagash shahri aholisi katta yordam bergan. XXII asrga kelib, Ur sulolosidan bo'lgan qavm ulardan hokimiyatni qaytarib oladi va gutiylar bilan lagashliklar mamlakatdan quvib chiqariladi. Bu o'rinda yana bir faraziyani ham eslatib o'tish kerak. Ko'pchilik shumershunoslar shumerlar

Mesopotamiyaga tog'lik o'lkalardan, ehtimol Eron va Markaziy Osiyodan kelib qolishgan, degan fikrni ham olg'a surishadi.

3. Shumer shahar-davlatiga asos solgan xonlardan biri Gilgamishdir. Uning hokimi Gilgamish Kish hokimi ustidan g'alaba qozonib, afsonaviy qahramonga aylanadi. Gilgamish akkad tilidagi eposda Gilgamish deb nomlangan. Uni Gilgamish deb nomlash to'g'ridir. Bu turkiy tilga yaqinlashtirish maqsadida emas, albatta, «Gilgamish» so'zining o'zagi turkiycha «bilmoq» ma'nosini ifodalaydi. Dostonning mazmuni ham asar qahramonining nomiga «bilish» so'zi asos bo'lganligini isbotlaydi. Dostonda Gilgamish ta'rifi shunday:

*Ey, dunyodagi har narsani bilguvchi,
Ey, dengizlarni anglovchi, tog'lardan o'ta olguvchi.
Ey, yovlarni yenguvchi do'stlari bilan,
Ey, aql-zakovat, bilimi bilan
Siru asrorlarni ko'ra bilguvchi!
Bizga to'fongacha bo'lgan kunlardan xabarni berdi,
Uzoq safarga chiqdi, lekin xorib qaytdi u.
Turmush mashaqqatin yozdi toshlarga.
Unugni devorlar bilan o'radi. Muqaddas
Ennaning nurli ombori
Devor qo'ng'iralarin ko'r, misdan yasalgan go'yo.
Ko'tarmaga qara tengi yo'q uning.....
Hamma insonlardan buyuk inson u.*

Bu ta'rif qahramon chindan bilguvchi – Gilgamish ekanligiga shubha tug'dirmaydi.

4. Doston qahramonining asl ismi Bilgadir. Mish esa o'sha davrdagi bobil, xett, ossuriy xalqi o'rtasida taniqli kishilar va afsonaviy qahramonlarga nisbatan keng qo'llanilgan bir belgi. Mish ko'proq turli janglarda g'olib kelgan, umuman, bahodir, pahlavon kishilarning nomidan keyin ishlatilgan. Mish turkiy xalqlar o'rtasida yaratilgan ayrim qahramonlik eposlarida, masalan, «Alpomish», «Kuntug'mish» dostonlarida yoki Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida o'z qadimiyligini to'la saqlagan (O'gdilmish, O'zg'urmish). Bizning milodimizda ham turk xoqonlari orasida Bilga va mish nomi bilan atalganlari bor. Masalan, VII-VIII asrlarda yashagan turk xoqonlaridan birining nomi Bilgadir. U 732 yilda vafot ettan va turkiylarning mamlakatiga 20 yil xoqonlik qilgan. Yoki Oltin O'rda xoni To'xtamish nomida shunday belgi mavjud.

5. Doston qahramonining nomi Gilgamish hamda Bilgamis shaklida qo'llanilgan. «s» va «sh» harflarining almashinuvi turkiy xalqlar tilida saqlangan.

Masalan, qirg'izlarning «Manas» eposi «Manash» deb ham yuritilgan. «s» va «sh» almashinuvi, xususan, hozirgi qozoq tilida keng ishlatiladigan hodisadir.

6. «Gilgamish» dostonida xudolar obrazi yaratilgan. Gilgamish madad so'raydigan Quyosh xudosining nomi O'tu. Gilgamish o'rmonga jo'nash oldidan osmonga qo'llarini cho'zib, unga iltijo qiladi:

O'tu, men toqqa ketyapman, sen mening yordamchim bo'!

Toqqa kedr kesmoqqa boryapman, sen mening yordamchim bo'!

Dostonning akkad nusxasida Quyosh xudosi Shamash nomi bilan berilgan. O'tuning turkiy tilga yaqin tomonlari bor. Birinchidan, O'tu ma'lum ma'noda o'tni, issiqlikni, haroratni anglatadi. Quyosh shunday xususiyatga ega. Ikkinchidan, turkiylar islom diniga qadar ko'kka, osmon jismlariga sig'inishgan. Ya'ni, Ko'k tangri turkiylarning muqaddas dinidir yoki massagetlarning yagona xudosi quyoshdir. Shu sababli Quyosh turkiylar uchun muqaddasdir. Eng qadimgi davrlardan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarigacha Quyosh turkiy xalqlarning adabiyotida (so'nggi davr adabiyotlarida ham) yaxshilik, ezgulikning muqaddas obrazi sifatida ko'rindi.

Ko'kni ulug'lash, ko'kni tangri deb tushunish barcha turkiy xalqlarga xos xususiyatdir. Masalan, qadimgi buryat va mo'g'ul mifologiyasida ham boqiy Ko'k osmon – Xuxe Munxen tengri insonni qo'riqlaydigan kuch sifatida tasvirlangan. Bu esa shumer mifologiyasidagi osmon xudosi An, Oy xudosi Nannar va boshqa sayyoralar to'g'risida berilgan tasvirlarga mushtarakdir.

«Gilgamish» dostonida va shumer mifologiyasida O'tnapishtim obrazi uchraydi. Rivoyat qilishlaricha, dunyoni to'fon bosganida faqat diyonatli O'tnapishtimdan boshqa odamlar halok bo'ladi. U xudo Enkning maslahati asosida hamma joyi bekitilgan quti yasab, oilasi va xizmatkorlari bilan omon qoladi (bu rivoyat turkiylar otasi Nuhning kemasini ham eslatadi). Dunyoda bir kishi ham sog'-salomat qolmagan to'fondan jon saqlash balo-qazolardan toblanish belgisidir. Bunday odamlarga nisbatan hozirda ham «o'tta yonmas», «olovda pishgan» iboralari qo'llaniladi. O'tna pishdim nomi o'zbek tilidagi «o'tta pishmoq»ning ma'nosiga yaqin anglashiladiki, bu qahramon harakatiga mos tushadi.

Shumerlar osmon davlatida yashaydigan xudolarni sut, non, kiyim–bosh bilan ta'minlash zarur deb tushunadi. Shu sababli donishmandlik xudosi Enki loydan odam yasaydi. Bu shumerlar edi. Gilgamish ham loydan yasalgan. Odamlar osmondagi o'z rahnamolariga sig'inishi, ularga zaruriy narsalarni tayyorlab berishi va buning uchun mehnat qilishi kerak edi. Shumer xalqining mifologiyasidagi bu ta'limot Ko'k tangri dini haqidagi tushunchadan uzoq emas.

Shumerlarning «Gilgamish» ruhidagi yana bir qahramonlik eposi Etana nomi bilan bog'lanadi. Etana ham Gilgamish singari inson umrini yashartiradigan mo'jizaviy o'tni qidiradi. U o'tni axtarib, burgutning bo'yniga minadi, osmonning o'n to'rtinchi qavatiga ko'tariladi. Etana pastga qaraydiyu, yuragi uvishib ketadi. Yer sira ko'rinmas edi. Shunda vahimaga tushib, qo'lini burgutning bo'ynidan olib yuboradi va yerga qulaganicha, halok bo'ladi. O'zbek tilida «etana polvon», «etanasi chiqib» kabi birikmalar, kinoyali gaplar yo'q emas. Bu so'zlarning ma'nosi shumeriylar qahramoni Etana polvon harakatiga yaqinligi bilan e'tiborni tortadi.

Etana haqidagi dostonning asosiy voqyeasi insonning burgutga minib uchishidir. Qushlar yordamida osmonga parvoz etish voqyealari qadimgi turkiy eposlarda, jumladan, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarda, «Semurg'» afsonasida yoki Nosiriddin Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» asarida tasvirlangan.

Shumer xalqi jahon antik adabiyotining birinchi asoschisidir. Bu xalqdan bizgacha ko'plab lirik she'rlar, masallar, xudolar sha'niga bitilgan qasidalar yetib kelgan.

Shunday qilib, shumer adabiyoti tilini, asarlarida aks etgan diniy ta'limot, urf – odatlarni keyingi asrlarda yashagan turkiy xalqlarga o'xshashlik tomonlar bor deb hisoblash mumkin.

ANTIK DAVR YUNON ADABIYOTI

Reja:

1. *Qadimgi yunon adabiyoti haqida.*
2. *Xal og'zaki ijodining yunon yozma adabiyotiga ta'siri. Homer dostonlari.*
3. *“Illiada” va “Odessiya” dostonlarining syujeti va badiiyati.*
4. *Dramaning paydo bo'lishi. Esxel, Sofokl dramaturgiyasi.*
5. *“Shoh Edip” asarining tragik xususiyatlari va asar mohiyati.*
6. *Attika davri yunon adabiyoti.*

Qadim qadim zamondan Yunonistonda yozma badiiy ijodning dastlabki namunalari yuzaga kela boshlaydi. Yunonistonda tug'ilib, keyinchalik yuksak kamolot bosqichiga ko'tarilgan bu adabiyot eramizdan avvalgi III asrda Rim madaniyatining barpo etilishida, tarkib topishida ham katta o'rnak bo'ldi. yer yuzidagi ana shu ikki qadimiy xalq yaratgan madaniyat, san'at va adabiyot antik madaniyat, antik adabiyot deb ataladi.

Lotin tilidagi «antik» (antiques) soʻzining maʼnosi «qadimgi» demakdur. Qadimgi zamon yozuvchilari asarlarning jozibasi yolgʻiz ularning nozik latofatida, yuksak badiiy mahoratida boʻlgan emas. Antik adabiyot shu adabiyotni yaratgan xalqning his-tuygʻulari, orzu-umidlarining ifodasi ham boʻlgan. Madaniyat osmoni endigina yorishib kelayotgan oʻsha uzoq oʻtmishda yunon-rim xalqlari qoʻli bilan qurilgan ulugʻvor, koʻrkam va jozibador madaniyat qasrlari asrlar toʻfoniga, zamonlar sinoviga bardosh berib, hanuz magʻrur bosh koʻtarib turibdi.

Yunon adabiyotining boshlanishi

Yunon yozma adabiyotining bizga qadar yetib kelgan eng qadimgi yagona namunalari - «Iliada» hamda «Odissey» dostonlaridir. Mazkur asarlarni oʻqir ekansiz, bularning muallifi hisoblangan Gomerdan ilgari ham yunon elida shoirlar boʻlganmi, degan savol oʻz-oʻzidan hayolingizga keladi. Bu savolning javobini avvalo shu dostonlarning oʻzlaridan axtarmoq darkor. Shubhasiz, «Iliada» va «Odissey» kabi yuksak badiiy asarlarning oʻzlari ham faqatgina uzoq muddatli adabiy harakatning davomi, uning yetuk mahsuli oʻlaroq maydonga kelishlari mumkin boʻlgan. «Odissey» poemasi botirlik haqida doston aytib, ziyofat ahllarini rom qilgan Demodok kabi ajoyib baxshilar – rapsodlarni uchratamiz. Ehtimol bularning kuylarida Gomerdan oldin oʻtgan shoirlarning sanʼati tarannum etilgandir!.. Bundan tashqari Platon, Gerodot kabi moʻʼtabar zotlar va shu zamonning baʼzi yozuvchilari, Gomerdan ilgari Orfey degan nihoyatda dilrabo shoir oʻtganligini xabar qiladilar. Biroq bu shoirning goʻzal navolari haqidagi afsonaviy rivoyatlardan boshqa tarix sahifasida bironta ham misra saqlanib qolgan emas. Shu rivoyatlarda hikoya qilinishicha, Orfeyning qoʻshiqlari hatto yirtqich hayvonlarni ham maftun etar, daryolarning oqishini toʻxtatib qoʻyar, togʻ-toshlarni tebrantirar, daraxtlarni harakatga keltirar ekan; goʻyo shoir oʻz yori koʻyida bir marta narigi dunyoga borib mungli taronalari bilan u yerdagi behis maʼbudlarning dillarini ham vayron etgan emish.

Yunon xalqi oʻrtasida keng tarqalgan rivoyatlarda Orfeydan tashqari yana Muze, Evmolp, Tamir, Olen kabi shoirlar ham tilga olinadi.

Barcha xalqlarning tarixida boʻlgani kabi, yunon adabiyoti ham muqarrar, ogʻzaki xalq ijodi zaminida maydonga kelgan. Tarix sahifalarida yunon folkloridan juda kam namunalar saqlanib qolgan boʻlsa ham, shularga asosan eski zamonlarda, ibtidoiy qabilachilik davrlarida yunon xalqining anchagina boy va rango-rang ogʻzaki adabiyoti: ertaklari, maqollari, matallari, topishmoqlari, qoʻshiqlari boʻlganligini aniqlash mumkin.

Maʼlumki, kollektiv ijod samarasi oʻlaroq maydonga kelgan ibtidoiy jamiyat ogʻzaki adabiyoti, shu jamiyat kishilarining tabiat haqidagi tushunchalarini ifoda

etgan. Koinotning chaqmoq, momaqaldiraq, zilzila, bo'ron, to'fon, yong'in, oy va quyosh tutilishi kabi qo'rqinchli hodisalar qurshovida yashagan ibtidoiy inson, shu hodisalar sababini anglamasdan, tabiatdagi har qanday «sirli» o'zgarishlarga ilohiy ma'no berib, butun borliqni ins-jinslar, dev-parilar va boshqa turli-tuman g'ayri-tabiiy maxluqlar makoni tarzida tasavvur etgan, ular haqida benihoyat ko'p diniy afsonalar yaratgan. Ana shunday hayoliy tushunchalardan hosil bo'lgan afsonalarni – miflar, ularning yig'indisi mifologiya deb ataladi. Ajoyib poetik mahorat bilan yaratilgan mifologik rivoyatlar yunon og'zaki adabiyotida benihoyat ko'p. Bu miflar, garchi, ibtidoiy insonning tabiat sirlari qarshisida zaifliklari tufayli tug'ilgan bo'lsa ham, tabiatning odam uchun xatarli bo'lgan hodisalariga ta'sir etish istaklaridan iborat bo'lgan. Qadim zamonlarda odamlarning havoda uchishni orzu qilganlarini, bu orzular Poeton, Dedal va Ikar afsonalarida o'zining ifodasini topgan, insonning jur'at va jasoratini, tabiat kuchlarini zabt etish ishtiyoqini qanoatlantirishda qadimgi miflarning mohiyati nechog'li zo'r bo'lgan.

Yunon mifologiyasining ming-ming yillik tarixi bor. Shu uzoq muddat davomida ijtimoiy ongning o'sishi bilan miflar ham o'zgardi, yangidan-yangi mazmun kasb etdi. Yunon kishisi ibtidoiy qabilachilik sharoitlarida yashar ekan, tevarak-atrofdagi tabiiy hodisalarning hammasini jonli his qilib, shularga sig'inadi, ulardan madad tilaydi, yovuz kuchlarni moyil qilish uchun qurbonlar tuhfa qiladi. Xullas, tabiat hodisalari qarshisida ibtidoiy insonning butun hayoti qo'rquv va tahlikada o'tgan. Keyin-keyin bulutlar sultoni, ma'budlar ma'budi Zevs, Poseydon – dengizlar hukmroni; Aid – oxirat hoqoni; Zevsning rafiqasi Gera – osmon ma'budasi, ma'budlar malikasi, homilador xotinlar, kelin-kuyovlar rahnamosi. Zevsning bosh xotini Geradan va boshqa ma'budalardan ko'rgan bir qancha farzandlari ikkinchi darajali ma'budlar qatoriga kiradilar. Bular tubandagilardir: Geradan tug'ilgan birinchi o'g'li Gefest – otash ma'budi, temirchilar piri; ikkinchi o'g'li Ares – qonli urushlar ma'budi; zulmat ma'budasi Latonadan tug'ilgan o'g'li **A p o l l o n** – yorug'lik, san'at, she'riyat va muzika ma'budi, ulug' kohin hamda buyuk yoyandoz, uning singlisi Aptemida – qamar ma'budasi, o'rmonlar va o'rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi, charchashni bilmaydigan ajoyib sayyoda; Zevsning miyasidan bunyodga kelgan dono va ma'suma **A f i n a** – shaharlar homiysi; Olimp sultonining zebo qizi Afrodita va uning tirmizak o'g'li Erot – sevgi va go'zallik ma'budlari; parizod Mayyadan tug'ilgan o'g'li Germes ma'budlar jarchisi, murdalar ruhini oxiratga kuzatib boruvchi, sayyohlar va savdogarlar himoyachisi, badantarbiya ishlarining rahnamosi; nihoyat, har kuni yer yuzidan qorong'ilik ko'tarilishi bilan to'rt uchar ot qo'shilgan olov aravaga o'tirib fazoga parvoz etuvchi Gelios – quyosh ma'budi.

Olamning ana shu o'n ikki hukmroni va ular qatori yana bir qancha ma'bud va ma'budalar abadiy barhayotlik bag'ishlovchi nektar ichib, oltin tovoqlarda tortilgan amvroziya taomini yeb, go'zal parilarning raqs va navolariga mast bo'lib, Zevs, uni yer bilan osmon o'rtasiga osib qo'yib to'qmoqlari bilan to'la uch kechayu uch kunduz savalaydi, onasining yoniga tushgan Gefestni Olimp tog'idan shunday itarib yuboradiki, bechora otash ma'budi bir umr oqsoq bo'lib qoladi. Umuman, ma'budlar inson nasliga onda-sonda iltifot ko'rsatsalar ham, ko'pincha ularning kulfatlariga beparvo qaraydilar, boshlariga og'ir musibatlar soladilar. Zevs hatto bir marta inson zotini to'fonda g'arq qilib yubormoqchi bo'lganida, quvg'in qilingan oldingi avlod ma'budlaridan biri, odam farzandining g'amxo'ri ulug' Prometey g'ayrat ko'rsatib falokatni bartaraf qiladi; shu titan Olimp tog'idan keltirib bergan olov tufayli insoniyat yana kamol topadi. Insonga qilgan bu yaxshiligi uchun Zevs Prometeyni qattiq jazolaydi. Bunday ixtiloflar ma'budlar o'rtasida siyrak uchraydigan voqealar emas: Zevsning o'zi ham otasiga qarshi olib borilgan dahshatli urushlardan keyin Olimp taxtiga erishgan. Yunonlar o'z ilohlarini kiborlar vakillaridan ko'chirganlari vajidan ularni shunday zolim va berahm qilib ko'rsatganlar.

Ma'budlarni odam qiyofasida tasavvur etish, o'z navbatida mifologiyani hayotga yaqinlashtirdi va uning obrazlariga chinakam hayotiylik bag'ishladi. Yunon mifologiyasining bemisl boyligi, obrazlarining nafisligi, butun insoniyat tarixi davomida kitobxonning e'tiborini o'ziga jalb etib keldi, yunon adabiyoti, yunon san'atiga esa behad-behisob porloq mavzular hadya qildi. Yunon ma'naviy hayoti taraqqiyotida mifologiya muhim o'rin tutgan. Darhaqiqat, o'sha uzoq o'tmishning dostonnavislari ham, dramatik shoirlari ham, lirik tuyg'ularning kuychilari ham ushbu buloqdan suv ichganlar, ushbu «zamin»dan ilhom olganlar; ulug' rassomlar, haykaltaroshlar ham o'z asarlarida asosan shu «xazina» afsonalarini qimmatbaho real obrazlarga ko'chirdilar, ularni asrlarga doston qildilar. «Iliada» va «Odisseya» dostonlarining mavzui ham shu manbadan olingandir.

Eramizdan oldingi V asr yunon jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan davridir. Bu taravdiyot Eron-Yunon urushlaridan keyin Afina davlatining kuchayishi va demokratiyaga tomon ri-vojlantirib borishi bilan mahkam bog'liq bo'lib, chindan ham yunon elining oltin asri deb atalishga arziydigan buyuk davrdir. V asrga kadar yunon tuprog'ining eng ilg'or madaniy markazi Kichik Osiyodagi Ioniya viloyati hisoblanib kelingan bo'l-sa, rosa yarim asr (499-449) davom etgan Eron-Yunon urushida yunonlar g'alaba qozonganlaridan keyin ilmu fan, san'at va madaniyat markazi Afina

davlatiga ko‘chadi. Adabiyot sohasida Afianing mavqei shu qadar ulutki, V-IV asrlar adabiyoti shu muazzam shahar o‘rnashgan Attika viloyatining nomiga nisbat berilib, yunon adabiyotining attika davri deb ataladi.

Eroniyalar bilan bo‘lgan urushning zahmatlarshga ko‘prok totgan va dushman ustidan galaba qozonish ishiga boshqalardan ko‘ra ortikrok xissa ko‘shgan afinaliklar, urushdan keyin yunon tuprogidagi yuz ellikdan ortik shahar davlaglari orasi-da galaba imtiyozlarini o‘z qo‘llarida saqlab koladilar. En-dilikda Yunoniston tuprogiga tutashgan dengiz suvlarida ularning yolg‘iz o‘zlari hukmronlik kilaboshlaydilar. Bu xolat yangidan-yangi savdo bozorlarini qo‘lga kiritishga, Qora dengiz soxillarydagi mustamlakalar bilan oldi-yeotdi ishla-rini rivojlantirishga keng yo‘l ochadi va Afinani g‘alla bilan uzluksiz ta‘minlash masalasini hal etadi.

V asrning o‘rtalariga kelib Afina yunon davlatlari orasida eng bakuvvat, eng yirik, 150 dan ortik ayrim davlatlardan tashkil topgan katta ntifoqning tepayeida guruvchi, suvda va kuruqlikda o‘z hukmini yurituvchi zabardast bir davlatga aylanadi, ittifokchilaridan olinadigan behad-behisob o‘lponlar Afina davlatining xazinasini nihoyatda boyitib yuboradi.

Ba‘zi davlatlarni iqtisodiy jihatdan o‘ziga itoat ettirish, yana bir xillari bilan savdo aloqalari bog‘lash, mustamlakalarning boyligini talash, mamlakat ichidagi xalqni ekspluatatsiya kilish orqasida V asrning okirlariga kelib Afina davlati Yunon tarixida ko‘rilmagan yuksak iqtisodiy ma‘murchilik darajasiga ko‘tariladi va shu bilan birga, butun yunoya olamining eng yirik madaniy markaziga, olimlar, shoirlar, faylasuflar, haykaltaroshlar, rassomlar va turli-tuman ijod ahllarining makoniga aylanadi.

Afina o‘zining ichtisodiy va madaniy amolotiga asosan asrning 50-30-yillarida, ya‘ni Afina davlati tepasida Peryakl turgan vaqtda erishadi, shu sababli bu davrni ko‘pincha «Perikl asri» deb ham ataydilar.

Perikl (yashagan vaqti taxminan 500-429 yillar) aristokrat xonadonida tug‘ilib, zamonasiga nisbatan juda yaxshi bilim oladi; Eron urushi vaqtida anchagina harbiy mahorat ko‘rsatadi, Afina davlati tepasida turganida o‘zining sohib tadbirligi bilan keng shuhrat kozonadi; siyosiy faoliyat bobida o‘zidan oldin o‘tgan do‘sti, otashin demokrat Efialtning ishlarini davom ettirib, aristokratlarning qarshilik-larini tamoman yengadi va mamlakatda uzil-kesil demokra-tiya tuzumini o‘rnatadi va 15 yil davomida (445-430) x,ar yili Afina davlatining eng oliy lavozimi — strateglikka saylanadi. Afina davlati demokratik asosga qurilgan tuzum bo‘lishiga qaramay, ulug‘ tarixchi Fukididning aytishicha, uning barcha ishlarini yolg‘iz bir kishi, ya‘ni Periklningo‘zi boshqargan.

Perikl o'z zamonasining nihoyatda ishbilarmon davlat arbobi, otashin notik, odamlarda tashabbuskorlik ishtiyoqini uyg'otishga mohir, ilmiy fan, san'at va adabiyotga oshnolibir shaxs edi. U butun yunon olamidani faylasuflar, olimlar, shoirlar va san'at axllarini Afinaga to'playdi. Periklga yaqin turgan va uning ishlarida ko'maklashgan ulug' zotlar orasida faylasuflardan Anaksagor, Sokrat, «Tarix faniyaing otasi» Gerodot, ulug' tragik Sofokl, ajoyib xaykaltarosh Fidny va shularga o'xshash umumyunon madaniyatini yuksak pog'ona-larga ko'targan yana birmuncha shaxslarni ko'ramiz.

Perikl zamonasida ilmiy-falsafiy ta'limotlar, ayniqsa juda keng rivoj topadi. Olimlar, mutafakkirlar o'z asarlarida tabiat hodisalarini, shkimoiy qonunlarni ochishga, ularni izoxlashga va shu yo'yeinda mavjud demokratik tuzum-ning to'g'ri va bama'ni zkanligini isbotlashga urinadilar.

Eski diniy e'tiqodlarning asta-sekin susayib borishi, ilohiy kuchlarni koinot hodisalarida axtarish (payateizm), insonni ma'budlarning kulholatidan butun borliqning hukmroni darajasiga ko'tarish, uning idrok va iste'dodiga tahsin O'qish, istiqboliga chugsur umid bilan qarash—bu davr falsafiy ochimlarining asosiy xususiyatidir. Yangi tushunchalar o'z ifodasini dastavval Anaksagor (500—428 yillar) falsafasida topadi. Perikl bilan do'stona munosabatda bo'lgan, uning siyosatini qo'llab-quvvatlagan va hukmronning istagiga ko'ra zamonasining ilmiy-madaniy harakati tepasida turgan bu mutafakkir olim, eski diniy e'tiqodlarni inkor etib, butun koinotni behisob zarralardan tarkib topgan aba-diyat ma'nosida tushunadi. Chunonchi, quyosh bilan oy, qadimgilar aytganidek, ilohiy kuchlar emas, balki bir umr lovlul-lab yonib turadigan jismlardir. Anaksagor inson ongi, qudrat va iste'dodini juda yuksak baholaydi.

Bu davrning ilmiy va falsafiy fikr-g'oyalarini boshqalardan ko'ra to'laroq aks ettirgan, ibtidoiy materializm oqimiga asos solgan ulug' mutafakkir Demokritdir (460-370), Demokrit o'z zamonasida mavjud bo'lgan hamma bilimlar (astronomiya, fizika, matematika, biologiya, geografiya) bobida juda ko'p yirik-yirik ayarlar yozdi; unning asarlarni orasida, shuningdek poeziya, san'at, tarix, dexdonchilik, harbiy texnika va boshqa turli-tuman masalalarga atalgan kitoblarni ham ko'ramiz. Marksning ta'biricha «gononlar orasida birinchi ensiklopedik aql egasi» Demokrit o'zining nodir salohiyati va keng bilimi asosida nazchil materialistik falsafiy ta'limot yaratadi. Uning aytishicha, butun borliq ko'zga ko'rin-maydigan mayda-chuyda zarrachalardan — atomlardan tuzilgandir, atomlarning shakliga karab koinotdagi borliq narsalar turlicha bo'ladi; jamiki tirik mavjudot, shuningdek, odam va uning «joni» ham atomlardan yaratilgan. Behisob atomlarq dan tashqari koinot bepoyon bo'shli!(dan ham iboratdir; atom-lar mana

shu bo'shliqda beto'xtov harakat qiladilar; butun borliq tabiat, bizning fikr, sezgi va hislarimiz shu atomlarning harakati natijasida turiladi; atomlar va ularning harakati abadiydir: hech narsa yo'qlikdan paydo bo'lmaydi va hech narsa nom-nishonsiz yo'cholib ketmaydi; tabiatdagi o'zgarishlar atomlarning bir xolatdan ikkinchi holatga o'tishlari oqibatidir. Shunday qilib, Demokrit batafsil materialistik falsafa ta'limotini yaratadi, ammo uning materia-lizmi, hozircha faqat mexanistik materializm edi. Demokrit tabiatdagi hamma hodisalarni yolg'iz mexanika asosida ta'riflagan.

Demokrit ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan ham chuqur tanishib, qadimgi yunonlar o'rtasida keng tarqalgan uzoq o'tmishdagi «oltin davr» afsonalarini inkor etadi. Uning fikricha, insoniyatning ilk davrlarida odam bolasi baayni hayvon singari yashagan, kun kechirish mashaqqatlari natijasida asta-sekin ma'murchilikka erishib, madaniyat asoslarini qura boshlagan. Davlat tuzumi bobidagi ta'limotlarida Demokrit shak-shubhasiz demokratik tuzumning afzalligini e'tirof qiladi. Biroq, Demokrit yuksak qimmat bergan bu demokratiya shubhasiz, qulchilik asosiga qurilgan demokratiyadir. Afsuski, shunday zabardast mutafakkirning bironta asari bizga qadar yetib kelgan emas.

V asrning ikkinchi yarmida butun Ellada tuprog'ida ijtimoiy hodisalarni o'rgansh ishini o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan yangi ilmiy-falsafiy oqim paydo bo'ladi. Bu oqimning vakillari o'zlarini «sofistlar» deb ataganlar. Dastavval «sofist» so'zi ostida «donishmand», «bilimdon», «olim» degan ma'nolar ifoda etilgan bo'lsa, keyinchalik bu ibora falsafa muallimlariga taqilgan laqabga aylanib ketadi. Qadimg'i Yunonistonda maktabxonlik ishlari nihoyatda yeust bo'lganligi vajidan sofistlar shatsarma-shahar kezib, shaxsiy suhbatlarda yoki jamoat oldida ilmu fan asoslari-ni tashviq qilardilar. Materialistik faylasuflar o'z o'suvchi va tinglovchilariga tabiat hodisalari haqida gapirgan bo'lsalar, sofistlar asosan ijtimoiy nasalalar to'g'risida so'zlaydilar.

Sofistlar bu davrning har tomoklama bilimdon kishilari bo'lib, o'z zamondoshlari zehni boyitish, ularni ilmu ma'rifat yutuqlaridan bahramand etish bobida juda katta ishlar qiladilar, bulardan saboq eshitgan yoshlar faqatgina astronomiya, geometriya, muzyaka va shu kabi ilmlar sohasida tushuncha orttirish bilan cheklannb cholmay, balki odam bolasi hayotni qanday uyushtirishi, davlatni qay tariqa tuzishi va siyosatni chaysi usulda olib borishi to'g'rilarida ham ta'lim oladilar. Sofistlar bir xil olimlar singari olamdan yuz o'girib o'z xilvatxonalarida kitob titishdan o'zga narsaki bilmagan darvish tabiat kimsalar bo'lmasdan, hayotning eng chaynoch yerlarida, olomon o'rtasnda jo'shsinlik bilan o'z ilm-larini yoygan ilmu fan jarchilari bo'lganlar. Ular ko'pchilik o'rtasida o'rinishib kolgan

tushuncha va e'tiqodlarni dadillik bilan rad yetadilar, ularga putur yetkazadilar. Chunonchi, yi-rik sofistlardan biri bo'lmish Protagor «Hamma narsaning andazasi odamdir», deydi va bu da'vosi bilan insonning ongida hosil bo'ladigan tushuncha va taassurotlardaya tashqari bo'lak «olam»ning bo'lishi mumkin emasligini isbotlashga urinadi. Protagor izhor qilgan fikrning muximlig'i shundaki, bu faylasuf o'zining shu da'vosi bilan insonning kadr-qimmatini oshiradi, uni butun koinotning markazida turadigan ulug kuch darajasiga ko'taradi; odam bolasinyng takdiri va xayot-mamotini g'ayri tabiiy kuchlar, ilohiy tushunchalar bilan emas, balki uning o'z izmi va irodasi bilan bog'laydi. Protagor falsafasining revolyutsion mohiyati xdm shundadir. Protagor birmuncha ehtiyotkorlik bilan ma'budlarning borligiga shak keltirib «Men ma'budlarning bor-yo'qligini yoki ularning qiyofasi kandayligini bilmayman, chunki bu narsani anglashga xalal beradigan bir kancha sabab-lar bor, bu sabablar – ma'budlar hachidagi tasavvurning noaniqligi va inson umrining qisqaligidir», deydi. Protagorni bu xildagi fikrlari uchun dahriylikda ayblab Afinadan badarg'a qilganlar.

Yuqorida aytganimizdek, sofistlar davlat masalalariga, ayniqsa, katta ahamiyat beradilar. Shu munosabat bilan tabiiy xukuk nazariyasi sofistlar ta'limotida inchunun keng rivoj topadi. Shu nazariyaga ko'ra butun mavjudotning asosiy andazasi qilib tabiat qonunlari olinadi, ya'ni xar bir narsa turli-tuman usul-tartiblar va insoniy g'oyalar azaldan tabiiy bir xrl sifatida mavjudligiga, yo bo'lmasa, odamlar tomonidan joriy etilganlignga qarab baholanadi. Chunonchi, Platon, Ariyetotel kabi faylasuflar har kanday davlat tuzumiga azaldan ma'budlar izmi bilan barpo etilgan narsa, deb qaragan bo'lsalar, sofistlarning ko'pchiligi bu fikrni rad etib, eng birinchi davlat odamlar o'rtasida o'zaro kelishish natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar va ko'pchilik-ning xohishi bilan ma'qul topilgan davlat tuzumini chinakam konuniy tuzum deb biladilar (Protagor). Sofistlar davlat falsafasining demokratik mohiyati ham ana shundadir. Ularning bir xillari bu sotsada yana ham so'l g'oyalarni oldinga suradilar. Chunonchi, Protagor bilan Gipshga jamiyatdagi ijtimoiy va ma'naaiy tengsizlikni chattiq qoralaydilar. Gippiyning aytishicha, barcha odamlar—aka-ukalar, yagona ona-tabiatning bolalaridir. Shu sababdan erkin kishilar bilan qullar o'rtasida tafovut bo'lishi kerak emas.

Sofistlar falsafiy bilimlardan tashqari yana birmuncha ijod sohalarida ham juda ulug' ishlar kilganlar.

Jahon madaniyatining bebaho yodgorliklaridan biri bo'lgan va Gippokrat nomi ostida bizga kadar yetib kelgan muolaja san'ati haqidagi kattakon asar ham sofistlar doirasida yaratilgandir. Gippokratga kadar bemorlarni davolash ishi

faqatgina ma'budlarga, ins-jinslarga sig'inish, ko'chiriq va irim-chirimlarga asoslangan bo'lsa, endilikda odam organizmini o'rganish orqasida kasalni ilmiy asosda shifolash ishlari ham paydo bo'ladi va meditsina asta-sekin chinakam fan darajasiga ko'tarila boradi. Shu xildagi ilmiy tadqiqotlar natijasi o'laroq inson faoliyatining boshqa turli-tuman soxalariga doir ko'llanmalar ham yaratiladi. Chunonchi, Protagor va Prodik bashariyat tarixida birinchi bo'lib grammatika darsligini yozadilar; notiqlik san'ati va logika asoslarini ishlab chiqishda ham sofistlarning xizmatlari juda kattadir.

Sofistlarning faoliyatgohlari asosan Afina shahari bo'lgan, ular mamlakatnig turli polislaridan bu azim shaharga to'planib, ko'prok shu yerda ijod chilganlar, ammo ular yoqqan yangi ilm mash'alining nurlari butun Elladaning uzoq-uzok yerlarini ham yoritar, zamondoshlarinang dilini ravshan kilib, ko'zlaridan zulmat pardasini ko'tarar edi. Zamonasining ulug tarixchilari Gerodot bilan Fukidid sofistlarning ta'sirini juda chuqur his qilganlar va o'z asarlarida ularning nazariyalarini yorqin aks ettirganlar. Evripidning tragediyalari sofistlarning fikrlari bilan to'lib-toshgan, bu fikrlar tomoshagoxlardan keng xalq ommasi qulog'iga eshitar edi.

V asr Afina shahri ilmu fan bilan birga ajoyib san'at makoni ham bo'lgan. Bir qator genial arxitektorlar, xaykal-taroshlar va rassomlar qo'li bilan shu asrda yaratilgan mislsiz san'at yodgorliklari butun insoniyatning keyingi davr-lari uchun go'zallikning ajoyib timsoli va yuksak namunasi bo'lib kelmokda. San'atning bunchalik keng rivojlanishi ham Perikl tashabbusi bilan, Afinada boshlangan kattakon qurilish ishlari bilan bog'liyedir. Perikl istaydiki, ilm, ma'rifat, madaniyat markazi bo'lgan bu ulug shahar go'zallikda ham butun yunon elida yakkayu-yagona bo'lsin!

Qariyb ellik yil davom etgan kizg'in qurilish ishlarida faqat Afinaning erkin fukarosi hamda qullargina emas, shuningdek, Yunonastonning xamma yerlaridan to'plangan injenerlar, me'morlar, xaykaltaroshlar, rassomlar va bopsa turli-tuman kasb ustalari qatnashadilar. Bu zamonda kadko'targan eng yirik inshootlardan biri, Afina bilan uning yaqinidagi Pirey gavani oralig'ida bundan ancha burun qurilgan ikkita devor o'rtasida Periklning xohishi bilan solingan uchinchi devor bo'ldi. Yo'l-yo'lakay Pirey gavani yangi mudofaa inshootlari bilan mustahkamlandi, natijada Afina bilan Pirey birga ko'shib yagona metiya qal'aga aylandi. Misli ko'rilmagan ana shu buyuk qurilish ishlari orasida Periklning diqqatini ko'proq jalb etgan masala — Afinaning ichki qal'asi Akropolni bezatish bo'lgan.

Bir zamonlar bino qilingan bu isteqlom, Eron-Yunon urushi vaqtida vayron bo'lib, o'zining qal'alik qiymatini yo'qotib qo'ygan edi; tamomila yangidan qurilgan Akropol baayni yunon san'atining ajoyib otxonasiga aylanadi.

Akropolga kiraverishda har ikkala tomondan baxaybat ustunlar bilan ko'tarilgan darvozaxona—Propileyalar bino-korlik san'atining goyat ko'rkam va hashamatli namunasidir; uning ikki yonboshidagi usti yopikgalereyalarning devorlari Afina davlatining jangovar o'tmishini tasvirlovchi suratlar bilan natsshlanadi. Akropolning ichidagi eng ajoyib bino qunarmandlik, donishmandlik va taraqqiyot ma'budasi bokira Afinaning ibodatxonasi – Parfeion bo'lgan. Vu ibodatxonaning o'rtasiga o'rnatilgan ma'budaning o'n to'rt metrli haykali nuchul fil suyagi bilan oltindan yasalgan. Haykalga sarflangan mablag' Afina shahrining yigirma yillik budjetiga baravar bo'lgan. Parfenondan tashqari Akropolda Attikaning afsonaviy podshohi Erefeyga atalib Erefion ibodatxonasi va yana bir 17ancha binolar quriladi. Shu ishlar barobarida Akropolning hovli sahni gulzorlar, daraxtlar bilan bezatiladi; marmardan, bronzadan qilingan haykallar bilan yasatiladi. Chunonchi, Propileyalarning chap tomoniga o'rnatilgan va o'zining butun qurol-aslahalari bilan tasvirlangan Afinaning haykali shu kadarhashamatli ediki, uning Cho'lidagi nayeanning yaltiroq uchi go'yo mayak singari uzok-uzoqlardan ko'rinar va dengizchilar shunga qarab Afinaga yo'l olar edilar.

Akropol tashqarisida ham bir qancha ibodatxonalar kuriladi. Bularning ichida san'atkorlik jixatidan eng mash. xurlari dengiz ma'budi Poseydon hamda Afinaning afsonaviy ulug' podshohi Tezey sharafiga qurilgan ibodatxonalardir. Yunon arxitekturasi beqiyos namunalarini yaratgan ajoyib san'atkorlar orasida eng ulug'lari Parfenonni bino etgan Iktin va Kallikrat, Propileyalarni qurgan Mnesikl bo'lgan.

Perikl davrining haykaltaroshlaridan bizga ko'prok ma'lum bo'lgani Fidiydir. Shu zamondagi butun qurilish ishlariga rahbarlik qilgan bu odamning o'zi ham o'tkir san'atkor edi. Akropolning ichida o'rnatilgan Afinaning oltin va fil suyaklaridan yasalgan ikkita katta haykali xamda Olimpdagi Zevs haykali (bu ham oltin bilan fil suyagidan yasalgan) shu ulug' san'atkorning bemisl ijodi samaralari-dir. Fidiy bilan birgalikda va uning razqbarligida ko'pdan-ko'p shog'irdlar ham ishlagan, ammo nomlari garix sahifalaridan o'chib ketgan bu shog'irdlarning har qaysisi o'z holicha yuksak talantli kishilar yedi. Fidiyning qo'l ostida uning shog'irdlari 276 metr uzunlikdagi Parfenon devorlarini va peshtoqlarini bezaydilar. Bu naqshinkor devorlardan ko'chirilgan va zqozirgi vaqtda Moskvadagi A. S. Pushkin nomli Tasviriy san'at muzeyida saqlanadigan nusxalar to shu kunga Zadar bizni taajjublantiradi. Bu naqshlarning har biri,

ayniqsa, benihoyat nafis ishlangan ayollar jasadi shaffof liboslar ostida xuddi nafas olayotgandek tuyuladi!..

Bu zamonda yaratilgan san'at yodgorliklarining barchasida allakanday basavlat ulug'vorlik va kishini hayajonga soladi-gan salobat bor. Mana bu sersavlat, ulug'vor va maxrbatli hashamatlar—Afina demokratik respublikasi yengilmas qudratining ramzi bo'lgan. Haykaltaroshlar o'z asarlarida asosan mifologik mavzularni tasvirleydilar, ammo ular tasvirlagan ma'budlar x,amda pahlavonlarning kiyofasida qaddy-qrmati kelishgan, baquvvat, basavlat odamlarning siymolari kursatiladi. Chunki bu davrda yupon ideologiyasining boshqa srqalarida bo'lgani kabi insonning go'zalligi va ulug'vorligini namoyish qilish san'atkorlarning ham asosiy maqsadi bo'lgan. Vu davr san'at axllarining ulug'ligi shundaki, ular shgsoniyat tarixida birinchi marta o'z ijodlarini kat'iy va ansh> ilmiy asosga kurib, odam bolasining tanasidagi xatto eng kichik a'zolariii ham juda aniq mutanosib uyg'unlashda tasvirlaganlar, shu bilan abadiy barhayot go'zallik yaratganlar.

Plutarx. “Perikl vaqtida bunyod etilgan badiiy yodgorlikni ta'riflab shunday deydi: Buzamonda ulug'likda ajib, soddalikda va ko'rkamlikda beqiyos asarlar yaratildi. Bularning har biri shunchalar go'zal ediki, ularga ko'z tashlagan kishining nazarida har qaysisi azal-azaldan qad ko'tarib turgandek, o'zining dilnavozligi bilan to shu kunga kadar allaqanday navqiron va shu damning o'zida paydo bo'lgandek sezilar, shunchalar beg'uborki, go'yo asrlarning qo'li ularga taqalmay o'tgandek tuyular edi”.

Biroq Afinaning gullab-gurkirashi uncha uzsnda cho'zilmadi. Afina davlati bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida boshlangan dahshatli urush (431–404 yillar)bu shaxarni, yo'k faqat bu shaharnigina emas, butun Yunonistonni halokatga surgadi. Peloponnes urushiga deyarli jamiki yunon olami va hatto chet davlatlar (Makedoniya, Eron) ham qatnashadi. Butun Ellada tuprog'i bo'ylab 27 yil davom etgan o'zaro kon to'kishlar natijasida Yunon davlatlarining ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlari nihoyatda keskinlashib, butun mamlakat og'ir inqirozga yuz tutadi. «Uzoqqa cho'zilib ketgan bu urush vaqtida,— deb yozadi Fukidid Elladaning boshiga hech kachon tushmagan kulfatlar tushdi. Darhaqiqat hech qachon bunchalik ko'p shaharlar qo'ldan ketmagan, vayron bo'lmagan... urush tufayli yo bo'lmasa o'zaro ixtiloflar vajidan odamlar shunchalar ko'p kuvginqilinmagan, qonlar bu qadarto'kilmagan edi... Bundan tashqari nihoyatda keng miqyosda to'satdan ro'y bergan zilzila... qurg'oqchilik va bularning oqibati o'laro boshlangan dahshatli ocharchilik, nihoyat, kattakon ofatlar keltirgan va beqisob

odamlarning yostig'ini kuritgan yuqumli kasadliklar... Bularning hammasi bir varakayiga urush bilan birga yog'ildi».

Peloponneye urushi bir tomondan Yunoniyetondagi yirik-yirik shahar davlatlari o'rtasida tobora keskinlashib borayotgan iktisodiyva siyosiy raqobat va yunon tuprog'ida o'z hukmini yurgizishga intilish, ikkinchi tomondan, polislar o'rtasi-dagi siyosiy tuzumlar kurashi tufayli yuz beradi. Shuni qayd etib o'tish kerakki, bir necha yillar davomida butun mamlakatda ikkita siyosiy tuzum hukm surardi. Bulardan biri–demokratiya tuzumi, ikkinchisi–aristokratiya tuzumi edi. De-mokratik usul-tartibda bo'lgan polislarini Afina davlati qo'llab-suvvatlar, aristokratik tuzum tarafdorlariga–Sparta hukumati ko'maklashar edi. Bu ikkala davlat o'z raqibi-ning kuchayib ketishidan cho'chib, bir-birining yeiyoyeyi tuzumini uzluksiz qoralar, turli yo'llar bilan bir-biriga putur yetkazar edi.

Afina davlatini va, shu bilan birga, butun Elladani halokatga olib kelgan yana bir sabab, Afina bilan uning ittifoqchilari o'rtasidagi munosabatlar bo'lgan. Eron urushi davrlarida, dushmanga qarshi yalpisiga kurashish maqsadlari yuzasidai Afinaning yetakchiligida tug'ilmish kattakon Gonon davlatlari ittifoqi, avval boshda hamma ittifoqdoshlarning bab-baravar hukmdorligi asosida tuzilgan edi. Ammo dushman ustidan g'alaba qozonilgandan so'ng, bu ittifoqning barcha a'zolari urushdan keyin kuchayib ketgan Afinaga saram bo'lib qoladilar, Afinani butun Yunon tuprog'ida eng baquvvat dav-latga aylantirishni o'z oldiga maqsad kilib qo'ygan Perikl, ittifoqdoshlardan pul qisobida oliyaadigan o'lponlarni o'zi istaganicha ko'paytiradi (masalan, ittifoq tuzilgan vaqqda yiliga 460 talant, ya'ni oltin bilan bir million oo'mga yaqin o'lpon olingan bo'lsa, Peloponnes urushi vaqtida bu mikdor bora-bora 1300 talantga yetadi) va ularni xohlagan yeriga sarflaydi. Jumladanq Afinadagi hashamatli binolar ham itti-fokchilardan yig'ilgan soliqlar hisobiga qurilgandir. Teriklning ishlaridan nafratlangan ittifoq a'zolari, Afina shahrini topgan-tutgan puliga pardoz-andoz va yasan-tusan qiladigan fohishaga o'xshatadilar. Bu ham yetmaganidek, Afina davlati faqat eroniylarga qarshi urushlardagina emas, qatto Yunonistonning boshqa davlatlari bilan bo'ladigan o'zaro urushlarda qatnashish uchun ham ittifoqdoshlardan yangi lashkarlar berishni talab etadi. Afina davlatining zulmi borgan sayin zo'rayib, ittifoqchilarning ichki ishlariga ham aralasha boshlaydi, hattoki ko'z-quloq bo'lib turish uchun o'z fuqarolaridan ko'plab ko'chirib kelib, ittifoqchilarning yerlariga joylashtiradi. Mana shu zulm va ado-latsieliklarga norozilik bildirgan, yo bo'lmasa ittifoqdan ajralib chichishga intilgan a'zolari boshqalarga ibrat tarzida afinaliklar qattiq jazolar edilar. Ilgari ahyon-ahyonda ro'y

berib turgan norozilik isyonlari, urush vaqtiga kelib juda avj oladi va, nihoyat, 404 yili Afina davlati magʻlubiyatga uchraganidan keyin ittifoq tarkab ketadi.

Afina demokratik davlatining agʻdarilishidagi eng muhim sabab, albatta, uning ichki iqtisodiy-siyosiy ahvoli boʻlgan. Afina demokratiyasini taʼriflashda shu narsani yaxshi esda tutish zarurki, bu demokratiya zinhor-zinhor Afina davlatidagi hamma aholiga bir tekisda erkinlik bergan demokratiya emas, balki qulchilik asosiga qurilgan demokratiya edi. Afi-na fuqarosi huquqidan mamlakat aholisining koʻpchilik qismini tashkil qilgai qullar va meteklar (yaʼni boshqa yerlardan kelib, Afinada turgʻun boʻlib qolgan kishilar) x,amda ayellar tamomila maqrum etilgan edi. Yunon davlatlari, va shaxsaya, Afina qukumatining iqtisodiy jihatdan tobora tarakkiy etib borishi, fachatgina sulchilikning oʻyeishi bilan bogʻliq boʻlgan. Qullarning koʻpayishi esa oʻz navbatida, ularning axvolini kundan-kunga ogʻirlashuviga va, eng yomoni, quldor-larning maʼyaaviy jihatdan buzilyashi hamda mamlakat iqti-sodining insirozga yuz. tutipgaga sabab boʻlgan.

Xullas, qulchilik asosiga qurilgan demokratik davlat iqtisod bobida qanchalik taraqqiy etmasin, madaniyat sohasida nechogʻlik yuksak darajaga koʻgarilmasin, bashartiki shu jamiyatda yashovchi kishilarning barchasi uning noz-neʼmatlaridan bab-baravar bahramand boʻlmasalar, bu jamiyatning abadiy barkamol qolishi mumkin emasligi antik dunyo timsolida yakqol koʻrinadi.

V–IV asrlar yunon tarixi, chindan ham, voqealarga goyat boy, benihoyat maamundordir. Ana shu ulugʻ oʻzgarishlar munosabati bilan Afina shahar davlatida tugʻilgan muhim-muhim siyosiy va axloqiy muammolar adabiyotga beqisob mavzular xadya kilib, uyadan oʻzining inʼikosini vutar, turli-tuman masalalar-ni hal etishda koʻmaklashuvini talab kilar edi, Ulugʻvor bu hodisalarning endilikda eski lirik qoʻshiqlar qajmiga sigmasligi shubhasizdnr. Poeziya adabiyotning hamon asosiy turi boʻlib davom etgani bilan, yangi qayot sharoitlarida uning qanoti behad keng yoyiladi, imkoniyatlari mnslsvz ulgʻayib ketadi, Ilgarigi poeziya koʻproch yuqori tabaqalarning manfaatlariga karatilgan, ayrim shaxslarning kayfiyatlarini ifoda etgan boʻlsa, demokratik davr attika adabiyoti Afina grajdanlariga murojaat qilnb, zamonaning ijtimoiy va siyosiy talablari bilan taqozo etilgan muxim davlat masalalarini yechishga urinadi. Bu masalalar orasida eng muhimlari – davlat bilan fuqaro oʻrtasidagn, ayrim shaxslar bilan kollektiv oʻrtasidagi munosabatlar problemalarini hal qilish, mavjud sharoitlarda odam bolasining vazifalari va axlok doiralarini belgilash, unga yoʻl-yoʻriqlar koʻrsatishdan iborat boʻlgan. Binobarin, xalq ommasi manfaatlariga yaqivlik, aktuallik, zamonaviylik, odamparvarlik – attika adabiyotining asosiy xususiyatidir.

Jamiyatdagi ziddiyatlarni, kurash va to'qinishlarni hammadan ko'ra mukammal va mufassal ifoda etish eplay oladigan birdan-bir adabiy janr, albatta, dramaturgiya bo'lgan. Na epik dostonlar va na lirik asarlar bu vazifalarning, shubhasiz, to'la uddasidan chiqqan emas edi. Harakat, she'riyat va musika to'qimasidan tarkib topib, yagona uyrun shakl kasb etgan drama adabiyoti, poeziyaning imkoniyatlarini juda kengaytirib yuboradi; uning ommabopligi, konfliktlarga boyligi, ta'sirchanligi — butun V asr yunon adabiyotida peshqadamlik qilishini ta'minlaydi.

Gomer dostonlari bilan bir qatorda dramatik adabiyot yunonlarning jahon madaniyatiga ko'shgan bebaho hissalaridir.

Gomer miloddan avvalgi 9-asrda Yunonistonda yashab o'tgan. Ayrim qadimshunoslar miloddan avvalgi 7-asrda yashagan deyishadi. Gomer barcha asarlari Yunon-Troya urushi voqealari bilan bog'langan. Rivoyatlarda Gomerdan ilgari Muze, Evmolp, Tamir, Olen kabi shoirlar yashab o'tganligi qayd qilinadi. Biroq ularning hayati va ijodi haqida bizgacha ma'lumotlar yetib kelmagan.

Gomer yunon adabiyotining boshlovchisidir. Bu ulug' shoirni jahon adabiyotining eng birinchi shoiri deb ta'riflash mumkin. Gomerdan bizgacha ikkita yirik doston — "Iliada" va "Odisseya" yetib kelgan. Bundan tashqari, Gomer nomi bilan bog'liq 15-20 she'rdan iborat gimnlar ham mavjud. Garchi bu asarlarning barchasi mifologik xarakterda, ma'bud-ma'budalar, afsonaviy qahramonlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ular tarixiy-estetik ahamiyatga egadir.

Yunonlar qadimgi Troyani Ilion shahri deb atashgan. "Iliada" Ilion haqidagi dostonidir. "Odisseya" — doston bosh qahramoni, Itaka podshohi Odissey nomi bilan ataladi. Dostonda Troya urushidan g'olib, muzaffar qaytayetgan yunon pahalvolni Odisseyning ajoyib va g'aroyib dengiz safari haqida hikoya qilinadi.

Yana Yunon-Troya urushining kelib chiqish sabablarini ifodalovchi "Kipriya" dostonini ham Gomer nomi bilan bog'lashadi. Bu dostondan ayrim parchalargina bizgacha yetib kelgan.

Gomer asarlari mifologik xarakterda bo'lsa ham, nihoyatda ishonarli. Uning asarlarini qo'ldan qo'y olmay o'qigingiz, voqealarning nihoyasini bilgingiz keladi. Qadimda odamlar juda ishonuvchan, e'tiqodli, sadoqatli bo'lganmikan, deb o'ylanib qolasiz. Qo'shin Troyaga jo'nash uchun qirg'oqqa to'plangan. Kemaga o'tirib, safarga o'tlanish kerak. Biroq shamol yo'q. Dengiz ma'budi Poseydon ham bu ishga aralashgan bo'lishi mumkindir. Koxinlarning xabar berishiga qaraganda, qurbonlik berish kerak ekan. Yana qanday deng, o'z qizini qurbonlik qilishi darkor. Nihoyat shamol turib, to'lqinlar kemalarni Troya tomon olib ketadi. Yunonlar Troyani 10 yildan ziyedroq qamal qiladi. Biroq Troyaning mustahkam

devorlaridan, xarsangtoshdan bino bo'lgan darvozalaridan ichkariga kirish oson emas. umuman birgina Yelena uchun qirg'inbarot urushning, behuda qon to'kishning kimga keragi bor.

Gomerning ulug'ligi-yer yuzida birinchi bo'lib, sevgi degan tuyg'uning ulug'vorligini namoyen etdi. Bu tuyg'uni qirg'inbarot urush bilan ham, zo'ravonlik bilan ham yo'q qilib bo'lmaydi.

Har qancha urinmasinlar Troyani ishgo'ol etolmaydilar. Hatto Yunon pahlavoni Axill bor kuchini ishga solib har qancha chiranmasin, baribir Troyaga kira olmaydi. Troya hiyla ishlatib, yeg'och ot ishlatib bir amallab Troyaga kirib, darvozani Menelay qo'shinlariga ochib berishadi. Troyaning kulini ko'kka sovurib, Yelenani olib, Spartaqa qaytadilar. Voqea juda qiziqarli. "Iliada" dostonining qisqacha mazmuni shu bilan yakun topadi. Sparta podshohi Menelay og'ir jangga o'tlanish oldidan Yunon pahlavonlari, yurt podshohlarini, do'stlarini to'plab, mashvarat o'tkazgan, ularni yarashishga chaqirgan edi. Ular ichida Itaka podshohi Odissey ham bor edi.

"Odissey" dostonida Troyadan o'z yurtiga qaytayetgan Odisseyning dengiz safari kuylanadi. "Odissey" dostoni "Iliada" dostonidagi voqealardan ham qiziqarli sarguzashtlarga boy. Dengizning asov to'lqinlari goh u orolga, goh boshqa qirg'oqlarga olib ketadi. Odissey sheriklari bilan Quyesh ma'budasi Geliosning muqaddas vodiysiga borib qoladi. Shundan keyin ulkan qo'ylarini boqib, g'orda yashab yurgan bir ko'zli devga yo'liqadi. Ayniqsa, parizod Kirka qasriga borishda Odissey ancha tashvishga tushadi. Parizod o'zining oltin qadahlariga quyilgan mayi bilan Odissey sheriklarini to'ng'izga aylantirib, og'ilga qamab qo'ygandi.

Odissey xabarchi Termis yerdami bilan Kirkaning makriga uchmasdan, sheriklarini o'z holiga keltiradi. Parizod Kirka Odisseyga yalinib-yelvoradi va pahlavon bilan umrguzaronlik o'tkazish niyyati borligini ma'lum qiladi. uzoq safarda bo'lib toliqqan, boz ustiga uyidan chiqib ketganiga o'n yildan oshgani uchunmi, Parizodning bu taklifiga Odissey rozi bo'lib, u bilan kayfu-safo qilib yashay boshlaydi. Kunlardan bir kuni Parizod o'z sevgilisi Odisseyni narigi dunega sayru safarga olib ketadi. Odissey narigi duneda xotini va farzandlarini tushida ko'rib o'z yurtiga qaytish tashvishiga tushib qoladi.

Tadqiqotchilar "Odissey" dostonining yakuniy qismini "Alpomish" dostoni voqealariga qiyeslab, ikki doston bir-biriga yaqinligini aytishmoqda. Shubhasiz, ko'pgina xalq ijodi namunalariga o'xshash syujetlar juda ko'p. Negaki, dune xalqlarining orzu-niyatlari, ezgu o'ylari bir-biriga hamohangdir. Jahondagi hamma xalqlar ham tenglik bo'lishini, mardlik, jasorat, yaxshilikni kuylaydi. Gomer asarlari xalq og'zaki ijodiga asoslangan. Xalq dilidan kuylangan she'r barhayotdir.

Gesiod miloddan avvalgi 8-7 asrlarda yashab oʻtgan. Kichik Osiyedagi Kim degan joyda tugʻilgan boʻlsa-da, taqdir taqozosi bilan Beotiya viloyatiga borib, yunon adabiyotining ulugʻ shoiriga aylangan. Undan bizgacha “Mehnat va kunlar” poemasi meros boʻlib qolgan. Shoirning takabbur, yengil-yelpi hayetga oʻrgangan Pers ismli ukasi borligiga ham aniqlik kiritilgan. Pers otasidan qolgan barcha merosga ega chiqadi. Ehtimol, ukasidan ranjigan Hesiod ona shahri Kimni tashlab ketishga majbur boʻlgandir. U oʻz poemasida ukasi Persga qarata pand-nasihatlarini bayen etadi. Poema insonni yemonlik sari qadam qoʻymaslikka, yaxshilik, mehnatni sevishga daʼvatdir. Garchi mifologik syujetdan iborat boʻlsa-da, undagi didaktik ruh maʼbud-maʼbudalar hayetidan koʻra, insonlar hayetiga yaqin. Dostondan allegorik xarakterdagi masallar ham oʻrin olgan. Hesiod masal janrining asoschisidir.

Hesiod mehnatni qadrlaydi. Aslida oʻzi ham ertadan-kechgacha ter toʻkib tirikchilik oʻtkazadi. Otasidan qolgan katta davlatni sovurib, yerdam soʻrab, yalinib-yelvorib kelgan ukasi Persni halol mehnat qilishga chaqiradi. Ter toʻkmasdan, joln kuydirmasdan, qingʻir-qiyshiq yoʻllar bilan boylik orttirgan kimsalar ustidan zaxarxandalik bilan kulib, ularga qarshi nafrat oʻti bilan sugʻorilgan satrlar bitadi.

Qadimshunos olimlar Hesiodni Gomerdan bir qadar ustun qoʻyishadi. Hattoki, yunon adabiyoti boshlovchisi, jahon adabiyoti beshigini tebratgan shoir, deb koʻklarga koʻtarishadi. Bu daʼvolarini isbotlash uchun Hesiodning tarjimai holini misol qilib keltirishadi. Shoir tugʻilib oʻsgan Kim shahri haqida ozmi-koʻpmi maʼlumot saqlangan. Buning ustiga keyinchalik turli xil sabablarga koʻra, Beotiya viloyatiga borganligi, Askra degan joyda yashab, umrguzaronlik qilganligi haqida manbalar mavjud. Hesiodning nomi hayetligidayeq Geshkok togʻining chor atrofidagi katta-kichik qishloq va shaharlarga yeyilib borgan, Yunonistonning boshqa viloyatlariga ham maʼlum va mashhur boʻlgan.

Hesiod ijodida urush mavzusi asosiy oʻrindadir. Uning deyarli barcha asarlari Yunon-Troya atrofida boʻlib oʻtgan urush voqealariga bogʻishlangan. Birgina goʻzal Yelenani deb qanchadan-qancha kishilar qon toʻkishgan. Axir, butun boshli Troya yer bilan yakson boʻldi. Uning ustiga oʻn yildan ortiq qamal azobini tortgan shahar ahlining chekkan azoblarini aytmysizmi?!

Hesiodning “Mehnat va kunlar” asari pand-nasihat, didaktika mavzusiga bagʻishlangani uchun ham Yunon pedagogikasi sahifalarini bezatib turibdi, hattoki Gʻarbdagi koʻpgina davlatlarda pedagogika tarixini oʻqitishda asosiy qoʻllanma vazifasini oʻtaydi.

Qadimgi Yunon adabiyotida mifologik xarakterdagi hikoyalar juda ko'p topiladi. "Mehnat va kunlar" poemasi ayrim ma'budalar insoniyatning yevuz dushmani, ayrimlari insoniyatning xaloskori, madadkori sifatida talqin etiladi. Prometey, Dionis, Demetra kabilar insonning do'sti, har doim yerdam beruvchisi sifatida ta'riflangan.

Hesiod Zevs obraziga katta urg'u beradi. Muqaddas olovni Olimp tog'idan olib, insonga hadya etgandan so'ng, Prometey Zevsning qahriga uchrab, og'ir jazoga muhtalo bo'ladi. Zevs bu bilan cheklanib qolmasdan insonga yevuzliklar qilib, beaded qirg'inlar keltiradi. Yasama go'zal Pandorani Prometeyga hadya etadi. Aslida bu go'zalni Zevsning topshirig'i bilan temirchilar piri Gefest tuprog' bilan suvdan yasab, uning ichiga kasallik tarqatuvchi zahar solib yuborgan. Bir kuni undan zahar otilib chiqib, hamma yeqni zaharlab, natijada son-sanoqsiz insonlar qirilib ketgan. Odatda ma'bud va ma'budalarni ulug'lashgan. Hesiod, boshqalardan farqli o'laroq, ma'bud va ma'budalardan nafratlanadi. Ularni qarg'aydi, inson zotining dushmani deb biladi.

Poemadan keng o'rin egallagan "Burgut va bulbul" masali ham mazmunan nihoyatda boydir. Shoir bulbulni og'ir mehnat qilib, mashaqqatli hayet kechiruvchi oddiy xalq vakiliga, burgutni zolim, boy-badavlat kishilarga o'xshatadi. Asardagi voqealar "O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan", degan xalq maqolini eslatib turadi. Burgut panjalari orasida bulbulni changallab, osmonga uchib, xoxlasa qonini ichib, ezib tashlashi mumkin. Bechora bulbul qancha qichqirmasin, har qancha tipirchilamasin ojizligicha qoladi.

Hesiodning xosiyatli va xosiyatsiz kunlar, oy va yillar taqvimiga oid naqlari ham ruhiyat bilan bog'liq lavhalardi. Shu jihatdan olib qaraganda, poemaning ilmiy-ma'rifiy ahamiyati ham kattadir.

Jahon adabiyotida "Tragediyaning otasi" deb shuhrat qozongan Esxil Yunon tuprog'idagi Elivsin degan shaharchada dunega keladi. Yigitlik davrida Eron-Yunon urushida, Marafon, Plateya, Salamin shaharlari uchun bo'lgan shiddatli janglarda ishtirok etadi.

Ijodiy faoliyati davomida 90 ga yaqin tragediya yezgan bo'lib, bizgacha faqat yettitasi yetib kelgan. "Eroniyalar", "Fivaning yetti dushmani", "Iltijogo'ylar", "Zanjirband Prometey", "Oresteya", "Agamemnon", "Xoyeforlar", "Evmenidalar" shular jumlasidandir.

Esxilning barcha tragediyalari qatori, "Zanjirband Prometey" tragediyasi mifologik xarakterga ega bo'lib, biz uchun tarixiy ahamiyat kasb etadi. Tragediya qahramoni Prometey viqorli Kavkaz tog'iga zanjirband qilinar ekan, bepoyen

skiflar o'lkasiga, amazonkalarning yastanib yetgan keng vodiylariga nigoh tashlaydi.

Esxilning "Zanjirband Prometey" asari inson qalbini rom etadi. Prometey Olimp tog'idagi muqaddas olovni yashirin tarzda olib, insonga hadya etmoqchi bo'ladi. Axir, buning nimasi gunoh? Yaxshilik qilish savob-ku!

Bunday voqealar juda ko'p bo'lgan. Bir paytlar Dionis ham insonning nihoyatda qashshoq yashayetganini ko'rib, chiday olmagan. Olimp tog'idagi kuch-quvvat, go'zallik bag'ishlovchi Embroziya, Nektar muqaddas taomlarini o'zining yaqin do'stlariga, inson zotiga ulashgan edi-ku! Bu yaxshiligi uchun o'shandan buyen to hozirgacha insoniyat uni olqishlaydi. Prometey ezgulik yo'lida muqaddas olovni hadya etsa nima bo'libdi?

Bu voqeani eshitgan Zevs tutaqib ketadi. Nihoyatda darg'azab bo'lib, qahrlandi, "O'g'li gunohi uchun uzr so'rashi kerakligini" aytadi. Biroq, Prometey bu taklifga rozi bo'lmagach, o'g'lini jazolashga azmu qaror qiladi. Shundan so'ng, Prometeyni Kavkaz tog'ining baland cho'qqisiga zanjirband qilishni buyuradi. Prometeyni yechib bo'lmas mustahkam zanjir bilan baland cho'qqining tepasiga zanjirband qiladilar. Prometeyning Kavkaz tog'i cho'qqisiga zanjirband qilinishi diqqatga sazovor.

Yustin va Pompey, Trog asarlarida ta'kidlanganidek, fessaliyaliklar kolxidlar yurtiga, Kavkaz o'lkalariga oltin junli terini qidirib kelar ekan, g'aroyib va ajoyib voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rib hayratga tushadilar. Aytishlaricha, qadim zamonlarda bu ulug'vor Kavkaz tog'larida Prometey zanjirband qilingan ekan. Bu haqda Esxil o'zining "Zanjirband Prometey" tragediyasida shunday satrlarni bitadi:

*Yerning olis hududiga, kimsasiz joyga,
Vahshiy skif yeboniga mana biz keldik.
Endilikda qiladigan vazifang, Gefest,
Ota amrin bajo aylab-bu badkirdorni
Osmon qadar yuksaklashgan metin qoyaga
Zanjir bilan o'rab-chirmab bandi etishdir.
Sening porloq chechagingni, muqaddas o'tni,
O'g'irlab u foniylarga armug'on qildi.
Shu gunohchun jazo bergay ma'budlar unga,
Zero nuqul elparvarlik qilavermasdan,
Zevs taxtin sevmaklikni o'rganib olsin.*

Bu o'rinda Esxil o'z qahramoni Prometeyning skiflar o'lkasidagi baland qoyaga zanjirband qilinganini ta'kidlamoqda. Bundan ko'rinadiki, skiflar nomi

o'sha antik zamonlardayeq olis Fessaliya viloyatiga yetib borgan. "Bir necha kun o'tgach, - deb yezadi Arrian o'zining "Aleksandrning yurishi nomli memuar asarida, - Aleksandrning oldiga abiylar deb nomlangan skiflarning elchisi keladi. Gomer ularni o'z poemasida juda adolatparvar kishilar, deb aytgan. Skiflar adolatparvar va haqiqatgo'y bo'lganliklari uchun ham hech kimga qaram emasdi". Mana shu fikrdan o'sha qadim zamonlardayeq skiflar uzoq Elladaga ma'lum va mashhur bo'lganligi ma'lum.

Kursiy Ruf ham o'zining "Aleksandr Makedonskiy tarixi" asarida Prometeyning Kavkaz tog'larida zanjirband qilinganligi haqida qimmatli fikrlarni keltirib o'tadi. Muhimi shundaki, yunonliklar qadimda shimol tomonlarga – G'arbiy Yevropa tomondagi etaklarga emas, Sharq tomonga – Osiye o'lkalariga ko'proq qiziqqanlar. Shuning uchun ham qadimgi Yunon adabiy yedgorliklarida ko'proq skiflar mamlakati, Kavkaz tog'lari, Panta bo'ylari, kolxidlar o'lkasi tilga olinadi.

Fessaliyaliklarning qadimgi yodnomasi bo'lgan "Ellada qahramonlarida Prometey Kavkaz tog'larida zanjirband qilingani va bunday og'ir jazoga mahkum etilishining sabablari shunday hikoya qilinadi: yason "Argo" degan tez yurar kema qurib, oltin junli terini olib kelish uchun Gretsiya qahramonlari bilan uchta dengizdan suzib o'tib, Kolxidaga borishga chaqirganda qudratli Gerakl ham jusur argonavtlarga qo'shiladi.

Biroq yo'lda "Argo" noma'lum bir o'lka qirg'og'ida to'xtaganda Gerakl qirg'oq yaqinidagi o'rmonga kirib, uzoqqa ketib qoladi va o'z vaqtida kemaga qaytib kelmabdi, shunda argonavtlar uni tashlab ketibdilar. Gerakl esa quruqlikdan mamlakatning ichkarisiga yo'l olibdi va ko'p o'tmay bir toqqa yetibdi. Uning qarshisida ajib bir yevvoyi o'lka namoyen bo'libdi. Yuksak tog'lar tizilib turar, ular etagida yakkam-dukka daraxtlar o'sgan, cho'qqilar esa mangu qor bilan qoplangan ekan. Qahramon toqqa ko'tarilgan sari yo'l og'irlashib, o'tib bo'lmaydigan bo'la boshlabdi. Oxiri u dengiz chetida qad ko'tarib turgan yalong'och qoyaga chiqibdi. Shunda birdan Geraklni birov chaqirib qolibdi, u qayrilib qarab, qoyaga mixlab qo'yilgan Titanni ko'ribdi. Gerakl rostgo'ylik ma'budasi Femidaning o'g'li Prometeyni tanibdi. Qadim zamonda yer yuzida odam juda kam ekan. Ular o'lja ketidan quvib, hayvonlarni ovlab yurishar, xom go'sht, yevvoyi meva va ildizlarni yeyishar, hayvonlarning terisini yepinib yurishar, yeg'ingarchilikda g'orlarga hamda daraxtlarning kavagiga bekinishar ekanlar. Ularning aqli yesh bolanikiday ekan, ular o'z hayetlarini qurishga ojiz, yevvoyi hayvonlar va tabiatning dahshatli kuchi qarshisida himoyasiz ekanlar. Prometeyning odamlarga rahmi kelib, ularga yerdam qilmoqchi bo'libdi. U o'z

do'sti, Zevsning o'g'li – temirchilik xudosi va ustasi Gefestning oldiga jo'nabdi. Gefestning ustaxonasi Lemnos orolidagi yenar tog'ning tagida ekan. Katta qo'rada muqaddas o't lovullab yenar, bu o't bo'lmasa hech kanday ish, hech qanday huran bo'lmas ekan. Gefestning ustaxonasida bir ko'zli usta pahlavon – Kikloplar ishlashar ekan. Gefestning o'zi oltindan quygan ikkita haykal ustaxonada tirikday yurib turarkan. Cho'loq temirchi yurganida ularga tayanar ekan. Prometey Gefestni ish ustida uchratibdi. Temirchi xudo chaqmoq chaqar, Zevsga o'tli yashin o'q-yeylar yasar ekan. Prometey Gefestning mohirlik bilan ishlashini tomosha qilib turibdi. Kikloplar bosqon bilan qo'radagi o'tga dam beribdi, ustaxona ichida yalt-yult etib, uchqunlar ucha boshlabdi, shunda Prometey muqaddas uchqundan bittasini ushlab olibdi-da, qo'lidagi qamish, poya ichiga bekitibdi. Prometey muqaddas o't uchquni solingan ana shu qamishni odamlarga keltirib beribdi, shundan keyin odamlar shu uchqundan yer yuzida gulxanlar yendirib, o'choq va qo'ralarga o't yeqishibdi. Biroq, dune hukmroni Zevs Prometeydan qattiq g'azablanib, muqaddas o't o'g'risini qattiq jazolashga ahd qilibdi. Prometeyni dunening bir chekkasidagi kimsasiz tog'li o'lkaga olib borish uchun o'z xizmatkorlarini yuboribdi. Gefestga esa Titanni toqqa zanjir bilan bog'lab qo'yishni buyuribdi. Prometey o'z do'sti bo'lgani uchun bu ishni bajarish Gefestga juda og'ir bo'libdi, biroq Zevsning xohishi shunday ekan. Gefest Prometeyning qo'l-oyeg'iga kishan uribdi, mahkamd zanjir bilan uni katta toshga bog'labdi, ko'ksiga olmos tig' urib, qoyaga mixlab tashlabdi. Zevs Prometeyga bir umr, asrlar bo'yi shu qoyaga zanjirband bo'lib qolishni amr qilibdi.

Gerakl Prometey bog'langan zanjirni uzib tashlab, uning ko'krigidan olmos tig'ni sug'urib olibdi. Ozod qilingan Prometey qaddini rostlabdi, ko'kragini to'ldirib nafas olibdi va charog'on ko'zlari bilan yer yuziga, unga ozodlik olib kelgan, xudolar bilan yarashtirgan qahramonga boqibdi. Zevs Gefestga Prometey bog'langan zanjirning bir halqasidan uzuk yasab, unga Titan mixlab qo'yilgan qoya parchasidan ko'z solishni buyuribdi. Zevs Prometeyga bu uzukni aslo qo'lidan qo'ymay, hamma vaqt taqib yurishni buyuribdi, bu dune zanjirband qilinganligiga ishora ekan.

Sofokl Afinaning oliy davlat lavozimi strateglikka (mil.avv.441) saylanadi. Samos deb nomlangan qirg'inbarot janglarda ishtirok etadi. Oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida 120 dan ko'proq asar yezadi. Biroq ularning ko'pi bizgacha yetib kelmagan.

Antik zamonlarda keng tus olgan dramatik shoirlar musobaqasida 4 marta g'olib bo'lgan. Sofokl o'z zamonasida ko'p variantlarda tarqalgan Edip Lay haqidagi afsonalarga katta qiziqish bilan qaraydi. Bunday afsonalar syujeti asosida

“Shoh Edip”, “Edip Kalonda”, “Antigona” deb nomlanuvchi trilogiya yezadi. Bundan tashqari “Aske”, “Elektra”, “Filokten”, “Graxinari ayellar” asarlari ham jahon adabiyotining qadimiy durdonalaridandir.

Yunonlar bilan misrliklar o‘rtasida o‘z shaharlarining qadimiyligini isbotlovchi bahslar hali davom etardi. Albatta, madaniyat va san’atning qadimdan rivojlanganligi xususida gap ketganda Afinaga teng keladigani yo‘q. Biroq misrliklar Fiva shahri bir vaqtlar gullab-yashnaganida Afinaning tamal toshi ham qo‘yilmagan edi, deb istehzo qiladilar. Ehtimol shunday bo‘lgandir. Qadimda Fiva qirq darvozali mustahkam shahar bo‘lgan emish. Ularning tili hozirgi arab tiliga o‘xshamagan, boshqacha bo‘lgan. Yana bir isbot uchun Misr ehromlarini ko‘rsatishadi.

Fiva podshohi Lay befarzandlikdan qiynalar edi. Podshohlikning ham intihosi bo‘ladi. Bir kuni kelib, keksayib qolsa toju taxtni kimga topshiraman, deb ko‘p o‘ylanar ekan. Ko‘pdan buyen qiynab yurgan bu dardini ibodatxona koxinlariga yetkazganlarida, koxinlar Layning farzand ko‘rajagi haqida vahiy kelganligini xabar qilishadi. Ammo bu o‘g‘il farzand yillar o‘tib otasini o‘ldirajagi ham shohga yetkaziladi. Haqiqatdan ham, oylar o‘tib Layning xotini o‘g‘il farzand tug‘adi. Podshoh Lay xursand bo‘lish o‘rniga sarosimada qoladi. Axir, koxinlarning karomati to‘g‘ri bo‘lib chiqdi-da.

Bir kun kelib o‘g‘lining o‘ldirib qo‘yishidan cho‘chigan Lay yarim tunda chaqaloqni xizmatkori qo‘liga topshirib, hech kimga sezdirmasdan o‘rmondagi yirtqich hayvonlarga tashlab kelishni buyuradi. Yo‘lda ketayetganda chaqaloqqa rahmi kelib xizmatkor o‘g‘ilchani qo‘shni mamlakat podshohligiga berib qaytadi. Yillar o‘tib kuchli bo‘lib o‘sgan bolakay safar qilib kelish niyatida yo‘lga tushadi. Daradagi torgina yo‘lda xayel surib ketayetgan yigitga bezatilgan aravani qo‘riqlab kelayetgan qo‘riqchi dag‘dag‘a bilan “Qoch yo‘ldan!” deydi. Bundan g‘azablangan yigitcha soqchini oti bilan pastlikka uloqtiradi. Bundan sarosimaga tushgan ikkinchi soqchi nayzasini o‘qtaydi. Ikkinchi soqchi ham o‘ldirilganini kuzatib turgan aravadagi bir chol hassasi bilan do‘q-po‘pisa qiladi. Yo‘lovchi cholning hassasini tortib olib, boshiga chunon uradiki, qariya bechora til tortmay o‘ladi. Bu fojidan xabardor bo‘lib turgan orqadagi uchinchi soqchi qochib qoladi. Shundan so‘ng yo‘lovchi yigitcha hech narsani ko‘rmagandek bamaylixotir Fiva shahriga kirib keladi. G‘am-anduhga botgan shaharliklar dengizda Sfinks degan maxluq paydo bo‘lganligini, shahar ahlini yeb quritayetganligini aytishadi. Biroq Sfinks balosidan qutilish oson emas. bu bahaybat maxluqqa hech kim bas kela olmaydi. U shunday murakkab topishmoqlar beradiki, javob topa olmagan shu zahoti yutib yuboradi. Podshoh saroyida aqlli, bilimdon bo‘lib o‘sgan yo‘lovchi

shahzoda Sfinksning “Qanday maxluq ertalab to‘rt, kunduz kuni ikki, kechasi uch oyeqlab yuradi” degan savoliga “odam” deb javob berganidan so‘ng, maxluq dengiz qa‘riga tushib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bu voqeadan behad shodlangan Fivaliklar yigitni hech ikkilanmay Fiva taxtiga o‘tqazishadi va unga Edip deb nom berishadi. Qadimiy odatlarga ko‘ra, shoh Edip Layning xotiniga uylanadi. Malikadan ikki qiz, ikkita o‘g‘il ko‘radi.

Yillar o‘tib Fivada dahshatli vabo kasali tarqaladi. Kasallikka davo topilmaganligi sababli xalq ibodatxonaga murojaat qiladi. Ular avvalgi shoh Layning qotili topilgan kuni bu balodan qutilishi mumkinligini bashorat qilishadi. Ancha yillar oldin bu voqeadan xabardor bo‘lib, qochib qolgan soqchini topib, haqiqatni bilib oladilar. Ming afsuski, Layning qotili shoh Edip bo‘lib chiqadi. Xizmatkor Edipning chaqoloqligidan tortib hozirgacha bo‘lgan voqeani saroy ahliga so‘zlab beradi. Bu mudhish voqeadan dahshatga tushgan malika ichkariga kirib ketadi. Shoh Edip o‘z onasiga uylanganligi va undan bir nechta farzand ko‘rganligini anglab, xotining ortidan boardi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, u o‘zini osib ko‘ygan edi. U sarosimada onasining yeqasidagi to‘g‘nog‘ichni olib ikki ko‘zini sitib tashlaydi. Ikki ko‘zi so‘qir Edip xalqning va farzandlarining qahriga uchraydi. Shu tariqa shoh Edip fojiasi yakun topadi.

Rivoyat qilishlaricha, shoh Edip shaharni tashlab ketgandan so‘ng Fivaning boshiga musibat tushib, xarobaga aylanibdi.

Qadimgi Fiva, Afina, Rim kabi muhtasham shaharlar bo‘lib, ular dushman bostirib kirishi mumkin bo‘lmagan mustahkam devorlar bilan o‘ralgan bo‘lgan. Shuning uchun mamlakat shahar nomi bilan atalib, shahar-davlatlar deyilgan. Sofoklning ko‘pgina asralari man shunday shahar-davlatlardagi voqealarga bag‘ishlangandir. Ne-ne shaharlar, davlatlar yo‘q bo‘lib ketdi, lekin Sofoklning nomi hali-hamon yashab kelmoqda.

Gomerdan so‘ng yaratilgan epik dostonlarning hammasi, uning qanday afsonalar haqida hikoya qilishlariga qarab ayrim sikllarga (turkumlarga) bo‘linadi. Masalan: Troya urushidan bahs etuvchi dostonlar «TROYA SIKLI» (turkumi) dostonlari, Fiva shahri haqida to‘qilganlari «FIVA SIKLI» (turkumi) dostonlari deb ataladi. Shunga asosan bu dostonlarga Turkum dostonlar (sikl dostonlar) nomi berilgan.

Turkum dostonlarda ko‘pincha xalq og‘zida aytib yurilgan miqlarning ma‘lum bir qismi bayon etiladi. Shu bilan birga bir doston voqeaning boshlanishi haqida gapirsa, ikkinchisi uning keyingi qismini davom ettiradi. Chunonchi, Troya turkumiga kirgan «KIPRIYA» poemasi Troya urushining sabablari, ya‘ni «ILIADA» dostoni voqeasiga qadar bo‘lib o‘tgan voqealar tasvir etilgan. Bunda

yerning odamzod naslidan Zevsga shikoyati va Zevsning odam bolasiga qiron keltirish maqsadida urush olovini yoqishga qaror beradi. Shundan keyin ma'budlar hukmroni o'z qizi Yelenani bunyod etadi. Dengiz ma'budasi FETIDANI FESSOLIYA PODSHOHI PELEYGA xotinlikka uzatadi. Tantanali to'yga adovat ma'budasi ERIDDAdan boshqa Olimp tog'ining hamma ma'bud va ma'budalari taklif etilgan. Bundan qattiq ranjigan Erida «SOHIBJAMOLGA» degan so'z yozilgan oltin olmani bildirmasdan bazmgoh ahillari orasiga tashlaydi. Bu «adovat olmasi» edi. Bu olma GERA, AFRODITA va AFINA lar o'rtasida darhol ixtilof tug'diradi. Zevs bu janjalni Troya yaqinidagi «Ida» tog'i etagida mol boqib yurgan PARIS degan podachining izmiga havola qiladi. So'ngra Afroditaning olmani olishi, Parisning Yelenani olib qochishi voqealari bilan bu doston nihoyasiga yetadi. Dostonning keyingi voqealari Agamemnon boshchiligida Troya urushiga o'tlanish taraddudiga bag'ishlanadi.

Troya urushi tugagandan keyin qimmatbaho o'ljalari bilan o'z yurtlariga qaytayotgan Yunon sarkardalarining sarguzashtlari «Qaytish» nomi ostida tarqalgan bir nechta dostonlarda tasvir etiladi.

Troya urushi afsonalarining xotima qismi «TELEGONIYA» dostonida tasvir etilgan. Bu doston asosan Odisseyning so'nggi kunlariga bag'ishlangandir.

Gomer madhiyalari. Shoirning poemalaridan tashqari Gomer gimnlari ostida bizga qadar kattakon qo'lyozma to'plam ham yetib kelgan. To'plamda hammasi bo'lib 34 ta doston bor. Shulardan ikkitasi «Iliada va Odissey»dir, keyingi ikkita asarni hisobga olmaganimizda qolgan dostonlarning ko'pchiligi 15-20 she'rdan oshmaydi. To'plamga kirgan madhiyalarning eng yirigi ma'bud va ma'budalardan Germes (jarchi), Appolon (yorug'lik, san'at, she'riyat), Dimetra (hosilot ma'budi), Afrodita (go'zallik), Dionis (Zevs bilan Smeladan tug'ilgan dumdor echki tuyuq hamrohlari satirlar hamda hosildorlik, may, shodlik va sarxushlik rahnomosi) larga bag'ishlangan.

DIMETRA—madhiyasida hosilot ma'budasining qizi PERSEFONA ning yo'qolishi, jahannam hukmroni AID qizni olib qochishi, yer yuzining hosil bermay qolishi, ma'budlarning iltimosiga asosan Dimetraning Olimp tog'iga qaytishi hikoya qilinadi.

APPOLON sharafiga aytilgan ikki madhiyaning birida san'at ma'budining tug'ilishi, ikkinchisida PIFON degan ajdaho bilan olishib uni yengganligi va DELFA ibodatxonasini bino qilganligi hikoya qilinadi.

GERMES haqida aytilgan madhiya o'zining o'ynoqi uslubi va hajviy mazmuni bilan to'plamning boshqa madhiyalaridan farq qiladi. Asarning muallifi firibgar ma'budning kirdikorlarini uning tabiatiga monand iboralarda ta'rif etadi.

SAVDO VA O'G'IRLIK ma'budi ertalab tug'iladi, tush paytiga kelib toshbaqa kosasida yetti torli kifara yasaydi, kechqurun o'z akasi Appolonning sigirlarini o'g'irlab ketadi.

AFRODITAg aytildigan madhiyada go'zallik ma'budasining Troyalik cho'pon yigit Anxisga bo'lgan muhabbati va muhabbatning samari o'laroq latin xalqini yer yuziga taratgan ENEY ning dunyoga kelishi bayon etiladi. Bu asar muhabbatnomaga o'xshaydi, o'zining badiiy qiymati bilan to'plamdagi hamma madhiyalardan ustun turadi.

DIONISga bag'ishlangan madhiyada uning qaroqchilar tomonidan o'g'irlab ketilishi, uzoq vaqt bandilikda ushlab turishi, badaliga katta jarima talab qilishi Dionisning kema havozalarida bosh-bosh uzum paydo qilishi, keyin sharob qilib sepib yuborishi va bir aylanib sher tusiga kirishi, qaroqchilarning undan qo'rqib o'zlarini dengizga otishi va delfinlarga aylanib qolishi voqealari tariflanadi. Gomer madhiyalari yunon mifologiyasi va dinini o'rganuvchi kishilar uchun juda qimmatbaho manbadir.

Gesiodning adabiy faoliyati. O'z zamonasidan norozi bo'lgan dehqon ommasi ayniqsa uning kambag'al va qashshoq tabaqalari, to'qlik va ma'murchilik kunlari qabilida tasavvur etilgan uzoq patriarxal davrlarni qo'msaydi. Mana shu kayfiyatlar tamomila yangi adabiy janrni—didaktik (pand nasihat) eposni tug'diradi. Didaktik eposning yunon adabiyotidagi eng birinchi namunasi Gesiodning «Mehnat va kunlar» poemasidir.

Gesiodni eramizdan oldingi VIII-VII asr boshlarida yashagan deb taxmin qiladilar. «Mehnat va kunlar» dostonidan tashqari «Teogoniya» (ma'budlarning paydo bo'lishi), «Ayollar jadvali» nomi bilan ataluvchi asarlar ham bevosita Gesiodning nomi bilan bog'liq.

Yunon lirikasining turlari. Yunon tilidagi «lirika» so'zi cholg'u asbobi liraning nomidan kelib chiqqan bo'lib, ma'nosi «musiqa jo'rligida ijro etiluvchi she'r» demakdir. Bu atama lirik she'riyatning rivojlangan davridan anchagina keyin taxminan eramizdan avvalgi III–II asrlarda ellinizm zamonasi olimlari tomonidan iste'molga kiritilgan. Shu paytga qadar yunonlarning o'zlari mazkur turkumga aloqador bo'lgan asarlarning hammasini «Melos», «Melika» ya'ni «Qo'shiq» deb ataganlar. Ma'lumki, asrlar davomida qadimgi yunonlar lirik she'riyatni boshqa turli vositalar, masalan, qo'shiq, musiqa asbobi hatto raqs bilan bog'lagan holda tasavvur etib kelganlar. Shu sababli har bir lirik shoir bir vaqtning o'zida ham muallif, ham bastakor, ham raqs ustasi bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan lirikaning Yamb hamda Elegiya deb ataluvchi ba'zi oddiy turlari asta-sekin musiqadan uzoqlashib faqatgina o'qish uchun moslangan adabiy janrga aylanib

qoladi. «Melos» iborasi esa yolg'iz ko'ngil hislarini ifoda etuvchi she'rga nisbatan ishlatiladi, bu toifa asarlarning musiqa bilan bog'liqligi yana uzoq vaqtlar davom etadi. Lirikaning turlarga ajratish alomatlaridan biri vazndir. Epik dostonlarning gekzometr o'lchovidan boshqa shakllarda yozilgan asarlarning hammasi lirikaga qo'shilgan va shu mezon asosida ularni «elegiya», «yamb» hamda «melos» turlariga ajratganlar.

Asl lirika deb tanilgan va uzoq asrlar musiqaviy kuy xususiyatini saqlab qolgan «melos» janri o'zining mazmuni va qanday voqealarga atalganligiga qarab yana ikki turkumga bo'linadi: yakka xonanda tomonidan ijro etiluvchi–monodik lirika va ko'pchilik tomonidan ijro etiluvchi–xor lirika.

Qadimgi zamon ellin tilida yozilgan she'riy asarlarning hammasi uzun va qisqa hijolarning almashuvi asosiga qurilgandir. Buni aniqroq ifodalash uchun, odatdagidek qisqa bo'g'inlarni egri chiziq (U), uzun bo'g'inlarni to'g'ri chiziq (-) shakllari bilan belgilasak, shu belgilarning ma'lum tartibda takrorlanishi yunon she'riyatining vaznini hosil qiladi.

Yunon she'riyatidagi GEKZAMETR vazni olti turoqdan iborat bo'lib, bu turoqlarning har qaysisi DAKTIL deb atalgan bir uzun ikki qisqa (- U U) bo'g'indan tashkil topadi. She'rning ohangdor bo'lishi uchun oxirgi turoq SPONDIY deb ataluvchi ikki uzun hijo (- -) bilan almashtirib talaffuz etiladi va natijada tubandagi she'riy misra hosil bo'ladi.

ELEGIYA – ning vatani Kichik Osiyodagi Fregiya viloyati bo'lgan. Bu janrning nomi ham chamasi shu yerning xalqi tilidagi elegn (qamish) so'zidan olingan bo'lib, bu toifa asarlarning ushbu o'simlikdan yasalgan musiqa asbobi fleyta (nay) jo'rligida ijro etilishiga ishora qilinsa kerak. Hozirgi zamon adabiyotshunoslik ilmida hazin tuyg'ularni ifoda etuvchi she'riy asarlar shu nom bilan yuritiladi. Elegiyani bu ma'noda tushunish qadimgi yunonlar uchun tamomila begona. Elegik asarlarda ular aksincha ruhiy tetiklik kayfiyatlarini, botirlik g'oyalarini, jangovor hislarni talqin etganlar. Biroq elegiyaning xususiyatlarini belgilaydigan asosiy o'lchov uning mazmuni emas, balki vaznidir. Shu qoidaga ko'ra «Elegik bayt» deb ataluvchi maxsus vaznda yozilgan har qanday she'riy asarni mazmunidan qat'iy nazar, shu janrga kiritganlar. Elegik baytning birinchi misrasi gekzometr. Ikkichi misrasi–PENTAMETR nomi bilan yuritiladigan besh turoqli vazndan tarkib topgandir. Pentametrning gekzametrdan farqi shuki, uchinchi va oltinchi turoqlaridagi qisqa hijolar tushirib qoldirilgan. Shu sababli misrani ikki teng qismga ajratadigan uchinchi turoqning uzun hijosidan so'ng pauza qilmoq lozim.

YAMB–atamasining kelib chiqish tarixi ham ancha qorong‘u. Qadimgi rivoyatlarda bu so‘zni ma’buda DEMETRA afsonasi bilan bog‘laydilar. O‘z qizi Persefoning yo‘qolganligidan qattiq iztirob chekkan Demetra, (qizini zulmat ma’budi Aid o‘g‘irlab yer ostiga olib ketadi) ma’budlarga g‘azab yuzasidan Elivsin podshohi Keley xonadoniga enaga bo‘lib yollanadi. Shu xonadonning Yamb degan sho‘x va o‘ynoqi qizi g‘alati askiyalar, qiziq-qiziq gaplar aytib ma’budaning ko‘nglini ochishga uni biroz kuldirishga muyassar bo‘lgan ekan.

Afsona YAMB (vaznining) she’rlarining mazmuniga qarab to‘qilgan bo‘lsa kerak. Chunki bu janrning o‘zi xalq adabiyotida hazil-mutoyibalarni, tanqidiy fikrlarni ifoda etuvchi she’riy vazndan olingan.

Bu janrning tashqi alomatlari, barcha lirik asarlar kabi, yana o‘sha vazn xususiyatlari bilan belgilanib asosan YAMB (U-) hamda troxey (-U) deb ataluvchi turoqlardan to‘qiladi. Bu turoqlar nihoyatda qisqaligi vajidan, ularni juft-juft qilib ishlatganlar va natijada “yamb uchligi” nomi ostida shuhrat topgan olti turoqli vazn maydonga kelgan.

Bizga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi elegiya janrida ijod qilgan shoirlardan biri Kallindir. Shoiridan bizgacha 23 yo‘l she’r yetib kelgan. Keyingi shoirlar Spartalik TIRTEY dir, uning elegiyalari butun Yunon olamida juda keng tarqalgan. Shoirning asarlari jangga ketayotgan lashkarlarning jangovor qo‘shig‘iga, maktab talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi darslikka aylanib ketgan.

Insonning shaxsiy tuyg‘ulari birinchi marta Yunonistonning yirik shoiri Tirteyning zamondoshi AXILOX (VII asrning o‘rtalari) ijodida o‘zining yorqin ifodasini topadi. Bu shoirlar qatoriga 635-559 yillarda yashab ijod etgan Solonni ham qo‘shishimiz mumkin. Shoir Feognid ham shular jumlasidandir.

MONODIK lirika–poeziyaning oddiy turlari hisoblangan Yamb va Elegiya bilan birga VII-VI asrlarda modonik ya’ni yakkaxon lirika ham benihoya tez taraqqiy etadi. She’riyatning bu turi xalq adabiyoti va musiqaning bevosita ta’siri ostida bunyod bo‘ladi. Bu janrning vatani bo‘lmish Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘og‘idagi kattagina Lesbos orolida tug‘ilib o‘sgan ikki ulug‘ shoir ALKEY, SAPFO lar ixtiro etgan turli tuman vaznlar bilan MONODIK lirikani mislsiz yuksak san’atkorlik cho‘qqisiga ko‘taradilar. Uning mazmunini o‘sha paytga qadar yunon poeziyasida ko‘rilmagan chuqur insoniy his va tuyg‘ular bilan sug‘oradilar. Sapfoning 2 tashe’ribizgachato‘liq yetibkelgan.

Keyingi shoirlardan biri ANAKREONT–u o‘z she’rlarida faqatgina may va sevgini madh etadi.

Dramaning hamma turi diniy marosimlardan kelib chiqqanligi sababli qadimgi yunonlar bunga etiqod bilan qaraganlar.

Esxil jahon adabiyotida san'at gultoiji tragediyaning otasi sifatida tanilgan. Esxil Perikl davrida yashadi. Demokratik jamiyat tarafdori shoir o'z asarlarida ijtimoiy-siyosiy qarashlarini unchalik yashirmagan.

Uning «Oristeya» trilogiyasida Troya urushi va uning mudhish oqibatlarini to'laqonli ochib beradi. Esxil ijodining cho'qqisi «Zanjirband Prometey». Shoir Asqar Qosimov ushbu asarni tarjima qilgan. Sofoklning «Shoh Edip» tragediyasi Asqad Muxtor tomonidan tarjima qilingan.

Shu asrning yana bir yirik tragediyanavisi Evripiddir. Uning 92 asaridan 17 ta yetib kelgan Evripid o'z asarlarida san'atdagi inson tasvirini, hayotdagi inson tasviriga yaqinlashtiradi, taqdirning shafqatsiz zarbalariga bardosh beruvchi qahramon qalbida mardlik oliyjanoblik samimiy muhabbat tuyg'ulari bilan birga har xil tubanliklar, yovuzliklar ham yashiringanligini o'z asarlarida «Elektra» tragediyasida qahramon ayol mutlaqo yovuz sifatida olinsa, «Medeya»da go'zallik donolik, muhabbat va sadoqat timsoli, boshiga ketma-ket musibat baxtsizliklar yog'ilgan ayol sifatida ko'rsatilgan.

Komediya tragediyaga nisbatan keyinroq rivojlangan. Yunon komediyasi 2 qismga o'rta asr va yangi davr komediyalariga bo'linadi. Aristofon qadimgi komediyaning yagona vakili. Komediya so'zi-yunoncha komoslar qo'shig'i degan ma'noni bildiradi. Komos deb esa to'ydan keyin ko'chalarda to'da-to'da bo'lib xursandchilik qiluvchi kishilardir.

V-IV asrlardagi nasriy shakl yunon adabiyotining yetakchi turidir. Tarixiy prozaning birinchi vakili-Gerodot.

Fukidid-tarixiy prozaning ikkinchi vakili. Notiqlik san'atining asl vatani Sitsiliyadir. Uni V asrda adabiy janr holida safistlar yaratganlar. Liysing, Demosfen, Sitseron va boshqalar o'z nutqlarida xalq hayoti va ijtimoiy hayotdagi tengsizliklarni qoralab xalqni o'z nutqlari bilan ozodlikka chaqirganlar. Falsafiy prozada Platon, Aristotel mashhur.

V asrga qadar yunon tuprog'ining eng madaniy markazi Kichik Osiyodagi Ioniya viloyati hisoblanib kelingan bo'lsa, rosa yarim asr (499-449) davom etgan Eron-Yunon urushida Yunonlar g'alaba qozonganlaridan so'ng, ilmu-fan, san'at va madaniyat markazi Afina davlatiga ko'chadi. Adabiyot sohasida Afinaning mavqei shu qadar ulug'ki, V-IV asrlar adabiyoti shu muazzam shaharda o'rnashgan ATTIKA viloyatining nomiga nisbat berilib, YUNON ADABIYOTINING ATTIKA DAVRI deb ataladi. Afina o'zining iqtisodiy va ma'naviy kamolotiga V asrning 50-30 yillarida, ya'ni Afina davlati tepasida PERIKL turgan vaqtda erishdi.

Perikl o‘z zamonasining nihoyatda ishbilarmoni, davlat arbobi, otashin notiq, odamlarda tashabbuskorlik ishtiyoqini uyg‘otishga mohir ilmu-fan, san‘at va adabiyotga qiziqqan bir shaxs edi. U butun yunon olamidan faylasuflar, olimlar, shoirlar va san‘at ahllarini Afinaga to‘playdi. Periklga yaqin turgan, uning ishlariga yaqindan ko‘maklashgan ulug‘ zotlar orasida faylasuflardan Anaksagor, Sokrat, tarix fanining otasi Gerodot, tragediya janrining asoschilari Sofokl, ajoyib haykaltarosh Fidiy va shularga o‘xshash umumjahon madaniyatini yuksaklarga ko‘targan zotlarni ko‘ramiz.

Yunon dramaturgiyasining barcha turlari tragediya, komediya, satiralar dramasi ana shu diniy rasmlar va bular qatori ayniqsa Dionis marosimlari asosida maydonga kelgan. Afsonalarning hikoya qilishiga qaraganda Dionis Zevs bilan Semela degan qizdan tug‘ilganmish. Dionis o‘zining odamtaxlit, ammo dumdor echki tuyoq hamrohlari–satirlar bilan birga dunyoni kezib yurgan paytlarida insonning og‘ir va g‘amgin hayotini ko‘radi-da, odam bolasini baxtiyor, xushnud qilish maqsadida ma‘budlar taomi amvroziyani Olimp tog‘idan ularga keltirib bermoqchi bo‘ladi. Biroq Olimp hukmdorlari yosh ma‘budning niyatlarini payqab qolishadi. Dionis amvroziyani yerga ko‘mib qochadi. Ko‘p o‘tmay shu joydan tok novdalari o‘sib chiqadi, uning yoqutsimon sohir mevalari odamlarga baxt va shodlik keltiradi. Dionisning bu o‘zboshimchaligidan qattiq g‘azablangan otasi Zevs o‘z o‘g‘lini Olimp tog‘idan badarg‘a qiladi. Dionis yer yuzida og‘ir mashaqqatlar bilan hayot kechirib olamdan o‘tadi. Falakka ko‘tarilish oldida har yili ikki marta o‘z sharafiga bayram o‘tkazishni Dionis odamlarga vasiyat qilgan. Tragediyaning bevosita Dionis marosimlari bilan bog‘liq bo‘lganligiga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shodu-xurramlik ma‘budi sha’niga to‘qilgan difiramb qasidalaridan o‘sib chiqqanligiga Aristotel ham sira shubha qilmaydi. «Poetika» asarining 4 bobida qat’iy fikrlar aytadi.

Esxilning 90 ga yaqin tragediyadan iborat boy merosidan bizga qadar faqat yettitasi yetib kelgan. “Eroniylar”, “Fivaning yetti dushmani”, “Iltijogo‘ylar”, “Zanjirband Prometey”, “Oresteya” tragediyasiga kiradigan “Agamemnon”, “Xoeforlar” hamda “Evmenidlar” tragediyalari. Bu tragediyalarning “Eroniylar” dan boshqasi mifologik mavzularda yozilgan.

Jahon adabiyoti tarixiga Sofokl (asosan) Edip haqidagi rivoyatlar asosida yozilgan asarlari “Edip shoh”, “Edip Kolonda” va “Antigona” tragediyalari bilan kiradi. Sofoklning bu asarlaridan tashqari bizga qadar yana to‘rtta tragediyasi yetib kelgan. Shundan uchta: “Ayaks”, “Elektra”, “Filaktey” Torya afsonalari mavzuida va bittasi “Traxinali ayollar” Gerakl haqidagi rivoyatlar asosida yozilgandir.

EVRIPID – qadimgi Yunon tragediyasining uchinchi vakili. 92 ta asaridan bizga qadar 17 ta tragediya hamda bitta satir dramasi to‘la holda yetib kelishini ta’minlaydi. Bular tubandagilar: “Alkestida”, “Medeya”, “Geraklidlar”, “Ippolit”, “Gekuba”, “Gerakl”, “Iltijogo‘ylar”, “Troyalik ayollar”, “Elektra”, “Ion”, “Ifigeniya Tavridada”, “Yelena”, “Andromaxa”, “Finikiyalik qizlar”, “Orest”, “Vakx qizlar”, “Ifigeniya Avlidada va Kiklop” nomli bitta satir dramasi. Bu asarlarning hammasi yunon taomiliga ko‘ra, Esxil hamda Sofoklning tragediyalari singari mifologik afsonalar mavzuida yozilgandir. Evripidning yunon tragediyanavisligiga kiritgan yangiliklarini to‘laroq aks ettirgan asari “Medeya” tragediyasidir. Asarning voqeasini Evripid “Argonavtlar” afsonasidan olgan. (Bu afsona haqida 1957 yilda O‘zbek Davlat Badiiy adabiyoti nashriyoti bosib chiqargan “Ellada qahramonlari” kitobidan to‘la ma’lumot olish mumkin.)

QADIMGI RIM ADABIYOTI

Reja:

1. *Rim adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo‘nalishlari.*
2. *Dastlabki Rim shoirlari*
3. *Rim adabiyotining “oltin davri”*
4. *Vergeliy va Ovidiy ijodi haqida (“Eneida”–Vergeliy; “Metamorfozalar”- Ovidiy)*

Eramizdan oldingi IV asrning oxiri – III asrning boshlarida Rim davlati Italiya yerlarining asosiy qismini egallab, xuddi Yunonistonda bo‘lgani kabi, qulchilik asosiga qurilgan demokratik polis tuzumini joriy etadi. III asrning o‘rtalarida rimliklarning jahongirlik siyosati tobora kuchayib, ular birin-ketin Italiya tuprog‘ining qolmish qismlarini ham zabt etishga kirishadilar. Italiyaning janubiy qirg‘oqlarini va Sitsiliya orolini egallash, Rim jamiyati tarixida ayniqsa juda muhim voqea bo‘lgan. «Ulug‘ Yunoniston» nomi bilan shuhrat taratgan bu yerlar qadim zamonlarda ellinlar qo‘liga o‘tib, ularning mustamlakasi bo‘lib qolgan edi. Bosqinchilar ilk marta xuddi shu yerda yuksak yunon madaniyatining shohidi bo‘ladilar. Italiya tuprog‘ini o‘zlariga itoat ettirish ishini batamom tugallagan rimliklar, bora-bora bosqinchilik siyosatini o‘rta dengiz havzasiga ko‘chirib, Afrikaning shimoliy qirg‘og‘idagi Karfagen davlatiga (hozirgi Tunis shahri yaqinida) qarshi birin-ketin uch marta ochilgan qirg‘in urushdan so‘ng, bu azim davlatni ham zabt etadilar va, nihoyat, II asr davomida oldinma-keyin Makedoniyani (148), Yunonistonni (146), Ispaniyaning bir qismini o‘zlariga tobe qiladilar va Kichik Osiyoning g‘arbiy qirg‘oqlarida mustahkam o‘rnashib oladilar.

Shunday qilib, II asr o'rtalarida Rim yer yuzining eng qudratli davlatiga, O'rta dengizning zabardast hukmroniga aylanadi.

G'olibona urushlar, qo'lga kiritilgan mustamlakalarni talash natijasida behisob boyliklar, son-sanoqsiz qullar Rimga qarab oqa boshlaydi. Eski patriarxal odatlar barbod etilib, jamiyatning hamma tabaqalari pulparastlik, maishatbozlik va zeb-ziynat hissiga beriladi; boyib ketgan ziyoli doiralar endilikda o'zlarining iqtisodiy boyliklariga va uning samaralariga qanoat qilmasdan, nozik va nafis madaniyat matlubi bo'ladilar.

Xullas, yuqorida bayon etilgan urushlar va ularning oqibati o'laroq paydo bo'lgan qator o'zgarishlar natijasida yunon madaniyatining keng miqyosda Rim hayotiga kirib kelish xarakati boshlanadi. III asrning o'rtalarida o'z xohishi bilan Rimga ko'chib kelib muqimlashib qolgan yunonlarning soni anchagina bo'lgan. «Ulug' Yunoniston» Rim ixtiyoriga o'tgandan keyin va ikkinchi Pun (Karfagen) urushidan so'ng bularning nufuzi yana ortadi (keyingilarning ko'pchiligi qul qilingaya asirlar edi).

Rimga kelgan yunonlar o'zlari bilan birga asrlar davomida yetishtirgan ulug' madaniyatlari mahsullarini ham olib keladilar va Rim hayotining hamma sohalarida bab-baravar ta'sir ko'rsatadilar. Yunonlarning odat-taomillari, asbob-anjomlari, kiyim-kechaklari rimliklarning turmushiga juda tez kira boshlaydi. Yunon tiliga qiziqish deyarli umumiy bir hodisa bo'lgan. Yunon alifbesini, yunon dinidagi ba'zi ma'budlarni rimliklar hatto ancha ilgari qabul qilgan edilar. Qisqasini aytganda, Rimning madaniy hayotida yunonlarning xizmati singmagan deyarli hech qanday soha bo'lmagan desak xato qilmaymiz. Ular badavlat xonadonlarda bolalarni tarbiya qiluvchi murabbiy, davlat arboblari qo'lida mirza bo'lib xizmat qiladilar; falsafa, notiqlik bobida saboq beradilar, yangidan rasmga kirayotgan teatrlarda aktyor bo'lib ishlaydilar. Hattoki, Yunonistonda yaratilgan Eney haqidagi afsonani ham Rim davlati rasmiy ravishda qabul qiladi. Bu afsonada Rim xalqining troyaliklardan tarqalganligi va (Rim shahrini barpo etgan Romul bilan Remning ajdodlari shaxsan Troya qahramoni Eney ekanligi haqida hikoya qilinadi. Yangi g'oyalarni yoyuvchi eng muhim omillardan biri bu davrlarda adabiyot bo'lgan, albatta. Kelgusida gullab-yashnagan va ajoyib mevalar yetishtirgan ulug' Rim adabiyoti bog'ining dastlabki nihollarini latin tuprog'iga yana shu yunonlar tikkan.

Yuqorida aytilganlardan, Rim xalqining o'z milliy adabiyoti yo'q, uning bu sohadagi faoliyati faqatgina taqlidchilikdan nariga o'tmagan ekan, degan fikrga kelish noto'g'ri, albatta. Bizgacha yetib kelgan hujjatlar hatto eramizdan oldingi V– IV asrlarda Rimning o'zida badiiy adabiyot va maxsus she'riy o'lchov

bo'lganligidan darak beradi. Tarix betida ba'zi bir yozuvchilarning (Appiy Klavdiy) nomlari ham saqlanib qolgan. Bundan tashqari, yozma adabiyot yaratilishidan ancha ilgari, Italiya tuprog'ida yashovchi qabilalarning ham, barcha xalqlar singari, boy og'zaki adabiyotlari bo'lganligi shubhasizdir. Biroq yangitdan kirib kelayotgan jozibador yunon adabiyoti tazyiqi ostida mahalliy og'zaki adabiyot e'tibordan qolib, bizga uning juda kamdan-kam namunalari yetib keladi.

Shu narsani esdan chiqarmaslik kerakki, Rimning o'zi madaniyat bobida unchalik yetilmaganida, yunon adabiyoti bu yerda shu qadar katta e'tibor qozonmagan bo'lar edi.

Shu bilan biz «asl» Rim adabiyoti ustida ortiq to'xtalib o'tirmasdan, yozma badiiy ijodning dastlabki davrlari bayoniga kirishamiz.

Tarixiy proza–asari bizga qadar to'la holda yetib kelgan tarixiy prozaning eng birinchi nomoyondasi Gerodotdir. Gerodotdan qolgan asarlar ichida eng muhimi va qimmatli ma'lumotlar bilan jahon tarixini boyitib kelayotgan asarining nomini «Tarix» ya'ni «Tadqiqot» deb atagan. Aleksandriya olimlari bu asarni to'qqiz bobga bo'lib, har birini yunon mifologiyasidagi to'qqizta muza nomi bilan ataganlar. Asar yaqindagina bo'lib o'tgan Eron-Yunon urushiga bag'ishlangandir.

Tarixiy prozaning ikkinchi vakili Fukididdir. Bu adib haqida ham yetarli ma'lumot yo'q. Olimlar uni 470-460 yillar orasida tug'ilgan bo'lsa kerak deb taxmin qiladilar. 424 yili Peleponnes urushida qatnashib, Frakiya qirg'oqlaridagi Afina flotiga qo'mondonlik qiladi va yirik bir harbiy xatosi uchun davlat jinoyatchisi hisoblanib, Afinadan haydaladi. Taxminan 400 yillarda vafot etadi. U o'z asarini Peleponnes urushi voqealariga bag'ishlaydi.

Notiqlik san'ati-jamoat oldida so'zga chiqib, unga biron narsani tushuntirish yoki isbotlab berish zarurati qadim-qadim zamonlardan beri odamlarni dilkashlikka, so'zamollikka rag'batlantirib kelgan. Hatto Gomer ham o'z poemalarida Nestor, Menelay va Odisseyning gapga nihoyatda chechan bo'lganliklarini qayd etib o'tadi. Biroq notiqlikning qadimgi namunalari yozma shaklda bizgacha yetib kelmagan. Asta-sekin bu san'at rivojlanib asosan ikki turga ajralib boradi: Siyosiy notiqlik. Sud notiqligi keyinchalik uning uchinchi turi yuzaga keladi.

Epidektik – ya'ni tantanali nutq notiqlari paydo bo'ladi. Epidektik notiqlar ulug' zotlarni va mashhur voqealarni madh etib tantanali yig'inlarda nutq so'zlaganlar.

Notiqlik san'atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko'targan va unga ilmiy tus bergan kishilar Sofistlar bo'lganlar. Notiqlik san'atining nazariy asoslari «Ritorika» ilmi yaratilgan.

Ritorika (orator, notiq)ning asl vatani Sitsiliya bo'lgan. Qadimgi ritorikaning asoschilari deb Sitsiliyalik Korak hamda Tisey degan notiqnlarni ko'rsatadilar. Biroq ular haqida bizgacha hech narsa yetib kelmagan.

Gorgiy asosan mifologik mavzularda tantanali nutqlar so'zlagan, uning nomi ostida bizga qadar «Yelena» va «Polimed» sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgan. Gorgiyning aytishicha notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab, shu yerda ijod qilgan bir talay mashhur so'z san'atkorlarining orasidan 10 tasini eng ulug'lari deb biladilar. Ular quyidagilar: Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxil, Giperid va Dinarx. Bizgacha mana shu so'z san'ati ustalarining asarlari yetib kelgan xolos.

Notiqlik san'atini yanada yuksak bosqichlarga ko'targan ikkinchi buyuk zot Demosfendir. Undan bizga qadar 61 ta nutq va 6 ta maktub yetib kelgan.

Falsafiy proza—eramizdan oldingi V-IV asrlarda ilmu-fan taraqqiyoti, san'at, adabiyot, tarix va notiqlik sohalaridagi yutuqlar bilan bir qatorda yunon falsafasi benihoya keng rivoj topdi. Falsafiy tafakkurning asosiy oqimlari bo'lgan materializm hamda idealizm ta'limotlari shu davrda takomillashadi. «Ideya» so'zining o'zi ham birinchi marta falsafiy iste'molga Platon tomonidan kiritilgan. Platonning qarashicha birdan-bir tuzum deb tushunilgan bu davlatda jamiyat a'zolari 3 toifaga bo'linadi: Faylasuflar—mamlakatni idora qilishlari kerak. Soqchilar—mamlakatni qo'riqlashlari kerak. Mehnatkashlar— (dehqon va kosiblar) hamma fuqaroni boqishlari, kiyintirishlari lozim. Platon ideal davlatida butun e'tiborni faylasuflarga qaratadi. Platonning bizga qadar 41 ta asari yetib kelgan.

Birinchi Rim shoiri yunonistonlik Liviy Andronik (284-204) bo'lgan. Andronik qadimgi Saturn vaznida “Odissey” dostonini lotin tiliga tarjima qiladi.

Gnney Neviy ham xuddi Andronik singari o'zining tragik asarlarining mazmunini yunon yozuvchilari asarlaridan olgan.

Neviy tragediyalari qahramonlari sahnaga Rim senatorlari kiyadigan alvon hoshiyali ustki libos, ya'ni PROTEKSTA kiyib chiqadilar. Shu sababli mazkur asarlarni PROTEKSTATA deb ataganlar. Neviy yozgan protekistatalardan biz faqat ikkitasining nominigina bilamiz. Bular “Romul” va shoirning zamondoshi Klavdiy Marselning Klastidiy shahri yaqinida gallar bilan bo'lgan jangi haqidagi “Klastidiy” tragediyasidir. Neviy talantining eng yuqori cho'qqisi “Pun urushi” dostonidir. Rim milliy dostonchiligiga asos solish jihatidan bu asar lotin adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi. Doston yaqinda bo'lib o'tgan birinchi Karfagen urushi

voqealariga bag'ishlangan. Biroq asarda xuddi Gomer dostonlarida bo'lgani kabi, real tarixiy hodisalar mifologik afsonalar bilan chatishgan holda tasvir etiladi.

Dastlabki Rim shoirlari orasida eng yirigi, albatta Kvint Enniy (239-169) bo'lgan. Uning asarlari – “Gekuba”, “Ifigeniya”, “Aleksandr”, “Medeya” tragediyalari. Enniy o'zining o'tkir mahoratini “Annallar” (Solnomalar) dostonida yanada kengroq namoyish qilgan. 60 000 misradan iborat 18 bob (Bizga qadar 1200 misrasi yetib kelgan) salmoqdor bu asar Enniyning Troyani tashlab qochishdan boshlanib, to shoirning zamonasiga qadar davom etgan butun Rim tarixini o'z ichiga oladi.

PLAVT–ulug' Rim komediyanavisi. Uning eng o'tkir va maroqli asarlaridan biri “Maqtanchoq jangchi” komediyasidir. “Xumcha” komediyasi ham o'zining badiiyligi va sotsial mohiyati jihatidan “Maqtanchoq jangchi” asaridan qolishmaydi. Bu komediyaning asosiy mavzusi boylikning inson xulqini buzadigan yaramas ta'sirini ko'rsatishdan iborat. Ayni zamonda Rim jamiyati uchun bu masala juda muhim bo'lgan.

SITSERON–o'zining otashnafasligi bilan Demosfen darajasida turadigan va antik dunyoning ikkinchi ulug' so'z ustasi sifatida tanilgan notiq Mark Tulliy Sitserondir. “Orator haqida”, “Brut”, va “Orator” asarlari mashhur.

LUKRETSIY–ichki g'alayonlarni tugatish, zamondoshlariga ma'naviy tasalli berish maqsadida Epikur falsafasini tashviq qilgan mutafakkir shoirlarning eng yirigi 6 bobdan iborat “Buyumlar xislati” poemasi muallifi Tit Lukretsiy Kardir (98-55).

VERGILIY hammasi bo'lib uchta asar yozgan: «Bukolikalar» (Cho'pon she'rlari). «Georgikalar» (Dehqon she'rlari). «Eneida» dostonidir.

Vergiliyning birinchi yirik asari «Bukolikalar» o'nta she'rdan iborat to'plamdir. Bu to'plamga kiritilgan she'rlarni ko'pincha eklogalar ya'ni she'riy parchalar ham deb yuritishgan. Vergiliy cho'ponlarning osuda, betashvish hayotini ahyon-ahyonda buzib turishadi. Masalan: Italiyaning shimoliy qismlaridagi yerlarni Oktavian qo'shinlari tomoniga musodara qilish munosabati bilan dehqon ommasi boshiga tushgan og'ir kunlarni ba'zi eklogalarda aniq ko'rishimiz mumkin.

Georgikalar poemasi mazmun jihatidan birinchi poemaga o'xshash. Necha o'n yillab davom etgan urush oqibatini tugatish, vayron bo'lgan mayda va o'rtahol dehqon xo'jaliklarini tiklash, umuman dehqonchilikni rivojlantirish masalalari, yurtning osoyishtaligi, xalqning tinchligi yo'lida qayg'urgan chinakam vatanparvar shoir shu asnoda asarini yozadi. Didaktik mazmundagi bu poema yirik to'rt

qismdan iborat kattagina asardir:G'allakorlikka, Bog'dorchilikka, Chorvachilikka, Asalarichilikka bag'ishlanadi.

Vergiliyni Rim poeziyasining cho'qqisiga ko'targan, uning shuhratini yer yuziga taratgan ulug' asari Eneida dostonidir.

Qadimgi manbalarning shahodatiga ko'ra «Eneida» dostoni ustida shoir o'n yil ishlab, asarni eramizdan avvalgi 19 yilda deyarli tugatadi.

Eneida butun voqeasi Troya shahri tor-mor qilinganidan so'ng bosh qahramon Eneyning o'z hamrohlari bilan birga Italiyaga qarab yo'lga chiqishi, uning dengizda tortgan og'ir mashaqqatlari, nihoyat manzilga yetib kelishi, Rim davlatini barpo qilish yo'lida olib borgan kurashlari tasvirlaridan iboratdir. Asar har biri olti bobdan (qo'shiqdan) iborat ikki qismga ajratib yozilgan. Birinchi 6 bob qahramonning Troyadan chiqib Italiyaga yetib kelishi davrida kechirgan sarguzashtlariga, keyingisi Italiya tuprog'idagi janglariga bag'ishlanadi.

GORATSIY–Vergiliyning zamondoshi hamda do'sti, Avgust davrining ikkinchi ulug' shoiri Kvint Goratsiy Flakk. Goratsiyning asarlari bizga qadar to'la holda yetib kelgan. Ular quyidagilar: «Epodlar» deb ataluvchi 17 ta she'rdan iborat to'plam. «Satiralar» deb ataluvchi 18 ta she'rdan iborat 2 to'plam. «Qasidalar» deb ataluvchi 103 ta she'rdan iborat 4 ta to'plam. «Nomalar» deb ataluvchi 23 she'rdan iborat 2 ta to'plam. «Bayram madhi» deb ataluvchi alohida 1 ta she'r.

Goratsiyning tamomila yangi original va yuksak badiiy asarlar yaratgani «Epodlar» to'plamining hamma she'rlarida ravshan sezilib turadi.

Goratsiy ijodining eng so'nggi mahsuli «Nomalar» dir. Rim adabiyotida Goratsiyga qadar noma yozganlar talaygina, ularning barchasi nomalarini nazmda, she'riy shaklda yozganlar. Biroq nomalarni birinchi bo'lib nazm shakliga ko'chirib, ularga yuksak badiiy tus bergan va maxsus adabiy janr sifatiga ko'targan shoir Goratsiydir.

OVIDIY. Avgust zamonasining oxirgi ulug' shoiri, elegiyanavis shoirlarning eng so'nggi buyuk vakili Publiy Ovidiy Nazondir. Ovidiyning adabiy faoliyati 3 qismdan iborat: "Amores" (ishqiy elegiyalar) to'plami bilan boshlanadi. Shu janrning tamoyillariga ko'ra to'plamning bir qancha she'rlari shoirning Korinna degan ma'shuqasiga bag'ishlanadi. Ammo bu ayolning bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashning sirayam iloji yo'q. Ovidiyning elegiyalarida Tibull hamda Propersiy asarlarida bo'lgani kabi chuqur muhabbat tuyg'ularini, og'ir iltirob alamlarini, sevgi yo'lida fidoyilik va samimiylilikni axtarish ham befoyda. Shoirning o'z tili bilan aytganda u faqat «Xurram muhabbatning xushchaqchaq kuychisi» bo'lgan. Ovidiyning oldingi shoirlardan yana bir farqi shundaki, bu adib Vergiliy ijodida boshlangan usulni davom ettirib, o'zining ijodida notiqlik san'ati qoidalaridan

benihoya keng foydalanadi va shu yo‘sin Rim poeziyasining kelgusi taraqqiyoti yo‘lida yangi davrni boshlaydi.

«Qahramon ayollar» yoki «Maktublar» deb ataluvchi ikkinchi asari ham Ovidiy ijodining ilk mahsullaridan bo‘lib, mashhur afsonaviy xotinlarning o‘z oshiqclariga yozgan nomalar to‘plamidan iboratdir. Turli-tuman mavzularga masalan, mehmon kutish, taom tayyorlash, har-xil o‘yinlar uyushtirish, pardozi qilish, yasanish, hatto ba‘zi kasalliklardan davolanish va boshqa masalalarga atab she‘riy asarlar yozish ellinizm zamonasida keng yoyilgan edi. Odamlarga ta‘lim berish maqsadlarini kuzatgan didaktik mazmundagi bu tariqa asarlarga taqlidan Ovidiy o‘zining Ars amatoria «Sevgi san‘ati» poemasi yaratadi.

Ovidiyning boshlang‘ich davr ijodiga kiradigan yana ikkita asarining mavjud ekanligi ma‘lum: A) «Pardozi malhamlari». B) «Sevgi davosi»

Avgustga manzur bo‘lish uchun Ovidiy bir daraja ilmiy mazmundagi jiddiy mavzularga qo‘l urib «Metamorfozalar» (turlanish) hamda «Fasto» (Oynoma) degan katta-katta ikki dostonni birdan boshlaydi.

«Metamorfozalar» Ovidiy ijodining cho‘qqisi, Rim adabiyotining ulug‘ yodgorliklaridan biridir. Yirik- yirik 15 bobdan gekzometr vaznidagi 12 000 misradan iborat bu salmoqli doston Yunon va Rim mifologiyalarida nihoyatda ko‘p uchraydigan afsonaviy turlanishlar, ma‘bud va ma‘budalarning, suv va o‘rmon parilarining, ayniqsa odamlarning jonivorlarga, o‘simliklarga, tog‘ va toshlarga, hatto yulduzlarga aylanib qolishlari haqidagi rivoyatlar hikoya qilinadi. Poemaga ana shunday rivoyatlardan 250 tasi kiritilgan. Fikrimizning isboti sifatida asarga kirgan afsonalardan birini keltiramiz.

Fasta (Oynoma) dostonida Ovidiy ham xuddi Kallimax singari oylarning nomlariga mufassal izoh beradi, har qaysi oyda o‘tkaziladigan bayramlarni va bu bayramlarning qanday afsona va rivoyatlar bilan bog‘liq bo‘lganligini bayon etadi. Yangi asarda shoirni asosan Rim tarixiga, inchunun Avgust xonadoniga aloqador afsonalar qiziqtirgan. Poemaning o‘zi ham Oktavianga bag‘ishlangan.

Metamorfozalar dostoni deyarli qo‘ldan chiqib, «Fasta» poemasi yarmiga yetib qolgan edi. Eramizdan keyingi 8 yilda Oktavian Avgustning buyrug‘i bilan Ovidiy Rim imperiyasining uzoq viloyatiga, Qora dengiz qirg‘og‘iga Tomi (hozirgi Konstansa) shahriga surgun qilinadi. Surgun sabablari to‘shu kungacha ma‘lum emas. Surgun yillarida shoir o‘zining so‘nggi asarlari—besh qismdan iborat «G‘amgin elegiyalar» Tristia, 4 qismdan iborat Epistolae ex Ponto “Pontdan maktublar”, “Qora dengizdan maktublar” to‘plamlarini va boshqa asarlarini yozadi. Ovidiyning surgunda yozgan elegiyalarining mazmuni bir-biriga yaqin. Masalan, “G‘amgin elegiyalar” to‘plamining birinchi qismida surgun safarining

mashaqqatlari, Rimni abadiy tashlab ketish, rafiqasidan, qarindoshlaridan, do‘stlaridan ayrilish, dengiz to‘lqinlari, o‘lim dahshatlari haqida hikoya qiladi.

O‘RTA ASRLAR SHARQ ADABIYOTI

Reja:

1. *Firdavsiy “Shohnoma”si. Nizomiy ijodi.*
2. *Umar Hayyom ruboiylari. Rudakiy g‘azaliyoti.*
3. *Jaloliddin Rumi ijodi.*

Jahon adabiyoti kengliklarida qaraladigan bo‘lsa, *klassika, klassik adabiyot, klassik ijodkor, klassik asar* tushunchalari nisbiydir. Shuning uchun sharq klassikasini g‘arbdagi uyg‘onish davri yoki renessans adabiyotining xususiyatlari, g‘arb klassik adabiyoti bilan tenglashtirish, uning o‘lchovlariga mengzamaslik kerak. Sharq klassik merosining boshqa adabiyotlarda uchramaydigan o‘lchov va qoliplari, o‘ziga yarasha qirralari bor. Chunki sharq adabiyoti kishilik hayotida ma‘naviy inqirozlar yuz berib, o‘z ildizlarini qayta qidirish, uyg‘onish yo‘lidan bormadi. Balki, o‘z ota-bobolari yaratgan ma‘naviy asoslarga tayangan holda uni yuksaltirish, ma‘naviy qadriyatlarni boyita borish yo‘lini tutdi. Sharq adabiyotlarida turli davrlarda yuz bergan ko‘tarilishu yuksalishlar ana shu an‘analar, qo‘shni madaniyatlarning o‘zaro etkisi-yu, adabiy aloqalar epkinida yuzaga keldi. Ba‘zida g‘arb adabiyoti o‘ziga ep ko‘rgan ma‘naviy-estetik qarashlar, badiiy talablarga ergashib ish tutiladigan bo‘lsa, quyushqonga sig‘may qolajagi ham kundek ayon. Ana shularni ko‘zda tutgan holda, sharq xalqlari adabiyoti tarixining ilk ko‘tarilishini “uyg‘onish davri”, oltin davrlarini esa “klassik davr” deb atash ham o‘zini oqlamas. Sharq klassikasini turli davrlarda badiiy adabiyot, ma‘naviy-estetik qarashlar tarixidagi yuksalishlar bosqichi, kishilik o‘tmishida badiiy tafakkurning tantana qilgan davrlari deya anglamoq kerak. Sharq klassik adabiyotining tadqiqotchisi bularni tan olmasligi va bu tarixiy haqiqat bilan kelisholmasligining iloji yo‘q.

Jaloliddin Rumi — jahon adabiyotining muazzam siymolaridan biri. U o‘zidan keyingi Sharq va G‘arb so‘z san‘atiga katta ta‘sir o‘tkazdi. Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi buyuk so‘z ustalari Mavlononi o‘zlariga ustoz deb bilishgan.

Buyuk Gyote, Abulqosim Firdavsiy, Shayx Sa‘diy, Xo‘ja Hofizlar qatorida Jaloliddin Rumi ijodini ham «Xizr chashmasi» deb atagan. Mashhurlikda Firdavsiyning «Shohnoma»si, Sa‘diyning «Guliston»i, Hofizning «Devon»i bilan bir qatorda turgan, forsiy Qur‘on nomi bilan shuhrat qozongan «Masnaviyi

ma'naviy»ni inson ma'naviy hayotining qomusi sifatida nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham ixlos bilan o'rganishgan. «Dekameron» asaridagi ko'plab syujet va motivlarni Sharq og'zaki va yozma adabiyotidan olgan Jovani Bokkachcho «Masnaviyi ma'naviy»dagi qator hikoyatlar asosida ham novellalar yaratganligi ma'lum.

Mavlono 1207-yilda qadimiy Balx shahrida o'z davrining mashhur mutasavvuf donishmandi, yirik xatib va voizi bo'lgan Bahovuddin Valad oilasida dunyoga keladi. Bahovuddin Valad aslida Shayx Najmiddin Kubro (1135 - 1221)ning Majdiddin Bag'dodiy, Sa'duddin Hamaviy, Raziuddin Aliyi Lolo, Sayfuddin Boxarziy, Bobo Kamol Jandiy kabi 300 ga yaqin zabardast shogirdlaridan biri hisoblanardi. Jaloliddin 12 yoshida uning ota-onasi ham mo'g'ul bosqini xataridan qochish, ham haj farizasini ado etish niyatida Balxni tark etadilar.

1230-yildan bu oila Kuniyada qo'nim topadi. Yosh Jaloliddin Shom, Halab, Damashq, Qaysariya va boshqa yirik ilm markazlarida 7 yil ta'lim oladi, o'z davrining yetuk donishmandi bo'lib etishadi. Taniqli rumiyshunos Zarrinkub ta'biri bilan aytganda, "Mavlononing 68 yillik ajoyib umri boshdan oyoq bir she'r, go'zal, betakror, tug'yonli ash'or jarayoni, sadosi va bongi bilan yo'g'rilib o'tdi".

Mavlono Rumi o'zidan keyingi avlodlarga 5 muhim va qimmatbaho asar qoldirdi:

1. "Devoni kabir", "Devoni Shamsi Tabriziy", "Devoni Shamsul haqoyiq" degan nomlar bilan mashhur devon. Devon g'azal va ruboiylardan iborat.

2. "Masnaviyi ma'naviy"- 25700 baytdan iborat bebaho tasavvufiy-ishqiy asar. So'nggi yillarda taniqli o'zbek shoiri Jamol Kamol tomonidan 2-3- jildlari, shoir Asqar Mahkam tomonidan 4-jildi o'zbek tilida nashr etildi.

3. "Fiyhi ma fiyhi" ("Ichingdagi ichingdadir") - Mavlononing suhbatlaridan iborat falsafiy kitob. 1998 yilda Toshkentda o'zbek tilida nashr etildi.

4. "Mavoizi majolisi sab'a"- bu asar Rumiyning yetti o'git va pand-nasihatlaridan iborat.

5. "Maktubot"- Mavlononing turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tashkil topgan to'plam.

Jaloliddin Rumi ijodi yuksak badiiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta'sir quvvatiga ega. Taniqli olim va adib Radiy Fish so'zlari bilan aytganda, shoirning «mavhum mantiqiy kategoriyalarda emas, balki otashin shoirona timsollar vositasida» talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o'sish, o'zgarishda ekani,

eskining yo'qolib, yangining paydo bo'lishi — «dunyoning ziddiyatlar birligidagi ziddiyatlar jangi»dan iboratligi to'g'risidagi qarashlari buyuk nemis faylasufi Gegelning e'tiroficha, unta dialektik metod yaratishga yordam bergan. Yoki ulug' mutafakkir Husn va Ishq tortilishi misolida birinchi bo'lib olamning asosida o'zaro tortishish kuchlari yotishi haqidagi fikrni o'rtaga tashlaydiki, mazkur qonunning chindan-da amal qilishini bir necha asrdan keyin ingliz olimi Nyuton kashf etdi.

Jaloliddin Rumiylarning ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi. Zero, shoirning millati – turk, kelib chiqishi – xorazmlik. Uning buvisi Alo'iddin Muhammad Xorazmshohning qizi bo'lgan. Mavlono tavallud topgan Balx shahri u davrda Xorazmshohlar davlatiga qarar edi.

Hozirda Afg'oniston hududida bo'lgan bu qadimiy va dongdor shahar aslida uzoq asrlar mobaynida Turon mulkining mashhur shaharlaridan biri sanalib kelgan.

Jaloliddin Rumiylarning she'riyatini, asosan, ilohiy ishq bilan bog'lashadi. Bu bejiz emas. Zero, Mavlono o'zining 53 mingdan ortiq misrani o'z ichiga olgan «Masnaviyi ma'naviy»si, 84 ming misradan iborat «Devoni Kabir» («Ulug' devon»)ida yer-u ko'kning sarvari bo'lmish Oллоhi karimni va uning zamindagi xalifasi Hazrati insonni ulug'laydi. Ma'lumki, Jaloliddin Rumiylarning o'z davrining an'anaviy adabiy tili bo'lmish forsiyda ijod qilgan.

Bizda shoir ijodini o'rganish va targ'ib etish Radiy Fishning «Jaloliddin Rumiylarning» deb nomlangan tarixiy-biografik romanini tarjima qilish bilan boshlandi (Ruschadan J. Kamol tarjimasini). Shundan keyin Sh. Shomuhamedov Rumiylarning g'azallari, ruboiylari va masnaviylaridan bir nechtasini o'zbekchaga o'girib, fors-tojik mumtoz shoirlari asarlaridan tashkil topgan «Injular ummoni» kitobida e'lon qildi. Jamol Kamol esa avval Rumiylarning ruboiylari va masnaviylaridan namunalar tarjima qilib, «Uchmoqqa qanot yo'q vale uchgayman» nomi bilan alohida kitobcha holida nashr ettirgan bo'lsa, yaqinda buyuk «Masnaviyi ma'naviy» tarjimasini nihoyasiga yetkazdi. Jami olti kitobdan iborat bu ulug' asarning 4 tasi bosmadan chiqdi. Asqar Mahkam «Masnaviy»ning birinchi kitobi bir qismini sharhlari bilan o'zbekchalashtirib, nashr qildirdi.

Hazrat Alisher Navoiylarning "Ustozlarning ustozlari" deb sharaflagan, Abdurahmon Jomiy esa "U payg'ambar emas, ammo payg'ambarlik kitobi bor" deb ulug'lagan Mavlono Jaloliddin Balxiylarning-Rumiylarning 1273 yilning izg'irinli qish kunlarining birida vafot etgan.

Hofiz Sheroziylarning (1325–1388) Shamsuddin Muhammad Hofiz Sheroziylarning Eronning Sheroz shahrida tug'ilgan. Lekin butun umri davomida ona shahridan

chetga chiqmagan bu«isonafaslik rindi Sheroz» (Navoiy) o'zining yoniq she'rlari bilan yarim dunyoni egalladi va o'zidan keyingi Sharq-u G'arb adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Buyuk nemis shoiri Hyote Hofizni«noyob uslub dahosi», «muqaddas Hofiz» deb ulug'lab, uning ta'sirida«G'arbu Sharq devoni»ni yaratgan bo'lsa, V. Jukovskiy, A. Pushkin, Yu. Lermontov, A. Fet, S. Yesenin kabi rus shoirlari Hofizdan ilhomlanib, «hofizona» ohanglarda she'rlar yozganlar, uning ijodini yuksak baholaganlar. Sharqda esa Sheroz bulbulidan ta'sirlanmagan shoirning o'zi yo'q hisobi.

Mashhur hind shoiri va mutafakkiri Muhammad Iqbol Hofizni buyuk sehrgar, deb luft etgan edi. Chindan ham dunyo adabiyotida so'zni Hofizday ming bir maqomda o'ynatgan, so'zga ming bir ma'no yuklagan, so'zni ming bir sehru sinoat pardasiga o'ragan yana bir shoirni topish mumkin emas. Hofiz she'rlari tabiiyligi, samimiyligi, hassos bir muhabbat va yuksak badiiyatga yo'g'rilganligi, mazmuni teran va serqatlamligi, falsafasining quyuqligi, nozik ishoralarga boyligi, uslubining murakkabligi uchun ham unga«lison ul-g'ayb» — «g'oyibning tili» sifatini berganlar. Hofiz Sharqda shunchalik shuhrat tutganki, uni muqaddaslashtirib, ilohiylashtirib, devonini fol kitobiga aylantirganlar. Shoir devoni madrasalarda maxsus darslik sifatida o'qitilgan. Sharqda hofizxonlik katta shuhrat qozongan.

Hofiz hammayoqni vayronaga aylantirgan mo'g'ullar hukmronligi inqirozga uchrab, mayda xonliklar o'rtasidagi o'zaro toju taxt talashlari avj olgan, bundan xalqning tinkasi qurib, ahvoli xarob bo'lgan bir davrda yashab ijod etdi. Uning davrida Sheroz 5 marta ana shunday janglar girdobiga tortilib, o'zi vayron, xalqi qatli om qilindi. 50 yil(1338—1388) mobaynida6 marta podshoh almashganligi ham shoir yashagan davrning notinchligini ko'rsatadi.

Bu narsa uning ijodiga ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Ma'shuqa ta'rif-tavsifi, visol lazzati-yu, hijron hasratini tarannum etish vositasi bo'lgan g'azalga Hofiz ijtimoiy mavzular, falsafiy fikr-mulohazalarni omuxta qildi. U ishq atalgan ulkan va bepoyon mavzu ichiga Olam va Odam dardini, o'z davrining o'tkir ijtimoiy muammolarini dadil olib kirdi va mahorat bilan she'rga soldi. Hofizni Hofiz qilgan narsa aslida shu. Shoir insonning orzu-intilishlari, quvonch-u qayg'usi, dard-u tashvishlari, muhabbati, fikr-u o'ylarini avj pardalarda kuylash bilan adabiyotning asosiy ob'ekti inson ekanligini amalda isbotladi.

Shuning uchun ham, mana, VII asrdiki, uning shuhrati zarracha kamaygan emas, bil'aks, kundan-kunga ortib bordi va bundan keyin ham shoir ijodiga bo'lgan qiziqish so'nmasligi shubhasiz.

Hofizdan bor-yo'g'i bir devon meros qolgan. Shuni ham uning o'zi tuzmagan. Bu ishni Hofiz vafotidan 30-40 yil keyin shoirning do'sti va shogirdi Muhammad Gulandom amalga oshirgan. Lekin shu birgina devoni bilan ham u yarim dunyoni egalladi. Firdavsiy masnaviyni, Umar Xayyom ruboiyni qanchalik takomilga yetkazgan bo'lsalar, Hofiz Sheroziy ham g'azalni shunchalik yuksak poyata ko'tardi. Mana, necha asrlardan buyon ruboiyda biror shoir Umar Xayyomga yetolmagani kabi, g'azalda ham hech kim Hofizning oldiga tusholgan emas.

Hofiz ijodidan namunalarni o'zbek tiliga Xurshid, Muinzoda, CHustiy, Vasfiy, SH. SHomuhamedov, J. Jabborov, E. Vohidov, M. Kenjabek, Olimjon Bo'riyev kabi fors-tojik adabiyotining bilimdonlari tarjima qilganla

Sa'diy Sheroziy. Mashhur fors-tojik shoiri, adibi va mutafakkiri Muslihiddin Sa'diy Sheroziy nomini eshitmagan, uning jahon so'z san'ati durdonalari qatoridan o'rin olgan «Bo'ston» va «Guliston» asarlaridan bahramand bo'lmagan adabiyot muxlisi topilmasa kerak. Sharq xalqlari orasida Shayx Sa'diy nomi bilan shuhrat qozongan bu donishmand inson 1203-yili Sheroz shahrida tug'ilgan. Otasi Sheroz otabegi Sa'd binni Zangiyning mulozimlaridan bo'lgan. Lekin u 10-11 yoshlarida otadan yetim qoladi.

Saroy tomonidan nafaqa tayinlangan bo'lsa-da, oilaning moddiy ahvoli og'ir edi. Mayda savdogarchilik bilan shug'ullangan akasining ham bozori tezda kasod bo'ladi. Shunga qaramay, bilimga chanqoq Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan shahri Sherozda olgach, tahsilni davom ettirish uchun xalifalik poytaxti, o'sha davrning eng yirik ilm va madaniyat markazi bo'lgan Bag'dodga boradi. Dongdor«Nizomiya» va«Mustansiriya» madrasalarida kalom, fiqh, tafsir ilmlari, arab tili sarf-u nahfi, arab va fors adabiyoti, Sharq falsafasi, tarix, mantiq, tib hamda boshqa tabiiy va aniq fanlarni o'rganadi. Taniqli tasavvuf olimi va faylasuf adib Shahobiddin Suhravardiy hamda yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziy qo'lida tahsil oladi.

XI asrda saljuqiy sultonlardan bir nechtasiga vazirlik qilgan mashhur davlat va jamoat arbobi Nizomulmulk asos solgan «Nizomiya» madrasasi ming talabani o'z bag'riga olsa, «Mustansiriya» kutubxonasida 70 ming jilddan ortiq kitob bo'lgan. Bu ikki ulkan madrasaning musulmon Sharqidagi nufuzini shundan ham bilsa bo'ladi. Talabalar orasida, ayniqsa, zabardast arab shoiri Mutanabbiy she'rlariga qiziqish kuchli edi. Bu mutolaalar keyinchalik Sa'diy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U bu yerdagi ilmiy-adabiy davralarda faol ishtirok etib, bilimining keng va chuqurligi, dalillarining o'tkir va asosliligi, voizlik iqtidori tufayli hammaning e'tiborini o'ziga jalb qilar va bahsu munozaralarda

hamisha g'olib chiqar edi. Madrasani tutatgan Sa'diy olgan bilimlarini amaliyotga qo'llash o'rniga, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq yillik sayohatga o'tlanadi. Buni ikki sabab bilan asoslash mumkin:

birinchisi shoirning sayohatga o'chligi, ikkinchisi- mo'g'ullar tasarrufidagi ulkan hududda ilmu ijod uchun osoyishta shart-sharoitning yuqligi. U goh olim va voiz, goh so'fiy va darvesh suratida Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston kabi mamlakatlarni ba'zida otu eshak, ba'zan esa poyi piyoda kezib chiqadi. Bu sayohatlar 20 yildan ortiq davom etgan. Sayohat davrida Sa'diyga karvonni qaroqchilardan himoya qilib, muhorabaga kirishiga ham, turli joylardagi madrasa va qozixonalarda va'z o'qishiga ham, shayxu so'fiylar bilan mubohasa qilishiga ham to'g'ri kelgan. U Hindistonda ham bo'lib, bir muddat butxonada istiqomat qilgan, salibchilarga asir tushib, ularning qal'alarini tuzatish ishlarida qatnashishga majbur bo'lgan. Bu sayohatlar davomida Sa'diy hayot ilmini chuqur o'rganib, inson fe'lini butun murakkabligi bilan anglab, o'z davrining ko'pni ko'rgan donishmand kishisi bo'lib yetishadi. XIII asrning o'rtalarida Sherozga qaytib kelgan shoir dunyo tashvishlaridan o'zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx Abu Abdulloh Hafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi va 1292 yili vafot etadi. U dafn etilgan bog' va maqbara she'riyat ixlosmandlarining ziyoratgohlaridan biri bo'lib, undan kecha-kunduz shoir muxlislarining qadami arimaydi.

Barcha mashhur kishilar kabi Sa'diy hayoti ham afsona va rivoyatlarga ko'milib kettan. Chunonchi, turli manbalarda shoirning Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohati 20 yildan 50 yilgacha davom etgani naql qilinadi. Yoki u juda uzoq 102, 108, hatto 120 yil umr ko'rgani aytiladi. Go'yo u o'z umrini uch qismga taqsim qilib, 30 yilini ilm tahsili, 30 yilini sayohat, 30 yilini ijodga bag'ishlagan emish. (Ba'zi manbalarda 30 o'rniga, 40 raqami tilga olinadi.) Bu taxminlarning barchasi Sa'diyning tarjimai holi haqida yetarli ma'lumot saqlanib qolmaganligidan. Shuning uchun ham shoir ijodining tadqiqotchilari uning tarjimai holini asarlari asosida tiklashga harakat qilganlar. Jumladan, «Bo'ston» va «Guliston» asarlaridagi ba'zi hikoyatlardan kelib chiqib, uning yomon xotinga uchragani, undan bir o'g'il ko'rib, Yamanda bo'lgan vaqtida yolg'iz jigarbandi ham vafot etgani xususida ma'lumot berishadi. Bu haqda «Guliston»da shunday hikoyat keltiriladi:

«Damashqdagi do'stlarimning suhbatini jonimga tegib, shahardan bosh olib, Quddusi sharif biyoboniga jo'nadim-da, hayvonlar bilan ulfatlashib, to faranglar qo'lga asir tushgunimcha o'sha yerda yashadim. Meni yahudiylar bilan birga qo'shib, Taroblis xandaqini qazishga olib borib ishlatdilar. Halablik sardorlardan

biri men bilan oshna edi, yonimizdan o'ta turib, meni tanib qoldi-da, xitob qildi: «Iye, bu qanday hol?» Men unga: «Nima ham deyman?» deb javob berdim. Ahvolimga achinib, o'n dinor to'lab, asirlikdan xalos etdi va o'zi bilan Halabga olib ketdi. U yerda yuz dinorlik qalin puli bilan qizini menga nikohlab berdi. Oradan sal vaqt o'tgach bilsam, qizi badfe'l, shallaqi va o'jar ekan, tilini zahar qilib, jonimdan bezor eta boshladi. Oxiri bir kun basharamga tik boqib, ta'namalomatlar bilan dedi: «Sen otam o'n dinor barobariga faranglardan xalos etgan odam emasmisan?» Men javob berdim: «Ha, otang o'n dinor barobariga faranglardan ozod etib, yuz dinor barobariga changalingga topshirgan odam men bo'laman!» «Bo'ston»ning shoir hayoti tafsilotlariga bag'ishlangan qismida esa quyidagi ishoraga duch kelamiz:

Ba San'oduram, tifle andar guzasht,

Chi go'yam k-az onam, chi bar sar guzasht..

Mazmuni: «San'oda musofirligimda bolam dunyodan o'tdi. Boshimdan kechgan hodisalarning qaysi birini aytay?»

Mo'g'ullar istilosidan tashqari, yevropa mamlakatlarining Sharqqa uyushtirgan salib yurishlari ham Sa'diy davriga to'g'ri keladi. Bu hodisalar shoir yashagan zamonning qanchalik murakkab va og'ir bo'lganligini ko'rsatadi. Uning sayohatlari cho'zilishi, xususan, Arabistonda ko'proq qolib ketishi o'z yurtidagi huddi shu notinchlik, ilmu ijod uchun shart-sharoitning yo'qligidan bo'lsa kerak.

Fors tojik adabiyotida Sa'diyning maqomi juda yuksak. Xususan, boy hayotiy tajriba asosida yaratgan «Bo'ston» (1257) va«Guliston» (1258) asarlari unga olamshumul shuhrat keltirdi. «Bo'ston» o'n qismdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: hamd; na't; kitobning yozilish sababi; Abu Bakr bin Sa'd bin Zangiy madhi; Sa'd bin Abu Bakr bin Sa'd madhi; birinchi bob — odilligu tadbiru andisha zikrida; ikkinchi bob-ehson zikrida; uchinchi bob- ishqu oshiqligu mastlik zikrida; to'rtinchi bob- tavoze' zikrida; beshinchi bob - rizo zikrida; oltinchi bob- qanoat zikrida; yettinchi bob tarbiyat olami zikrida; sakkizinchi bob -shukru omonlik zikrida; to'qqizinchi bob- tavba va savob yo'li zikrida; o'ninchi bob- munojot va kitob xotimasi zikrida.

«Bo'ston» kitobiylikdan uzoq bo'lib, u bevosita qaynoq ijtimoiy-siyosiy hayotdan, jonli xalq tilidan suv ichgan, oziqlangan va shuning uchun ham jamiyatning hamma tabaqalariga tushunarli bo'lgan» (A.Hayitmetov). «Guliston» sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob- podshohlar siyrati zikrida; ikkinchi bob- darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob- qanoat fazilati zikrida; to'rtinchi bob sukut saqlashning

foydalari zikrida; beshinchi bob- ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob- qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob- tarbiyat ta'siri zikrida; sakkizinchi bob-suhbat odobi zikrida.

«Guliston» – fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. U «pandu nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan... Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millatu elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan musajja' nasriy jumlar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan. Ularda donishmand bir hakim insonning zakovati, nasihatlar ham, yengil hazil-mutoyiba, lutfu nuqtadonligi ham, his-tuyg'ularga limmo-lim shoirona mahorati ham mujassam. Shu sababli har xil toifadagi, turli tab'li odamlar «Guliston»dan bahra ola biladilar»(N.Komilov).

Sa'diy g'azal janrining kashshofi va ustodi sifatida ham ulug'lashadi, chunki ungacha forsiy sheriyaatning yetakchi janrlari qasida, doston, masnaviy, qit'a va ruboiy edi. Rudakiy, Sanoiy, Xoqoniy, Jamodiddin va Kamoliddin Isfahoniylar ko'plab g'azallar yozgan bo'lsalar-da, ular qasida va qit'a xarakteriga ega bo'lib, o'zaro mustaqil alohida baytlardan g'azal yaratish an'anasini Sa'diy boshlab berdi. U g'azalchilikdagi o'zigacha olib borilgan izlanish va tajribalarni rivojlantirib, g'azalni takomilga yetkazdi, keyin Xusrav Dehlaviy, Hasan Dehlaviy, Xoju Kirmoniy kabi zabardast shoirlar uni yanada taraqqiy ettirib, Hofiz Sheroziyga yetkazdilar, Hofiz esa uni yuksak cho'qqiga olib chiqdi. Sa'diy g'azallari 4 devondan iborat bo'lib, ular «Tayyibot» («Latif g'azallar»), «Badoye'» («Yangi g'azallar»), «Xavotim» («Xotima g'azallar») va «G'azaliyoti qadim» («Eski g'azallar»)dan iborat.

Sa'diy ikki tilda yoziladigan she'r turi – mulamma'(shiru shakar)ning ham asoschisi hisoblanadi. Arab tilini yaxshi bilganligidan u arabcha misra va baytlarni forsiy bilan uyg'unlashtirib, ushbu shaklni ixtiro qilgan. Keyinchalik forsiy-turkiy ibora va misralar vositasida shiru shakar yozish an'anasi paydo bo'ldi.

Sa'diy tarjeband janrini ham rivojlantirib, baland poyaga ko'tardi. Undan keyin o'tgan shoirlar, hatto Hofiz va Jomiy kabi she'r ustodlari ham bu borada unga ergashdilar. Sa'diy fors-tojik badiiy nasrining ham asoschisi hisoblanadi. Ungacha faqat maktublar, hujjatlar, ilmiy va tasavvufiy asarlar, adabiy xarakterdagi tarixiy lavhalargina nasrda yozilgan. Bundan tashqari, shoirning hayot va inson haqidagi fikrlarining qaymog'ini o'zida jamlagan «Sohibiya» asari, arabcha va forscha qasidalari, qita, ruboiy va fardlari ham mashhur.

O'RTA ASRLAR G'ARB ADABIYOTI

Reja:

1. *Sharq va G'arb qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari.*
2. *Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari.*
3. *O'rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari.*

Germaniyada gumanistik harakat XVI asrning o'rtalarida boshlanadi. Shaharlarning o'sishi savdo va sanoatning rivojlanishi insonparvarlik qarashlarining tug'ilishiga zamin tayyorlaydi. Nemis gumanistlari grek va rim klassiklarining asarlari orqali qadimgi kishilarning dunyoviy, xushchaqchaq hayoti bilan tanishdilar, shu tarzda antiklikning «porloq obrazlari oldida o'rta asrning sharpalari ko'rinmay ketdi». Ilg'or nemis gumanistlari o'zlarini antik adabiyot, san'atning merosxo'rlari deb sanaydi. Germaniyani esa o'rta asr jaholatidan holi, birlashgan mamlakat qiyofasida ko'rishni xohlaydilar. Ular o'z kurashlarida Italiya gumanistik madaniyati yaratgan ma'naviy boyliklardan foydalandilar. Savdo-sotiq keng rivojlangan Nyurenberg, Strasburg, Augsburg kabi nemis shaharlari Germaniyada gumanistik harakatning rivojlanishi va yoyilishida muhim rol o'ynaydi. Italiya bilan savdo va madaniy aloqalar olib borgan bu shaharlardan yetishib chiqqan mutafakkirlar o'zlarini italyan gumanistlarining shogirdlari deb hisoblaydilar. Ularning ko'pchiligi Uyg'onish harakatining beshigi hisoblangan Italiyada ta'lim oladilar. Dastlabki nemis gumanistlaridan biri va papaning ashaddiy dushmani bo'lgan yurist Gregor fon Geymburg 1410-1472 yillarda yashagan. Qadimgi Rim yozuvchilarining asarlarini keng yoyishga uringan va Germaniyaning turli universitetlarida ishlagan filolog–gumanist Peter Luder va Samuel Karoxlar shular jumlasiga kiradi. Germaniyaning janubiy shaharlarida me'morchilik, rassomlik san'ati rivojlangan edi. Nyurenbergda astronom Regiomontanus, geograf Bexeym shuningdek, buyuk nemis gumanisti rassom Albrext Dyurer yetishib chiqadi.

Nemis gumanistlarining ko'pgina asarlarini lotin tilida yaratadilar. Lotin tilida asar yozgan gumanistlar orasida keng ma'lumotli, grekchadan lotinchaga tarjima qilgan gollandiyalik shoir va notiq Rudolf Anrikola (1444-1485y), uning shogirdi German Bush (1468-1534) va ayniqsa nemis Uyg'onish davrining talantli lirik shoiri Konrad seltis (1459-1508)larning ijodi shu davrga mansubdir. Ular o'z ijodlarida qadimgi Rim va XV asrdagi nemis gumanistlari, shuningdek o'sha zamonga xos satirik janrlarda ham ijod qiladilar.

5) Ilk nemis gumanistik adabiyotidagi demokratik oqimning yirik vakillaridan biri satirik yozuvchi Sebastyan Brant 1457-1521 yillarda yashagan.

Brant o'z asarlarini nemis tilida yozishi bilan nemis milliy madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Brant to'la ma'nodagi erkin fikrli kishi bo'lmasa ham, lekin o'zining «Nodonlar kemasi» (1449) yozilgan she'riy satirasi bilan byurgerlar orasida katta shuhrat qozonadi. Brant o'zining bu satirik asarini yaratish uchun tentaklik haqidagi adabiy manbalar va ulardagi badiiy usullardan foydalanadi. E. Rotterdamskiy kabi Brant ham «nodonlik niqobi» vositasi bilan o'z davridagi mulkdor tabaqalar vakillarining kirdikorlarini ochib beradi. Shoir Germaniyani halokat yoqasida ko'radi. Yomonlik hamma yerda hukmron, nodonlik yaxshi narsalarni oyoq osti qilmoqda. Bir to'da tentaklar Narragoniya (Nodonlar mamlakati)ga ketayotgan omonat kemaga tushish uchun to's-to'polon ko'targanlar. Hamma yoqqa yoyilgan odamlar axmoqona harakat qiladilar. Bular: bachkana olimlar, qallob vrachlar, munajjimlar, g'iybatchilar, mechkaylar, araqxo'rlar, dangasalar, qimorbozlar, baxillar, poraxo'rlar, knyazlar va savdogarlar edi. Brant jamiyat manfaatini unutilib shaxsiy manfaat, tamagirlikka berilib ketish kabi nodonlikni zamonaning dahshatli balosi deb ko'rsatadi. Nodon kishilar oltinga sig'inadilar.

Asarning kirish qismida Brant o'z kitobini «Axmoqlar oynasi» deb ataydi. Shoir o'z asarida zamonasining nuqsonlarini fosh etibgina qolmay, balki uni ezgu axloq asosida tuzatish masalasini qo'yadi. O'quvchi brantning «Nodonlar kemasi» asarini o'qir ekan turli xil tasvirga duch keladi. «Ilohiy qasr» dan joy olgan ruhoniylar ibodat boshlanganiga qaramay, italyan urushi haqida to'xtovsiz gap sotib, yolg'on-yashiqni o'rniga qo'yadilar. «Muqaddas» buyumlar bilan savdo qilayotgan monaxlar makkorlikda ruhoniylardan qolishmaydilar. Ular eski-tuski narsalarni «aziz» buyumlar deb oddiy kishilarga pullash uchun shoshiladilar. Brant bu kabi epizodlarni tasvirlashda real nemis voqeligiga suyanadi. Xalq maqollari va hikmatli so'zlarini ustalik bilan o'z o'rnida ishlatadi.

6) XVI asr nemis gumanistik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shoirlardan biri Iogann Reyxlin 1455-1522 yilda yashab ijod etgan. YUrist, filolog, tarixchi va teolog Reyxlin o'z zamonasi ijtimoiy harakatlariga faol qatnashadi. Qadimiy tillarni yaxshi bilgan bu olim o'z zamondoshlarini grek adabiyoti bilan tanishtiradi, ularning asarlarini lotin tiliga tarjima qiladi. Dramaturg sifatida «Genno», «Sergey» komediyalarini yozadi. Birinchi komediyasida sud tartiblari, sudyalarning ta'magirliklarini qoralasa, ikkinchisida ayyor monaxlar va ularga ishonuvchilarni tanqid qiladi.

Reyxlin tilshunoslik sohasida ham katta ishlar qilgan. U yahudiy tili grammatikasi va lug'atini tuzadi. Vetxiy Zavet nomli qadimiy kitobdan parchalar tarjima qiladi va muqaddas kitob–Tavrot (Bibliya) ning mavjud lotincha

tarjimasidagi kamchiliklarni ko'rsatib, uni tanqidiy o'rganish uchun keng yo'l ochib beradi.

MARTIN LYUTER 1483-yili dehqon-konchi oilasida tug'iladi. U Erfurt universitetida ilohiyat ilmini o'rganadi, o'qishni bitirgach, Avgustin monastirida xizmat qiladi. So'ngra Vittenbergda ilohiyat fakultetining professori bo'ladi. 1517-yilda Lyuter Vittenberg cherkovi devorlariga katolik cherkovining kirdikorlarini fosh etgan o'zining 95 ta tezisini yopishtirib qo'yadi.

Xalq kitoblari—bu kitoblarning yaratilish manbalari turlichadir. Ulardan ba'zilari («Go'zal Meluzina», «Pont va Sedoniya», «Tristan va Izolda», «Gersog Ernest», «Shoxli Zigfrid» va boshqalar) fransuz va nemis epik dostonlari, ritsar romanlari, xristian afsonalari va shvanklarning prozaik bayonidan iborat edi. Lekin «Til Eylenshpigel», «Doktor Faust», «Shildbyurgerlar» nomli asarlar original xalq asarlaridir.

XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida yuzaga kelib katta shuhrat qozongan hajviy xarakterdagi asar quvnoq sayyoh Til Eylenshpigel haqidagi xalq kitobidir. Rivoyatlarga qaraganda XVI asrda Til ismli shum bola yashagan. U dadilligi, qiziqchiligi bilan nom chiqargan. Vaqt o'tishi bilan uning obrazi afsonaviy tus olgan, yangi voqealar, latifalar, qiziq hangomalar uning nomi bilan yuritiladigan bo'ldi. U haqidagi xalq kitobi «Til Eylenshpigel» ning nomi bilan birinchi kitob taxminan 1480-yillarda nashr qilingan. Dehqon bolasi sho'x Til juda yoshligidan tanilgan. Voyaga yetgach u katta-kichik kiborlarga tinchlik bermagan, poplar bilan munozara qilgan, maishatparast, ochko'z knyaz va dvoryanlarning sharmandasini chiqargan, o'tkir so'z, hazil-mazaxlari bilan laqma meshchanlarni ham ayamagan. Bir kuni Til kasallardan og'zini o'tda kuydirib, uning kulidan boshqalarni tuzatish uchun zo'r dori tayyorlamoqchi bo'lganini aytadi. Davolashning bu yangi usulini eshitgan bemorlar, vahimaga tushib o'zlarining shifo topganligini aytib undan qutilib ketganlar. Yana bir joyda xasis xo'jayin ovqatining hidiga ham undan pul talab qilgan, Til esa cho'ntagidagi tangalarini jaranglatib, u bilan hisobni baravrlashtirgan. «Mashhur jodugar va sehrGAR doktor Iogann Faust haqidagi xalq kitobi» Germaniyada birinchi marta 1587-yil nashr etilgan XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarmida yashagan, sayyoh, afsungar, nayrangboz deb nom chiqargan va o'zini faylasuflarning faylasufi deb atagan Faust haqida har-xil fikrlar bor. Mo''jizalar yaratishda go'yo u Xristos bilan ham bellashgan ekan. Obro' va kuch-qudrat orttirish uchun shayton bilan ittifoq tuzgan dinsiz jodugar haqida o'rta asrlarda yuzaga kelgan bu afsona gumanistik qarashlar tug'ilib kelayotgan yangi sharoitda o'zgacha ma'no kasb etadi.

XIV asr o'rtalarida Italiyada paydo bo'lgan Uyg'onish harakati XV asrning ikkinchi yarmida Yevropaning bir qancha mamlakatlarida boshlanadi. XVI asrning boshlarida esa Fransiyada vujudga keladi. Bu vaqtda fransuz qiroli Fratsisk I Italiyaga harbiy yurish boshlagan va katolik reaksiyasining boshlig'i—span qiroli Karl V bilan urush olib borayotgan edi. Italiyada bo'lgan fransuzlar Uyg'onish davri madaniyati bilan yaqindan tanishadilar. Arxitektorlar Fransisk I istagi bilan Renessans stilida qasr quradilar. Gumanist yozuvchilar Dante, Petrarka, Bokkachcho asarlari fransuz tiliga tarjima qilinadi. Ular qadimgi antik madaniyat yodgorliklarini katta qiziqish bilan o'rganadilar.

Fransuz protestantizm (boshqacha qilib aytganda kalvinizm) ikki davrni boshidan kechiradi. Dastlabki protestantlar gumanistik qarashlar, fikrlashga moyil intelligent guruhlar bo'lib, ular mavjud tartib va din asarlariga ham tanqidiy qarar edilar. Mashhur matematik Lefevr d Etapl (1455 1537) Italiyadan qaytib kelgach, Aristotel va boshqa grek olimlarining fikrlarini yangicha talqin qilishga kirishadi. Endi u tarjimalarga suyanib emas, balki asosiy manbalarga murojaat etib, o'sha fikrlarning asosiy ma'nosini ochishga intiladi va bu sohadagi sxolastik qarashlarni rad etadi. So'ngra lefevr «Muqaddas kitoblar» ni ham shu jihatdan tekshirishga kirishadi. Injilda u ro'za haqida ham, poplar uylanmasliklari va boshqa sirli voqealar haqida ham gap yo'qligini aniqlaydi.

O'tmishning buyuk yozuvchilari xalq ijodiga murojaat qilib, uning syujet va badiiy ifoda vositalaridan ijodiy foydalanganlar. Qadimgi Shotlandiyada qo'shiq to'qish va aytish an'analari kuchli edi. Hayotdagi barcha voqealar, ya'ni tug'ilishdan to o'lingacha, mehnat jarayoni, dam olish, to'y va ommaviy sayillar ham qo'shiqsiz, kuysiz o'tmagan. O'rta asrlarga oid shotland va ingliz xalq qo'shiqlari XVIII asrdan boshlab yozib olinib boshlandi. Bizgacha 300 ga yaqin syujet va ballada saqlangan bo'lib, ularning variantlari esa mingdan ortiqdir. Balladaning dastlabki ma'nosi raqs va muzika bilan aytiladigan qo'shiqdir.

Robin Gud va uning otryadining jangovar harakatlariga bag'ishlangan balladalar 40 tadan ortiqdir. Ularning ko'pi XIV asrning ikkinchi yarmida yaratilgan. Balladaning bosh qahramoni hukmronlar sinfiga qarshi kurashgan va o'z erkini yo'qotmagan dehqon (yomen) lardan kelib chiqqan Robindir. Robin Gud qahramonliklari yozma adabiyot namunalarida ham o'z ifodasini topgan. Shekspirning «Bu sizga yoqadimi» komediyasida Gud tilga olinadi. Robert Grinning «Vekfild dala qorovuli» dramasida xalq qasoskori Robin Gud haqida ajoyib epizod bor.

Ingliz gumanistik adabiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari bor. Uning dastlabki bosqichi XV asrning oxiri XVI asrning 60-70 yillarini o'z ichiga oladi.

Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, bu vaqtda yashagan gumanistlar antik dunyo madaniyatini qiziqib o'rganadilar. Tragediya va komediya janrini yaratishga kirishadilar.

Uyg'onish adabiyotining ikkinchi gullagan bosqichi XVI asrning oxirlaridan XVII asrning boshlarigacha Shekspir vafotigacha bo'lgan davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda yirik dramaturglar yetishib chiqdilar.

Gumanistik adabiyotning uchinchi bosqichi XVII asrning boshlaridan, ya'ni 1616-yildan to shu asrning 40 yillarigacha bo'lgan davr teatrlarning yopilishi, Uyg'onish g'oyalarning tushkunligi bilan ifodalanadi.

Tomas Mor (1478-1535) Londonda sudyalarning oilasida tug'iladi. Oksford universitetini tugallaydi, lotin va grek tillarini o'rganadi. Morning gumanistik qarashlari uning "Utopiya" 1516-y romanida o'zining yorqin ifodasini topgan. Roman asar muallifi bilan dengizchi Rafael Gitlodey o'rtasidagi suhbat shaklida yozilgan. Kitobning birinchi qismida Angliyadagi mavjud ijtimoiy tartiblar, ikkinchi qismida esa "Utopiya" orolidagi ideal ijtimoiy tuzum ko'rsatiladi. Voqea ko'p joylarni ko'rgan dengizchi-sayyoh-Rafael Gitlodiy tilidan bayon qilinadi. U Angliyada qattiq qonunlar natijasida azob chekayotgan xalq, yeridan ajralib, gadoylar sonini ko'paytirayotgan dehqonlar haqida so'ylaydi. Qishloqqa kirib borayotgan kapital va dahshatli eksploatatsiyani, tekinxorlik bilan hayot kechirayotgan hukmron tabaqalarning kirdikorlarini ochib tashlaydi. "Qo'ylaringiz... shunday xo'ra va asov bo'lib qoldilarki, hatto odamlarni ham yamlab qo'ymoqdalar, dala uy va shaharlarni ham vayron, ham yakson etmoqdalar" degan muallifning obrazli so'zlari haqiqat ekanligini hayot isbotlagan edi.

XVI asrning 60-70 yillariga qadar teatr truppalarning doimiy binosi yo'q edi. Ular o'z o'yinlarini mehmonxonalar hovlisiga, ko'chma sahna o'rnatib ko'rsatar edi. Graf Lester nomidagi truppa iste'dodli aktyorlar to'plangan bo'lib, ularning boshida qobiliyatli duradgor Jeyms Berbedj turardi. 1576-yilda Berbedj Londonning shimoliy qismida, Temza daryosi sohilida birinchi doimiy teatr binosini quradi. 1577-yilda Kurtina teatri qad ko'taradi, shundan so'ng shaharning janubiy qismida yana 3 ta teatr qad ko'taradi. Teatrlarning dekoratsiya va jihozlari ham juda oddiy edi. Idishga o'rnatilgan daraxt - o'rmonzorni, stakan turgan stol-mayxonani, qora gilam-kechani, oq gilam-kunduzni bildirgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida «universitet bilimdonlari» deb atalmish qator dramaturglar yetishib chiqib, ular uyg'onish davri teatrini yangi bosqichga ko'tarishga ulkan hissa qo'shdilar. Bular Shekspirning zamondoshlari: Jon Lili, Kristofer Marlo, Robert Grin, Tomas Kid va boshqalardir.

Jon Lili (1553-1606) dramaturgiyada «tuban va yuqori» komediya janriga asos solgan yozuvchi bo'lib, uning dastlabki asari «Evfues yoki donolik anatomiyasi» (1579) romanidir. Asar qahramoni afinalik yengiltak yigit Evfues do'sti Filavit bilan aristokratiya muhitida juda ko'p sevgi sarguzashtlarini boshlaridan kechiradilar. Dramaturg sifatida Jon Lili ko'proq mifologik mavzuda va nafis ishlangan pastorallar tipidagi «Oydagi ayol» (1584), «Endimion» (1588) komediyalarida allegorik obrazlarda saroy hayoti va sevgi intrigalarini aks ettiradi. Lili ijodining o'ziga xos tomoni shundaki, ingliz dramaturgiyasi uchun yangilik u tomoshabinda qattiq kulgu emas, balki yengil tabassum qo'zg'ashni ko'zlaydi.

Kristofer Marlo – o'z asarlarida romantik va realistik xususiyatlarni mujassamlashtirgan yangi tipdagi teatrning yaratilishiga salmoqli ulush qo'shgan ingliz dramaturglaridan biridir. 1564-1593 yillarda yashab ijod etgan, oddiy tabaqaga mansub bo'lgan bu yozuvchi qudratli va kuchli ehtirosli shaxslar obrazini yaratib gumanistik tragediyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Uning qahramonlari maqsadga erishish uchun intiluvchi va jamiyat axloq normalarini tan olmaydigan qattiqqo'l kishilardir. «Ulug' Temur» (1587-88), «Doktor Faustning fojiali taqdiri» (1588-89), «Malta yahudiysi» (1592) tragediyalarining qahramonlari shu tipdagi shaxslardir. XIV asr sharq jahongiri Temur o'z hukmini o'tkazish niyatida ko'p yerlarni bosib oladi, shaharlarni vayron qiladi. Marlo Temurni faqat o'z kuchiga ishongan, har qanday to'siqlarni yengib o'tadigan, zabardast qudratli, shuhratparast shaxs va individualizmning in'ikosi sifatida tasvirlaydi. Tragediya qahramoni tarixiy Temurdan farq qiladi. Marloning ikkinchi asari «Doktor Faustning fojiali tarixi» tragediyasida nemis xalq kitobida mujassamlashgan jasur olim Faust haqida dramaturg «bilimning oltin tuhfalarini egallash uchun» jonini shayton Mefistofelga sotgan kuchli, shijoatli olimni tasvirlaydi. Faust hech kimning qurbi yetmagan ishni bajarishga intiluvchi yangi tipdagi olim, titan shaxs, Uyg'onish davrining haqiqiy kishisidir. Faustga–bilim, dunyoga hukmron bo'lishga intilgan Temurga - qurol, savdogar Varvaraga esa–oltin kerak. (Malta yahudiysi). Marlo 1593 yilda 30 yoshida qora guruh a'zolari tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi.

Robert Grin–yozuvchi va dramaturg 1558-1592 yillarda yashab ijod etgan. Bilim doirasi keng kishi bo'lib, turli janrlarda: poema, roman, drama asarlari yaratdi, xalq dramasi janriga asos soldi. Hikoyalari esa pastarol (cho'ponlik) adabiyotiga xos sevgi intrigalarini aks ettiradi. Uning bizgacha yetib kelgan 6 ta pesasida romantik motiv, qahramonlik, jasorat va do'stlik olqishlanib, saroy urf-odatlarini masxara qilinadi. Muallifning uslubiy sifatlari uning «Alfons», «Darg'azab Roland», «London uchun ko'zgu», «Monax Bekon va monax Bengey tarixi»,

«Yakob IV» va nihoyat afsonaviy qahramon «Robin Gud» haqida xalq balladalari asosida yaratilgan «Jorj Grin–Vekfild dala qorovuli» (1592) tragediyalarida yorqin ifodalangan.

JAHON ADABIYOTI VA ALISHER NAVOIY

Reja:

- 1. Alisher Navoiyning ijodining umubashariyat ma'naviy olamida tutgan o'rni.*
- 2. Navoiy ijodi va turkiy xalqlar adabiyotida adabiy ta'sir masalalari.*
- 3. Alisher Navoiy ijodining dunyoda dabiyoti miqyosida o'rganilishi.*

Hazrat Alisher Navoiy merosining jahon madaniyati tarixidagi o'rini haqqoniy baholash uchun eng avvalo u yaratgan asarlarning jahon tillariga qilingan tarjimalari tarixini sinchiklab o'rganish lozim. Darvoqe, o'tgan asrda taniqli adabiyotshunos olimlar N.I.Konrad, Y.E.Bertels, V.M.Jirmunskiy, A.K.Borovkov, V.Zohidov, H.Sulaymonov, G'.Karimov, N.Mallayev, A.Rustamov, A.Qayumov tadqiqotlarida Alisher Navoiy merosining jahoniy shuhrati va g'arb sharqshunosligida o'rganilish tarixi xususida ayrim ma'lumotlar berilgani ma'lum.

Bugungi kunga qadar Alisher Navoiyning qator ilmiy-badiiy asarlari xorijiy tillarga tarjima qilindi, bu olamshumul ahamiyatga ega meros bo'yicha yuzlab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ammo hanuzgacha buyuk shoirning ijodiy uslubi, adabiy-estetik tamoyillari, san'atkorlik mahorati uning o'zi kabi Uyg'onish davrida yashab ijod qilgan g'arb shoiru mutafakkirlarining ijodi bilan qiyoslab o'rganilmadi. Navoiyni g'arb adabiyotining yirik namoyandalari qatoriga qo'yib ulug'lash hollari ko'p kuzatiladi, lekin biror asari hozirgacha ularning muayyan bir asari bilan solishtirilib ilmiy tekshirilmagan. Zero, bu yo'nalishdagi ishni ham bajarish lozimligi hozirgi zamon qiyosiy adabiyotshunosligida dolzarb masala hisoblanadi. Alisher Navoiy Sharq Uyg'onish davrining daho mutafakkiri, Vilyam Shekspir esa G'arb Renessansining yirik vakili bo'lganliklari, bu ikki benazir san'atkor o'z ijodlarida inson kamoloti va jamiyat ma'naviy taraqqiyoti masalalarini birday ko'tarib chiqqanliklari bois, ularning ham mavzu, ham syujet, ham badiiy timsollar yaqinligi jihatidan, yonma-yon tilga olinadigan ikki asarlarini qiyosiy o'rganishni maqsad qildik. «Layli va Majnun» hamda «Romeo va Juletta» asarlari shoirlar ijodiy uslublari xususiyatlari nuqtai nazaridan o'rganilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, deb Karimov I. Navoiy shahrida Alisher Navoiy yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2001, 25-avgust. 4 hisobladik. O'zbek adabiyotshunosligida hanuzgacha bunday qiyosiy ish bajarilmaganligi, «Navoiy va

jahon adabiyoti» mavzui adabiyotshunoslik fanimizda nisbatan yangi soha bo'lib, bugungacha sanoqligina ishlar amalga oshirilgan» bugungi kunda esa shu usuldagi tadqiqotlarga ehtiyoj paydo bo'lganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Muammoning o'rganilganlik darajasi. Zamonaviy jahon adabiyoti va madaniyatining integratsiyalashuv jarayonlariga mos kelganligi bois, XIX asrga kelib to'liq shakllangan qiyosiy adabiyotshunoslik hozirda filologiyaning yetakchi sohalaridan biriga aylandi. A.N.Veselovskiy, V.M.Jirmunskiy, M.P. Alekseyev, I.G.Neupokoyeva, D.Dyurishin, A.Dima singari dunyo ilmiy jamoatchiligi tan olgan olimlar esa ushbu soha nazariy va amaliy asoslarining shakllanishiga munosib hissa qo'shdilar. Atoqli sharqshunoslar ye.Bertels, N.Konrad hamda V.Jirmunskiy jahon adabiyotini muayyan qit'alar, xalqlar bo'yicha emas, balki ijtimoiy- iqtisodiy davrlar bo'yicha tahlil etishni taklif qiladilar. Ularning fikricha, bir xil ijtimoiy-siyosiy sharoitda o'xshash mafkura, g'oya va qarashlar paydo bo'lishi, shu zaminda bir-biriga yaqin adabiy hodisalar, oqimlar shakllanishi, mushtarak obrazlar (hatto tasviriy usullar) yuzaga kelishi tabiiydir. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, ular bu masalaga alohida yondashdilar. Akademik N.I.Konrad «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarini yevropa Renessansining shu mavzudagi eng yaxshi asarlari qatoriga qo'ygan edi. Akademik V.M.Jirmunskiy esa Farhod obrazida Renessans davrining idealini ko'rgan. ye.E.Bertels Navoiyning «Layli va Majnun» dostonini fransuzlarning «Tristan va Izolda», V.Shekspirning «Romeo va Juletta» asarlari bilan o'xshashliklarini ta'kidlab fikr bildirgan. O'zbek olimlaridan N.Komilov, F.Sulaymonova, D.Salohiy Sharqning G'arbga ta'siri masalasini ko'tarib chiqdilar hamda tafakkur taraqqiyotida va ijod silsilasida Sharqning alohida mavqei 1 Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. - Toshkent: Fan, 1996. - B. 73. 5 borligini dalillar bilan isbotladilar. H.Arasli, I. Braginskiy, S. Narzullayeva, A. Abduqodirov Navoiyning «Layli va Majnun» dostonini Sharq adabiyotida qiyosiy o'rgandilar. Bunday sa'y-harakatlar natijasida o'zbek adabiyotshunosligini jahon adabiy-estetik qarashlari mohiyati bilan bog'laydigan o'ziga xos maydon hosil bo'ldi . Shekspirning badiiy merosiga bo'lgan juda katta qiziqish natijasida adabiyotshunoslikda alohida shekspirshunoslik yo'nalishi vujudga keldi. Shekspirshunoslik xalqaro miqyosda o'zining bir necha asrlik tarixiga ega.

Tarixdan ma'lumki, XI–XIII asrlar davomida G'arbiy yevropa nasroniy qirollari Rim papasi homiyligida Sharq mamlakatlariga, islom dunyosiga tinimsiz salib yurishlari uyushtirganlar. Bu yurishlar natija bermagach, XIII–XIV asrlar mo'g'ul bosqinidan foydalangan yevropalik nas-roniy sayyohlar, monax va missionerlar Markaziy Osiyo bo'ylab to Pekinga qadar katta hududda emin-erkin

yurishib, xristian dinini targ'ib qilganlar va buyuk ajdodlarimiz qalamiga mansub nodir kitob va qo'lyozmalarni o'zlari bilan olib ketganlar. Nihoyat, XIV asrning so'nggi choragida jahon maydoniga chiqqan sohibqiron Amir Temur shijoati va zafarli yurishlari tufayli 1402-yilda Sharq va G'arb iqlimida totuvlik o'rnatildi, nasroniy va musulmon dunyosi o'rtasidagi aloqalar mustahkamlandi. Natijada islom madaniyatining daholari bo'lgan Ibn Sino, Ibn Rushd, al-Farg'oniy, al-Beruniy, al-Xorazmiy va antik dunyo olimlari Platon, Gippokrat, Aristotel, Ptolemey asarlari arab va lotin tillarida g'arb olamiga kirib bordi. Yevropaning Boloniya, Sorbonna, Kembrij, Oksford, Leyden kabi yirik universitetlarida yuqoridagi olimlarning asarlari asosiy darslik tariqasida keng o'rganila boshlandi.

Qadim yunon va rim hamda islom madaniyati ta'sirida dastlab XIV asrda Italiyada, XV–XVII asrlarda Ispaniya, Fransiya, Angliya va Germaniya kabi g'arb mamlakatlarida Renessans (Uyg'onish) madaniyati yuzaga keldi va ravnaq topdi. Qolaversa, buyuk Dantening "Ilohiy komediya"si, Makiavellining "Hukmdor", Bokkachoning "Dekameron", Rablening "Gargantuya va Pantagryuel", Servantesning "Don Kixot", Marloning "Buyuk Temur" singari shoh asarlarida sharqona mavzu va falsafa e'tirof etilgani fikrimizga asosdir. Eng muhimi, bu davrda dastlab Fransiya va Angliyada sharqshunoslik maktablari yuzaga keldi.

Masalan, Fransiyada qirol Lyudovik XIV (Quyosh qirol) va uning bosh vaziri Kolber zamonida ilm-fan, adabiyot va san'at juda taraqqiy etdi. Shaxsan bosh vazir Kolberning tashabbusi bilan Vizantiya, Konstantinopol, Toledo, Seviliya shaharlaridagi boy kutubxonalar sotib olinib, Prijga keltirildi. Dastlab Qirollik kutubxonasi, keyinchalik Milliy kutubxona nomini olgan bu maskanda XVII asrning o'rtalarida yirik sharqshunoslik maktabi barpo etildi. Shu maktabning birinchi qaldirg'ochlari Bartolome d'Erbelo de Molenvil (1625–1695) va Fransua de Berne (1620–1688)lar bosh vazir Kolber tomonidan ikki tarafga, birinchisi Vizantiyaga qadar, ikkinchisi Hindistonga qadar bo'lgan sharq mamlakatlariga safarbar etilgan edilar. Bu safar taassurotlari natijasi o'laroq, Bartolome d'Erbeloning "Sharq kutubxonasi" va Bernening "Buyuk mo'g'ullarning so'nggi davlat to'ntarilishi tarixi" kitoblari yuzaga keldi.

Sharq xalqlari hayoti, tarixi va madaniyatini keng yorituvchi Bartolome d'Erbeloning "Sharq kutubxonasi" (La Bibliotheque orientale) qomusiy kitobi tez orada nafaqat Fransiyada, balki butun yevropada shuhrat qozondi. Mazkur qomusdagi Markaziy Osiyo xalqlari, sohibqiron Amir Temur va uning buyuk imperiyasi, Shohrux va Ulug'bek davlati haqidagi maqolalar bilan bir qatorda, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, Ibn Rushid kabi buyuk sharq allomalari hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan sahifalar o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Qomusda o'zbek mumtoz adabiyotining yirik siymolari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi xususida ham ilk ma'lumotlar berib o'tilgan edi. Masalan, kitobning 99-sahifasidagi "Alisher" ("Alicher") nomli maqolada hazrat Navoiy to'g'risida quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Alisher, yoki Mir Alisher Navoiy deb atashadi. Bu nom "Ali" va "Sher" so'zlaridan tarkib topgandir... Alisher Xurosonda vazir bo'lib juda katta obro'-e'tibor qozongan. U yirik olim va shirinsuxan shaxs bo'lgan. Hirot shahrida o'zining boy kutubxonasini yaratgan va unga shogirdi tarixchi Xondamirni mutasaddi etib tayinlagan".

Qomusning 661-sahifasidagi "Navoiy" ("Nevai") sarlavhasi ostida berilgan maqolada ushbu satrlarni o'qiyviz: "Navoiy, bu Nizomiddin Mir Alisherning taxallusi bo'lib, Amir Temur avlodidan bo'lgan shahzoda Mirzo Sulton Husaynning vaziri edi. Navoiy ham turkiyda, ham forsiyda ajoyib she'rlar yozgan. Uning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", Saddi Iskandariy" va "Sab'ai sayyor" dostonlari bor. Bundan tashqari, u to'rtta devon yozib qoldirgan. Ular "G'aroyib-us-sig'ar", "Navodir-ush-shabob", "Badoyi-ul-vasat", "Favo-yid-ul-kibar" deb nomlanib, bolalarga, o'smirlarga, o'rta yoshdagi kishilarga va keksalarga atalgandir. Navoiy 906 yoki 912 hijriy yilida vafot etgan".

Bu maqolada fransuz o'quvchisi ilk da'fa hazrat Navoiy "Xamsa"sidagi dostonlarning, shoir qalamiga mansub to'rtta devonning nomi bilan tanishmoqda. To'g'ri, Bartolome d'Erbelo maqolasida "Xamsa"ning birinchi dostoni "Hayrat-ul-abror" hamda "Xazoyin-ul-maoniy" devonining nomlari tushirib qoldirilgan. Shuningdek, olimning shoir devonlari haqida bildirgan fikrlari ham biryoqlama aytilgan. Shoir vafotini ko'rsatuvchi ikkinchi sana ham to'g'ri keltirilgan. Bu kamchiliklarni hisobga olmaganida, Bartolome d'Erbelo qomusidagi ushbu maqolalar Alisher Navoiy ijodi bilan fransuz jamoatchiligini XVII asrda ilk tanishtirgan manba sifatida qimmatlidir.

XVIII asrga kelib, G'arbiy yevropa, jumladan Fransiyada filooriyentalizm (sharqni sevish va o'rganish) tamoyili fan va madaniyatni feodalizm tajovuzi va diniy jaholatdan himoya qilishda muhim rol o'ynadi. Fransuz ma'rifatparvar adiblari Monteskyo o'zining "Fors maktublari", Volter "Sharq qissalari", Didro "Bevafo javohirlar" kabi asarlarida sharqona syujetlarni asosiy maktub qilib oladilar. Bu an'-ana, ayniqsa, Volterning falsafiy qissalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, sharq folklori, mifologiyasi va adabiyotini yaxshi bilgan yozuvchi, o'zining "Zadig yoki taqdir" ("Zadig ou Destinee") qissasidagi "It va ot" ("Le chien et le cheval") bobi mazmunini tabrizlik Xristofor Armaniyning g'arbda mashhur bo'lgan "Sarandip podshosi uch o'g'lining sarguzashtlari" (1557) nomli asaridan olgani o'sha davrda ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan. Qissa nashr

qilingandan so'ng, hatto Volterning zamondoshi, tanqidchi Freron adibni ko'chirmachilikda ayblagan ham edi. Sharqshunos ye.E.Bertelsning yozishicha, Xristofor Armaniy ham o'z kitobiga bu syujetni Alisher Navoiyning "Xamsa"ga kiruvchi "Sab'ai sayyor" dostonidagi hikoyatdan erkin tarjima qilib olgan ekan (Bertels ye.E. Navoi. Опыт tvorcheskoy biografii. –M. – L., 1948,s.79).

O'zbek navoiyshunosligida "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni ziyorati" nomi bilan tanilgan mazkur asar tabrizlik arman yozuvchisi Xristofor Tabriziy qalamiga mansub deb qaraladi. Bunday qarash sho'rolar davrida bu haqda ilk marta maqola yozgan sharqshunos olim ye.E.Bertels fikri bilan bog'liq. ye.E.Bertelsning "Navoiy va Jomiy" nomli tadqiqotidan o'rin olgan "Navoiy asarlarining G'arbiy yevropa tillariga qilingan qadimgi tarjimalari" nomli maqolasida Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" asari ta'sirida yaratilgan ikki asar: yuqorida tilga olganimiz "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni ziyorati" hamda gruzin yozuvchisi sitsishvilining "Etti sayyora" asarlari haqida ma'lumot beriladi. Xususan, olim birinchi asar "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni ziyorati" asariga kengroq to'xtalar ekan, uning muallifi sifatida Xristofor Armani Tabriziy nomini keltirib o'tadi. Bertelsning ma'lumot berishicha, ushbu asar tarjima xarakteriga ega bo'lib, 1557-yilda yaratilgan va 1766-yilgacha, ya'ni 209 yil ichida 11 marta qayta-qayta nashr etilgan.

1557-yilda Venetsiyada Maykl Tramezzino tomonidan italyan tilida nashr etilgan asar muqaddimasida "Sarandibning uch shahzodasi" Muallif mazkur asarni fors tilidagi ertakni italyanchada so'zlab bergan Xristofor Armanodan eshitganlari asosida yozayotganligini aytib ta'kidlab o'tadi.. Ammo hech qayerda Maykl Tramezzino na mualliflar nomi na uning tarjima ekanligini keltiradi. Aytish mumkinki, Maykl Tramezzino asar mullifi yohud mualliflarini yashirishi bilan birga, yuksak mahorat va yangicha g'oyalarga yo'g'irilgan asari egalarining qaysi Sharq allomalari ekanligini yaxshi bilgan. Asarni butunlay o'zlashtirib olganlikda ayblamasliklari uchunmi, nomi hech qaysi manbalarda uchramaydigan Xristofor Armano degani shaxsni kashf etadi. Amerikalik sharqshunos olim Richerd Boyla o'zining "Sarandib shoxining uch o'g'li" asari haqidagi 2000-yilda nashr etilgan ilmiy tadqiqotida "Armano"degan shaxs Tramezzinoning xayoliy tasavvuri mahsuli bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Binobarin, boshqa biron bir tarixiy manbalarda bu nom boshqa qayd etilmagan.

G'arb olimlari mazkur asar Xusrav Dehlaviyga tegishli deb taxmin qilsalar, Bertelsning fikricha, kitob ikki mustaqil syujetdan tashkil topgan bo'lib, uning birinchi qismida Sarandib shohining uch o'g'li otalari huzurida yaxshi tarbiya topib, sayohatga otlanganliklari va ko'p sarguzashtlarni boshdan kechirganlari

haqida hikoya qilinadi. Shahzodalar yo'qolgan tuyani o'g'irlaganlikda gumon qilinib, ular borib qolgan mamlakat shohi Bahrom Go'rnining huzuriga olib kelinadilar va aql-zakovatlari tufayli podshohning ishonchini qozonib, Bahromni o'ldirishni niyat qilgan vazirdan xalos bo'lishiga sabab bo'ladilar. Bertels ushbu syujet Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht" dostonidan olinganligini ta'kidlaydi, darhaqiqat, Dehlaviy dostonidagi birinchi hikoyat voqealari asarning birinchi qismi bilan ko'p jihatdan mos keladiki, biz bu haqda quyiroqda to'xtalib o'tamiz.

Asarning ikkinchi qismi bevosita Bahrom Go'r sarguzashtlari bilan bog'liq. Unda keltirilishicha, o'zining yovuz niyatli vaziridan shahzodalar yordamida xalos bo'lgan Bahrom shahzodalarni o'z xizmatiga oladi. Sal avvalroq Bahrom o'z sevgilisi Diloromni haydab yuborgan va uning firoqida iztirob chekib, xastalanib qolgan edi. Tabiblar uni davolashda ojiz qoladilar. Shunda shahzodalarning maslahati bilan yetti qasr qurib, Bahrom tungi uyqusizligi paytida turli mamlakatlardan kelgan musofirlarning hikoyasini tinglaydi. yettinchi tunda Dilorom haqida xabar topadi. Bertelsning maqolasida keltirilishicha, "Sharq va G'arb" jurnalining noshiri, sharqshunos olim Benfey asarning ikkinchi qismi aynan Nizomiyning "Haft paykar" asaridan olingan degan fikrni bildiradi, zero ushbu qismning Bahrom va uning sarguzashtlari bilan bog'liqligi uning shunday xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. Bertels mazkur maqolasida ushbu qismning asl manbasini izlashga harakat qilgan va uning Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" dostoni bilan bog'lanishi haqidagi ilk mulohazasini bayon qilgan. Bertelsning bu fikri keyinchalik ozarbayjon olimi G'.Aliyev, o'zbek olimlaridan N.Mallayev, N.Komilov, A.Hojiahmedov va boshqalar tomonidan aynan takror tarzda bayon qilindi^[1].

Dastavval "Sarandibning uch shahzodasi" asarining umumiy syujetiga qisqacha to'xtalib o'tsak: Sarandib degan mamlakat shohi Ja'farning uch o'g'li bo'lib, shoh ularning bilim yetuk inson bo'lib yetishlari va mamlakatni boshqarish yo'llarini yaxshi egallashlari uchun oroldagi har biri turli sohalarning ustasi bo'lgan mashhur olimlarni ularga ustoz qilib tayinlabdi. Shahzodalar ilmu fan, san'at va adabiyot sohasida hamma bilimlarni egallab, komil shaxs bo'lib voyaga yetibdilar. Ularning ustozlari shahzodalarning komillik cho'qqisini zabt etganliklarini aytganda, shoh unchalik ishonmabdi. U o'z oldiga o'g'illarini chaqirib, bundan buyon davlatni to'ng'ich o'g'il boshqarishi kerakligini, o'zi esa qolgan umrini toat-ibodatda o'tkazmoqchiligini aytadi. Katta o'g'il "Ota sizdagi tajriba va oqillik menda yo'q, umringizning oxirigacha mamlakatni o'zingiz boshqarishingiz kerak" deb kamtarlik bilan javob beradi. O'rtancha va kenja o'g'illar ham akasining gapini takrorlab, shohning taklifini rad etadilar. SHoh

o'g'illarining dono va aqlli javoblaridan ta'sirlanadi. Ko'ngli xotirjam tortadi. Biroq ertasi kuni o'g'illari hayotiy tajribani ham orttirib, olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'rishlari uchun, ularni mamlakatdan tashqariga chiqarib yuborishga qaror qiladi. O'g'illarini huzuriga chorlab, mamlakat qirg'oqlarini ko'p yillardan beri xavf solib kelayotgan ajdarlardan ozod qilish uchun sehrli she'r zarur ekanligini va ular ushbu she'ni izlab topishlari lozimligini aytib, shahzodalar 15 kun ichida mamlakatni tark etishlari haqida buyruq beradi. Shoh qarori bilan mamlakatdan chiqib ketgan shahzodalar qudratli imperator Bahrom (Bahrom Go'r)ning mamlakatiga borib qoladilar. Yo'lda bir tuyakashning yo'qolgan tuyasini ko'rmagan bo'lsalar-da, fahmu idrok bilan uning belgilarini aytganlarida, o'g'rilikda gumonlanib, mamlakat podshosi Bahrom huzuriga olib kelinadilar. Bahrom bergan savollariga ziyraklik bilan javob bergan shahzodalarni o'z saroyida mehmon bo'lishga taklif etadi. Ziyofatdan so'ng Bahrom ularga uning saltanatni boshqarishida yordam beradigan – kim yolg'on gapirsa ko'rsatib turadigan adolat oynasi bo'lganligini, uni qo'shni qirollikdagi bokira malika saltanatiga olib ketishganini so'zlab beradi. Va ulardan mamlakatda adolat o'rnatishga yordam beradigan ko'zguni keltirib berishlarini so'raydi. Shahzodalar buning uchun dastavval qirg'oq sohilida paydo bo'lib, qirollik aholisi va hayvonlarni halok qilayotgan bahaybat qo'lni yo'qotishlari kerak edi. Shahzodalarning aql-idroki va tadbirkorligi tufayli, qo'l mahv etilib, malika ko'zguni ularga hadya etadi. Shahzodalar ko'zguni Bahromga qaytarganlarida, shoh chuqur tushkunlik kayfiyatida edi, chunki sal avvalroq Dilorom ismli sevimli kanizagini ovdagi mahoratini maqtab, unga tahsin aytmagani uchun qo'l-oyog'i bog'langan holda sahroda tashlab kelgan, ertasi kuni qilgan ishidan pushaymon yeb, o'rmonga borsa, qizdan nom-nishon topolmagan va bu holatdan qayg'uga botib sevgilisining hajrida xastalanib qolgan edi.

Shohning dardiga chora sifatida katta o'g'il yetti qasr qurdirishni, mazkur qasrlarga mamlakatning yetti burchagidan ertakchilarni chaqirtirib, har kun bitta qasrda tunab, ularning hikoyalarini eshitib ko'rishni taklif qiladi. Shoh shahzodalarning aytganini qilib, tez orada sog'lig'i tiklana boshlaydi. yettinchi qasrda tunaydigan kun ertakchi unga o'zi va Dilorom haqidagi hikoyani aytib berayotganligini fahmlab qoladi. Ertakchi shohga Dilorom Bahromning qahru g'azabiga qaramasdan hamon uni sevishini aytadi. Bahrom ertasigayoq Diloromga chopar yuborib, uni olib keltiradi.

Shahzodalar o'rmonda birorta iz topa olmagach, Diloromni yovvoyi hayvonlar yeb ketgan degan fikrdan voz kechib, uni kimdir olib ketgan degan taxminga borishgan, shuning uchun mamlakatning turli burchagidan sayyohlarni

chaqirtirishni maslahat bergan edi. Shahzodalar o'z yurtiga qaytib boradilar, to'ng'ich o'g'il taxtga o'tiradi, o'rtancha o'g'ilga qo'shni qirollikdagi bokira malika turmushga chiqmoqchi ekanligini aytib, chopar yo'llaydi va ular turmush quradilar. Bir necha yillardan keyin Bahrom qiz ko'rganligini va qiziga kenja shahzodani kuyov qilmoqchi ekanligini aytib noma yo'llaydi. Kenja o'g'il Bahromga kuyov bo'ladi va to'ydan keyin Bahrom vafot etgach, o'sha davlatni boshqaradi.

Asar bilan tanishish jarayonida undagi bir qancha syujetlar Sharq mumtoz adabiyoti ta'sirida vujudga kelganligini kuzatish mumkin. Xususan, Firdavsiyning "Shohnoma", Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht", Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asarlaridan olingan ko'plab o'rinlar mavjudki, biz dastavval asarning Firdavsiy dostoni bilan aloqador jihatlariga e'tibor qaratmoqchimiz. Ma'lumki, "Shohnoma" asari 100 ga yaqin kichik dostonlardan tarkib topgan bo'lib, undagi qahramonlar keyinchalik Sharq mumtoz adabiyotida ko'plab asarlarning vujudga kelishi uchun asos bo'lgan. Biz tahlil qilayotgan asarda ham shunday ta'sirlanish ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, Bahrom xastalanib yotgan vaqtida, uning yurtidagi odamlar sarandiblik uch shahzodaga Eron yurtiga xavf solayotgan Zahak ismli uch boshli ilon haqida xabar beradilar. Aytishlaricha, bahaybat ilon Damovand tog'idagi zindondan ozod bo'lganmish. U bir necha yillar ilgari ajdodlar tomonidan zindonband etilgan ekan. U o'rmonlar bo'ylab, tog'lar ortidan poytaxt Bishapur tomonga harakatlanib kelayotgan ekan. Aka—ukalar uning nima uchun kelayotganini so'rashganda, bir dehqon u Bahromni qo'lga kiritmoqchi ekanligini, shuningdek bir necha yil ilgari qo'zg'olon ko'targan Kova ismli temirchining kuchini ham o'ziga tortib olish uchun kelayotganini aytadi. Shahzodalar uni mahv etish usullari haqida so'rganlarida, ularga shunday javob berishadi: "Uning uchta boshini ushlab turgan tirgagi bu uning uchta bo'ynidir. Agar hamma bir yoqadan bosh chiqarsa, Zahakdan qutulish mumkin. Keyin u kuchsizlanadi va uni imperator qushi olib ketadi"^[2].

Ushbu syujet va undagi qahramonlar Firdavsiyning "Shohnoma" dostonidagi "Zahok va temirchi Kova" dostonini yodga soladi. Unga ko'ra, arab xalqlarida hukmronlik qilgan shoh Mirdosning Zahok ismli o'g'li bo'lib, u Iblisning hiylasiga uchib, o'z otasini o'ldiradi va taxtga o'tiradi. Iblis oshpaz qiyofasida uning saroyiga ishga kirib, unga taomlar tayyorlab beradi va Iblisning makri bilan Zahokning yelkasida ilonlar o'sib chiqadi. Iblis ular inson miyasi bilan boqilsagina, tinchlanishi va yo'qolishi mumkinligini aytadi va shu tariqa odam nasli kamaya boradi. Bir kuni Zahok tush ko'radi: unga ko'ra, uch bahodir ho'kiz boshli gurzisi bilan Zahokni savalayotgan ekanlar. Ulardan navqironi Zahokning

terisini shilib olib, ikki qo'lini kesib, bog'lab, uni Damovand tog'i tomon sudrayotgan ekan. Uyqudan uyg'ongan Zahhokka mu'badlar tush ta'birini aytib beradilar: Bir kun kelib, Faridun ilonlarga yem bo'lgan otasi Otibinning xuni uchun undan qasos oladi. Darhaqiqat, shunday bo'ladi: Zahhok qancha urinmasin, Faridunni o'ldirishga chog'lanmasin, taqdiridan qutula olmaydi, temirchi Kova esa o'ldirilgan o'g'illarining qoni uchun Zahhokka qarshi qo'zg'olon ko'taradi, pahlavon Faridun uni asir oladi va Damovand tog'iga zindonband qiladi. Ko'rinadiki, "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni" asariga kiritilgan ushbu motiv Firdavsiy dostonidagi shu qissadan olingan.

Sharqshunos olim Y.E.Bertels o'zining "Navoiy asarlarining G'arbiy yevropa tillariga qilingan qadimgi tarjimalari" nomli maqolasida "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni ziyorati" asari Amir Xusrav Dehlaviyning "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat") tarkibiga kiruvchi bir hikoya zaminida yozilganligini aytadi. Darhaqiqat, uning umumiy qoliplovchi syujeti Dehlaviy dostonidan olingan hikoyatni yodga soladi. Dostonda Bahrom shanba kuni qora gumbaz ostida hind malikasining hikoyatini tinglaydi. Hikoyatning qisqacha mazmunini bayon qilamiz:

Sarandib mamlakati shohining har tomonlama yetuk va barkamol uch o'g'li bo'lib, podshoh ularning har birini alohida huzuriga chaqirib, o'z taxtini taklif qilibdi. Lekin ular ota taxtiga rag'bat bildirmabdilar. Otasi ichida bundan xursand bo'lsa-da, lekin g'azablangan kishi bo'lib, o'g'illarini mamlakatdan haydab yuboribdi. Uch shahzoda boshlari oqqan tomonga yo'l olibdilar. Yo'lda tuyasini yo'qotgan bir kishini uchratibdilar. O'z bilimlari va ziyrakliklari tufayli tuyaning ustida bir homilador ayol va yog' hamda asal ortilgan xurjun borligini aytibdilar va tuya ketgan tomonga ishora qilibdilar. Tuyaning egasi bu ma'lumotlardan ularni o'g'ri deb gumon qilibdi va podshoh huzuriga olib boribdi. Podshoh ularni zindonga tashlabdi. Ertasi kuni tuya va ayol topilgach, shahzodalarning begunohligi ma'lum bo'libdi va podshoh ulardan uzr so'rab, uch-to'rt kun saroyda mehmon bo'lishlarini iltimos qilibdi. Mehmondorchilik asnosida shahzodalar ularga taom o'rnida tortilgan qo'zichoqning it suti bilan boqilganligini, sharobning qabristonda o'sgan uzumdan tayyorlanganligini va podshohning o'zi ham shoh o'g'li bo'lmay, oshpazning farzandi ekanligini aytibdilar. Hikoyat so'ngida shahzodalar otalari huzuriga qaytib, baxtli hayot kechiribdilar. Ko'rinadiki, "Sarandib shohining uch yosh o'g'loni" ziyorati asari uchun aynan shu hikoyat umumiy qoliplovchi syujet vazifasini o'tagan.

Tabriziyga nisbat berilgan asarning ikkinchi qismi ko'p jihatlari bilan "Sab'ai sayyor" dostonini yodga soladi. Bu qismning Alisher Navoiy dostoniga qay

darajada aloqadorligini bilish uchun xamsanavislar: Nizomiy, Dehlaviy, Ashrafning Bahrom mavzusidagi dostonlari va Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoni syujetlarining ba’zi qirralariga qisqacha to’xtalib o’tsak. Birinchi masala kanizakning ismi bilan bog’liq. Tabriziyga nisbat berilgan asarda kanizakning ismi Dilorom. Nizomiyda Fitna, Ashrafda Bahromning oshiqligi bilan bog’liq sahna, demak kanizak voqeasi yo’q, Dehlaviy va Navoiyda qizning ismi Dilorom. Bu jihatdan asar Dehlaviy va Navoiy asariga yaqinlashadi. Salaflarda, ya’ni Nizomiyda ham, Dehlaviyda ham Diloromning kelib chiqishi, bolalik taqdiri tasvirlanmagan. Navoiy dostonida esa Dilorom xorazmlik sozandaga o’zining asli Chindan ekanligini, bola ekanligida urush vaqtida asir tushib, Xoja uni o’ziga farzand qilib, boqib olganligini, bolaligidanoq dilkash ohang bilan qo’shiq kuylaganligini aytadi:

“Sarandibning uch shahzodasi” asarida ham Diloromning taqdiri Navoiy dostonidagi Diloromga yaqin turadi. Diloromni ilk bor ko’rgan Bahrom uning o’tmishi bilan qiziqib, uning xojasi bo’lmish savdogardan Dilorom haqida so’raganda, u qizni hali bolalik paytidayoq topib, boqib olganini aytadi:

“Sab’ai sayyor”da tabiblar va yetti iqlim shohi, “Sarandibning uch shahzodasi” asarida esa shahzodalar Bahromning dardiga chora bo’lishi uchun 7 qasr qurishni maslahat beradilar. Ularning say’-harakatlari bilan tez orada 7 qasr quriladi. Bahrom haftaning yetti kunida mana shu qasrlarga kirib, 7 iqlimdan kelgan musofirlarning hikoyatlarini tinglaydi.

Nizomiyda ham, Dehlaviyda ham o’z kanizaklarini yo’qotgan Bahromning iztiroblari ko’rsatilmagan. Qasr qurilishi ham Bahromning dardini yengillashtirish uchun emas. Nizomiyda Bahrom usta Simnor tomonidan Xavarnaq qasrida o’zining 7 sayyoh davrasida tasvirlangan suratini ko’rib, shunday qasr qurishlarini buyursa, Dehlaviyda ovga va aysh- ishratga berilib ketgan Bahromni poytaxtga qaytarish uchun 7 qasr quradilar. Nizomiyda ham, Dehlaviyda ham Bahrom Navoiy ta’biri bilan aytganda, ishqdan, dardu g’amdan xoli tarzda tasvirlangan. Navoiyning Bahromi esa Diloromni yo’qotgandan so’ng ruhiy iztiroblar tufayli poklanib, chin ma’noda oshiqlik sifatlariga ega bo’la boshlaydi. yevropalik muallifning asarida ham Bahrom aynan mana shu sifatlarga ega qahramon sifatida tasvirlangan, shu jihatdan u Nizomiy va Dehlaviy Bahromiga emas, aynan Navoiy Bahromiga yaqin turadi.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, Maykl Tramezzino yoki boshqa noma’lum shaxs Sharq mumtoz ijodkorlari Firdavsiy, Dehlaviy va Alisher Navoiy asarlarining ma’lum qo’lyozmalari asosida (yoki ularni o’z yurtiga olib ketib) yangi qorishma asar yaratgan. Bu asar Tramezzinoning asari sifatida uyg’onish

davrining shoh asarlari qatoridan joy olgan. Asarning jahon tamaddunidagi o'zni haqida so'z yuritishdan avval o'sha davrdagi adabiy jarayonlarni ko'zdan kechirsak. Renessansgacha bo'lgan davr, erta Renessansda asosan arxitektura va tasviriy san'at rivojlanadi.

Ko'rinib turibdiki, dunyo tamadduniga salmoqli hissa qo'shgan mazkur asarga bo'lgan qiziqish G'arbda hamon so'ngani yo'q. Asarning G'arb uyg'onish davriga turtki bo'lgan sharqona falsafa va jozibasi bir qadar buyuk mutafakkir Alisher Navoiyga ham tegishli ekanligi kishi qalbini faxrga to'ldiradi.

ITALIYA VA ISPANIYADA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

Reja:

1. *Italiya uyg'onishi. A. Dante ijodi.*
2. *Petrarka lirikasi.*
3. *Ispaniyada Uyg'onish davri adabiyoti. M.Servantes ijodi.*
4. *“Don Kixot” romani syujeti va obrazlari.*

Evropa Uyg'onish harakatining ilk vatani— Italiyada savdo-stiq tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Venetsiya va Genuya savdo bilan mashhur bo'lgan bir vaqtda Florensiya sanoat va bank ishlari bilan shuhrat qozonadi. Italiyada shahar respublika tartiblarining g'alaba qilishi, hunarmandchilikning va savdo-sotiqning tez rivojlanishi Renessans harakatining hammadan oldin shu mamlakatda yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

Renessansning alohida belgilari Dante ijodida namoyon bo'lsa ham, lekin Uyg'onish davri to'la ma'noda XIV asrning ikkinchi choragidan boshlanadi va XVII asrgacha davom etadi. Uyg'onish davridagi Italiya yozuvchilari antik madaniyat yodgorliklari bilan tanishishga kirishgan birinchi bosqichda lotin tilidagi asarlarni o'rgandilar. Grek yozuvchilarining kitoblari bilan tanishish esa, ikkinchi bosqichdan boshlanadi. 1453-yilda mashhur shahar Konstantinopolni bosib olgach, Vizantiya imperiyasi yemiriladi, uning madaniy yodgorliklariga ham kata zarar yetadi, san'at va adabiyot ahli kuvg'in qilinadi. Juda ko'p olimlar Italiyadan boshpana topadilar. Muhojirlar grek tilidan dars beradilar. Bu tilni bilib olgan Italyan gumanist olimlari grek yozuvchilarining asarlarini asl nusxa holda o'rgana boshlaydilar. Bu madaniy aloqa italyan adabiyotining bundan so'nggi rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Italyan Renessansi yevropaning boshqa mamlakatlaridagi ijtimoiy harakatga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fransuz, nemis va ispan gumanistlari antik madaniy merosni

bevosita o'rganishlari bilan bir qatorda, uni italyan mutafakkirlari o'qishi orqali ham o'zlashtiradilar.

Gumanistlar maktabda tarbiya ishlarini qayta ko'rishlari bilan birga oliy ta'limni ham isloh qilishga kirishadilar. Boshqa mamlakatlardan ancha oldin Italiya shaharlarida oliy yuridik maktablarning paydo bo'lishi diqqatga sazovordir. XII asrda mashhur Bolonya universiteti tashkil etiladi. Uning yuristlari Rim huquqshunosligini o'rganib, uni G'arbning yakayu yagona qonuni deb e'tirof qiladilar. Rim qonunshunosligi haqidagi bu qarashlar Uyg'onish davrini tayyorlashda muhim omillardan biri bo'lgan edi.

Mamlakat madaniy hayotida misli ko'rilmagan yangiliklar yuz bera boshlaydi. XIII-XVI asrlar mobaynida Italiya shaharlarida 22 universitet ochiladi. Italyan tasviriy san'atida ham jiddiy burilish sodir bo'ladi. Shaharlarning taraqqiy etishi natijasida arxitektura, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati, badiiy adabiyot kamol topadi. Yangi mavzularga murojaat etish badiiy tasvir usullarini ham o'zgartiradi. Bu hol, shubhasiz, o'rta asr adabiyotidagi allegorizmdan realizmga qarab yo'l ochadi. Garchi yangi zamonning birinchi shoiri Dante ijodida hali ramziy tasvirlar mavjud bo'lsa ham, lekin u asta-sekin kamayib boradi.

Dante o'z adabiy faoliyatini lirik shoir sifatida boshladi. O'sha vaqtlarda Florensiyada Averroes va materializmga yaqin shakkoklik ruhidagi arab falsafasi keng tarqalgan edi. Dantening yaqin do'sti florensiyalik shoir Gvido Kavalkanti(1259-1300) arab faylasufi Averroes(Ibn Roshd)ning izdoshlaridan edi.

Gvido jonning o'lmasligi haqidagi diniy qarashlarga ishonmaydi. Dante ham jamiyat haqidagi fikrlarini bayon etishda Averroes ta'limotiga asoslanadi. XIII asr italyan lirikasi va Dante poeziyasi rivojiga faqat lotin adabiyotigina emas, balki arab she'riy tuzilishi ham ta'sir etadi. Sharq adabiyoti motivlari Florensiyaga Sitsiliya va Provans trubadurlari asarlari orqali o'tgan edi. Dante poeziyasining eng yaxshi namunalari uning «Yangi hayot» to'plami 1283-1291-yillarda yozilgan bo'lib, ular shoirning sevgilisi Beatrichega bag'ishlangandir. Bu she'riy asarda shoirning muhabbati, shirin xayollari Beatrichening bevaqt o'limidan so'ng uni qurshab olgan qayg'u-alamlar bilan qo'shilib ketgan. She'rlarning mazmuni nasriy hikoyalar, falsafiy izohlar bilan sharhlanadi. Shoir to'qqiz yoshga kirganida o'ziga tengdosh Beatricheni ko'radi va uni sevib qoladi. Shundan to'qqiz yil o'tgach, ular yana uchrashadilar. Qizning ochiq chehra bilan ta'zim qilishi shoirni

hayajonga soladi. Uyga qaytgach shoir tush ko'radi va bu tushlarini o'zining birinchi she'ri(soneti)da tasvirlaydi.

Dante o'rta asr an'analariga amal qilmay, «Ziyofat» traktatini eskirgan lotin tilida emas, balki italyan tilida yozadi, bu jonli tilning kelajagi porloq ekanini ta'kidlab, kitobni«yangi oftob» deb ataydi.

Dantening lotin tilida yozilgan«Xalq nutqi haqida»gi traktati(1305) roman tilshunosligi bo'yicha birinchi ilmiy asardir. Bu kitobida yozuvchi roman tillari o'rtasidagi farqni ko'rsatadi, ularning lotin tiliga aloqasi haqida to'xtalib o'tadi va butun Italiya uchun yagona milliy til yaratish kerak, degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

Bu asar o'z zamonasi uchun muhim ijtimoiy va madaniy qimmatga ega bo'ldi. «Monarxiya haqida» (1313) nomli lotincha risolasida Dante papaning siyosiy hokimiyatga intilishini qoralab, imperiya huquqini himoya qiladi.

«Ilohiy komediya» - Dante ijodining kamolotga erishgan davridagi siyosiy-falsafiy va adabiy faoliyatining yakuni sifatida bunyodga kelgan, uni«o'rta asrning eng oxirgi shu bilan birga yangi zamonning eng avvalgi shoiri» qilib tanitgan asardir. Dante hali ko'p jihatdan o'rta asr urf-odatlarini ta'siri ostida bo'lsa ham, lekin bu asarida u zamonaviy masalalarni fantastik bo'yoqlarda aks ettirib, yangi tanqidiy fikrlar bilan chiqadi, butun o'rta asr madaniyatiga falsafiy-madaniy yakun yasaydi. Gumanistik g'oyalarni qat'iylik bilan himoya qilgan bu ulug' yozuvchi o'sha vaqtda avj olgan diniy jaholat va munofiqlikka qarshi kurashdi.

Dante o'z asarini«Komediya» deb atagan. Yozuvchi vafotidan ancha keyin unga«ilohiy» so'zi qo'shilgan, bu so'zdan kitob diniy xarakterda degan xulosa chiqmaydi, balki bu nom uning badiiy jihatdan yuksak asar ekanligini ifodalash uchun qo'llangan. Dostonning o'ziga xos aniq tuzilgan badiiy qurilmasi bor. Yozuvchi«narigi dunyo»ni uch qism– «Do'zax», «A'rof» va «Jannat»ga bo'lgan. Asarning har bir qismi33 qo'shiqdan tuzilgan, kirish qismi esa bir qo'shiq, hammasi bo'lib 100 qo'shiqdan iboratdir.

Dante tasvirlagan«Do'zax» asarning birinchi qismi yer markaziga voronka shaklida o'yib tushirilgan joy bo'lib, unda to'qqiz pog'onali chuqurlik bor. Gunohkor jonlar shu pog'onali chuqurlarda azob chekadilar. Pastki pog'onaga tusha borgan sari jon qattiqroq azoblanadi. Muhimi shu yerdaki, Dante o'zining siyosiy muxoliflarini do'zaxga tashlaydi, ayniqsa, xristian ruhoniylarini qattiq qoralaydi va ularni do'zaxning so'nggi pog'onalariga joylashtiradi.

Dantening tasvirlashicha, «A'rof» (poemaning ikkinchi qismi) yer kurrasiga qarama-qarshi joylashgan. yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o'rtasidagi orolda baland tog' bor. Tog' yetti pog'onali bo'lib, ulardan o'tib borayotganida aybdorning bittadan gunohi yuviladi, 7 pog'onadan ko'tarilganida 7 gunoh (mag'rurlik, ichi qoralik, g'azab, umidsizlanish, tamagirlik, mechkaylik, buzg'unchilik) yo'qoladi va u jannatga chiqadi. «Jannat» ham 9 qavatga bo'linadi, jon qancha yuqori pog'onaga ko'tarilsa, u go'yo xudoning shuncha ko'p marhamatiga muyassar bo'ladi.

Dantega hammadan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatgan kishi Vergiliy bo'ladi. Dante o'z poemasida qahramon Eneyning marhum otasini ziyorat qilmoq uchun Tartarga tushishi kabi epizodlardan foydalandi. Yozuvchi «Do'zax» va «A'rof»ga qilgan sayohatida majusiy Vergiliyni o'ziga ustoz deb bilishi katta voqea edi.

Italyan gumanizmining asoschisi Franchesko Petrarka o'z umrining ko'p qismini antik adabiyot yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlagan yirik olim, mutafakkir, notiq va shoir sifatida shuhrat qozondi. Uning otasi Dantening yaqin do'sti bo'lib, u ham 1302-yilda qora gvelflar tomonidan barcha siyosiy muhojirlar qatori Florensiyadan quvilgan va Aretssodan boshpana topgan edi.

Ispaniyada uyg'onish davri adabiyoti

XV asrning ikkinchi yarmidan Ispaniyaning ijtimoiy hayotida absolyut hokimiyat tashkil topa boshlaydi va bu o'z navbatida adabiyot taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmadi.

Bu davrga kelib mamlakat yerlarini qayta qo'lga kiritish harakati boshlanib ketdi, rekonkista harakati asosan tugallandi. G'arbiy yevropaning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi, Ispaniyada ham, o'sha vaqtda unga qaram Portugaliyada ham savdo-sanoat rivojlanib, kapitalistik munosabatlar tug'iladi. Gumanistik dunyoqarashning shakllana borishi bilan feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qarshi kurash kuchayadi. Lekin Ispaniya viloyatlarida burjua munosabatlarining sekinlik bilan o'sishi, har bir o'lkaning o'z qonun-qoidalari bo'lishi va, shuningdek, rekonkistaning uzoqqa cho'zilganligi sababli absolyutizm butun mamlakatni bir milliy davlat tevaragiga birlashtira olmaydi. Qirollik hukumati shaharlar bilan ittifoq tuzib, feodal tarqoqligiga chek qo'ya olmaydi.

XV asrda yevropaning boshqa mamlakatlarida yirik monarxiyadan iborat davlatlar paydo bo'lib, ular «madaniylashtiruvchi markaz» sifatida xizmat qilgan bir vaqtda Ispaniyada bunday markazlashgan hokimiyat hali yo'q edi. Feodal aristokratiya o'zining yaramas odatlarini saqlagani holda inqirozga uchraydi.

Shaharlar esa yangi zamonga xos ma'no kasb etmasdan, o'zlarining o'rta asr kuch-qudratlarini yo'qotadilar.

Savdo-sanoat ishlarida ham tushkunlik ro'y beradi. Amerikadan keltirilgan oltin mamlakatning xo'jaligini izdan chiqaradi. Chetdan mol sotib olish foydaliroq bo'lib chiqadi. Oqibatda, dehqonlar xonavayron bo'ladi. Mustamlaka xalqlarini talash va ezish kuchayadi, moddiy boylik ishlab chiqarish haddan tashqari qisqarib ketadi. Oltin zapasi tugagach, xo'jalik hayotida yana og'ir vaziyat yuzaga keladi. Absolyutizm mamlakatda iqtisodiy kuchning o'sishi va burjua munosabatlarining rivojlanishiga to'siq bo'lib qoladi, natijada yagona milliy davlat o'rnatilmaydi. Zulmga qarshi bosh ko'tarib chiqqan xalq harakatini bostirish uchun absolyutizm harbiy-politsiya tartiblarini o'rnatadi. Ispan monarxiyasi yevropa feodal reaksiyasining tayanchi edi. Katolik cherkovi esa xalqni qullikda saqlash uchun qirol hukumatiga yordam beradi. Ozodlikka bo'lgan har qanday intilish taqiqlanib, juda ko'p gunohsiz kishilar inkvizitsiya jazosiga duchor bo'ladi.

XVI asrning ikkinchi yarmilarida, Filipp II (1556-1598) hukmronlik qilgan davrda, mustabid hokimiyat siyosiy va iqtisodiy tushkunlikka uchraydi. Niderlandiya qo'ldan ketadi. Angliyani bosib olish uchun yuborilgan Ispaniyaning «Engilmas Armada» floti tor-mor etiladi (1588), mamlakatda feodal-katolik zulmi kuchayadi. Ilgari Ispaniyadan yahudiylar quvilgan bo'lsa (1492), endi o'troqlashib qolgan mavrlar haydaladi (1609). Bu voqealar mamlakat xo'jaligiga, so'zsiz, salbiy ta'sir ko'rsatadi.

XVII asr o'rtalariga kelib Ispaniya o'zining ilgarigi qudratidan mahrum bo'ladi, keyinchalik u mustamlakalaridan ajralib, kuchsiz davlatga aylanib qoladi. XVI– XVII asrlar mobaynida davom etgan dehqon qo'zg'olonlari esa absolyutizm krizisini yana ham chuqurlashtirib yuboradi.

Ispan Uyg'onish davri adabiyoti XV– XVI asrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, mamlakat tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ravishda shakllanib, unda ilg'or gumanistik g'oyalar targ'ib qilinadi.

Bu adabiyotning dastlabki bosqichi (XV asr oxiri, XVI asrning birinchi yarmi)dagi yirik shoirlardan biri Fernando de Erreradir (1534– 1597).

Bu davrda lirika janriga nisbatan epik poeziya keng ko'lamda rivojlanadi. Tarixiy, ta'limiy-didaktik, afsonaviy, diniy va boshqa turdagi poemalar yuzaga keladi. Chunonchi, Ersilya(1533– 1594)ning katta epopeyasi «Araukana»da hind-araukan qabilasidan bo'lgan chiliylarning ispan hukmronligiga qarshi ko'targan qo'zg'olonlari tasvirlanadi. Asarda qabila qahramoni Kaupalikanning mardona kurashi, ayollarning sevgi sarguzashtlari tasvirlanadi. Poema o'sha davr Ispaniya

uchun xarakterli kayfiyat – yangi mustamlakalarni bosib olish, mahalliy xalqqa «ma’rifat» tarqatish kabi intilishlarni aks ettiradi.

XVI asrda yashagan yirik portugal yozuvchisi Luis de Kamoens (1524/25-1580) ijodida davr ruhi muvaffaqiyatli gavdalanadi. Kamoens bir necha komediya, bir qator she’r, shu jumladan baxtsiz sevgini ifodalagan 350 dan ortiq sonet yozadi. Lekin u, asosan «Luziada» poemasi bilan mashhur. Asar Vasko de Gamaning Afrika orqali Hindistonga yo’l topishi va portugallarning bu mamlakatga kirib borishini tasvirlaydi. Shoir jamiyatdagi nuqsonlarni, saroy ahlining munofiqligini va hukmronlarning og’ir soliqlar solib xalqni ezayotganligini ayamay fosh etadi. Poemada sinfiy qarama-qarshiliklar, ritsar sarguzashtlari, koloniyalarni bosib olishga intilish kabi davrning xarakterli xususiyatlari aks ettiriladi. Asarning ahamiyati shundaki, u insonning tabiatni o’rganishga qaratilgan faoliyati va urinishlarini qiziqarli qilib tasvirlash bilan birga, poeziyada realistik uslubning rivojlanishiga ma’lum darajada ta’sir ko’rsatdi. Ersilya va Kamoens ijodlariga Gomer, Vergiliy kabi shoirlarning ta’siri bor edi. Bu ta’sir ularning poemalarida realistik epizodlar bilan birlikda fantastikaga berilishda ko’zga tashlanadi.

XVI asr ispan adabiyotida lirik va epik Ritsarlik romani poeziyaga qaraganda romanchilik keng rivojlanadi. Inson istak-orzulari, irodasi va kurashining yana ham to’laroq aks ettirilishi bilan bu janr alohida o’rin tutadi. Bu davrda romanning xillari ko’p bo’lib, ulardan biri ritsarlik romani edi. Bu turdagi romanlarda ritsar sarguzashtlari ifodalangan poema syujetlari qayta ishlandi, davr ruhiga moslandi, shuningdek, ularda harbiy qahramonliklar tasvirlandi.

Feodal-aristokratik dunyoqarashni ifodalagan va o’rta asrlarda keng tarqalgan ritsar romanlaridan eng mashhuri «Amadis Galskiy»dir. Bu romanda Amadisning sirli tug’ilishi, uni onasi qutiga o’tqazib, suvga tashlab yuborishi, bir ritsarning qutini ushlab olib, bolani tarbiya qilishi, voyaga yetgan Amadisning Britaniya qirolining qizi Orianaga sevgisi, sevgilisiga erishish yo’lida ko’rsatgan qahramonliklari tasvirlanadi. Amadis juda ko’p mashaqqatlarni boshidan kechirib, dunyoni kezib chiqadi, Rim imperatorini yengadi, Konstantinopolga bostirib kiradi. Pirovardida, qahramonlik bilan o’z muhabbatini isbotlab Orianaga uylanadi.

Amadis haqidagi bu asar bema’ni ritsar sarguzashtlarini ko’rsatsa ham, lekin unda yuksak badiiy qimmatli epizodlar ham yo’q emas. Servantes «Don Kixot» romanida ritsar romanlarini qattiq qoralaydi. Lekin «Amadis»ni ritsar romanlaridan eng yaxshisi, deb baholaydi.

XVI asr oxirlarida rivojlangan va demokratik xarakter kasb etgan «Aiyerlik» romanida oddiy turmush manzaralari tasvirlanadi va shuning uchun ham, u aristokratik tabaqalarning didini aks ettirgan ritsarlik va pastoral (cho’ponlik)

romanlaridan tubdan farq qiladi. Fernando de Roxasning dialog shaklida yozilgan «Selestina» (XV asr oxiri) asari shu tipdagi romanning dastlabki namunasi hisoblanadi. Bunda ikki sevishtan yosh Kalisto bilan Melibeyaning fojiali sevgisi hikoya qilinadi. Yozuvchi ispan adabiyotida birinchi bo'lib ideallashtirilmagan sevgini, yoshlar muhitini realistik bo'yoqlarda tasvirlaydi. Sevishtanlar o'rtasida turgan vositachi Selestina va u bilan o'lja talashgan yordamchilari qilmishlarining tasviri xarakterli. XVI asr o'rtalarida mamlakatda qashshoqlikning avj olishi, yengil hayot kechirishga intilish har xil avanturaga berilishlarni kuchaytirib yuboradi. Katta-kichik tovlamachilar, yulg'ichlar, o'g'rilar pikaro (ayyor, firibgar) deb atalar edi. Bu haqdagi asarlarning «ayyorlik» romani deb atalishi ham shu bilan izohlanadi. Odatda, bu tipdagi asarlarda bolalik vaqtida uydan qochib ketgan yoki ota-onasining qashshoqligi natijasida ko'chaga haydalgan «ayyor»ning tarjimai holidan bayon etiladi. Tirikchilik o'tkazish maqsadida ayyorning qilmagan ishi qolmaydi. U bir xo'jayin qo'lidan ikkinchisiga o'tib turadi. Turmushning achchiq-chuchugini totib, katta tajriba orttirgan «ayyor» o'zining hayot yo'li haqida «Xotiralar» yozishga kirishadi. Qahramon sarguzashti orqali ijtimoiy muhitni aks ettirish o'sha davr ispan hayotining satira ostiga olinishiga yo'l ochadi. Adolatsizlikka asoslangan ijtimoiy tuzum kambag'allarni qashshoqlik girdobiga tortadi, munofiqlik va ayyorlikka zamin hozirlaydi. Roman qahramonlari insoniy qiyofasini yo'qotish evaziga «muvaffaqiyat»ga erishadilar. Ayyorlik romanlari feodal absolyutizmga qarshi demokratik ruhni ifodalashi, realistik tasvirning chuqurligi bilan shu davr ispan adabiyotining yuqori cho'qqilaridan birini egallaydi. XVI asr o'rtalarida yaratilgan bu janrning dastlabki namunasi «Tormeslik Lasorilo» hajm jihatidan kichik bo'lsa ham, lekin satirik jihatdan kuchliligi bilan Erazm Rotterdamskiyning «Nodonlikning maqtoviga tenglashib boradi.

«Tormeslik Lasorilo» romanida kambag'al beva onasidan ajralib, mustaqil hayot kechirishga kirishgan sakkiz yashar bolaning sarguzashtlari beriladi. Bola ko'r gadoyga yetakchilik qiladi, biroq unga tushgan sadaqaga sherik bo'lgisi kelmaydi. Tirikchilik o'tkazish uchun u turli hiyla-nayranglar ishlatadi. Xasis ruhoniy qo'lida xizmat etgan va och qolib, uning nonini o'g'irlagan Lasorilo qattiq kaltaklanib haydab yuboriladi. So'ngra u bir ritsarnikida yuradi, bipoq bu xo'jayin o'z xizmatkoridan ham nochor yashaydi. Yana ko'p kishilar eshigida dastyorlik qilsa ham, Lasoriloning ahvoli yaxshilanmaydi. U politsiya pristaviga yordamchi bo'lib xizmatga kirgandan keyingina, xo'jayinning qonunsiz daromadlaridan bir qismini egallab, uy-joy va boylik orttiradi.

Fransisko Gomes de Kevedo (1580– 1645) ijodida «Ayyorlik» romani yuqori bosqichga ko'tariladi. Aristokrat muhitidan chiqqan Kevedo bir qancha yuqori mansablarda ishlaganligiga qaramay, hukmron doiralarning adolatsizligini, xalqqa qilayotgan zulmini tanqid qiladi. Shuning uchun ham Kevedo ta'qib ostiga olinadi va qamaladi. Bu narsa uning sog'lig'iga yomon ta'sir etadi. Kevedo «Segoviyalik don Pablos deb ataluvchi qallobning hayot tarixi» (1626) satirik kitobida dvoryanlar axloqining buzilganligi, ruhoniylarning munofiqligi, qirollik hukumatining yaramasliklarini hajviy yo'sinda aks ettiradi. U faqat roman emas, pamflet, poema, sonet va romanslar ham yozadi.

Kevedo satirik-pamfletchi sifatida xalq qonini so'rib yurgan iyezuitlar, ochko'z chinovniklar, tekinxo'r savdogarlar, olg'ir burjua guruhlarini qattiq qoralaydi. «Sinor Dinero» («Janob Aqcha») she'rida shoir oltinning dahshatli qudratini, u orqali odamlarning qul qilinishini ochib tashlaydi. «Hamma narsa va yana boshqa ko'p narsalar haqida kitob»ida eski urf-odatlar, munajjimlar, pedantizm, ikkiyuzlamachilik va tovlamachiliklarni ayamay fosh etadi. «Videniye»lar sikli («Ostin-ustin dunyo», «Dahshatli sud videniyesi», «Do'zax videniyesi»)da Kevedo har qanday mansabdor va ruhoniy ham hayoti dor ostida tugaydigan o'g'ri va bosqinchining xuddi o'zi, bu dunyo azoblari do'zax dahshatlaridan yengil emas, deydi.

Servantes **(1547– 1616)**

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida ijod etgan ispan Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili, realistik romanchilikka asos solgan gumanist yozuvchi Migel de Servantes Saavedra 1547-yilning 29-sentyabrida Ispaniyaning Alkala de Enares shaharchasida tug'ildi. Otasi Rodrigo de Servantes Saavedra tabiblik bilan kun kechirar, shuning uchun ham u ko'p vaqt oilasi bilan shahar-shahar kezib yurishga majbur bo'lar edi.

Migel de Servantes 1557– 1561-yillarda iyezuitlar maktabida o'qiydi. 1561 yilda oilasi Madridga ko'chib borganidan so'ng, o'qishini shu yerda davom ettiradi. O'spirin Migelda she'riyatga qiziqish tug'iladi. Filipp II ning xotini malika Isabella vafotiga bag'ishlangan sonetlari yosh Servantesning poeziya sohasidagi dastlabki she'rlari edi.

1569-yilda Servantes Rimga borib, papaning vakili Akvavia huzurida ishlaydi, 1570-yilning ikkinchi yarmida Italiyada joylashgan ispan qo'shiniga xizmatga kiradi, chunki muhtojlik uni o'z vatanini tashlab ketishga majbur etadi. 1571-yilning 7-oktyabrida Lepanto ko'rfazi yaqinida turklar bilan bo'lgan shiddatli dengiz jangida qatnashgan Servantes uch yeridan o'q yeydi. 1572-yilning aprel

oyigacha Messina gospitalida davolanadi. 1574-yilning oxirigacha soldat sifatida yana bir qancha janglarda qatnashadi. 1575-yilda u harbiy xizmatdan bo'shab, ukasi Rodrigo bilan o'z vataniga jo' naydi.

1575-yilning 28-sentyabrida yo'lda qaroqchilar Servantesni asir qilib olib ketadilar, u o'zini va do'stlarini qutqazmoq uchun ko'p harakat qiladi, o'zi ham qochishga urinadi. Biroq bu urinish muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Servantesning ota-onasi pul to'plab, uni tutqunlikdan qutqarib olishga harakat qiladilar. Servantes 1580 yilning 19-sentyabridagina ozod etiladi va o'z vataniga qaytadi. Bu vaqtda uning oilasi juda qashshoqlashgan, ota-onasining bor-yo'g'i Rodrigo bilan Migelni qullikdan qutqarish uchun sarf qilingan edi. Qarib qolgan ota endi tabiblik kasbi bilan shug'ullanmas edi.

Servantes biror harbiy mansabga erishish niyatida Ispaniyaga qo'shib olingan Portugaliyaga boradi (1581). U yerda ham huzur-halovat ko'rmagan Servantes Madridga qaytadi. 1584-yilning dekabrda mayda dvoryan oilasidan chiqqan Katalina ismli qizga uylanadi. Otasi o'lgach (1585), ro'zg'or tebratish maqsadida turli moliya-xo'jalik ishlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Natijada adabiy ishini uzoq vaqtgacha davom ettira olmaydi.

Oldin armiyaga oziq-ovqat tayyorlovchi intendant (1587– 94), so'ngra to'lanmagan boqimandalarni undiruvchi agent sifatida ishga kirgan Servantes ehtiyotsizligi oqibatida va boshqalarning aybi bilan ko'p mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. 1592-yilda u to'plangan g'allani noto'g'ri sarflashda ayblanib, turmaga tashlanadi. Moliya ishlarida ham chalkashliklar kelib chiqadi. Seviliya shahrining bankiri Madridga o'tkaziladigan pulni yubormaydi, buning ustiga u sinadi, undirilmay qolgan mablag'lar uchun gunohkor deb hisoblangan Servantes 1597-yilda yana qamaladi. Keyinroq bu voqeaga doir janjal ikkinchi marta ko'tarilib, Servantes 1602-yilda uchinchi marta qamoqqa olinadi.

Servantesning «Don Kixot» romani ustida ishlay boshlashi hayotining shu og'ir va mashaqqatli davriga to'g'ri keladi. 1604-yilda qirollikning yangi poytaxti deb atalgan Valya-dolidga kelganidan keyin uning adabiy faoliyati ravnaq topadi va shu yerda «Don Kixot» romanining birinchi qismi nashr etiladi (1605). So'ngra o'n to'rt hikoyani o'z ichiga olgan «Ibratli novellalar» to'plami (1613), adabiy satira– «Parnasga sayohat» (1614) poemasi bosiladi. 1615 yilda «Don Kixot»ning ikkinchi qismi bosilib chiqadi. Shu yili uning «Sakkiz komediya va sakkiz intermediya» nomli pesalar to'plami ham yuzaga keladi. Servantesning so'nggi asari «Persiles va Sixizmunda sayohati» romani yozuvchining o'limidan so'ng nashr qilinadi.

Antik klassik va Uyg'onish davri adabiyoti bilan yaqindan tanishish, harbiy xizmat va urushlarda qatnashish, Jazoirdagi besh yillik tutqunlik hamda boshqa ko'p muhtojlik va mashaqqatlar Servantes dunyoqarashining gumanistik xarakterda shakllanishiga va uning yirik realist yozuvchi bo'lib yetishishiga ta'sir qildi. Servantesning adabiy dahosi uning «Don Kixot» asarida yorqin ifodalangan. «Don Kixot» romanining yaratilishi ispan «Lamanchlik Don Kixot» madaniy hayotida juda katta voqea bo'ladi. Asarning muqaddimasida Servantes «ritsar romanlarini sidirg'asiga fosh etish» va ularning «qulay deb turgan istehkomini ag'darish»ni asosiy g'oyaviy maqsad qilib qo'yadi.

«Don Kixot», garchi o'rta asr ritsar romanlariga parodiya sifatida yaratilsa ham, lekin uning mazmuni nihoyatda keng bo'lib, butun feodal jamiyati va uning urf-odatlariga qaqshatqich zarba bergan ochiq satiraga aylanadi.

Pol Lafarg hamma romanistlar ichida Servantes bilan Balzakni yuqori baholagan. «Don Kixot»da esa u o'lib borayotgan ritsarlik eposini ko'rgan.

Rus tanqidchisi V.G.Belinskiy o'lmas «Don Kixot»ning avtoriga yuqori baho berib, «u romanning ideal yo'nalishiga qat'iy zarba berdi va uni voqelik tomon burdi», deb ko'rsatdi. Yuqorida keltirilgan qimmatli fikrlar Servantes asarining to'la mohiyatini ochishda, shubhasiz, katta xizmat qiladi.

Asarning bosh qahramoni Lamanch qishlog'ida istiqomat qiluvchi kam yerlik, yoshi elliklarga yaqinlashib qolgan baland bo'yli, baquvvat, lekin ozg'in, ovni yaxshi ko'radigan bir kambag'al dvoryan bo'lib, familiyasi Kexona edi. Bu dvoryan ritsar romanlarini shunday berilib o'qiy boshlaydiki, natijada ovchilikka ham, o'z xo'jaligiga ham qaramay qo'yadi. yerining ko'p qismini sotib, uning puliga romanlar sotib oladi va uzluksiz mutolaaga berilib ketadi. Ertayu kech kitobdan bosh ko'tarmagani va uxlamagani uchun miyasi aynib qoladi. Uning ko'z oldidan ritsar romanlarida o'qigan jodugarlar, devlar, jahongashta ritsarlar o'ta boshlaydi. Uning uchun xayoliy narsalar haqiqatdek ko'rinadi, haqiqat esa o'z ma'nosini yo'qotadi. Uning qalbida ham ritsar bo'lish va ularga o'xshab adolatsizliklarga qarshi kurashish orzusi tug'iladi.

U ritsar romanlaridagi qoidalarga amal qilib darhol ishga kirishadi: ota-bobosidan qolgan temir-tersaklar ichidan qurol-yarog'larni ajratib, ularni tuzatadi. Temir qalpoq ham topadi, so'ngra u oriq, oksoq otini ko'zdan kechiradi. Otga ritsar romanlarida bo'lgani kabi jarangdor, dabdabali Rosinant degan nom qo'yadi. O'ziga esa bir hafta o'ylab, nihoyat, Don Kixot degan jarangdor ism qo'yadi. O'tmish ritsarlariga o'xshash, endi o'zining kaysi joydan chiqqanini ko'rsatadigan alomat ham bo'lishi kerak edi. Shuning uchun u o'zi tug'ilgan qishlog'ining nomini ham qo'shib, lamanchlik Don Kixot deb atashga qaror qiladi. Jahongashta

ritsarning, albatta sevgi va sevgilisi bo'lishi kerak. U Toboso qishlog'ilik cho'chqaboqar qiz Aldonso Loresoni o'z orzulariga mos jonona deb tanlaydi va unga ham Dulsineya Toboso deb malikalarga qo'yiladigan dabdabali nom beradi.

Shundan so'ng Don Kixotning sarguzashtlari boshlanadi. Adolat uchun kurashib qahramonlik ko'rsatmoqchi bo'lgan Don Kixot har qadamda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Iyul oyining issiq kunlaridan birida Don Kixot jangovar hozirliklar ko'rib, yarog'-aslahalarini taqib, Dulsineyani diliga jo qilib, «tulpor» Rosinantga minib, birinchi marta safarga jo'naydi. Biroq eshikdan chiqishi bilan mushkul bir xayol uning fikrini qurshab oladi: hali u ritsarlikka fatvo olmagan, shuning uchun ritsar qoidalari bo'yicha bironta ritsar bilan jang qilishga haqsiz. Endi u opqaga qaytishi kerak, lekin undagi tentaklik, hamma mulohazalaridan ustun chiqadi va yo'lda birinchi uchragan kishisining fatvosi bilan ritsar nomini olmoqchi bo'ladi.

Don Kixot shu kuni kechga tomon yetib borgan joyi – karvon saroyini hashamatli qasr deb tasavvur qiladi, u yerdagi xotinlar esa go'zal malikalar bo'lib ko'rinadi, cho'chqaboqarning chiqargan hushtak ovozi go'yo uni kutib olish sharafiga chalinayotgan kuydek tuyuladi.

Don Kixotning «dushman» bilan dastlabki to'qnashishi shu karvon saroy molxonasi yonida ro'y beradi. «Muqaddas joy» deb bilgan saroyini kechasi bilan uxlamay qo'riqlab chiqadi. SHu vaqtda molini sug'ormoqchi bo'lib kelgan kishini «dushman» deb, unga qarshi hujum qiladi. Don Kixot zarar ko'rgan molboqar sheriklarining toshbo'roni ostida qoladi.

Karvon saroy egasining Don Kixotning ritsarligiga «fatvo» berishga oshiqqanining sababi undan tez qutulish edi. Endi «haqiqiy» ritsar sifatida yo'lga chiqqan Don Kixot xo'jayini tomonidan kaltaklanayotgan podachi bolaga duch keladi va uni azobdan qutqarib yuboradi. Don Kixot qilgan ishidan benixoya xursand, chunki u go'yo juda katta adolatsizlikka chek qo'ygan edi. Lekin bolaning bundan keyingi taqdiri uning xayoliga ham kelmaydi.

Toledo savdogarlari bilan to'qnashish ham ko'ngilsiz voqea bilan tugaydi. Don Kixot ularni jahongashta ritsarlar deb yo'lini to'sib, dunyodagi barcha malikalardan ko'ra o'zining Dulsineyasini go'zal malika deb tan olishga majbur etadi. O'jarlik bilan ularga hujum boshlagan va qattiq kaltaklanib o'rnidan turishga majoli qolmagan Don Kixot qayg'urmaydi, chunki jahongashta ritsar bilan bunday voqealarning yuz berib turishi, uningcha, tabiiy bir xol edi.

Servantesning asar muqaddimasida «ritsar romanlarining qulay deb turgan istehkomini ag'darish» ta'kidlangan asosiy fikri Don Kixotning birinchi safari tasvirlangan yuqoridagi epizodlardayoq ochiq ko'rinadi. Ritsarlikning halokatli

ta'siriga qarshi dadil va uzluksiz kurash olib borish g'oyasi butun voqealar davomida yozuvchining diqqat markazida turadi.

Don Kixot ritsar sarguzashtidan qaytgan va qattiq shikastlanib yotgan vaqtida uning kutubxonasini ko'zdan kechirgan do'stlari, jiyani va xizmatchi ayol «quruq til bilan yozilgan dag'al va bema'ni», zarardan boshqa narsa keltirmaydigan kitoblar haqida: «Bir to'da qilib yig'ib, kuydirib tashlash kerak», «Ularni to'ppato'g'ri tashqariga uloqtirmoq zarur», deydilar. Bu yozuvchining ritsar romanlariga nisbatan kuchli nafratining ifodasi edi.

Don Kixot navbatdagi safarga chiqishi oldidan Sancho Pansa degan bir sodda dexqonni topib, o'ziga yordamchi – yaroqbardor qilib oladi va bu xizmatlari evaziga uni qo'lga kiritadigan orollaridan biriga gubernator qilib tayinlamoqchi bo'ladi. Yo'lda uzoqdan ko'ringan shamol tegirmonlar unga dushman devlar bo'lib tuyuladi.

Don Kixot birinchi duch kelgan tegirmonning parragiga nayza sanchadi. Harakatlangan parraklar uni oti bilan ilib ko'tarib ketadi, so'ngra yerga uloqtirib tashlaydi. Sancho Pansa og'ir ahvolda yotgan xo'jayinga bu fojia uning so'zlariga ishonmaganligidan kelib chiqqanini afsus bilan bildiradi. Don Kixot esa kitoblari bilan birga uyini xam o'g'irlab ketgan ashaddiy dushmani jodugar Freston devlarni shamol tegirmonlariga aylantirib qo'yganini, lekin, baribir, uning makkorligi Don Kixot qilichi kuchiga bardosh berolmasligini aytib, o'z fikridak qaytmaydi.

Ikkinchi kuni Don Kixot va Sancho yo'lda ikki monax va ularning xizmatchilariga duch keladi. Ulardan orqaroqda karexada biskaylik ayol ham ketayotgan edi. Bu yo'lovchilar Don Kixotga «malika»ni olib qochib ketayotgan jodugarlar bo'lib ko'rinadi. U xonimni ozod etish uchun hujum qiladi. Sancho Pansani esa faqat bir narsa – yerda cho'zilib yotgan, «engilgan» kishining narsalarini o'lja qilib olishgina qiziqtirar edi. Biroq har ikkala qahramon – ritsar va uning yarog'bardori ham yo'lovchilarning qattiq zarbasiga uchraydilar,

Shu singari ko'ngilsiz voqealar Sancho Pansani umidsizlikka tushiradi va u qishlog'iga qaytib, xo'jalik ishlari bilan shug'ullanmoqchi bo'ladi. Biroq Don Kixot unga g'alaba kuni yaqinlashib qolganini, bardam bo'lish kerakligini uqtirgandan so'ng, u Don Kixotni tashlab ketolmaydi.

Don Kixotning xizmatkoridan g'amgin qiyofadagi ritsar laqabini olishi bejiz emas. Uning o'zi ham o'tmishdagi ritsarlar misolida shunday nomga tezroq erishishni istab, qalqoniga xafaqon bashara surati soldirmoqchi bo'lganida, Sancho Pansa unga e'tiroz bildirib, bu narsaga vaqt va pul sarf qilib o'tirishning sira hojati yo'qligini, u betidagi niqobini ochib basharasini ko'rsatsa, shuning o'zi kifoya qilishini, chunki ochlikdan va jag' tishlaridan ajralganligidan aft-angori ancha

xunuklashib, g'amgin va ayanchli tus olganini aytadi. Sanchoning jiddiy so'zi hazildek tuyulsa ham, lekin u ko'p masalalarga to'g'ri baho berar edi.

Ritsar romanlariga berilish Don Kixotni tentaksimon holga tushirsa ham, lekin uning qalbi pok va intilishlari beg'arazdir. Bu fikrni romandagi bir epizod yaxshi tasdiqlaydi. «Haqoratlangan va mulkdorlar tomonidan tahqirlanganlarni qo'llash uchun qasam ichgan» Don Kixot yo'lda qo'llari kishanlangan mahbuslarga duch kelib, ularni qutqarishga urinadi. Tabiat tomonidan erkin yaratilgan kishilarni qul holiga keltirish katta adolatsizlik, deb ularni bo'shatib yuborishlarini talab etadi. Biroq soqchilar uning talablarini bajarmaydilar. Bundan g'azablangan Don Kixot hujum qilib, otryad boshlig'ini holsizlantiradi, so'ngra yaxshi qurollanmagan soqchilarga zarba berib, mahbuslarni kishandan qutqaradi.

ANGLIYA VA FRANSIYADA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

Reja:

- 1. Fransua Rable va uning «Gargantuya va Pantagryuel» asarida satiraning roli va ahamiyati.*
- 2. Angliya Uyg'onish g'oyalari va Shekspir ijodi.*
- 3. Shekspir ijodining davrlari.*
- 4. Shekspir va jahon dramaturgiyasi.*

XIV asr o'rtalarida Italiyada paydo bo'lgan Uyg'onish harakati XV asrning ikkinchi yarmida yevropaning bir qancha yerlarida boshlanadi. XVI asrning boshlarida esa, Fransiyada vujudga keladi. Fransuz Uyg'onish davri adabiyotiga Italiya ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Fransua Rable (1494-1553). Fransuz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili, ulug' gumanist yozuvchi Fransua Rable Turen viloyatining Shinon nomli shaharchasida advokat oilasida tug'ildi. Uning otasi Antuan Rable o'g'lining ruhoniy bo'lishini istaydi va uni Shinon shahri yaqinidagi mahalliy abbatlikka beradi. U yerdan monastirga o'tgan yosh Fransua o'sha vaqtlarda mann qilingan antik kitoblarni zo'r havas bilan o'qishga kirishadi, lotin va grek tillarini o'rgana boshlaydi. Qadimgi davr yozuvchilari, shu jumladan Gomer asarlari hamda Reformatsiya davri vakillarining kitoblari uning diqqatini o'ziga tortadi. Lekin bunday kitoblarni o'qishga yo'l qo'yilmaydi.

Rable o'z hayoti davomida uch marta Italiyaga borib, qadimgi Rim madaniyati yodgorliklari bilan tanishadi, tabiiy fanlar bilan shug'ullanadi, lotin tili bilan birga arab tilini ham o'rganadi. Parijga qaytib kelgan Rable

bir qancha vaqt qirol Fransisk saroyida xizmat etadi, vrachlik sohasidagi bilimini takomillashtiradi va 1537- yilda Monpeleda meditsina doktori degan darajani oladi.

Rable gumanistik ijodining nodir namunasi xalq orzu-istaklarini chuqur aks ettirgan o'lmas asari «Gargantya va Pantagryuel» romanidir. Bu epopeyaning dastlabki kitobi 1533-yilda Alkofribas Naze taxallusi bilan «Ulkan pahlavon Gargantyaning o'g'li dipsodlar qirol ajoyib Pantagryuelning dahshatli va g'oyat qo'rqinchli harakatlari va qahramonliklari» nomi ostida paydo bo'ladi. Rablning bu asari 1532-yilda Lionda chiqqan «Buyuk va ulkan pahlavon Gargantya haqida ulug' va qimmatli xronikalar» kitobi ta'sirida yozilgan. Xalq ijodiga mansub «Xronikalar»dagi g'oya va uslub yozuvchini qiziqitirmay qolmadi.

«Gargantya va Pantagryuel» besh kitobdan iborat bo'lib, uni yaratishga yozuvchi yigirma yildan ortiqroq vaqt sarf qiladi.

Epopeyaning navbatdagi kitobi «Pantagryuelning otasi ulug' Gargantyaning g'oyat vahimali hayoti haqida hikoya» 1534-yilda nashr etildi. «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida uchinchi kitob» 1546-yilda Parijda endi Fransua Rable nomi bilan bosilib chiqdi.

1552-yilda esa epopeyaning «Jasur Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida to'rtinchi kitob»i nashr etildi. Romanning so'nggi kitobidan parcha («Ovoz chiqaruvchi orol») yozuvchi vafotidan to'qqiz yil o'tgandan so'ng, 1562-yilda paydo bo'ldi. 1564-yildagina «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari vai qimmatli fikrlari haqida beshinchi, so'nggi kitob» nashr etildi.

Fransua Rable Gargantya haqidagi birinchi kitobda o'sha davr gumanistlarini qiziqitirgan ta'lim-tarbiya, urush va tinchlik, kelajak baxtli jamiyat qanday bo'lishi kerakligi kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi.

Kitobda ikki tipdagi qirol ko'rsatiladiki, bular «dunyo hukmronligiga da'vogar», shaxsiy manfaatdan boshqani bilmaydigan Lerne qirol zolim Pikroxol vatinchlikni sevadigan, saxiy Granguze bilan uning o'g'li Gargantyuadir. Romanning ikkinchi kitobi zabardast pahlavon Gargantyaning o'g'li Pantagryuelning tug'ilishi, o'sishi, o'qishi va boshqa sarguzashtlariga bag'ishlangan.

«Gargantya va Pantagryuel»ning to'rtinchi kitobi nashr etilgan yillarda Parij parlamenti bu kitob muallifini sudga topshiradi. Yozuvchi yashirinib yuradi, va, nihoyat, o'lim (1553) buyuk gumanistni adolatsiz ta'qiblardan qutqaradi.

«Gargantuya va Pantagryuel» romanining beshinchi kitobi yozuvchi vafotidan so'ng nashr etildi.

Rable vrach, yirik gumanist va tabiatshunos olimdir. U satirik yozuvchidir. Rable o'z ijodida xalq kulgi an'analari– hazil, kinoya, piching, mubolag'a, karikaturadan keng foydalanadi.

Bular realistik ijodning o'ziga xos xususiyatidir. Rable ijodining demokratik ruhi, satirik uslubi, xushchaqchaq kulgisi jahon adabiyotining o'sishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Uning badiiy an'alariga zo'r qiziqish bilan qaragan va uning satirik yo'lini davom ettirganlar safida Fransiyaning yirik gumanistlari Anatol Frans («Pingvinlar oroli»), Romen Rollan («Kola Bryunon») singari yozuvchilar ham borki, bular Rable adabiy merosining hozirgi zamon uchun ham ahamiyati katta ekanini ko'rsatuvchi yorqin dalildir.

«Gargantuya va Pantagryuel» romani o'z fantaziyasi, ajoyib va g'aroyib voqealari, g'ayri tabiiy obrazlari va go'zal tasviri bilan yoshlarning sevib o'qiydigan kitoblari qatoriga kiradi.

Vilyam Shekspir(1564-1616). Ulug' shoir va dramaturgning tarjimai holiga doir ma'lumotlar juda kam saqlangan. Uning hayoti va adabiy faoliyatiga oid materiallar zamondoshlarining bergan baholari hamda xotiralari asosida yig'ilgan va to'ldirilgan.

Vilyam Shekspir 1564-yilning 23-aprelida Markaziy Angliyaning Stratford shaharchasida tug'iladi. U oiladagi 8 farzandning uchinchi edi. Otasi Jon Shekspir charm qo'lqop tayyorlovchi hunarmand bo'lib, savdo bilan ham shug'ullanadi, kata obro' orttirib shahar kengashiga saylanadi va shahar boshlig'i vazifasida ishlaydi. Stratfordga aktyorlar truppassi ham kelib, turli tomoshalar ko'rsatib turar edi, bu voqea shahar madaniy hayotiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Shekspirning teatrqa qiziqishi ham shu yerda uyg'onadi.

Vilyam dastlab mahalliy «Grammatika maktabi»da o'qiydi. U yerda, asosan, lotin tili o'rgatilib, logika va ritorikadan qisqacha tushuncha berilardi. Vilyam ayniqsa Rim shoiri Ovidiy asarlarini qiziqib mutolaa qiladi, lekin ko'p o'qiy olmaydi. Otasining ishi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kambag'allashib qolgach, hali 16 yoshga to'lmagan Vilyam o'qishni tashlab ishga kirishadi. 18 yoshida u Anna Xetuey degan fermer qiziga uylanib, Suzanna ismli qiz, Yudef va Gamlet ismli o'g'illar ko'radi. U 1587-yilda Londonga boradi va teatrqa xizmatqa kiradi. Avval suflyor yordamchisi, so'ngra aktyor, keyinroq rejissyor, hatto teatrni boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham ma'lum.

Shekspir teatrdagi faoliyati davomida dastlab boshqa mualliflarning pesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitadi («Adashishlar

komediyasi», «Qiyiq qizning quyilishi», «Har narsaning me'yori bor»). Shu bilan birga, uning o'zi ham qalam tebrata boshlaydi. Tez vaqt ichida u dramaturg sifatida nom chiqaradi.

Aktyorlar orasidan chiqib katta obro' orttira boshlagan bu yangi dramaturgni ayrim yozuvchilar ko'rolmaydilar. Masalan, Shekspirning zamondoshi dramaturg Robert Grin uni past tabaqalardan chiqib, bizning patlarimizga o'ralib olgan «qarg'a», o'zini «sahnani birdan-bir larzaga keltiruvchiman», deb tasavvur qiladigan «usta-bilarmon» kishi deb kinoya qiladi. Shekspirning dramaturgiya sohasidagi ijodi ko'p qirrali va ta'sirchan edi. Shu sababli uning hasadgo'ylari ko'p bo'lishi tabiiy edi.

Shekspir 90-yillarning boshida teatr shinavandalari bo'lmish graf Sautgempton bilan yaqinlashadi va «san'at homiysi» yosh grafga o'zining ikki poemasi – «Venera va Alonis» hamda «Lukretsiya»ni bag'ishlaydi.

Ulug' dramaturg 1612-yilda Londondan o'z tug'ilgan shahri Stretfordga ko'chib ketadi va bundan so'ng butunlay ijod bilan shug'ullanmaydi.

Shekspirning tarjimai holiga oid ma'lumotlarning yetarli emasligi natijasida uning muallifligiga shubha soladigan soxta farazlar kelib chiqadi. Ulug' yozuvchining ijodini o'z zamonasi va undan keyingi yillarda yashagan kishilar inkor qilmaydilar. Masalan, dramaturg va shoir Ben Jonson Shekspir xotirasiga bag'ishlangan she'rida uni «o'z asrining yuragi» deb baholaydi.

Hamlet rolini ijro etgan, XVII asrlarning oxirida yozuvchining tarjimai holiga oid materiallar to'plagan mashhur aktyor Tomas Betterton, shuningdek, Shekspirning birinchi biografii Nikolas Rou ham uning muallifligiga shubha qilmaydilar. Faqat XVIII asr oxiridagina G'arbda «Shekspirchilik masalasi» deb atalgan masala kelib chiqadi. 1772-yilda Gerbert Lorens Shekspir nomidagi pesalarni faylasuf Frensis Bekon yozgan degan fikrni aytadi. 1857-yilda amerikalik Deliya Bekon Shekspir haqida kitob yozib, unda Shekspir qalamiga mansub bo'lgan asarlarni faylasuf Frensis Bekon boshliq maxfiy to'garak a'zolari ijod qilgan, chunki Shekspir pesalarida go'yo aniq individual uslub yo'q, deb isbotlashga urinadi.

Karl Bleybtrey (1907) ulug' dramaturgning pesalarini graf Retlendniki deb ataydi. Belgiyalik jurnalist Damblen (1918) «Retlend nazariyasi»ni quvvatlab chiqadi. Shekspir asarlarini faylasuf Bekon, graf Retlend, graf Derbi tomonidan yaratilgan, degan fikrlar mutlaqo asossizdir. Shekspirni quyi tabaqadan kelib chiqqan, universitet ta'limini olmagan, shuning uchun uning bunday asarlar yozishi mumkin emas, deb qarash oddiy kishilarning ijodiy kuchiga ishonmaslik va titanlar yaratgan Uyg'onish davrining haqiqiy mohiyatini tushunmaslik

oqibatidir. Shekspir Londonda antik san'at, adabiyot bilan tanishadi, zamonasi adabiy muhitiga kirib, chuqur mutolaa qilish yo'li bilan o'z bilim doirasini kengaytiradi. Turmushning o'zi uning uchun bilim manbai bo'ladi.

Shekspirning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. Hammasi bo'lib u ikki poema, 154 sonet va 37 pesa yaratdi. Ijodining birinchi davrida (1590-1601) Shekspir poema va sonetlardan tashqari, Uyg'onish davrining xarakterini aks ettirgan xushchaqchaq komediyalar: «Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyilishi», «Veronalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «Yoz kechasidagi tush», «Vindzorlik masxaraboz ayollar», «Yo'q narsadan bir talay g'avg'o», «Bu sizga yoqadimi?», «O'n ikkinchi kecha»: Angliya o'tmishidan olingan xronikalar deb nomlangan tarixiy dramalar: «Genrix VI», «Richard III», «Qirol Ioann», «Richard II», «Genrix IV», «Genrix V»: nihoyat, «Romeo va Juletta» hamda «Yuliy sezar» nomli iki mashhur tragediyasini yozdi.

Ijodining ikkinchi davri (1601-1608) Shekspir dramatik faoliyatining yana ham rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bu davrda yozuvchi buyuk gumanistik g'oyalar va davr fojialarini aks ettirgan «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Makbet», «Antoniy va Kleopatra», «Koriolan», «Afinalik Timon» tragediyalarini yaratdi. Ijodining uchinchi davrida (1608-1612) dramaturg tragikomediyalar – «Simbelin», «Qishki ertak», «Bo'ron» asarlarini ijod etadi. Bu davrdagi ijodining muhim xususiyati shundaki, Shekspir turmush ziddiyatlarini ko'tarinki ruhda yechishga intilib, ko'proq romantik ertak syujetlariga murojaat qiladi. Masalan, «Bo'ron» asari insonning kelajak taqdiriga ishonch bilan qaragan yozuvchining ajoyib xayollari mevasidir.

Shekspirning adabiy faoliyati yigirma ikki yil davom etgan bo'lsa, shundan o'n ikki yili (1595-1607) eng samarali davr sanaladi. Bu vaqt mobaynida u badiiy jihatdan eng yuksak tragediyalarini yaratdi. Mavzusining boyligi, g'oyaviy yo'nalishining aniqligi va hayotiy voqealarning chuqur realistik tasviri Shekspir tragediyalarini yuqori bosqichga ko'tardi. Shu sababli uning dramatik ijodi dunyo teatrlari repertuarlaridan mustahkam o'rin egallab, hozirgacha kishilarni hayajonlantirib kelmoqda va ularga badiiy zavq bag'ishlamoqda.

KLASSITSIZM ADABIYOTI

REJA:

- 1. Klassitsizm adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.*
- 2. Klassitsizm adabiyotining nazariy asosi va janrlari.*
- 3. Fransuz klassitsizmi va uning vakillari.*
- 4. Angliya va Ispaniyada klassitsizm.*

Tayanch soʻz va tushunchalar: Klassitsizm adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Klassitsizm adabiyotining oʻziga xosligi. Klassitsizm adabiyotining nazariy asosi va janrlari. Fransuz klassitsizmi va uning vakillari. Angliya va Ispaniyada klassitsizm. Klassitsizm adabiyotining ahamiyati.

Klassitsizm (lot. classicus – namunali, mumtoz) – XVII asrdan XIX asr boshlariga qadar yevropa sanʼatida kuzatilgan estetik hodisa, shu davr adabiy jarayonida yetakchi mavqe tutgan adabiy yoʻnalish. Mutaxassislar K.ning paydo boʻlishini 1515-yil – italyan yozuvchisi Trissinoning «Sofonisba» tragediyasi yaratilishidan boshlab belgilashadi. Trissino bu asarini antik tragediya namunalariga tayangan holda, syujet voqealarini antik Rim tarixchisi Tit Liviy asarlaridan olib, Arastu “Poetika”sida qoʻyilgan talablarga rioya qilgan holda yaratgan edi. Xuddi shu narsa, antik adabiyotni etalon deb bilish, undagi obrazlar va poetik shakllardan foydalanib va antik davrda ishlab chiqilgan qoidalarga amal qilgan holda ijod qilish talabi klassitsizmning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Klassitsizmning nazariy asoslari Uygʻonish davrining oxirlarida, xususan, L.Kastelvetro, Y.S.Skaligerlarning poetikaga oid risolalarida paydo boʻla boshlagan edi.

XVII asrning 20-30- yillarida Angliyada sinfiy kurash keskinlashgan, feodal-absolyut hokimiyat mamlakatning bundan soʻnggi rivojlanishiga gʻov boʻlib kolgan edi. Ingliz burjuaziyasi «yangi dvoryanlik» bilan ittifok tuzib, absolyutizmga qarshi kurash olib boradi. Bu revolyutsion kurashda «jangovar armiya dexkonlar» edi. Lekin ular bu revolyutspyadan manfaat koʻrmaydilar. «Qoʻlga kirgizilgan galabadan soʻng,- deb yozdi F. Ekgels,- gʻalabaning iqtisodiy okibatlarini orqasida mukarrar xonavayron boʻladigan sinf ham xuddi shu dehqonlar boʻldi». Yerga feodal mulkchilik tugatilgach, yer dexkonlarga emas, balki yangi dvoryanlikka oʻtib ketdi. Burjualashgan dvoryanlar chorvachilikning asosiy turi koʻychilikni rivojlantirib, sanoatni xom ashyo - jun bilan taʼminlay boshladi. Ingliz burjua revolyutsiyasining oʻziga xos xususiyati shundaki, u 1688 yilda yuzaga kelgan burjuaziya bilan. dvoryanlik oʻrtasidagi kelishuvchilik bilan tugadi. Fransiyada burjua revolyutsiyasi esa feodalizm xamda uning idora usuli va konunlarini bekor kilib yuboradi. «Angliyada revolyutsiyadan avvalgi muassasalarning ishlari rezolyutsiyadan keyingi muassasalar tomonidan davom ettirilganligi xamda katta yer egalari bilan kapitalistlarning oʻzaro-murosa qilganligi sud rasmiyatlarini eskicha davom ettirishda va feodalizmga xos boʻlgan xukuk formalarini xurmat va izzat bilan saqlab kolishda ifoda etildi».

XVII asrning 60-yillarida yuz bergan Styuartlar restavratsiyasi progressiv adabiyotdagi kuchlarni feodal reaksiyasiga qarshi kurashga otlantiradi. Bu vaqtda Betlar «Gudiras», Milton «Yoʻkotilgan jannat» poemalari va «Samson-kurashchi» tragediyasini, Benyan «Ziyoratchining safari» nomli asarini yaratadilar. 1688 yildagi kelishuvchilikdan soʻng burjuaziya yuzidagi nikobini olib tashlaydi. Feodal zulmi oʻrnini kapitalistik ekspluatatsiya egallaydi. Shuning uchun xam bu vaktida yashagan har bir ilgʻor yozuvchi oʻrta asrchilik va restavratsiyaga nafratini ifodalash bilan cheklanmay, «burjua nuqsonlari juda avj olib» ketgan, aqcha hukmronligini tugʻdirgan davrni xam qattiq fosh etadi.

Ingliz revolyutsiyasi arafasida, shuningdek, restavratsiya yillarida yashagan progressiv yozuvchilar, uygʻonishdavrining ulugʻ mutafakkirlari, jumladan, titan yozuvchi Shekspir ijodiy traditsiyalarini davom ettiradilar. Ular Bekondan xam maʼnaviy oziq oladilar.

XVII asrning 30-40-yillarida revolyutsion harakat kuchayib, respublika oʻrnatish uchun kurash keskinlashgan vaktida ilgʻor yozuvchilar feodal monarxiyasiga qarshi qurolli koʻzgʻolonga chaqiradilar. Bu Miltonning publitsistikasi, Lilbern va Uinstenlining pamfletida ochik ifodalanadi. Marks XVII asr ingliz burjua revolyutsiyasi bilan tugagan keyingi yillardagi siyosiy voqealarning moxiyatini ochib, shunday degan edi:

«1648 va 1789 yillardagi revolyutsiyalar Angliya va Fransiya revolyutsiyalari boʻlmay, balki Yevropa mikyosidagi revolyutsiyalar edi. Ular jamiyatdagi muayyan bir sinfning eski siyosiy tuzum ustidan erishgan gʻalabasi emas edi, ular Yevropadagi yangi jamiyat uchun siyosiy tuzum eʼlon qildilar. Bu revolyutsiyalarda burjuaziya gʻalaba kildi; lekin burjuaziyaning bu gʻalabasi oʻsha vaqtda yangi ijtimoiy tuzumning gʻalaba qilganligini, burjua mulkchiligining feodal mulkchilik ustidan, millatning provinsionalizm ustidan, konkurensiyaning sexchilik tuzumi ustidan, mulkni taksim qilish tartibining mayorat ustidan, yerning mulkdorga qaramligining mulkdorning yerga karamligi ustidai, maʼrifatning xurofot ustidan, oilaning nomi nasab ustidan, sanoatning qahramonona yalqovlik ustidan, burjua xuquqining oʻrta asrchilik imtiyozlari ustidan gʻalaba qilganligini bildirar edi». Shu davrda yashagan yirik yozuvchilardan biri dramaturg Benjamin Jonson (1573 - 1637) absolyut hokimiyat reaksiyasiga qarshi kurashuvchi sifatida maydonga chiqdi. «Seyan: uning yemirilishi» (1603), «Katilina: uning isyoni» (1611) tragediyalarida Jonson Rim tarixidan material olib, monarxiyaga qarshi respublikachilik gʻoyalari ilgari surdi. U «Volpone» (1607), «Episin yoki indamas xotin» (1609), «Alximik» (1610), «Avliyo Varfolomey kunidagi yarmarka» (1614) komediyalarida ingliz hukmron doiralarining satirik obrazlarini

yaratdi. XVII asrning 40-50- yillarida siyosiy- kurash davom etayotgan bir davrda demokratik ruxdagi kuchli publitsistlar Jon Lilbern (1618-1657) va Jerarda Uinstenli (1609-1652) yetishib chiqadilar.

XVII asrning 60-70- yillaridagi restavratsiya davri va chirigan aristokratiya madaniyatini qattiq tankid qilgan yozuvchilar Milton va Benyan bo'ldilar. Jon Benyan (1628-1688) restavratsiya davrining butun yaramasliklarini o'z ko'zi bilan ko'rgan kishidir. U «Ziyoratchining safari» (1678) povestida soxta shuxrat shahrining zikna, nodon va qo'rkok kishilari orqali yuqori guruh vakillarini koraladi. Jon Benyan «Mister Bedmenning hayoti va o'limi» (1680) povestida burjua tipi - «tentak kishi»ni tankid kildi. «Mukaddas urush» (1681) povestida 40-yillardagi grajdanlar urushini, revolyutsion armiyaning feodal-absolyut monarxiyasi armiyasi ustkdan kozongan g'alabasini aks ettirdi.

Fransiyada klassitsizm adabiy yo'nalish sifatida to'la qaror topib, adabiy jarayonda yetakchi mavqe egallagan bo'lib, fransuz klassitsizmi yevropadagi boshqa xalqlar adabiyotlariga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Fransiyada klassitsizm madaniyatining gullab-yashnashiga asos bo'lgan qator omillar mavjud edi. Avvalo, mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoitda klassitsizm davlat va millat manfaatlariga to'la mos edi. XVII asrga kelib markazlashgan davlat tashkil qilish harakati nihoyasiga yetgan, tom ma'nodagi absolyut monarxiya o'rnatilib, Fransiya yevropadagi eng qudratli mamlakatga aylangan edi. Mazkur sharoitda klassitsizm hukumat tan olgan rasmiy va chin ma'noda yetakchi badiiy metod bo'lib qoldi. Qirol hukumati klassitsist adiblarga maosh tayin qiladi, ularni qo'llab-quvvatlaydi; hukumatning til va adabiyot sohasidagi siyosati Fransuz akademiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Hukumatning bu masalaga jiddiy e'tibor berishi bejiz emas. Klassitsizm adabiyoti fransuz davlatchiligining mustahkamlanishi, fransuzlarning yagona millat sifatida birlashishiga xizmat qilishi lozim ediki, u ushbu missiyani sharaf bilan uddaladi, fransuz jamiyati va milliy madaniyati tarixidagi juda muhim bosqich bo'lib qoldi.

Fransuz klassitsizmining gullab-yashnashiga asos bo'lgan yana bir muhim omil Dekart ta'limoti bo'lib, u XVII asr fransuz falsafiy tafakkurining cho'qqisi hisoblanadi. Dekart falsafada ratsionalizm oqimining asoschisi, unga ko'ra, haqiqatning bosh mezoni va manbai ongdur. Ya'ni Dekart haqiqat manbai borliqda yoki tajribada emas, balki tafakkur qurilmalarida deb biladi. Shundan kelib chiqqan holda Klassitsizmning asosiy tamoyillari belgilanadi. Ularga ko'ra, san'at aql tomonidan qat'iy tartibga solinishi kerak, badiiy asar aqlga muvofiq va aniq tahlilga imkon beradigan tarzda qurilishi lozim, san'at asarining kuchi tafakkur qudrati va mantig'i bilan belgilanadi. Klassitsizm estetikasi, poetikasining asoslari, ularning normativ xarakterga egaligi san'atni shunday tushunishdan kelib chiqadi.

Klassitsizm nazariyotchilaridan biri La Menard o'zining «Poetika» (1639) asari haqida “Men San’at bo’yicha yo’riqnoma yozishga harakat qildim”, bu mashaqqatli ishga jazm qilarkan, “Faylasufga (Arastuga) badiiy mahoratga oid barcha haqiqatlarning manbai deb qaradim”, deydi. Ya’ni, unga ko’ra, “Poetika” ijodkorlar amal qilishi lozim bo’lgan qoidalar majmui (yo’riqnoma), antik davrda ishlab chiqilgan qoidalar esa etalondir. Xuddi antik davrdagi kabi, klassitsizm ham adabiyotni tabiatga taqlid deb biladi, uning vazifasini qat’iy qoidalar asosida tabiat (olam)ni ideal uyg’unlikdagi tartibi bilan namoyon etish – san’at hodisasiga aylantirishda ko’radi. Klassitsizm uchun mangu, vaqt hukmiga bo’ysunmaydigan qadriyatlariga estetik qimmatga ega. Shunday qadriyatlarni ifodalash uchun klassitsizm antik adabiyotdagi obrazlar, syujetlarni asos qilib, ularga universallik baxsh etishga intiladi. Olamga xos muayyan qonuniyat asosidagi tartibot san’atda ham bo’lishi lozim deb bilgan klassitsizm nazariyotchilari badiiy ijodda belgilangan qoidalarga og’ishmay amal qilishni talab etadi. Mas., ular “yuksak” (tragediya, epopeya, oda) va “tuban” (komediya, satira, masal) janrlarni ajratishadi, ularga xos xususiyatlarning aralashishi mumkin emas; har bir janrga xos syujet, material, mazmun, ruh, qahramonlar qat’iy belgilangan; dramatik asarda uch birlik (voqea, vaqt va joy birligi) qoidasiga amal qilish shart va h. deb bilishgan. E’tiborli tomoni shuki, klassitsizm davrida adabiyotning mohiyati, vazifalari, badiiy asarning qurilishi masalalaridan bahs etuvchi ko’plab asarlar yaratilgan, jumladan, N.Bualoning “She’riy san’at” asarida klassitsizmning adabiy-estetik qarashlari mufassal ifodasini topgan.

MA’RIFATCHILIK ADABIYOTI

Reja:

- 1. Volter ijodida ma’rifat mavzusi.*
- 2. D.Didro ijodi va fransuz adabiyoti.*
- 3. J.J.Russo asarlarining badiiy qimmati.*
- 4. Nemis ma’rifatchilik adabiyoti: Shiller va Gyote ijodi.*

Tayanch so‘z va tushunchalar: *Ma’rifatchilik adabiyotining klassik ma’rifatchilikdan farqi va o‘ziga xosligi. Angliya ma’rifatchiligi. Ingliz ma’rifatchilik adabiyotining yo‘nalishlari, vakillari va janrlari. Fransuz ma’rifatchilik harakatining o‘ziga xosligi. F.Volter, D.Didro va J.J.Russo ijodida ma’rifatparlik g‘oyalari. Nemis ma’rifatchilik adabiyoti. G.E.Lessing, F.SHiller va I.V.Gyote ijodida ma’rifat masalasi. G‘arb va Sharq ma’rifatchiligini mushtarak va farqli jihatlarini. Sharq musulmon ma’rifatchiligida mustamlakachilik, milliy*

parokandalik va ma'rifiy mahdudlik masalasi. Ma'rifatchilik adabiyotining ahamiyati.

Ma'rifatchilik adabiyoti – feodal asoslarga qarshi o'laroq maydonga chiqib, XVII – XVIII asrlarda G'arbiy yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada keng yoyilgan g'oyaviy-mafkuraviy harakat; shu harakat g'oyalarini o'ziga singdirgan va targ'ib etgan adabiyot. yevropaning turli mamlakatlarida M.ning maydonga kelishi vaqt jihatidan farqlanadi: u dastlab Angliyada yuzaga kelgan bo'lsa, ijtimoiy shart-sharoitlarning yetilishi barobaridadadada qit'aning boshqa mamlakatlariga yoyilgan va ularning har birida konkret shart-sharoitlar bilan bog'liq tarzda kechgan. Jumladan, Rossiyada M. ancha kech – XVIII asrning 2-yarmida maydonga chiqqan; shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qator Sharq mamlakatlari, jumladan, Rossiya tarkibidagi turkiy xalqlar yashovchi mintaqalar (Qrim, Tatariston, Ozarbayjon, Turkiston)da kuzatilgan M. harakatlari ham yevropa M.i bilan ko'plab mushtarak jihatlarga egadir.

Mutaxassislar M.ni “falsafiy, ijtimoiy, axloqiy konsepsiya”, yangicha dunyoqarashga asos bo'lgan MAFKURA deb hisoblaydilar. Yangi mafkuraning o'zagini “inson aqlu zakovati dunyoni o'zgartiradi”, degan qarash tashkil etadi. M. harakati burjua demokratiyasi, ijtimoiy taraqqiy, ijtimoiy tenglik va adolat, shaxs erkinligi kabi g'oyalar bilan maydonga chiqqan. Dunyoqarash nuqtai nazaridan ko'proq moddiyunchilik va deizm mavqeida turgan M. namoyandalari feodal-monarxik tartibotlarga, uning mafkuraviy tiragi bo'lgan cherkovga, ilm-fandagi sxolastikaga qarshi turdi, tabiiy fanlarni chuqur o'rganish, texnikani rivojlantirish kabi vazifalarni dolzarb bildi. Ijtimoiy sohada “aqlga muvofiq jamiyat” qurish maqsadini qo'ygan M. bunga ma'rifat yoyish (jumladan, ularning bir qismi “ma'rifatli monarx” g'oyasiga tayangan), tashviqot-targ'ibot orqali erishish mumkin deb hisobladi. M. ijtimoiy ongning keyingi rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, adabiyot va san'atda tub burilishlar yasadi. yevropada M. g'oyalari ta'sirida yangicha estetik prinsiplarga tayangan adabiyot shakllandiki, uning asosida “dunyoni va insonni o'zgartirishga qodir g'oyaviy adabiyot kerak”, degan aqida yotadi. Ya'ni boshqacha aytsak, M.ning ijtimoiy ideali – “inson tabiati va “aql”ga muvofiq jamiyat qurish” M.a.ning estetik idealiga aylandi. Bu esa adabiyotning-da shunga muvofiq holda o'zgarishini taqozo qildi. Mazkur o'zgarishlar orasida eng muhimi – idealning “erga tushgani”dirki, buning natijasi o'laroq badiiyat, go'zallik tushunchalariga ham jiddiy tahrirlar kiritildi. M. adabiyotda, avvalo, o'quvchilarni tarbiyalash asosida ijtimoiy hayotni isloh qilish vositasini ko'rdi, uni konkret maqsadga erishish vositalaridan biri deb bildi. Shuning uchun ham M.a. namunalarida ko'pincha

qahramonlar orasida ochiq g'oyaviy kurash kechadi, ularning tilidan muayyan g'oyalar deklarativ tarzda aytiladi, qisqasi, g'oya asarning birlamchi unsuriga, uni ifodalash muallifning asosiy maqsadiga aylanadi. M. maqsadlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar beruvchi san'at turlari va janrlarga ayricha ahamiyat berildi. Jumladan, M. teatrni o'z g'oyalarini targ'ib etish minbari deb bilgan, shu bois dramatik janrlar rivojlantirilgan, ular ommalashtirgan dramatik janrlarda hayotga yaqinlashish (meshchanlik dramasi, oilaviy drama), olam va odam haqidagi yaxlit badiiy konsepsiyani ifodalashga intilish (falsafiy drama) kuchayadi; M.ning Didro, Lessing kabi yirik namoyandalari teatr san'atiga, dramaturgiyaga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yaratishgan. M.a.da badiiy proza, ayniqsa, hayotni atroflicha badiiy tahlil etish va yaxlit badiiy konsepsiyani ifodalash imkonini beruvchi roman janri gurkirab rivoj topdi; "epistolyar roman" (O.Goldsmit. "Dunyo fuqarosi"; Sh.Monteskyo. "Fors xatlari"), "sayohatnoma roman" (J.Svift. "Gulliverning sayohatlari"), "tarbiya romani" (Russo. "Yuliya yoki Yangi Eloiza), "falsafiy qissa" (Didro. "Ramo jiyan") kabi qator yangi janrlar ishlab chiqildi; inson xarakterini yaratishning yangi-yangi imkoniyatlari kashf etildi, yangi usulu vositalar joriy qilindi.

Qayd etish lozimki, M.a. deganda, ma'lum bir g'oyaviy harakat adabiyotini emas, balki ijtimoiy tafakkurda shu g'oyalar ustuvorlik qilgan davr – M. davri adabiyotini tushungan to'g'riroq bo'ladi. Zero, bu davr adabiyotidagi ma'rifatchilik klassitsizmi, ma'rifatchilik realizmi, sentimentalizm kabi yo'nalish va oqimlarning bari M. g'oyalari ta'sirida bo'lgan va ularni targ'ib etgan.

Ma'rifatchilar jaholat, nodonlikni tanqid ostiga oladilar. Ingliz adibi J.Sviftning «Gulliverning sayohati» asarida hajv tig'i yangi tijoratga asoslangan Angliyaning nodon hukmdorlariga qarshi qaratiladi. G.Fildingning «Topib olingan Tom Jonson tarixi» va T.Smolletning «Perigrin Piklning sarguzashtlari» asarlarida yovuzlik va ezgulik to'g'risidagi an'anaviy tushunchalardan chekiniladi, hayotiy, jonli obrazlar yaratiladi. Ma'rifatchilar tarbiya, bilimning ahamiyatiga alohida urg'u berganlar, to'g'ri tarbiya yordamida o'zlari orzu qilgan mukammal inson - halol, mehnatkash, bilimdon kishini yaratish mumkin, deb hisoblaganlar. Biroq shunga qaramasdan ushbu adabiyotda yaratilgan yorqin obrazlar ko'proq ziddiyatli, murakkab shaxslar bo'lib chiqdi. Masalan, fransuz adibi A.R.Lesajning «Santilyanalik Jil Blaz hayoti tarixi» romanining qahramoni, ingliz yozuvchisi S.Richardsonning «Klarissa Garlo yoki yosh xonimning tarixi» asarining qahramoni Lovlas kabilar manfiy va musbat tomonlarning yig'indisi, o'ziga xos, takrorlanmas obrazlar bo'lib qoldi. Ma'rifatchilik adabiyotining yana bir o'ziga xos xususiyati oddiy kishilar, past tabaqa vakillari obraziga murojaat qilinishida

ko`zga tashlanadi. Masalan, D.Didro («Ramo» asaridagi Ramoning jiyani) yaratgan obrazda bir shaxsning o`zida xudbinlik va tanqidiy ruh, Bomarshe asarining («Seviliyalik sartarosh» asari qahramoni xizmatkor Figaro) qahramonida esa uddaburonlik, tadbirkorlik, ayni paytda, lo`ttibozlik, nayrangbozlik mujassam.

Nemis adabiyoti ko`plab badiiy kashfiyotlari bilan ma`rifatchilikni yangi pog`onaga ko`tardilar. Buni Shillerning «Vallenshteyn» tragediyasi va Gyotening «Faust» asari misolida ko`rish mumkin. Shiller («Insonni estetik tarbiyalash to`g`risida xatlar» asarida) va Gyote («Vilgelm Maysterning talabalik yillari» romanida) «qashshoqlik va mulohaza» saltanatida yashovchi insonlarni san`at yordamida qayta tarbiyalash mumkin, deb hisoblaganlar. Ma`rifatchilar hissiyotga ortiqcha berilishdan cho`chiganlar, Russo, L.Stern, O.Goldsmit kabi ijodkorlar uchun xos bo`lgan sentimentalizmdan qochganlar. Haddan ortiq hissiyotga berilish ma`rifatchilar nazdida oddiy zamin kishisi uchun xos emas, buyuk shaxslar uchun esa uning ijtimoiy dunyoqarashini xiralashtiruvchi xususiyat deb topilgan. Shu sababli ma`rifatchilar yoki zaminga yaqin janrlarga yoki yuksak janr - tragediyaga ko`proq murojaat qilganlar. Ma`rifatchilar XVII asr klassitsizmining qolip tusini olgan qonuniyatlarini tanqid qilganlar, uning estetikasini sifat jihatdan o`zgartirganlar, unga zulmga qarshi g`oyalar, ma`rifatparvarlik ohanglarini kimgizganlar. Volterning «Edip», «Brut», Shillerning «Messinlik kelin» tragediyalari, Gyotening «Ifigeniya Tavridda» dramasi shu jihatlari bilan e`tiborga molik.

Ma`rifatchilik davri adabiyotidagi novatorlik faqat yangi fikrda emas, yangi shaklda ham namoyon bo`ldi. Ma`rifatchilar mavjud shakllarga yangi ko`rinish, yangi mazmun baxsh etdilar. Drama janri rivoji yangi bosqichga ko`tarildi. Klassitsizm dramasi yuqori (tragediya) va quyi (komediya) janrga qo`yadigan talablaridan chetga chiqildi, drama qahramonlari oddiy kishilar, mavzusi esa zamonaviylik bilan xarakterlanadi.

Ma`rifatchilik davri adabiyotining asosiy janri - roman vujudga keldi. Ma`rifatchilik romani erkin janr bo`lib, qat`iy talablarga bo`ysunmas, makon va zamonda chegaralanmagan, asosiy tasvir obyektini real voqelik va shaxslar edi. Roman janri, ayniqsa, Angliyada muvaffaqiyat qozondi. J.Sviftning «Gulliverning sayohati», D.Defoning «Robinson Kruzo» romanlari ushbu janrning imkoniyatlarini namoyish qildi.

Adabiyotdagi ma`rifatchilik deb nom olgan bu bosqich nazariy-estetik jihatdan olg`a tashlangan qadam bo`ldi, badiiy nasrda yangi janrlar - tarbiyalovchi roman, maishiy roman, falsafiy qissa, hajviy epos kabilarni vujudga keltirdi, inson ruhiyati tahlilining yangi usullarini kashf qildi.

Fransua Mari Arue Volter XVIII asrdagi ma'rifatchilik harakatining barcha ko'rinishlarini o'z ijodida jamladi. Bu harakat adabiy-siyosiy, falsafiy-tarixiy, ijtimoiy-madaniy g'oyalar kurashidan iborat edi. Volter shoir va dramaturg, faylasuf va tarixchi, publitsist hamdir. Fransuz ma'rifatparvarlarining sinalgan dohiysi Volter qariyb 60 yil davomida yevropa ustida guldirab jar soldi. Uning ziyobaxsh qalami, yashinday o'tkir fikri zamondoshlarini hayratga solar edi.

Fransua Mari Arue Volter Parijda amaldor oilasida tug'ildi. Yoshligidayoq adabiy qobiliyati, o'tkir zehni bilan ko'pchilikning diqqatini o'ziga tortdi. Volter amaldorlardan biri de Roganga yoqmagani uchun kaltaklanadi va Bastiliya qamoqxonasiga tashlanadi. Bastiliya tutqunligidan so'ng, Angliyada uch yil yashaydi. U yerdan olgan taassurotlarini «Angliya haqidagi xatlar»da bayon qiladi.

1750-yili Volter Prussiya qiroli Fridrix II ning taklifi bilan Germaniyaga keladi. U qiroi saroyidan ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida foydalanmoqchi edi. Lekin tezda Volter Fridrix II u o'ylagan odam emas, balki o'ta zolim ekanligini ko'radi. Shu sabab Shveysariya bilan Fransiya chegarasidagi Ferneyga jo'naydi va umrining oxiriga qadar shu yerda yashab ijod etadi. Ferney Volter nomi bilan butun yevropaga mashhur edi. «Ferney patriarxi»ni ziyorat qilish uchun bu yerga shoirlar, yozuvchilar, faylasuflar, jamoat arboblari, Volter ijodining ko'plab ixlosmandlari kelib turadilar. Volter 1778-yili 84 yoshida ona yurti Parijda vafot etadi.

Volterning dunyoqarashi murakkab va ziddiyatli. U «ma'rifatparvar monarxiya» davlat idora usulini ilgari surdi. Shu sababli rus imperatori yekaterina II, pruss qiroli Fridrix II kabi bir qancha qirollar va imperatorlar bilan doim xat yozishib turdi. Ularni aql-idrok bilan davlatni idora qilishga undadi. Volter xudoni yaratuvchi deb tan oldi. Oddiy xalqni itoatkorlikda tutib turish uchun xudo ideyasi zarur deb hisobladi.

«Mening tikuvchim, mening xizmatkorim, mening xotinim xudoga ishonishlarini xohlayman», degan edi Volter. Volter XVII asr klassitsizm adabiyotining vakillari bo'lgan Kornel va Rasin ijodiga chuqur hurmat bilan yondashadi, ingliz dramaturgi Shekspirning buyukligini tan oldi. Ammo u Shekspirni hech qanday san'at aqidasiga bo'ysunmaydigan «yovvoyi» deb atadi. Shekspir ijodiga ikki tomonlama munosabatda bo'lishiga qaramay, Volter Shekspirdan ta'sirlanib, bir qancha sahna asarlarini yaratdi.

Volter dramaturgiyada ham ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surdi. Uning sahna asarlari 52 ta bo'lib, shundan 21 tasi tragediyadir. Volterning «Brut» tragediyasida XVIII asr fransuz hokimi mutlaq sharoitida ozodlik, vatanga

sadoqat, uning xoinlariga nisbatan murosasizlik g'oyalari ilgari suriladi. Fojia sujeti Rim tarixidan olingan. Brut Rim respublikasining yirik arbobi. U o'z hayotini vatanining ozodligi uchun kurashga bag'ishlaydi. Rim xalqi Brut boshchiligida kurashga o'tlanib, zolim shoh Tarkviniy taxtdan tushiradi. Rim respublika deb e'lon qilinadi. Ammo Tarkviniy o'z tarafdorlari bilan respublikaga tahdid solaveradi. Respublikachilar bilan shoh tarafdorlari o'rtasida keskin jang boshlanadi. Brutning o'g'li yosh Tit otasi rahbarligida ajoyib qahramonlik namunasini ko'rsatadi. Tit yosh bo'lishiga qaramay, dushmanga qarshi jangda o'z nomini shon-shavkat va jasorat bilan bezaydi. Biroq Tit beqaror yigit, buning ustiga Rimdan quvilgan Tarkviniyning qizi Tulliyani sevib qolgan. Bundan xabardor bo'lgan dushmanlar Titni xoinlik yo'liga undaydilar. Tit bu xiyonatkorona takliflarni g'azab bilan rad qiladi. Nihoyat, dushmanlar bu ishga Tulliyaning o'zini ham aralastiradilar. Tulliya Tit bilan uchrashib, agar uning sevgisiga erishmoqchi bo'lsa, Tit shoh Tarkviniy tomoniga o'tishi, o'z vatani Rimga, otasi bturga xiyonat qilish kerakligini aytadi. Aks holda Tit Tulliyaning sevgisidan umidvor bo'lmasin.

Albatta, Tit xiyonatkor bo'lishni istamaydi, ammo ma'shuqasi tulliyadan ajralish fikri uning butun vujudini o'rtab yuboradi. U o'zining irodasizligi orqasida ixtiyorini berib qo'yadi va dushman tomonga o'tadi. Tez orada fitna oshkor bo'lib, Tit respublikachilar qo'lga tushadi. Rim respublikasining senati Brutning mamlakat oldidagi xizmatlarini hisobga olib, Titni jazolamasdan, uni otasi qo'lga topshiradi. Vatandarparvar ota o'g'lining xoinligidan qattiq nafratlangan edi. Endi uning o'zi o'g'lini oliy jazoga– o'limga hukm qiladi. Senat a'zolari butun umrini Rimning ozodligi uchun sarflagan, mana endi shu yo'lda o'zining eng aziz farzandini ham o'limga hukm qilayotgan otaga chin yurakdan achinadilar. Brut ularga javoban, Rimning ozodligi, respublikaning daxlsizligi har narsadan ustun turishini aytadi.

Fojida Brutning shaxsiy tuyg'ulari bilan insoniy burchi o'rtasidagi konflikt masalasi hal qilinadi. Brut hamma vaqt o'g'lidan vatani Rimni sevishni talab qiladi. Volterni «Brut» tragediyasi qaynoq vatandarparvarlik qasidasi, respublika dushmanlariga shafqatsiz, murosasiz qahr-g'azab ifodasi bo'lib jarangladi.

Rossiyaning ilg'or ziyolilari hamma vaqt fransuz ma'rifatparvariga ehtirom bilan yondashdilar. Pushkin va Gersenlar fransuz yozuvchisining adabiymerosiga hurmat bilan qaradilar. V.G.Belinskiy Volterni «XVIII asr dahosi», «Fransiyaning milliy shoiri» deb atadi.

Deni Didro XVIII asr fransuz faylasuflari, ma'rifatparvarlari orasida eng ko'zga ko'ringan, qamrovdor olim, jamoat arbobi edi. Didro 1751-1780 yillar

mobaynida nashr qilingan, fan, hunar-texnika, san'at va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining keng sohasini qamrab olgan ensiklopediyannig asoschilaridan, bosh muharrirlaridan biri edi. Ensiklopediyani nashr qilishda deyarli barcha ma'rifatparvarlar ishtirok etdilar. Yolg'iz Didroning o'zi qomus uchun mingdan ortiq maqola yozdi. Ammo buyuk faylasufning faqat ensiklopediya bilan cheklanib qolmasdan, u bir qancha badiiy asarlar: «O'gay o'g'il» (1757), «Oila boshlig'i» (1758) dramalarini, «Monaxinya» (1760) romanini, «Ramoning jiyani» (1762), «Jkak fatalist» (1773) qissalarini ham yozdi. San'at sohasida yangilik bo'lgan estetikaga oid risolalar yaratdi. «Nikohsiz o'g'il haqida suhbatlar» (1757), «Dramatik adabiyot to'g'risida» (1758), «Tasviriy san'at haqida tajribalar» (1765), Parij ko'rgazmalari haqida yozgan «Salonlar» (1761-1781) kabi asarlari shular jumlasidandir.

Didro boy falsafiy meros qoldirdi. «Tabiatni tushuntirish haqida fikrlar» (1754), «d' Alambening tushi» (1769), «Materiya va harakatning falsafiy prinsiplari» (1770) va boshqa asarlari shular jumlasidandir. Deni Didro 1713-yili Fransiyaning Langr shahrida hunarmand oilasida tug'ildi. U Parijdagi Garkur kollejini tamomlab, ruhoniy bo'lishi kerak edi. Ammo uni din qiziqtirmadi. SHu tufayli otasidan moddiy yordam ololmagan Didro bir necha yil mobaynida qiyin kun kechiradi. Bo'lajak olimning birinchi asari «Falsafiy fikrlar» (1746) edi. Asar Parij parlamentining qarori bilan yoqib tashlanadi. «Ko'zi ochiq kishilarga ko'rlar haqida vasiyatnoma» asari (1749) uchun Didroni qamoqqa tashlaydilar. Didroning badiiy iste'dodi va badiiy mahorati, ayniqsa, uning nasriy asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi. San'atkorning falsafiy qissalari o'zining realistik yo'nalishi bilan ajralib turadi. Bu asarlarning hayotbaxshligi falsafiy mulohazalarning chuqurligi, ma'rifat g'oyalari bilan sug'orilganligidadir.

Didroning «Monaxinya» romani 1760-yilda yozilgan bo'lsa-da, uning vafotidan keyin bosilib chiqdi va mashhur bo'ldi. Yosh va go'zal qiz Syuzannani ota-onasi zo'rlab ayollar ibodatxonasiga beradi. Ammo bu ibodatxona inson sha'niga dog' tushiradigan buzuvchiliklar, yaramasliklar makoni edi. Bu yerda sotqinlik va ifloslik hukmron, barcha ibodatxona xodimlari razil va munofiq. Syuzanna bu ahvolga qarshi norozilik bildiradi. O'zining hayotga, yashashga, baxt, erkinlikka bo'lgan huquqlarini talab qiladi. Ammo ilojisiz. Unga hech kim yordam bermaydi. Ayollar ibodatxonasining boshlig'i Syuzannaga ham ko'z olaytiradi. Xullas, bu yerda hamma narsa sodda qizning tabiiy axloqiga zid. Qizning qalb iztiroblari, alamli ichki kechinmalari ishonarli tasvirlangan. Syuzannada paydo bo'lgan norozilik va nafrat tuyg'usining asta-

sekin isyonga aylanish jarayoni haqqoniy chizib beriladi. Ayol shaxsini tahqirlash, inson erkinining oyoq osti qilinishi kabi adolatsizliklar yig'ilib qizni asab kasaliga duchor etadi. Ibodatxonadagi «hur qizlar» Syuzannaga yordam berish o'rniga uni boshliqlarining oyoqlari ostiga tashlashga urinadilar. Dahshat ichida qolgan Syuzanna ibodatxonadan qochadi. U jamiyatning xiyonatkorona qonunlarini buzib, o'zi jinoyatchiga aylanib qoladi. Qiz o'z nomini o'zgartirib, yashirinib yashaydi.

Uning hayoti hamma vaqt tahlika ostida o'tadi. Muallif Syuzanna timsolida umri xazon bo'layotgan minglab qizlarning og'ir ahvolini ko'rsatadi. «Ramoning jiyani» asari 1762-yilda yozilgan bo'lib, dialog shaklida berilgan. Bu ikki suhbatdoshning biri Ramoning jiyani, ikkinchisi muallifning o'zidir. Har ikkala suhbatdosh ham o'tkir aql egasi. Bosh qahramon real shaxs bo'lib, mashhur kompozitor Ramoning jiyani Jak Fransua Ramodir. Qobiliyatli bu odam jamiyatning foydali a'zosi bo'lishi mumkin edi. U atrofdagi voqealarni aniqlik bilan kuzatadi, musiqani sevadi. Ammo dangasaligi tufayli, tartibsiz kun kechiradi. U boylar uyida o'z san'atini sotib qornini to'yg'azadi. Ramoning jiyani o'sha zamon qashshoq, daydi ziyolilarining biri. Didro bu obrazdan zamondoshlarining tipik umumlashgan obrazini yaratishda foydalanadi.

Jan Jak Russo fransuz faylasufi, yozuvchisi, pedagogi, talantli musiqashunos, ma'rifatparvardir. Jan Jak Russo Shveysariyaning Jeneva shahrida soatsoz oilasida tug'iladi. Moddiy jihatdan qiynalib o'sgan Russo durustroq o'qiy olmadi. U mustaqil mutolaa qilib, musiqa bilimini egallaydi. Musiqadan dars berib, notalar yozib tirikchilik o'tkazadi. Bo'lajak olim va yozuvchi XVIII asrning 50-yillarida o'z asarlari bilan Parijda dong taratadi.

Russo odamlar o'rtasida ham siyosiy, ham iqtisodiy tenglik tarafdori edi. 1755 yili uning «Odamlar orasidagi tengsizlikning kelib chiqishi to'g'risida mulohazalar», 1762 yilda esa, «Ijtimoiy shartnoma» nomli risolalari bosilib chiqadi. Bu asarlar demokratik g'oyalar bilan sug'orilgan edi.

Fransuz adabiyoti tarixiga Jan Jak Russo sentimentalizm oqimining asoschisi sifatida kiradi. Uning «Yuliya yoki yangi Eloiza» nomli romani zamondoshlari o'rtasida misli ko'rilmagan darajada muvaffaqiyat qozonadi. Russoning bu romani epistolyar (xat) janrida yozilgan bo'lib, unda Richardson ijodining izlari sezilib turadi. Asarda ikki yoshning sevgisi tarannum qilinadi. Boy dvoryan qizi Yuliya qalbida o'z o'qituvchisi, Sen-Prega muhabbat uyg'onadi. Sen-Pre ham qizni qaynoq ehtiros bilan sevadi. Ammo Yuliyaning otasi baron d' Etanj bundan g'azabga keladi. Chunki otaning nazarida bu harakat zodagoniy tushunchalarni oyoq osti qilar edi. Dvoryanlar muhiti «sivilizatsiyalashgan» tuzum

sevishganlar yo'liga g'ov bo'ladi. Yuliya, oilasi xohishiga bo'ysunib, eski tartib talablariga binoan Volmar ismli boy dvoryanga turmushga chiqadi. Romanda «tabiiy axloq» bilan soxta odat an'analari o'rtasidagi ziddiyat ko'rsatiladi. Bu ziddiyatning asl mohiyati sevishganlar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikdir. O'sha zamon odatiga ko'ra, dvoryan qizi Yuliyaning quyi tabaqa vakili Sen-Prega turmushga chiqishi qonunga xilof hisoblangan. Shu sababli Yuliya o'zining qalb javhariga zid ish tutib baxtli bo'la olmaydi. Uning bevaqt o'limi ichki azoblariga chek qo'yadi.

Roman qahramonlari Yuliya bilan sen-Pre obrazlarini muallif psixologik jihatdan asoslashda katta mahorat ko'rsatdi. Jan Jak Russoning pedagogik qarashlari ifodasi bo'lgan «Emil yoki tarbiya to'g'risida» romani 1762-yilda yozilgan. Russo inson tug'ilishida har qanday illatlardan xoli bo'ladi, lekin undagi barcha yaramas odatlar tengsizlikka asoslangan jamiyatning ta'sirida yuzaga keladi, deb hisoblaydi. Faylasufning fikricha, pedagogning vazifasi insonning tabiiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Russoning ajoyib asarlaridan biri «Iqror» 1770-yilda yozilgan. Bu asar «Yuliya yoki yangi Eloiza» romanidan farq qilib, o'z hayotini kengroq qamrab oladi. «Iqror» buyuk, oddiy odam faoliyatining chuqur realistik kechinmalarini ifodalab bergan. Asar keng hayot haqiqati, butun bir davrning urf-odati, oddiy insonning yashashi uchun olib borgan kurashi tarixini hikoya qiladi. «Iqror» tor biografik kitob bo'lib qolmasdan, keng hujjatli, badiiy asar hamdir. Unda XVIII asr Shveysariya, Italiya va Fransiya hayotining manzarasi chizib beriladi.

Fridrix Shiller (1759-1805). Germaniyaning buyuk shoirlaridan biri sifatida Shiller jahon adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Shiller «Qaroqchilar» (1781), «Fiyesko fitnasi» (1783), «Makr va muhabbat» (1784), tarixiy mavzuda yozgan «Don Karlos» (1787), «Vallenshteyn» (1799) romantik tragediyalari, «Mariya Styuart» (1800), «Orlean qizi» (1802) hamda «Vilgelm Tell» (1804) kabi shohona asarlarini yaratib, jahon dramaturgiyasi xazinasini boyitdi.

Fridrix Shiller 1759-yili Vyurtemberg gersogligida harbiy vrach oilasida tug'ildi. U ofitserning o'g'li bo'lgani uchun Vyurtemberg gersogi Karl Yevgeniy tashkil qilgan harbiy akademiya o'qishga kirdi. Bo'lajak shoir akademiya o'qib yurgan yillaridan boshlab nemis sharoitining qorong'i tomonlari bilan to'qnashgan edi. O'zini ma'rifatparvar olim deb ko'rsatishga uringan Karl yevgeniy haqiqatda zolim edi. U akademiya qattiqqo'llik

siyosatini o'ratgan, hammani, jumladan, talabalarni ham tobelik, itoatgo'ylik ruhida tarbiyalashga harakat qilar edi.

Yosh dramaturgning birinchi asari «Qaroqchilar» tragediyasi Mangeym shahri teatrida sahnaga qo'yildi, favqulodda muvaffaqiyat qozondi. Asar tomoshasiga borgan Shillerni gersog Karl yevgeniy ikki hafta qamab qo'yadi. Gersog o'ziga tobe kishilarning mustaqil ish qilishini istamas edi. Mamlakat xo'jayini bilan bo'lgan bu to'qnashuvdan so'ng Shiller Mangeym shahriga ketadi. Bu yerda uning «Fiyesko fitnasi», «Makr va muhabbat» asarlari sahnaga qo'yiladi. Shillerning darbadar kezishlari davom etadi. U Mengeymdan Leypsiga, keyin Drezden shahriga kelib joylashadi. Endi Shiller dunyoqarashida evolyutsiya yuz beradi, avvalgi isyonkorlik o'rnini tarbiyaviy-axloqiy va ma'rifiy qarashlar egallaydi. 1787-yili Shiller Vermarga kelib, Gyote bilan tanishadi. Gyote bilan hamkorlikda Veymer teatriga asarlar yozadi. 90-yillarda Shiller estetikaga oid asarlar yaratdi. «Fojiaviy san'at to'g'risida», «Kishini estetik jihatdan tarbiyalash to'g'risida xatlar» kabi nazariy asarlarida Kant falsafasining ta'siri sezilib turadi. Shiller 46 yoshida ayni ijodiy kuchga to'lgan bir pallada vafot etadi.

Shiller «Qaroqchilar» asariga «Zolimlar dastidan dod» so'zlarini epigraf qilib oladi. Asar voqealari ikki yilcha vaqt ichida Germaniyada bo'lib o'tadi. Graf Maksimilian fon Moorning ikki o'g'li bor. Kattasi Karl Moor Leypsig shahrida o'qiydi. Kichik o'g'li Frans Moor shuhratparast, amalparast bo'lgani uchun otasining o'rnini egallash maqsadida qo'lidan kelgan barcha pastkashliklarni qiladi. Karl Moor tartibsiz hayot kechirgani uchun qarzga botib qolgan. Uning yordam so'rab yozgan xatlarini Frans qari otasiga soxtalashtirib, buzib o'qib beradi, akasiga tuhmat qiladi. Nihoyat, graf katta o'g'lidan yuz o'giradi. Ilojsiz qolgan Karl atrofiga o'ziga o'xshagan yoshlarni to'plab, qaroqchilar shaykasi tuzadi. Karl boshliq qaroqchilar butun mamlakat bo'ylab zolimlarga, amaldorlarga

Iogann Volfgang Gyote (1749-1832). U Germaniyaning Frankfurt-Mayn shahrida badavlat xonadonda tug'ilgan. Gyotening otasi huquqshunoslik doktori, imperator amaldorlaridan biri edi. U kishi o'g'lining mustaqil bilim olishi uchun barcha choralarni ko'rdi. Gyote o'z uyida bir necha tillar, matematika, tarix, geografiya hamda musiqa va rassomlikdan saboq oldi. Yosh Gyotedagi iste'dod, tinmay o'qish kelgusida uning buyuk ensiklopedik olim, shoir, yozuvchi hamda jamoat arbobi bo'lib yetishuvida imkon yaratdi.

1765-yilda Gyote otasining istagi bilan Leypsig universitetiga kirib, huquqshunoslikni o'rgana boshlaydi. 1780-yilda kasallanib, uyiga qaytib keladi.

1770-yilda sog'ayganidan keyin Strasburg shahriga kelib, o'qishni tugallaydi va 1771-yili advokatlik diplomini oldi.

Bo'lajak san'atkor har tomonlama bilim olishga intilgan. U Spinoza falsafasini, antik dunyo shoirlarining asarlarini qunt bilan o'rgandi. Gomer va Vergiliy, Shekspir va Kornel, Moler va Lessing, Gerder va Shillerlar ijodi Gyote dunyoqarashining qaror topishida muhim omillardan bo'lgan. Keyinchalik Gyote Pushkin, Bayron, Beranje hamda Stendal ijodiga hurmat bilan qaradi.

Gyote «Gyos fon Berlixingen» asarida o'z vatani tarixiga, Germaniyaning XVI asr boshidagi tarixiga murojaat qiladi. Drama Germaniyadagi dehqonlar urushiga bag'ishlangan. Asar qahramoni ritsar Gyos fon Berlixingen zolim knyazlar zulmiga qarshi qo'zg'olonning rahbari.

Gyote «Yosh Verterning iztiroblari» romanida o'z davri uchun xarakterli bo'lgan hayotiy masalalarni ko'tarib chiqadi. Asar qahramoni Verter byurger oilasidan chiqqan iste'dodli yosh yigit. U zamonasiga ko'ra juda yaxshi ma'lumot olgan, klassik adabiyotni, ayniqsa Gomer asarlarini sevib o'qiydi. Qalbi olijanob his-tuyg'ularga boy. Verter tabiatning erkin farzandi. U Russo ta'limotining ixlosmandi. Verter Sharlotta ismli qizni sevib qolgan. Ammo Sharlotta boshqa yigit– Albertga unashtirilgan edi. Shu sababli Verter qizni unutish maqsadida shaharga borib, diplomatiya idorasiga ishga kiradi. Ammo bu yerda uning ishi yurishmaydi. O'z xo'jayini graf saroyida hozir bo'lgan Verter yuqori tabaqa vakillariga yoqmaydi. Kiborlar o'z oralarida tabaqasi past odamning bo'lishini istamaydilar. Verterning xo'jayini mehmonlarning bu xohishini unga aytgach, yigit bu uydan chiqib ketadi. Ertasiga butun shaharda, go'yo Verter mehmondorchilikdan haydab yuborilgani haqida bema'ni tuhmat gaplar tarqaladi. Haqoratlangan Verter ariza berib, ishdan bo'shaydi. Yana o'z sevgilisi yoniga qaytib boradi. Endi Sharlotta turmushga chiqqan, Verterning SHarlottalarnikiga kelishi bu oilani obro'sizlantirar edi. Chorasiz qolgan Verter o'zini o'zi o'ldiradi.

«Yosh Verterning iztiroblari» bosilib chiqqach, keng shuhrat qozondi. Bu asar XVIII asr nemis adabiyotining mashhur asari bo'lib qoldi va bu roman uning dong'ini butun dunyoga yoydi. Gyote romani yevropaning barcha tillariga tarjima qilindi. Muallif o'z asari haqida dunyoning turli burchaklaridan xushxabarlar oldi. Roman epistolyar(xat, maktub) janrida yozilgan edi.

Gyote lirikasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning poeziyasi badiiy yetuk, serma'no va hayotiydir. Shoir o'z lirikasida xalq hayotiga, uning og'zaki ijodiga murojaat qilib, kishining murakkab ichki dunyosini ochib beradi.

lirikasining asosiy mavzusi inson, uning sevgisi, uning tabiat bilan uyg'unlashib ketgan hayotiy, falsafiy go'zallik va ozodlik haqidagi olijanob orzularini tarannum qiladi. 1787 yili Gyote«Egmont», «Ifegeniya Tavridada», 1789 yili «Torkvatto Taso» fojialarini yaratdi. «Egmont» asari voqealari XVI asrdagi Niderlandiya xalqining Ispaniya zulmiga qarshi kurashiga bag'ishlangan.

Gyote poetik ijodining cho'qqilaridan hisoblangan «Mag'ribu mashriq devoni» 1814-1819 yillar mobaynida yaratildi. Bunda shoir XIV asr fors shoiri Hofiz Sheroziy ijodiga ergashadi. Shoirning sharq mavzuiga bo'lgan qiziqishi yangi hodisa emas edi. Bir qancha g'arb san'atkorlari o'z ijodlarida sharqqa murojaat qilganlar. Jumladan, Shekspir («Otello»), Rasin («Boyazid»), Monteske («Fors maktublari»), Volter («Zaira»), Gyote («Muhammad»), Bayron («Sharq dostonlari»), Viktor Gyugo («SHarq motivlari») kabi misollarni aytish mumkin.

Gyote g'arb va sharq adabiyotlarining boyib, rivojlanishini bir-birlari bilan yaqinlashuvida deb biladi. «Mag'ribu mashriq devoni»da Gyote sharqning buyuk shoirlari Hofiz, Nizomiy, Firdavsiy hamda Sa'diy ijodini nozik talqin qilib, original falsafiy lirika javharini yaratadi.

«Devon» o'n ikki kitobga bo'linadi. Bular: «Qo'shiqchi kitobi», «Sevgi kitobi», «Mushohada kitobi», «Qobus kitobi», «Soqi kitobi», «Norozilik kitobi», «Hikmat kitobi», «Zulayho kitobi», «Temur kitobi», «Masal kitobi» hamda«Jannat kitobi»dan iborat.

Gyote ijodining yirik mahsuli «Faust» fojiasidir. Asar XVIII asrning oxirgi va XIX asrning birinchi choragida yozilgani (1773-1831) uchun ana shu xilma-xil voqealarga boy bo'lgan yevropa hayotini aks ettiradi. Gyote inson hayotining ma'nosi, umrning vazifasi nimadan iborat bo'lishi kerak, degan muammoga o'zicha javob izlaydi.

Faust nemis xalqi orasida keng tarqalgan afsonaning qahramoni. Mazkur afsona Germaniyada XVI asrda paydo bo'lgan. Gyote qo'liga qalam olgan kundan boshlab bu haqda asar yozishni orzu qilar edi. Ana shu afsonalarda Faust olim, sehrGAR, shaytonlar bilan munosabatda bo'lgan kishi sifatida talqin qilinadi.

Asar koinotning, tabiatning go'zalligini, buyukligini, uning to'xtovsiz harakatda ekanligini madh qilish bilan boshlanadi. Arshi a'loda shayton Mefistofel xudo bilan Faust to'g'risida munozara qiladi. SHaytonning fikricha, koinoti azimda inson ojiz bir narsa. U baxtsiz, abadul-abad azob-uqubatda yashaydi. agar xudo unga aql ato qilmasa, inson yomon yashamagan bo'lur edi. Buning ustiga Faust butun koinot va tabiat sirlarini ilmu fan kuchi bilan bilib olmoqchi. Mefistofel Faustning bu intilishlariga ishonmaydi, unga shubha bilan

qaraydi. Xudo esa, inson adashib bo'lsa ham, izlash, qidirish natijasida kamolot cho'qqisi tomon boradi, deb unga umid bildiradi.

Bu umid Gyotening insonparvarlik qarashlarining natijasidir. SHayton, men albatta Faustning nafsini qo'zg'ab, yomon yo'llarga olib boraman, uning intilishlarini, orzularini puchga chiqaraman, deydi. Asarning asosiy konflikti va tuguni shu yerdan boshlanadi. Faust kabinetiga kirgan Shayton Mefistofel olimning umidsizlik kayfiyatidan foydalanib, u bilan garov o'ynaydi. Faust o'z ishidan mamnun emas, ko'ngli to'lmayapti. Shayton esa uning o'z hayotidan, qilayotgan ishlaridan mamnun qilishga va'da beradi. Agar shunday bo'lsa, Faust unga o'z yuragini (jonini) berishga rozi bo'ladi. Shartga ko'ra, Faust dunyodagi nafsoniy lazzatlardan qanoatlansa va«ana shu dam chiroyli, bu dam o'tib ketmasin», deb o'z xursandchiligidan tamomila qanoatlanganini bildirsa, shayton yutgan hisoblanadi. Lekin Faust shu narsaga aminki, inson orzularining cheki yo'q, shayton esa uni ko'ngli to'ldirilsa, boshqa narsa istamay, shu bilan ovora bo'lib qoladi, deb o'ylaydi.

Iblis Mefistofel Faustning pinjiga kirib, uni har xil yo'llarga boshlab yuradi. Auerbaxning yerto'lasini, keng dalada bahor bayramini qutlayotgan xaloyiq, jodugar kampirning shohona uyi kitobxon ko'z o'ngidan o'tadi. SHayton Faustning ko'nglini sevgi yo'li bilan to'ldirmoqchi. Keksa Faust uning sehri bilan yosharib, navqiron yigitga aylanadi. Margarita(Gretxen) nomli qizni sevib qoladi.

Ular o'rtasida farzand tug'iladi. Ammo ruhoniylar jazosidan qo'rqqan Margarita farzandini suvga cho'ktirib o'ldiradi. Cherkov xodimlari bu sirdan xabardor bo'ladilar, ular Margaritani tutib zindonga tashlaydilar. Qizni qutqarish uchun kelgan Faustni Margarita tanimaydi, uni jallod deb o'ylab, o'z yonidan haydaydi. Qiz aqldan ozib qolgan edi. SHu tariqa Margarita fojiali halok bo'ladi. Faust, o'zini bu ishda aybdor deb hisoblaydi. Faust Margaritaning fojiasidan ruhan azob chekadi. Faust bilan Mefistofel o'rtasidagi bahs-munozara davom etadi. ular imperatorning saroyida bo'ladilar. Ajoyib koshonalarda, bazmu ziyofatlarda qatnashadilar. Ammo Faust bu lazzatlardan qanoatlanmaydi, ko'ngli taskin topmaydi. Uning ruhi faoliyat va ijodga moyil. Boshi qotib qolgan shayton o'ylab-o'ylab Faustning ko'nglini go'zallik bilan maftun qilmoqchi bo'ladi. U Faustni qadimgi Yunonistonga olib bormoqchi bo'ladi. Ko'z o'ngimizda Sparta malikasi, shoh Menelayning xotini go'zal yelena gavdalanadi. Faust bilan yelenadan tug'ilgan farzand Evforion (Bayron) juda erta halok bo'ladi. Shunday qilib, go'zallik ham, husn ham Faustni qanoatlantirmaydi. Sevgi ham, go'zallik ham Faust nazarida o'tkinchi narsa. Lekin bu ikki narsa Faust ma'naviy olamining qaror topishida muhim rol o'ynaydi.

Endi alloma juda katta hayotiy tajriba to'playdi. Izlanish, fikrlash, kurash, adashishlar uning aqliy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U inson hayotining ma'nosi kayf-safo, o'yin-kulgi, hoyu-havas emas, degan xulosaga keladi. Kishining dunyoga kelishdan, yashashdan maqsadi o'z xalqi, vatani uchun halol mehnat qilishda, degan haqiqatga tushunib yetadi. Atrofiga bir to'da kishilar to'plab, dengiz chekkasiga ajoyib bir shahar barpo qilishga kirishadi. Mashaqqatli mehnat samarasidan mamnun bo'lgan Faust olamdan o'tadi. uning jonini farishtalar osmonga olib chiqib ketadilar. Faust o'lgandan keyin ham uning joniga ega bo'la olmagan shayton laqillab qolaveradi. Asar xalqi, vatani uchun halol xizmat qilgan kishining yuragi eng yuksaklikda bo'lishi kerak, deagn g'oya bilan tugaydi.

Jahon adabiyotining shoh asarlaridan bo'lgan «Faust»ni o'zbek kitobxonni shoir Erkin Vohidov tarjimasida o'z ona tilida o'qimoqda.

ROMANTIZM ADABIYOTI

Reja:

1. *Romantizm adabiyoti va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida.*
2. *Roantiz adabiyoti vakillari va ijodi.*
3. *Jorj Gordon Bayron ijodi. "Don Juan" she'riy romani.*
4. *Viktor Gyugo hayoti va ijodi.*

Romantizm (fr. romantique, ingl. romantic) – yevropa adabiyotida XVIII asr oxiri – XIX asrning birinchi yarmida yetakchilik qilgan adabiy yo'nalish. Etimologik jihatdan termin ispancha “romance” so'zi bilan bog'liq bo'lib, XVIII asrda kitoblardagina uchratish mumkin bo'lgan g'ayritabiiy, ajabtovur, fantastik narsalarning bari shu so'z bilan yuritilgan. Darhaqiqat, romantizm adabiyoti yaratgan badiiy olamni shunday so'z bilan nomlashga yetarli asos bor edi. Zero, romantizm mavjud voqelikdan qoniqmaslik tufayli, ma'rifatchilikka xos olam (odam va jamiyat)ni aql bilan raso holga keltirish g'oyasiga ishonchning barbod bo'lishi natijasi o'laroq yuzaga kelgan bo'lib, “reallikdan qochish”ga, real olamdan ko'ra mukammalroq olam yaratishga intiladi. Romantizm klassitsizmga xos “tabiatga taqlid” va undan kelib chiquvchi haqiqatga monandlik talablarini inkor qiladi, uning uchun badiiy reallik mavjud reallikdan haqqoniyroqdir. Mavjud voqelikdagi tussizlikdan bezgan romantizm vakillari, ko'pincha, ko'hna o'tmishdan ma'ni izlashadi (mas., V.Skott, V.Gyugo, A.Dyuma romanlari), ular tasvirlagan voqea-hodisalar aksar uzoq, ekzotikaga boy yurtlarda kechadi va sh.k.

Romantizm adabiyotining umumlashtirish prinsipi – ideallashtirish, u voqelikka boqiy va mutlaq ideallar asosida yondashadi, shuning uchun ham romantizmda voqelik bilan ideal orasidagi nomutanosiblik yaqqol ko‘rinadi, ularning ziddiyati o‘ta keskin namoyon bo‘ladi. Natijada romantizm adabiyotida olam ikkiga ajraladi, ikkisi – ideal olam bilan mavjud olam alohida yashaydi. Romantizm adabiyotining bosh ziddiyati – ezgulik va yovuzlik kurashi, unga ko‘ra, yovuzlik ham, unga qarshi kurash ham birdek boqiydir. Ya‘ni bu kurash yovuzlikni ildizi bilan yo‘qotishu olamni tubdan o‘zgartirishga ojiz, qo‘lidan keladigani – yovuzlikning olamda mutlaq hokim bo‘lishiga yo‘l bermaslik, xolos. Yovuzlikka qarshi kurashayotgan betakror shaxs – romantizm adabiyotining bosh qahramoni. Romantizm adabiyotga o‘zining yangicha shaxs konsepsiyasi bilan kirib keldi. Uning uchun shaxs – alohida olam. Shaxsning sirli va adadsiz ichki olami romantizm adabiyotining markaziy muammosiga aylanadi. Romantizm shaxsdagi betakror individual xususiyatlarga urg‘u beradi, asosiy e‘tiborni uning ichki olamidagi ziddiyatlar, qalbiyu ongidagi izohlash mushkul harakatlar, g‘ayrihuuriy holatlarga qaratadi. Mavjud voqelikdagi maishat quliga aylanib borayotgan odamlarga zid o‘laroq, romantizm adabiyoti muhabbatiyu nafrati, mehriyu qahri cheksiz, yuksak tuyg‘ularga, iztirobli o‘ylovlaru o‘zini beshafqat taftish qilishga qobil qahramonni yaratadi. Bu qahramon olam sir-sinoatini anglashga ojizligidan iztirob chekadi, mavjud voqelik sog‘lom aqlga nomuvofiq ekani, o‘zining shaxsiy erkiga daxl qilayotganidan iztirobga tushadi. Romantizm adabiyotining qahramoni shaxsiy erkini, insonlik sha‘nini yuksak qadrlaydi, ularga qarshi har qanday harakatga butun vujudi bilan qarshi turadi.

Shaxsga bu xil qarash romantizmning ijodkor shaxsga munosabatida ham o‘z aksini topadi. Ijodkorni muayyan qoidalar bilan cheklagan klassitsizmdan farqli o‘laroq, romantizm tom ma‘nodagi ijodiy erkinlik tarafdori, u har qanday cheklovlarni inkor qiladi. Shuning uchun romantizm nazariyotchilari adabiy tur va janrlar orasiga qat‘iy chegara qo‘ymaydilar, adabiyotning boshqa san‘at turlari bilan sintezlashuvi yoki konkret badiiy asarda turli estetik belgilar (tragizm va komizm, tuban va yuksak va b.)ning qorishiq holda namoyon bo‘lishini tabiiy hol deb biladilar. Ular badiiy asarni tirik organizmga qiyos qiladilar, badiiy shakl mazmundan tabiiy ravishda o‘sib chiqadi va u bilan uzviy bog‘liq holda yashaydi deb tushunadilar. Ya‘ni bunda ham normativ xarakterdagi poetikaga oid qo‘llanmalarda qat‘iy belgilangan me‘yorlarni inkor qilish, ijodkorning yaratuvchilik huquqini e‘tirof etish kuzatiladi. Romantizm adabiyotni tarixiy roman, fantastik qissa, liro-epik poema kabi janrlar bilan boyitdi; ifodada metaforiklik, yuksak darajadagi assotsiativlik va shu asosda ko‘p ma‘nolilikka

intilgani sabab badiiy tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytira bildi. Romantizm badiiy tafakkur rivojida sezilarli iz qoldirdi, uning an'analari simvolizm, ekspresionizm, syurrealizm singari oqimlar tomonidan ijodiy o'zlashtirildi, romantik pafos adabiyot va san'atga xos estetik belgilardan biri bo'lib qoldi.

Nemis adabiyotida romantizm. Germaniya XIX asr boshlarida ham qoloq feodal davlat bo'lib, uning iqtisodiy zaifligi va siyosiy tarqoqligi hali davom etmoqda edi. Lekin endi u XVIII asrda bo'lganidek, 300 dan ortiq mitti davlatchalar emas, balki Napoleonning xohishi bilan ularning soni 36 davlatga qisqartirilgan edi.

Nemis taraqqiyparvar romantizmining vakillari F.Gelderlin, A.Shamisso, A.Gofman, aka-uka Grimmlar hisoblanadi. Bu davr nemis adabiyotida ertak janri nihoyatda rivojlandi. Xalq og'zaki ijodining boy xazinalaridan to'plangan aka-uka Grimmlar hamda Gofmanning ertaklari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ernest Teodor Amadey Gofman hayoti va ijodi (1776-1822). Ernest Teodor Amadey Gofman ijodi XIX asr boshlaridagi nemis adabiy hayotida muhim voqea bo'ldi. Gofman Kenigsberg shahrida amaldor ilasida tug'ildi. Bo'lajak yozuvchi o'n olti yoshida universitetning huquq fakultetiga o'qishga kirdi. Ammo u huquq ishlariga emas, muzika, tasviriy san'at hamda adabiyotga zo'r ishtiyoq ko'rsatdi. Napoleon rushlari avj olib turgan bir vaqtda Gofman o'z tirikchiligini o'tkazish uchun turli shaharlarga ko'chib yurishga majbur bo'ldi. Jozibador novellalar muallifi Gofmanning "Tungi hikoyalar" (1817), "Serapion muridlari" (1821), "Sinnober laqabli mitti Saxes2 (1819) ertagi, "Mushuk Murning xotiralari" (1821) romani ham mashhur.

Ingliz adabiyotida romantizm. Ingliz adabiyotida romantizm Yevropa inqilobiy harakati davrida shakllangan bo'lib, ingliz romantiklari mavzuni qaysi davrdan olishlariga qaramay, o'z zamonasiga murojaat qildilar. Bayron ijodida davrning barcha ziddiyatlari aks etgan. Sharq dostonlarida shoirning adolatsiz jamiyatga nisbatan munosabati ko'rsatilgan. «Don juan» asarida shoir zamonasidagi muhim ijtimoiy voqealarga, masalalarga o'zining tanqidiy munosabatini bildiradi. Ingliz romantiklaridan Shelli poemalar, hajviy va ishqiy mavzudagi lirik she'rlar muallifi. V.Skott esa tarixiy romanlar muallifi sifatida adabiyotda nom qoldirdi.

XVIII asr oxiridagi fransuz burjua revolyutsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra umumevropa ahamiyatiga ega bo'ldi. Inqilobdan cho'chigan ingliz hukmron doiralari mehnatkashlarga qarshi uyushgan holda hujumga o'tdi.

XIX asr boshlarida Angliyada ludditlar harakati avj oladi. Ludditlar – mashina buzuvchilar. XIX asr boshida Angliyada sanoat taraqqiyoti natijasida ishsizlikdan xonavayron bo‘lgan ishchilar harakatidir.

Jorj Gordon Noel Bayron hayoti va ijodi (1788-1824). Bayronni «Jahon qayg‘usini kuylagan shoir» deb atashadi.

Jorj Gordon Noel Bayron – ingliz romantizm adabiyotining zabardast vakillaridan biri. Bayron ijodi u yashagan avrning barcha ziddiyatlari o‘zida aks ettiradi. Buyuk shoir asarlarida zamonasidagi milliy ozodlik harakatini (Ispaniya, Albaniya, Italiya, Gretsiya), irland xalqining Angliya zulmiga qarshi olib borgan kurashlarini, sanoat proletariati bo‘lgan ludditlarning dastlabki chiqishlarini ifodaladi.

“Chayld Goralldning ziyorati” asari chuqur lirizm bilan sug‘orilgan, siyosiy mavzuda yozilgan bo‘lib, u Bayron ijodida alohida o‘rin tutadi. Asarda kitobxon e‘tibori zamonasidagi muhim masalalarga qaratiladi. Dostonning asosiy yo‘nalishi zolim va bosqinchilarga qarshi nafrat bilan to‘lib-toshgan.

Bayronning jo‘shqin xalqona nutqlari 1813-1816 yillarda yaratgan «Sharq dostonlari» nomli to‘plamiga kirgan «Gyaur», «Abidoss kelinchagi», «Korsar», «Lara», «Korinf qamali» hamda «Parizina» nomli romantik poemalari uning dushmanlarini haddan tashqari g‘azablantirgan edi.

“Sharq dostonlari”. Bayron vatanini tashlab ketgach, Belgiyada, Shveysariyada, so‘ngra Italiya shaharlarida bo‘ladi. Yolg‘izlik, vatandan judolik shoir kayfiyatida tushkunlikni kuchaytirib yuboradi.

«Gyaur» dostonining qahramoni Leyla ismli ayolni sevadi. Ammo Leylaning rashkchi eri Hasan o‘z xotinining Gyaur bilan sevishganidan xabar topib, uni o‘ldiradi. Bunga chiday olmagan Gyaur Leyla uchun Hasandan o‘ch oladi. Asar oxirida uning Leyla ishqida azob chekib vafot etishi tasvirlanadi.

«Korsar» dostonining qahramoni Konrad dengiz qaroqchilarining boshlig‘i. Konrad jamiyatdan bezib, dengizdagi orollardan birida yashaydi. Uning maqsadi madaniy jamiyatdan o‘ch olish, unga qarshi kurashishdir. Bayron qahramonlari ehtirosli. Isyonkor shaxslardir. Ammo ular yolg‘iz kurashchilar.

Bayron 1817-1821 yillar orasida yangi adabiy romantik dramalar turkumini yaratdi. Bunga «Manfred», «Osmon va Yer», «Kain» nomli ajoyib falsafiy mulohazalarga boy dramatik asarlarini yaratdi.

Bayron 1821 yilda yozgan “Kain” dramasi sujetini diniy kitoblardan olgan. Asar qahramoni Kain har qanday zulmga qarshi isyon ko‘targan kishi. Diniy afsonaga ko‘ra, Kain yer yuzida birinchi qotil – odam o‘ldirgan shaxs. Bayron

talqinida esa u zulmga, xudoning osmoniy tartiblariga qarshi chiqqan erksevar kishi obrazi.

“Don Juan” romani Bayron ijodining cho‘qqisi hisoblanadi. Bu roman 1824 yilda yoziladi.

Shoir bu asarining voqealarini XVIII asrga ko‘chirgan. Shuning uchun kitobxon ko‘zi o‘ngida XVIII asrning muhim voqealari, davlat arboblari, sarkardalari o‘tib turadi, ammo, bundan Bayron o‘zi yashab turgan davrning eng dolzarb voqealarini chetlab o‘tibdi, degan xulosa chiqmaydi. Aksincha Bayron zamonasidagi muhim siyosiy-ijtimoiy masalalarga o‘zining tanqidiy munosabatini bildiradi. Don Juan hamma yerda zulm, zo‘ravonlik, adolatsizlikni ko‘radi. Roman qahramoni Don Juan Ispaniyalik dvoryan. U ayollarga nisbatan suyuqoyoq, yengiltak zodagon yigit sifatida tasvirlanadi. Qahramon o‘z vatani Ispaniyadan qochib chiqib ketishga majbur bo‘lgan edi. Uzoq dengiz qirg‘og‘ida Gaydeni uchratib, chinakam sevgisini topdi. Ammo uning va Gaydening bu baxti uzoqqa cho‘zilmadi. Sevishganlarning biri qul bo‘lishga, ikkinchisi o‘limga mahkum etiladi. Uzoq dengizdagi orolda ham sevgi erkin emas. Turkiya sultoni saroyiga tushib qolgan Don Juan bu yerda hukm surayotgan shafqatsizlik bilan buzuqliklarning guvohi bo‘ladi.

Don Juan ayni paytda zamonasida hukm surayotgan urushlarni, adolatsizliklarni, xalq boshiga tushgan og‘ir kulfatlarni fosh qiluvchi odil hakamlik rolini o‘ynaydi. Shuning uchun ham Don Juan obrazi doimo o‘shishda, o‘zgarishda ko‘rsatiladi.

Persi Bishi Shelli hayoti va ijodi (1792-1822). Ingliz adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Persi Bishi Shelli dvoryan oilasida tug‘ildi. Avval Iton kollejida, so‘ngra Oksford universitetida o‘qidi. Shelli ham yoshligidan boshlab o‘zining buyuk zamondoshi, do‘sti Bayron singari zulm va adolatsizlikka murosasizlik bilan qaradi.

Shellining muhim asarlari “Qirolicha Mab” (1813), “Islom qo‘zg‘oloni” (1818), “Ozod qilingan Prometey” (1820) poemalari, “Chenchi” (1819) fojiasi va bir qancha siyosiy, hajviy, ishqiy mavzudagi lirik she’rlaridir.

“Ozod qilingan Prometey”. Prometey insonlarning do‘sti. Yupiter zolim, ekspluatator. Bu romantik, fantastik obrazlar orqali Shelli zamonasidagi sinfiy kurashmanzarasini gavdalantiradi. Prometey boshliq insonlar Yupiterni taxtga chiqaradilar. Ammo zolim Yupiter ko‘p o‘tmay, o‘z va’dalaridan qaytadi. Zulmni kuchaytiradi. Prometeyni sevgilisi Aziyadan ajratib, Kavkaz tog‘lariga zanjirband qilib tashlaydi.

Valter Skott hayoti va ijodi (1771-1832). Angliyaning yirik yozuvchilaridan biri. Valter Skott ajoyib san'atkor, tarixiy romanlar avtori sifatida jahon adabiyoti xazinasiga barakali hissa qo'shdi. Valter Skott yashab ijod qilgan davr muhim voqealarga, o'zgarishlarga juda boy. Eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurashlar, Angliyadagi sanoat o'zgarishi, birinchi fransuz burjua revolyutsiyasi, Napoleon olib borgan bosqinchilik urushlari yozuvchi asarlariga syujet bo'lib xizmat qildi. Uning tarixiy mavzuda yozgan romanlari XII asrdan tortib to XIX asrgacha bo'lgan xilma-xil voqealarni qamrab oladi. Valter Skott tarixiy jarayonlarning rivojlanishini sinchkovlik bilan kuzatdi. Valter Skott hali hayot ekanidayoq, uning nomi keng tarqalgan va buyuk zamondoshlarining tahsiniga sazovor bo'lgan edi. Adibning ijodiga A.S.Pushkin, V.G.Belinskiy, Onore de Balzaklar yuqori baho berdilar. Uning asarlarini Marks bilan Engels sevib o'qidilar.

Valter Skott ijodini, xarakteriga qarab uch davrga ajratsa bo'ladi. Birinchi davr – 1796-1813 yillar – dastlabki romantik poemalari yaratilgan davr. Ikkinchi davr – 1814 – 1818 yillar bo'lib, bu yillarda Skott Shotlandiya tarixidan olib yozgan ajoyib romanlarini (“Ueverli”, “Gay Monnering”, “Antikvari”, “Puritanlar”, “Rob Roy”, “Edinburg zindoni”) yaratadi. Uchinchi davr – 1819 – 1832 yillarni qamraydi. Bu davrda yozuvchi Angliya, Fransiya hamda Shotlandiya tarixiga, boshqa davlatlarning uzoq o'tmishiga murojaat qilib, “Ayvengo”, “Kenilvort”, “Kventin Dorvard”, “Vudstok”, “Pert go'zali” kabi romanlarini yozadi.

“Ayvengo”. Roman Valter Skotting bu davrdagi asarlari rasida alohida o'rin tutadi. Bu roman markazida XII asrda Angliyada kuchayib borayotgan qirollik xokimiyati ilan o'zboshimcha feodallar o'rtasidagi kurash voqealari turadi. Asarda yozuvchi o'zining sevimli qahramonlari ritsar Ayvengo. qirol Sheryurak Richard va ular atrofida personajlarning romantik qiyofasini gavdalantirib, beradi. Asar qahramonlari mard, sevgisiga sodiq kishilar. Ayniqsa, asardagi xalq vakillarining obrazlari juda mukammal: qiziqchi Vamba, cho'chqaboqar Gurt, xushchaqchaq monax Tuk, o'rmondagi kamonchilar boshlig'i jasur Robin Gud ana shunday personajlardir.

“Puritanlar» (1816 y.) romanida Skott shotlandiyalik tog'li dehqonlarning styuartlar dinastiyasiga qarshi qo'zg'oloni ko'rsatiladi. Bu asarda xalq ommasining qirollik zulmiga qarshi norozilik harakatini aks ettiradi. V. Skott Shotlandiya tarixiga oid barcha asarlarida o'sha xalq hayotini, urf-odatlarini, kiyim-kechaklarini hayron qolarli darajada ustalik bilan tasvirlab beradi.

Fransuz adabiyotida romantizm. Fransuz adabiyotida romantizm yo'nalishining negizida inqilob tufayli yuzaga kelgan tartiblar yotadi. Ilg'or

fransuz romantiklari J.Sand, V.Gyugolar ilg'or romantiklardir. Bular mavzuni o'z xalqi tarixidan, milliy tarixdan axtardilar. Bu yozuvchilar o'z asarlarida fransuz xalq tilining boyliklaridan unumli foydalanadi, fransuz she'r tuzilishini yangi vaznlar, xilma-xil qofiya, milliy kolorit keng xalq lug'ati bilan boyitdi.

Fransiyada romantizmning qaror topishiga asosiy sabab XVIII asr oxirida sodir bo'lgan birinchi fransuz burjua revolyutsiyasidir. Bu revolyutsiya Yevropaning bir qancha mamlakatlarida juda murakkab g'oyaviy kurashni yuzaga keltirdi.

Viktor Gyugo hayoti va ijodi (1802-1885). Viktor Gyugo Fransiyaning zo'r iste'dodli shoiri, dramaturgi, romannavisi va publitsistidir. U ijodining takomili davomida fransuz taraqqiyparvar romantizmining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan yirik san'atkordir.

O'zi ilgari surgan nazariy qarashlarini amalda isbotlash uchun Gyugo 1830 yildagi Iyul revolyutsiyasi arafasida "Marion Delorm" (1829), "Ernani" (1830) kabi romantik dramalarini yaratdi. "Marion Delorm" dramasi XVII asr tarixidan olingan bo'lib, qirol Lyudovik XIII va uning ministri Kardinal Rishelye davrini tasvirlash bilan zamonasidagi restavratsiya va qirol Karl X ning hajviy karikaturasini chizib beradi.

"Parij Bibi Maryam ibodatxonasi" romani mavzuini Gyugo XV asr Fransiya tarixidan olgan. Inson tarixida dinning mash'um rolini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida diniy bo'yoqlarni quyuqlashtirib chizish uchun XV asr Parij hayoti yozuvchiga juda keng ijodiy imkon beradi.

Adib «Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romani «O'linga hukm qilingan kishining oxirgi kuni», «Klod Gyo» qissalarida ijtimoiy mavzuga murojaat qilib, qayta tiklash davrining qonxo'rligini fosh etdi.

Amerika adabiyotidagi romantizm 1775-1783 yillarda Qo'shma Shtatlarda yuz bergan inqilob tufayli maydonga keladi. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik romantik yozuvchi Jeyms Fenimor Kuper (1789-1851 yillar.) AQSH adabiyotida ko'zga ko'ringan romannavislardan biridir. Sarguzasht romanlar ustasi, romantizm namoyandasi F.Kuper «Amerikaning Valter Sotti» deb nom olgan Kuper Qo'shma Shtatlar adabiyotida tarixiy roman janriga asos soladi. «So'nggi Mogikan» (1826 y.) romani mashhurdir.

REALIZM VA TANQIDIY REALIZM ADABIYOTI

Reja:

1. XIX asr tanqidiy realizm adabiyotining o'ziga xos taraqqiyot yo'nalishi.
2. Onore de Balzak – fransuztanqidiy realizmadabiyotining yirik vakili.

3. Onore de Balzak asarlariga xos yetakchi motivlar.
4. Onore de Balzakning «Gorio ota» romanining gʻoyaviy-badiiy tahlili.
- 5.
6. Tayanch tushunchalar: realizm, tanqidiy realizm, romantizm, modernizm, adabiy tur va janrlar, balzakshunoslik, stendalshunoslik, naturalizm, adabiy taʼsir, adabiy oqim, uslub, tarjima, asliyat, bevosita tarjima, bilvosita tarjima, “jahon adabiyoti”.

Jahon adabiyoti tarixida tanqidiy realizm XIX asrning 20-yillari oxirda paydo boʻlib, 30-40 yillarda oʻz taraqqiyot choʻqqisiga koʻtarildi. Bu jarayonning yuzaga kelishi Yevropada yaʼni Angliya va Fransiyada XIX asrning birinchi yarmiga, Amerika Qoʻshma Shtatlari hamda slavyan mamlakatlarida XIX asrning ikkinchi yarmiga toʻgʻri keladi. Tanqidiy realizm, asosan, ijtimoiy roman janrida Balzak, Dikens asarlarida oʻz ifodasini topadi. Bu adabiyot kapitalistik jamiyati ziddiyatlari kuchayib borayotgan paytda, burjuaziya bilan ishchilar sinfi oʻrtasidagi qarama-qarshilik keskinlashgan sharoitda kelib chiqqan. Agar XIX asrning boshlarida burjua munosabatlari adabiyotda romantik norozilik tarzida ifodalangan boʻlsa, 30-40 yillarga kelib esa, bu munosabatlar realistik tanqid obyektiga aylanadi. Burjua munosabatlari tantana qilgan yangi sharoitda «Aql hukumronligi» tugʻrisidagi xom xayollar puchga chiqdi. Bu davrga kelib tabiat fanlarining ravnaq topishi ham hayot voqealariga haqqoniy yondoshishni taqozo qiladi.

Tanqidiy realizm adabiyotining buyuk namoyandasi Onore de Balzak oʻz asarlarida oʻzi yashab turgan davr hayoti qonunlari, bu qonunlarni boshqarayotgan kuchni, uning xarakterini, tipik belgilarini kashf etdi. XIX asrning birinchi yarmida Fransiyada inqilobiy poeziya rivojlanadi va bu adabiyot mehnatkash xalq ommasining kayfiyatlarini aks ettiradi. Ana shu demokratik adabiyotning yirik vakili buyuk qoʻshiqchi shoir Pyer Jan Beranjening ijodi burbonlar restavratsiyasi 1814-1830 yillar, hamda iyul manarxiyasi 1830-1848 yillarga toʻgʻri keladi. Uning sheʼrlarida fransuz taxtiga qaytib kelgan dvoryan-aristokratlar reaksiyasiga hamda burjua qiroli Lui Filipp zulmiga qarshi xalqning keskin noroziligi oʻz ifodasini topgan.

XIX asrning 30-40 yillari Angliyada kapitalizm bilan ishchilar sinfi oʻrtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi bilan ajralib turadi. Bu yillarda paydo boʻlgan va qudratli kuchga aylangan ishchilar gʻalayoni Angliya tarixida chartistlar harakati nomini oladi. Chartistlar harakati oʻz zamonida ingliz va Amerika Qoʻshma Shtatlari adabiyotiga va yozuvchilar ijodiga taʼsir etmay qolmadi albatta.

Chartistlar harakatining namoyandalari o'z ijodida tanqidiy realizm adabiy yo'nalishiga e'tiborlarini qaratadilar.

XIX asrning 20-yillari oxirida chet ellar adabiyoti tarixida tanqidiy realizm paydo bo'lib, 30-40-yillarda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tarildi. Bu jarayonning yuzaga kelishi Yevropada (Angliya va Fransiya) XIX asrning birinchi yarmiga, Amerika Qo'shma Shtatlari hamda slavyan mamlakatlarida XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi.

Tanqidiy realizm, asosan, ijtimoiy roman janrida (Balzak, Dikpens) o'z ifodasini topdi. Bu adabiyot kapitalistik jamiyat ziddiyatlari kuchayib borayotgan paytda, burjuaziya bilan oddiy mehnatkash xalq o'rtasidagi qarama-qarshilik keskinlashgan sharoitda kelib chiqdi.

Tanqidiy realizm adabiyotining buyuk namoyandasi Onore de Balzak o'z asarlarida yashab turgan davri hayoti qonunlarini, bu qonunlarni boshqarayotgan kuchlarni, uning xarakterini, tipik belgilarini kashf etdi. Balzak «Inson komediyasi» deb nomlangan ulkan romanlar silsilasida burjua jamiyatining axloqiy, falsafiy tomonlarini chuqur tahlil qilib berdi. U burjua tuzumini harakatga keltiradigan asosiy kuch pul, oltin ekanligini isbotladi.

Balzak «Beyl haqida etyud» nomli risolasida Stendalning «Parma ibodatxonasi» romanini tahlil qilib, bu asardagi obrazlar va voqealarning tipikligini ko'rsatdi, badiiy umumlashma hayotiy haqiqat bilan qo'shib ketganligini ta'kidladi. Chunki Balzakning o'zi detallarni haqqoniy, xarakterlarni tipik tarzda ifodalab berar edi.

Tanqidiy realizm ijtimoiy muhitni chuqur aks ettirdi. Agar romantik yozuvchilar o'z qahramonlarini real muhitdan ajratib tasvirlagan bo'lsalar, tanqidiy realistlar qahramonni o'zi yashab turgan muhit bilan uzviy bog'liq holda ko'rsatadilar. Shuning uchun tanqidiy realizm adabiyotidagi tipik qahramon xarakteri ijtimoiy xarakter sifatida gavdalanadi.

Tanqidiy realizm romantizmdan farqli o'laroq, o'zi tasvirlayotgan voqea-hodisalarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. U har bir voqea va hodisaga tarixiy jihatdan aniq yondashadi. Shuning uchun tanqidiy realizm adabiyotida tarixiylik muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy realizm adabiyoti zulm va zo'ravonlikka asoslangan tuzumni, uning vakillarini ayovsiz fosh qilib tashlaydi. Agar yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisalarga tanqidiy yondashmasa, tanqidiy realizm adabiyotining vakili bo'la olmaydi. Chunki burjua tuzumi haqida haqiqatni gapirish o'sha tuzum illatlarini ko'rsatishni taqozo qiladi.

Fransuz adabiyotining buyuk siymolaridan Onore de Balzak ijodida tanqidiy realizm o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Balzak fransuz tanqidiy realizmining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan adib.

Balzak Fransiyaning Tur shahrida 1799 yilda tug'ilgan. O'sha davr odatiga ko'ra, u ham Sorboni universitetining huquq fakultetini tugatadi. Ammo adabiyotga qiziqib, bir yil mobaynida o'z ustida tinmay ishlaydi. Balzakning birinchi tragediyasi «Kromvel» muvaffaqiyatsiz chiqadi. Lekin yozuvchi umidsizlikka tushmay, adabiyot bilan zo'r berib shug'ullanaveradi. U uzzukun, 14-16 soatlab ishlab, zamonasining ajoyib san'atkori darajasiga ko'tariladi.

Balzakning yozuvchi sifatida nomini elga tanitgan va unga shuhrat keltirgan asari «Shuanlar» (1829) romanidir. Shundan keyin uning «Gobsek», «Sag'ri teri tilsimi», «Noma'lum navodir», «Polkovnik Shaber», «Yevgeniya Grande», «Gorio ota», «Yo'qotilgan illyuziyalar», «Nyusinjenning savdo uyi», «Dehqonlar» va boshqa asarlari birin-ketin bosilib chiqa boshlaydi.

Balzak o'z asarlarini «Inson komediyasi» degan umumiy nom ostida birlashtiradi va ularni quyidagi uch qismga bo'ladi:

1. «Xulqlar haqida etyudlar».
2. «Falsafiy etyudlar».
3. «Analitik etyudlar».

«Inson komediyasi» yozuvchi rejasiga ko'ra 143 ta roman va novelladan tashkil topishi kerak edi. Lekin undan 96 tasi yozib tugallangan. «Inson komediyasi» yozilgan tarixiy davr chegarasi 1830-1848 yillarni, ya'ni iyul monarxiyasi davrini qamrab oladi.

O'zini «ijtimoiy fanlar doktori» deb hisoblagan Balzakning ulkan epopeyasi «Inson komediyasi»da ikki mingdan ortiq personaj ishtirok etadi. U o'z ijodini «Inson komediyasi» epopeya asariga to'playdi. Agar fransuz jamiyati tarixchi bo'lsa, Balzak o'zini uning kotibi deb atadi. Bu bilan yozuvchi yirik epopeyasida Fransiya hayotining barcha tomonlarini yoritmoqchi ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi. «Inson komediyasi»ning aksariyat asarlarida ko'tarilgan mavzu – pul, boylik, tilla bo'lib, bu boylik asar qahramonlari hayotida mash'um rol o'ynaydi. Balzak asarlarida pul kishi xarakterini, ruhiyatini o'zgartiruvchi, yemiruvchi, izdan chiqaruvchi salbiy kuch sifatida ko'rsatiladi. U odamlar o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazadi, er-xotin orasidagi sevgi-muhabbatni, otalar bilan bolalar o'rtasidagi hurmat-izzatni belgilovchi qabih mezonga aylanadi. Yozuvchining «Gobsek», «Yevgeniya Grande», «Gorio ota» hamda «Sag'ri teri tilsimi» kabi asarlarida pulning ana shunday buzg'unchilik roli ko'rsatiladi. Aqcha dunyosi

Balzak qahramonlarining ayrimlarini halokatga duchor qilsa, ayrimlarini muvaffaqiyatga olib keladi.

Balzak «Osori atiq muzeyi», «Vasiylik to'g'risidagi ish» kabi asarlarida eski aristokratiyaning insofli vakillari markiz d'Egrinyon, markiz d'Esparlarni ko'rsatadi. Bu qahramonlar Balzakka yaqin bo'lsalar ham, ularning davri tugab borayotganligi ishonarli mantiq kuchi orqali ifodalangan.

Balzak o'zining siyosiy dushmanlari bo'lgan respublikachilarning jasoratidan zavqlanadi, ularga qoyil qoladi. Xalq manfaatlarini himoya qilayotib halok bo'lgan Mishel Kretyen yozuvchining «Yo'qotilgan illyuziyalar» nomli romanining qahramonidir.

«Inson komediyasi»ning muhim asarlaridan biri bo'lgan «Gorio ota» romani (1834) otalar va bolalar o'rtasidagi munosabat masalalariga bag'ishlanadi. Yozuvchining bu asarida uning epopeyasida uchraydigan asosiy obrazlardan bir nechasi qatnashadi.

Gorio ota mayda burjua muhitidan chiqqan. U uzoq yillar makaron fabrikasini boshqargan, katta boylik orttirgan. Uning xotini o'lib, ikki qizi qolgan. Bular Anastazi va Delfina. Ota qizlarini nihoyatda sevadi va ulardan sira ham pulini ayamaydi. Qizlar zodagonlar doirasida o'sadilar, katta qizi graf de Restog'a, kichik qizi baron Nusingenga turmushga chiqadilar. Qizlar erga tekkanlaridan keyin ham otadan pul olib turadilar. Nihoyat, Gorio otaning pullari tugab, kuyovlari uyidan quviladi. Shekspirning «Qirol Lir»idagi Lir kabi qizlariga o'z davlatini bo'lib bergan, oxir- oqibat keksalik chog'ida qizlari uyidan quvilib, ko'chada qolib ketgan Gorio ota Parij chekkasidagi Voke xonimning xarob mehmonxonasida istiqomat qila boshlaydi. Gorio ota hali ham qizlarini qaynoq otalik mehri bilan sevadi. Bu mehmonxonada kambag'al talaba Rastinyak, surgun bandasi Votren ham yashaydilar. Rastinyak Fransiyaning uzoq viloyatidan Parijga o'qish uchun kelgan. Ular kambag'allashib qolgan dvoryanlardir. Tez orada Rastinyak o'qishdan soviydi. Atrofdagi zodagonvachchalar singari kiyinishni, tuzukroq mavqega erishishni mo'ljallaydi. Uyiga xat yozib pul so'raydi. Uyidagilar Rastinyakka pul bilan birga xat ham yo'llab, Parijdan vikontessa de Bosean nomli ayol qarindoshlarini qidirib topishni so'raydilar. Rastinyak vikontessa de Boseanni axtarib topadi. U ayol bu yigitga yordam berishni va'da qiladi. Bu jamiyatda durustroq joy egallab olish uchun juda ham berahm bo'lishni, odamlarni pochta aravasining otlari singari savalashni maslahat beradi. Votren esa Rastinyakning maqsadlarini sezib, unga millioner Tayferning merosxo'r o'g'lini o'ldirishni, so'ngra boy otaning barcha millionlari yolg'iz qizi Viktorinaga qolishini, Rastinyak bu qizga uylanib, millionlarning egasi bo'lib olishini maslahab

beradi. Shu ma'noda ham vikontessa de Bossean, ham Votren Rastinyakka burjuaziya tizimining yovuzlik, bosqinchilik qonunlarini o'rgatuvchilardir. Agar vikontessa de Bossean burjuaziya jamiyatida muvaffaqiyatga erishish yo'llarini silliqroq, pardaliroq qilib o'rgatsa, Votren oshkora ravishda razolatga undaydi. Yozuvchi Votren obrazi orqali burjuaziya tuzumining bosqinchilikka asoslangan qonunlarini oshkora fosh etadi. Rastinyak vikontessa de Bosseanning yordamida aristokratlar doirasiga aralashadi. Ularning hayoti va makr-nayranglarini ko'radi. U Gorio otaning kichik qizi Delfina bilan tanishadi. O'rtadagi yaqinlik muhabbatga aylanadi. Gorio ota kasal bo'lib yotadi. Qizlarini sog'inadi. Lekin shunda ham ular otani ko'rgani kelmaydilar. Vafot etgan Gorioni Rastinyak, uning o'rtog'i Byanshon va yana bir necha kishi dafn qiladilar. Ota bilan vidolashish uchun qizlari ham, kuyovlari ham kelmaydilar.

«Gorio ota» romani qahramonlarining hayoti favqulodda keskin voqealarga boy. Romanda yozuvchi burjuaziya jamiyatida hamma narsa pulga bog'liq ekanini, boylik oilaviy munosabatlarni ich-ichidan buzib yuborayotganini katta mahorat bilan ko'rsatib beradi. Asarda Gorio ota fojiasidan tashqari yana bir necha oilaning xonavayron bo'lishi ko'rsatiladi.

Masalan, millioner Tayfer o'z qizi Viktorinani uyidan haydaydi. Chunki merosni u yolg'iz o'g'liga qoldirmoqchi edi. Gorio otaning katta qizi Anastazining eri graf de Resto o'z xotini Maksim de Tray ismli kishi bilan uzoq yillardan buyon aloqada ekanligini sezib, bolalarining qaysi biri o'ziniki ekanligini aniqlaydi, natijada Maksim de Traydan bo'lgan bolalar hech qanday merosga ega bo'lolmaydilar.

Burjua dunyosida pul asosiga qurilgan nikoh er bilan xotin o'rtasida haqiqiy sevgi bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Er bilan xotin faqat moddiy manfaatdorlikni ko'zlab turmush quradilar. Anastazi bilan graf de Resto, Delfina bilan baron Nusingen, vikontessa de Bossean bilan uning eri o'rtasidagi munosabatlar ana shu asosga qurilgandir.

Rastinyak – romandagi barcha voqealarning jonli guvohi. Ayollar yordamida Rastinyak asta-sekin burjua hayoti pog'onasidan ko'tarila boradi. Albatta, uning yuqoriga qarab o'sishi undagi insoniy fazilatlarning yo'qolib borishi, buzuqlik, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik burjua sharoitiga moslashish evaziga bo'ladi. Rastinyakning Gorio ota qabri ustida turib, «kim kimni» degan xitobi uning burjua Pariji qonunlarini o'ziga singdirib olayotganidan, bu qonunlarni o'sha jamiyatning o'ziga nisbatan ishga solib, uning hayot pog'onalaridan ko'tarilib borayotganligidan darak berar edi.

Balzakning «Arsdan chiqqan deputat» nomli asarida Rastinyak burjua jamiyatining ministri darajasiga ko'tariladi. Bunday kishilar burjua hayoti uchun yangilik emas edi. Balzakning «Inson komediyasi»da bunaqa «omadlilar» ko'p uchraydi. Rastinyakka o'xshagan shaxslar burjuaziyaning yirtqich qonunlarini juda puxta o'zlashtiradilar. Garchi u Votren nasihatlarini quloqqa olmasa-da, o'z xohishlariga qarshi, yigitlik or-nomusini yerga urib, Delfina hisobiga yashaydi, boylik orttiradi. Bu ayolni chin yurakdan sevmasa ham, vijdoniga xilof ravishda, g'arazgo'ylik, maqsadiga erishish borasida har qanday ishga rozi bo'ladi. Rastinyak singari shaxslar xarakterining qaror topishida, yuqorida aytilganidek, Votren kabi kishilar asosiy rol o'ynaydilar. Votren o'zining o'tkir aql-idroki, zehni va qobiliyatini jamiyatning jinoyatlarini ko'paytirish uchun sarflaydi. Votren Rastinyakdagi shuhratga intilish kayfiyatlarini sezgach, unga qarab: – Agar siz mening shog'irdim bo'lishni xohlaganingizda, – deydi, – hamma narsaga erishgan bo'lardingiz. Nimani xohlamang: hurmat, pul, ayollar – barchasi amalga oshar edi. Votren Rastinyakka qarab: sofdil odam hammaning dushmani, deydi. Shuning uchun o'z e'tiqodingizdan, o'z imoningizdan yuz o'giring. Agar ularga xaridor topilsa, sotib yuboring. Boyishni xohlovchilar juda ham ko'p, ammo «moylik joy» jamiyatda hammaga ham yetavermaydi. Kimki yuqori doiradan o'ziga joy topishni xohlasa, bankadagi o'rgimchaklar singari bir-birini qurbon qilishi kerak.

Votren qanday qilib bo'lmasin, boyish yo'llarini axtaradi. Chunki boylik hamma narsani oqlaydi. «Men boyiganimda, mendan sen kimsan deb so'ramaydilar», – deydi u. Votrenning fikricha, kimki puldor bo'lsa, endi u jinoyatkor emas.

Tashqaridan yaltirab ko'ringan, ko'zni qamashtiradigan zodagonlar jamiyati ana shunday jinoiy ishlarning makoni ekanligi Rastinyakni dovdiratib qo'yadi. Endi u burjua va aristokratlar dunyosining o'taketgan munofiq basharasini, g'arazgo'y manfaatlarning to'qnashuvini ko'z oldiga keltiradi: bu dunyoda axloq ham, qonun ham boylik oldida ojiz. Dunyoning asosi – pul. Rastinyak ana shu haqiqatlarni tushunib yetgach, bu zamonda muvaffaqiyat qozonish kaliti Votren singari jinoyat egalari qo'lida ekanligiga ishonch hosil qiladi. Ana shu haqiqatni anglab yetgani va unga amal qilgani uchun ham Rastinyak yuqori mansabga erishadi. U Fransiyaning meri, ministri darajasiga ko'tariladi. Lekin bunday shon-shuhratlarga erishish undagi barcha insoniy xususiyatlarni poymol qilish evaziga bo'ladi.

Balzakning buyuk xizmati shundaki, u «Inson komediyasi» epopeyasiga kirgan ajoyib ijtimoiy romanlarni yaratdi. Bu asarlarida fransuz hayotining barcha tomonlarini qamrab oldi. Adib yaratgan epopeya qahramonlarining hayoti muallif

hayotining mazmuniga aylanib ketdi. Bu ulkan polotno sahifalarida shoirlar va rassomlar, savdogarlar va amaldorlar, millionerlar va surgunga mahkum etilgan mahbuslar, yuqori doira vakillari bo'lgan ayollar va aktrisalar, ministrlar va soldatlar, olimlar va do'kondorlar, dehqonlar va pomeschiklar, sanoatchilar va hunarmandlar – qisqasi, aslo tinim bilmaydigan odamlar ummoni harakat qiladi. Bu ummon qa'rida son-sanoqsiz tasodiflar, ofatu falokatlar va muvaffaqiyatlar girdobida Balzak ana shu ummonni harakatga keltiruvchi kuchlar qonunini axtaradi.

Bu dunyoning egalari – mol-dunyo to'plash vasvasasiga uchragan jinoyatkor shaxslar. Bu yerda ming xil jinoiy nayranglar bilan o'z millionlarini jamg'argan Tayfer, «birja dunyosining Napoleoni» bo'lmish Nusingen, o'z pullarining gadosiga aylanib qolgan Gobsek va Grandelarni uchratamiz. Shon-shuhrat yo'lida hech narsadan qaytmaydigan Sharl, Rastinyak, «jinoiyat olamining Napoleoni» Votren, yana qancha-qancha personajlar galereyasi san'atkor qalami naqadar sehrli ekanligini ko'rsatadi.

Balzak ijodida tipiklik muammosi alohida o'rinda turadi. Uning fikricha, san'atkorning vazifasi tabiatdan nusxa ko'chirish emas, balki uni ifoda qilib berishdir. San'atkor tip yaratar ekan, uning muayyan sifatlarini kuchaytirishi, bo'rttirib ko'rsatishi mumkin. Balzak o'zi yaratayotgan qahramonlarning tashqi, ijtimoiy muhit ta'siri ostida o'zgarib, o'sib borishiga alohida e'tibor beradi. Shuning uchun uning ijobiy qahramonlari David Seshar, markiz d'Espar, polkovnik Shaber va boshqalar burjua muhiti tufayli, hamma vaqt mag'lubiyatga uchraydilar.

Qahramon xarakteri tashqi muhit, uni o'rab olgan ijtimoiy sharoit ta'sirida qaror topgani uchun Balzak ana shu tashqi dunyoga, uning tafsilotiga katta ahamiyat beradi. Shuning uchun adibning har bir asarida qahramon va voqealar holatini belgilab beruvchi atrof-muhit, narsalarga keng o'rin beriladi. Natijada uning har bir asari mukammal, jozibali bo'lib, kitobxon qalbini o'ziga rom qiladi.

Adabiyotning tolmas zahmatkashi Balzak umr bo'yi tinmay mehnat qildi, asar yozdi. Ammo bir umr qarzdor bo'lib yashadi. Uning buyuk asarlarini nashr etgan nashriyotchilar boyidilar.

Balzak shaxsiy hayotda ham baxtiyor bo'lmadi. U rus fuqarosi bo'lgan grafinya Evelina Ganskaya bilan bo'ladigan nikohni deyarli umrining oxirigacha kutdi. Graf Ganskiy vafotidan so'ng Balzak Ukrainaga kelib, Berdichev shaharchasida 1850 yilning mart oyida Ganskaya bilan nikohdan o'tadi. Bu vaqtda Balzakning sog'lig'i juda yomonlashib qolgan edi. Ular Parijga ko'chib kelganlaridan keyin ko'p o'tmay, 1850 yil avgustida Balzak olamdan ko'z yumadi.

Buyuk yozuvchi asarlarining birinchi tarjimoni F.M.Dostoyevskiy bo'ldi.

Balzakning «Gobsek» hikoyasi va «Sag'ri teri tilsimi», «Yevgeniya Grande», «Gorio ota» romanlari o'zbek tiliga tarjima qilindi va o'quvchilarning sevimli kitoblari bo'lib qoldi.

Uning xasislik, pul jamg'arish kasaliga muptalo bo'lgan kishilar haqidagi asarlardan biri «Yevgeniya Grande» 1833 yilda yozilgan romanidir. Grande ham Gopsek kabi burjua tuzumining tipik vakilidir. Bu har ikkala shaxs burjuaziyaning yirtqich, talovchi, qizg'anchiq, pul uchun mukkasidan ketgan vakillarining umumlashtirilgan obrazlaridir. Agar Gobsek va Grande obrazlari kitobxon ko'z oldida boshdan-oyoq tipik burjua vakili bo'lib gavdalansa, Sharl oddiy, sodda yigitchadan asta-sekin burjuaziyaning yirtqich, muttaham, yulg'ich vakiliga aylana boradi.

Balzakning falsafiy «Sag'ri teri tilsimi» 1831 yilda yozgan romani burjua dunyosining vahshiy qonunlari haqida fantastik tarzda hikoya qiladi. Bu roman ham yosh yigit taqdiriga bag'ishlangan. Asar qahramoni Rafael de Valanten iste'dodli shoir va olim. U kecha-kunduz o'z ilmiy ishi ustida bosh qotiradi. Rafael o'z qobiliyati bilan butun Parijni zabt etmoqchi, shuhrat qozonmoqchi. Ammo uning ishlari yurishmaydi. Sevgan ayoli uni rad etadi. Rafael o'zini Sena daryosiga tashlab o'ldirmoqchi bo'ladi. Ammo bu ishni biroz paysalga solib, eski nodir- noyob buyumlar saqlovchi chol antikvarning do'koniga kirib tomosha qiladi. Bu chol Rafaelga sirli sag'ri terisini beradi. Bu terining siri shundaki, uni olgan kishining barcha istaklari amalga oshadi. Shu bilan birga, terining hajmi ham qisqarib boradi. U qisqarib tugashi bilan teri egasining umri ham tugaydi. Rafael qo'liga olgan Sharq afsonalarida uchraydigan bu mo'jizakor teriga quyidagi so'zlar tilsim kabi o'yib yozilgan edi.

«Mening egam hamma narsaga ega bo'ladi, ammo uning joniga men ega bo'laman. Tangri irodasi shu. Istaganingni tila, ijobat bo'lg'ay lekin tilagingni hayotingga mosla. Joning – menda. Har bir tilagingdan umring kunlari kamaygani singari men ham kamayaman. Menga ega bo'lishni istaysanmi? Ol. Senga tangri yor bo'lg'ay. Omin!»

Qahramon vaqtincha bo'lsada, umrini cho'zish maqsadida bu shartga rozi bo'ladi. Rafael' terini qo'liga olishi bilan ishlari yurishib ketadi. Do'stlari ko'payadi. Jurnallar uning asarlarini bosishga kirishadi. Avval yigitning sevgisini rad qilgan zodagan ayol Feodora endi Rafael yoniga kelib, unga sevgi izhor qiladi. Ammo Rafael uning sevgisini rad qiladi. Tez orada yigit boyib ketadi. Uning barcha orzulari amalga oshmoqda. Shu bilan birga, terining hajmi ham tobora qisqarib bormoqda. Bir vaqtlar o'zini-o'zi o'ldirmoqchi bo'lgan Rafael endi, ajal

ko'ziga ko'rinib turganda, bu fikridan qaytadi. Barcha xohish-istaklarini to'xtatishga, odamlardan yiroqlashishga urinadi. qahramon terining hajmini kengaytirish, hech bo'lmasa, uning qisqarishini to'xtatish maqsadida zamonasining mashhur olimlari bo'lgan fiziklarga, kimyogarlarga murojaat qiladi. Ammo hech kim sirli terining qisqarish jarayonini to'xtata olmaydi. Nihoyat, sag'ri terisi qisqarib tamom bo'ladi – Rafael o'ladi. Sag'ri terisi insonni halokatga mahkum etgan tuzumning ramziy obrazidir. Shunday qilib, burjuaziya jamiyati o'z qatoridan chiqarib tashlagan kishi muqarrar o'limga duchor bo'ladi. Bordi-yu u kishi o'z umrini biror muddatga cho'zar ekan, bu tasodifiy bir narsa. Ammo halokatga yuz tutgan kishini suyab qoladigan hech qanday kuch yo'q. Zotan, Rafael sag'ri terisiga ega bo'ladi-yu ammo baxtli bo'lmaydi. Aksincha, u o'zidagi insoniy fazilatlaridan, odamgarchilik xususiyatlaridan mahrum bo'ldi. O'z hayotini doimiy xavf xatar tahlikasi ostiga qo'ydi.

Fransiya tanqidiy realizm adabiyotining yirik vakillaridan biri Beranje 1780 yilda Parijda mayda savdogar oilasida tug'ildi. Beranjening birinchi yirik siyosiy hajviy qo'shig'i «Qirol Iveto» nashr qilinadi. Bu qo'shiqni butun Parij kuylaydi. Muallif nomi hammaga shoyon bo'ladi. Beranje Ivetoni tinchlikparvar, o'z xalqi va davlatining baxt-saodatini yuqori qo'yadigan saxiy qirol sifatida tasvirlaydi. Beranje satirasining tig'i burjua zulm-dahshatlariga qaratilgandir. U restavratsiya yillarida siyosiy jihatdan nihoyatda o'tkir bo'lgan qo'shiqlarini yaratadi. Bunga shoirning «Zotli itlar arzi» nomli o'ta satirik she'rini misol keltirish mumkin.

Frederik Stendal Fransiyaning Grenobl shahrida advokat oilasida tug'ildi. Stendel zamonasining keng iqtidorli kishisi edi. Uning ijodi xilma-xil janrlarni, san'atning turli sohalarini qamrab oladi. Uning beshta romani «Italiya yilnomalari» nomli novellalar to'plami, «Anri Bryular hayoti», «Avtobiografik maktublar». «Egotistning esdaliklari» kabi asarlari, kundalik va xotiralari saqlanib qolgan. Stendalning fransuz imperatori to'g'risia yozgan «Napoleon hayoti», «Napoleon haqida xotiralar», shuningdek, «Rim», «Neapol», «Florensiya» nomli yo'l lavhalari «Rim bo'ylab sayohat», «Turist xotiralari» nomli esdaliklari bor. Muallifning bu asarlarida falsafiy. Siyosiy hamda estetik mulohazalari bayon etilgan.

Stendal musiqa, teatr va boshqa san'at turlarini juda yaxshi his qila olgan. «Italiyada tasviriy san'at tarixi», «Gaydi Motsrat va Metastazio hayoti» nomli asarlari buni ko'rsatib turibdi.

Stendalning «Qizil va Qora» 1830 yilda yozilgan romanidagi qizil sifati «erkinlik», «respublika» ma'nolarini anglatsa, qora esa reaksiyon kuchlarni bildiradi. Adib Dantonning «Haqiqat. achchiq haqiqat!» degan so'zlarini romanga

epigraf qilib oladiki, bu bilan u asar voqealarining faqat chin haqiqatni hikoya qilishni ta'kidlaydi. Roman syujeti 1827 yili gazetada bosilgan sud voqealaridan olingan. Antuan Berte nomli yigit o'zi o'qituvchilik qilgan xonadon bekasi Mishu xonimga suiqasd qilgan va buning uchun u o'lim jazosiga hukm qilingan. Stendal ana shu sud xronikasini olib, uni badiiy jihatdan qayta ishlab yirik salmoqdor asar yaratadi. «Qizil va Qora» romanining qahramoni kambag'al durodgorning o'g'li Jyulyen Sorel. U maktabda yaxshigina bilim olgan, qobiliyatli, shuhratparas yigit. Jyulyen Sorelning harakat doirasi Veryer, Bezanson, Parij shaharlari bilan bog'langan. Roman qahramoni Jyulyen Sorel oddiy kambag'al oiladan chiqqan yigit. U chaqqon, aqilli ishbilarmonligi bilan yuqori tabaqa kishilaridan ustun turadi. Shuning uchun ham Renal xonim va Matildalarning muhabbatini qozonadi. O'zidan bir necha pog'ona ustin turgan bu xonimlarning sevgisiga sazavor bo'lish Jyulyen Sorelda o'z qobiliyatiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Chunki har ikkala ayolning diqqatini o'ziga torta olgan yosh qahramon bu holni yuqori sinf vakillari ustidan qozongan g'alabasi deb qaraydi. Shuning uchun Jyulyen Sorel atrofidagi hukmron sinf vakillaridan, o'sha tuzumdan uni tan olishlarini, o'z qobiliyatiga yarasha joy berishlarini talab qiladi. Bu esa erksevar Sorelning o'sha zamon qora kuchlariga qarshi kurash ochganini bildirar edi.

Stendal Italiya hayotiga qiziqib qaraydi, «Parma ibodatxonasi» nomli romanining (1830 y.) mavzusi ham Italiyaga bag'ishlangan. Stendal bu asariga shimoliy Italiyaning Parma knyazligida ro'y bergan voqealarni asos qilib olsa-da, unda restavratsiya davridagi Yevropa hayotini umumlashtirib ko'rsatadi. Romanda Karbonarlar harakati davrining aks-sadosi, 1795 yilgi Napoleon yurishlari davrida Avstriya zulmidan ozod qilingan, so'ngra Napoleon fransuz taxtidan ketgach, 1814 yilda qaytadan Avstriya hukmronligi ostiga o'tgan shimoliy Italiyada yuz berayotgan siyosiy voqealar ifoda qilinadi.

Yozuvchining «Qizil va Qora» romanidagi Jyulyen Soren kabi «Parma ibodatxonasi» romanining qahramonlari ham kitobxon qalbini o'ziga rom qilish qudratiga ega. Yevropada reaksiya hukm surayotgan «muqaddas ittifoq» taxdid solayotgan bir sharoitda jasoratli, kuchli, irodali ajoyib qahramonlar galleriyasini yaratish Stendal ijodining demokratizmini ko'rsatadi. Yozuvchi asarlari hayotiy realizm bilan sug'orilgan. Uning har bir qahramoni ma'lum davr g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Yozuvchi hamma vaqt hayot haqiqatlariga sodiq bo'lib qoladi. O'z asarlarida dvoryanlar o'rniga kelayotgan burjuaziya sinfining jirkanch tomonlariga o't ochgan yozuvchi hukmron sinfga qarama-qarshi qilib quyi tabaqa orasidan chiqqan ajoyiy xalq vakillarini qo'yadi. Bularga Petro Misserill, Jyulyen Sorel, Ferrante Pallarni ko'rsatish mumkin.

Fransuz adabiyotida tanqidiy realizmning koʻzga koʻringan namoyandaligidan biri Prosper Merimedir. Merime Parijda rassom oilasida (1803-1870 yillarda) tugʻiladi. XIX asrning birinchi choragida fransuz adabiyotida tarixiy mavzuda drama va romanlar paydo boʻla boshlaydi. Merimening «Jakeriya» 1828 yildagi dramasi ham ana shu mavzuda yaratilgan boʻlib, bu asarida yozuvchi vatani tarixiga murojaat qiladi va XIV asrdagi dehqonlar qoʻzgʻolonini aks ettiradi. «Karl IX saltanati solnomasi» tarixiy romanini 1829 yili diniy urushlar zamonasidan olib yozgan. Bu roman mavzui XVI asrda 1572 yildagi katoliklar bilan Gugenotlar oʻrtasidagi diniy xunrezlik voqealariga bagʻishlangan. Qayta tiklash davri hayoti yozuvchiga fransiyaning uzoq oʻtmish voqealari bilan bogʻliq holda zamonasida avj olayotgan diniy reaksiyani fosh qilishga imkon berdi.

Merime jahon adabiyotida novella janrining taniqli ustasi sifatida nom chiqargan. Yozuvchining bu sohadagi asarlari orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega: «Tamango» (1829 y.), «Mateo Falkone» (1829 y.), «Etruss guldoni» (1830 y.), «Ikkiyoqlama xato» (1833 y.). Merime novellalari drammatizmga boy, sodda, aniq, ravon tilda yozilgan. «Tamango» novellasida oq tanli qulfurushlarning kirdikorlarini fosh qiladi.

Gyustav Flober (1821-1880 y.) Ruan shahrida vrach oilasida tugʻildi. Uning adabiy merosi u qadar katta emas. «Bovari xonim» (1856 y.), «Salambo» (1862 y.), «Sezgilar tarbiyasi» (1869 y.), «Avliyo Antoniyning aldanishi» (1874 y.), tugallammagan «Buvar va Pekyushe» (1880 y.) kabi yirik asarlari, uchta povesti, hamda bir necha dramatik asarlari bor. Flober toʻngʻich asari Bavari xonimda hayot haqiqatlarini romantik xayolparaslikka qarama-qarshi qilib qoʻyadi. Yozuvchi bu romanda ikki xil vazifani oldinga suradi. Biri reaksiyon-romantik asrlarning hayotga yaroqsiz, gʻoyasiz ekanini fosh qilsa, ikkinchisi hamma narsa pul bilan oʻlchanadigan burjuaziya sharoitida qahramon Emmaning chinakam sevgi, doʻstlik, goʻzallikka intilishlarining zaminsizligini koʻrsatadi.

Yevropa qitʻasida, jumladan, Angliyada siyosiy va inqilobiy kurashlar nihoyatda qizib ketgan bir paytda ingliz adabiyotining yirik vakillari Ch.Dikens, U.Tekkerer, Sh.Bronte, E.Gaskellar oʻz asarlarida chartistlar harakati taʼsirining ishchilar sinfi orasida kengayib borayotganini aks ettirdilar.

Charlz Dikens (1812-1870 y.) ingliz realist yozuvchilari avlodining ulkan namoyandasidir. U Angliya janubida dengiz xizmatchisi oilasida tugʻilgan. Dikens ingliz adabiyotida birinchi boʻlib, burjua sharoitida azob- uqibatlariga duchor qilingan oddiy xalq hayotini realistik kuch bilan tasvirlab koʻrsatdi. Boylar bilan qambagʻallar orasidagi keskin qarama-qarshiliklarni ifodalagan yozuvchi

hamma vaqt quyi tabaqa vakillarining manfaatlarini himoya qiladi. Dikpens ijodini to'rt davrga bo'lish mumkin:

Birinchi davri 1833-1841 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Dikpens asosan, yumoristik asarlari bilan nom chiqaradi. «Boz ocherklari», «Pikvik klubining maktublari», «Oliver Tvist», «Nikolas Niklbi» nomli asarlari yozuvchining shuhratini shoyon qilib yubordi.

Ikkinchi davri 1842-1848 yillarni o'z ichiga oladi. «Amerika xatlari», «Martin Chezlvit», «Dombi va o'g'li» singari asarlarini yaratadi. Bu pallada Yevropada sinfiy kurash kuchaygan davr edi. Dikpens asarlarining siyosiy o'tkirligi ana shu omillar bilan belgilanadi.

Uchinchi davri 1849-1859 yillar. Dikpens, asosan, hajviyanavis yozuvchi sifatida taniladi. Bu yillarda «David Kopperfild», «Sovuq uy», «Mudhish zamonlar», «Mitti Dorrit» kabi o'tkir ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan asarlarini yaratadi.

To'rtinchi davri 1859-1870 yillar. Dikpens qarashlarida umidsizlik kayfiyatlari ustunlik qiladi. Chunki bu davrda yozuvchi burjuaziya tuzumining mavjud qarama-qarshiliklarini bartaraf qila olishiga ko'zi yetmay qoladi. Bu yillarga kelib adib «Ikki shahar haqida qissa», «Katta umidlar», «Bizning umumiy do'stimiz» kabi asarlarini yaratadi.

Dikpensning birinchi asari «Boz ocherklari»ni ayniqsa «Pikvik klubining maktublari»ni o'quvchilar qizg'in kutib oldilar. Dikpensning adabiyotga qo'ygan qadami ana shu asarlarining muaffaqiyati bilan boshlanib, bu muaffaqiyat umrining oxirigacha yozuvchiga yo'ldosh bo'lib qoldi. Dikpensning birinchi yumoristik asari bo'lgan «Pikvik klubining maktublari» (1837 y.) uning shuhratini butunlay mustahkamladi. Bu asar tez orada dunyoning barcha mamlakatlariga tarqaldi. Dikpens nomi ommalashib ketishiga sabab bo'ldi. Asar qahramoni Pikvik janoblari fan yo'lida ilmiy izlanishlar qilib, uning natijalarini o'zi rahbarlik qilayotgan klub a'zolariga tanishtirish niyatida bo'ladi. Asarning komizmi yana shu bilan kuchaytiriladiki, o'taketgan sodda, har narsaga ishonuvchan, hayotni mutlaqo tushinmaydigan Pikvik London ko'chalarida chamadoni bilan, paltosining cho'ntagiga solib olgan durbini bilan hammaning diqqatini o'ziga tortadi. Uning do'stlari ham o'ziga o'xshash g'alati odamlar. Hissiyotga beriluvchan janob Tapmen, shoirtabiat Snodgress, qo'rqqoq, ammo o'zini mohir ovchi deb maqtanuvchi Uinkl janoblari birgalikda Pikvik obrazini to'ldiradilar. Bu sodda, oddiy kishilar obrazlari burjua vakillariga qarama-qarshi chizilgan. Charlz Dikpensning 1848 yilda yozilgan «Dombi va o'g'li» romani yozuvchi ijodida alohida o'rin egallaydi. Ingliz tanqidiy realizmning ajoyib namunasi bo'lgan bu

asar markazida yirik kapitalist, savdogar Dombi obrazi turadi. Dombi o'z korxonasining boyishi, gullab-yashnashidan bo'lak hech narsani tan olmaydi. U ayollarni odam deb hisoblamaydi. Uning fikricha ayollar korxonaning boyishi uchun xizmat qila olmaydilar. Uning o'g'li tug'ilganda farzand ko'rgani uchun emas, balki korxonada ishlarini davom ettiruvchi o'rinbosar, merosxo'r tug'ilgani uchun quvonadi. O'g'li Polni savdo maktabiga olti yoshida berib uning erta vafot etib ketishiga sababchi bo'ladi.

Uilyam Tekkerey 1811-1863 yillarda yashab ijod etgan. Angliyada tanqidiy realizm adabiyotining yana bir zabardas vakili Dikkensning zamondoshi buyuk satirik yozuvchi Tekkereydir. U. Tekkerey Hindistonning Kalkutta shahrida ingliz xizmatchisi oilasida tug'ilgan. Uning birqancha hikoyalari, hajviy qissalari, o'z davri hajviyotidan hamda tarixiy mavzulardan bir necha romanlar yozgan. «Snoblar kitobi» (1847 y.), «Shuhratparastlik g'ulg'ulasi» (1848 y.), «Nyukomlar» (1855 y.), «Genri Esmond tarixi» (1852 y.), «Virginiyalilar» (1859 y.) va boshqalar. Tekkereyning nomi ayniqsa «Snoblar kitobi, «Shuhratparastlik g'ulg'ulasi» nomli asarlari bilan butun olamga tanilgan. Tekkerey Snoblar kitobi asarida ilk bora snob so'zini istemolga kiritdi. Snobizm tushunchasi ostida yozuvchi Angliya davlat tuzumining yuqori qatlamlarida hukm surayotgan illatlarni ko'zda tutadi.

U. Tekkereyga olamshumul shuhrat keltirgan asari «Shuhratparastlik g'ulg'ulasi» nomli romani bo'lib, unda yozuvchi buyuk hajviyanavis darajasiga ko'tariladi va Angliya realistlari qatoridan abadiy joy oladi. Bu asar ijtimoiy-siyosiy romandir. Romanda XIX asrning boshlaridagi Angliya voqealari tasvirlangan. Romanning asosiy qahramoni Bekki Sharp va Emiliya Sedli ismli qizlar. Ikkala qiz ham qizlar pansionida o'qiydi. Emiliya Sedli kelajagi uchun uning boy ota-onasi qayg'ursa, Bekki Sharpning kelajagi uchun hech kim qayg'urmaydi. Uning o'zi hayotda o'z o'rnini topishi kerak. Pansionni tugatgach Emiliya Ofitser Jorj Osborna turmushga chiqadi. Lekin uning eri xiyonatkor qallob bo'lib chiqadi. Ikkinchi qahramon Bekki Sharp esa ofitser Rodon Krouliga uning boyligi uchun turmushga chiqadi. Bekki yuqori tabaqa vakillari orasidan joy egallash uchun harqanday razillikka tayyor hatto munofiqlik, eriga xiyonat qilishgacha borib yetadi. Bekki Sharp, Emiliyalar yashab turgan jamiyat shuhratparastlik vasvasa qurgan jamiyatdir. Bu jamiyat a'zolariga ayyorlik, munofiqlik, axloqsizlik kabi illatlar singib ketgan. Tekkerey ana shu holni juda ishonarli tasvirlaydi.

XIX asrga kelib Yevropada siyosiy kurashlar, chiqishlar avj oldi. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk nemis shoiri va mutafakkiri Genrix Geyne asarlarida na

shu ozodlik g'oyalarining ifodasi yaqqol ko'rinadi. Genrix Geyne 1797-1856 yillarda yashab ijod etgan shoirdir. Reyn daryosi qirg'og'idagi Dyusseldorf shahrida savdogar yahudiy oilasida tug'ilgan. G. Geyne ijodining yuqori cho'qqisi bo'lmish «Germaniya. Qish ertagi» 1844 yilda yozgan dostonida shoir vatanning ozodligi, kelajagi haqida qayg'uradi. Shoir dostonidagi qish so'zi orqali Germaniyaning qoloqligiga, u yerda hukm surayotgan jaholatga ishora qiladi.

AQSH adabiyotida tanqidiy realizm XIX asrning birinchi yarmida boshlangan qulchilik tartiblarini bekor qilishga qaratilgan abolitsionistlar harakatida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu harakatning tarafdorlaridan biri Garriet Bicher-Stou edi.

Garriet Bicher-Stou 1811-1896 yillarda yashab ijod etgan ajoyib adibadir. U Konnektikut shtatining Lichfild shahrida ruhoniylar oilasida tug'iladi. Bo'lajak yozuvchi puritan mazhabining qattiqqo'l talablariga rioya qilish ruhida tarbiyalanadi. Uning otasi, akalari, eri xullas barcha oila a'zolari dindor kishilar edi. Bu oilada «Injil» kitobi muqaddas hisoblanar, har yakshanba ibodadxonaga borish, nargi dunyo mavjudligini esdan chiqarmaslik zaruriy bir hol edi. G. Bicher-Stou o'n uch yoshidan boshlab o'zini o'qituvchilik kasbiga bag'ishladi. Shu bilan bir vaqtda har turli jurnallarda ocherklar va hikoyalar bilan ko'rina boshladi. Adibaning dastlaki asarlarida fermerlar hayoti, diniy o'gitlar, puritan mazhabining turli aqidalari, ichkilikning zarari kabi xilma-xil mavzular tilga olinadi. U o'zining bu asarlarini muhtojlik iskanjasida yashayotgan oilasining tirikchiligini yengillashtirish maqsadida yozar edi.

Janubning quldor yer egalari o'zlarining serhosil dalalarida paxta, kanop, makkajo'xori yetishtirar, shu sababdan qullik tartiblarini saqlab qolish uchun zo'r berib harakat qilardilar.

Adolatsiz qonun Bicher-Stouning ham mu'tadil qarashlariga zarba berdi, uni qul negir masalasiga faolroq aralashishi uchun turtki bo'ldi. U «Milliy davr» haftalik jurnalining taklifi bilan negirlar hayotidan hikoya yozishga kirishdi. Bu «Tom tog'aning kulbasi» asari edi. U 1852 yilda alohida kitob shaklida bosilib chiqdi. Bu kitob o'z muallifi nomini butun dunyo kitobxonlariga tanishtirdi va adibaga misli ko'rilmagan shon-shuhrat keltirdi. Bunday baxt adabiyot tarxida kamdan-kam yozuvchiga nasib bo'lgan.

Roman qahramoni Tom tog'a o'z oilasi bilan quldor Shelbi xonodanida qaram. Tom o'z xo'jayiniga xalol xizmat qiladi. U g'oyatda taqvador va dindor hamda itoatgo'y inson. Yozuvchi «Tom tog'aning kulbasi» romanida qulchilikning jirkanch qiyofasini ayovsiz fosh qilib tashlaydi. Asarning butun-butun boblari

negirlarning chidab bo'lmaz darajadagi fojiali hayotini, shafqatsiz oila dramasi ko'rsatishga bag'ishlangan.

Xullas, XIX asr tanqidiy realizm adabiyoti shu davrning buyuk ijodkorlari Stendal, Balzak, Dikpens, Flober, Geney, Bicher-Stou, J.Beranje, P.Merime, U.Tekkerey kabi san'atkorlar ijodida o'z ifodasini topgan. Bu yozuvchilar burjua sharoitida harakat qilayotgan, o'sha sharoit, o'sha muhitda qaror topgan hamda o'sha muhit va sharoit uchun xarakterli bo'lgan tipik xarakterlarni, tipik obrazlarni yaratishga muvaffaq bo'lganlar.

Stendalning Jyulyen Sorel, Balzakning Votren, Rastinyak, Dikpensning Nikolas Nikkibi, Tekkereyning Rebekka, Sharp kabi qahramonlari tipik sharoitning tipik obrazlari hisoblanadi.

Tanqidiy realizm qaror topishida Stendal qarashlari ham muhim rol o'ynaydi. U o'zining «Rasin va Shekspir» 1825 yilgi risolasida san'at va san'atkorning roli haqida gapirar ekan, XVIII asr ma'rifatparvarlariga ergashadi. Klassitsizm san'atining qotib qolgan dogmalariga qarshi, san'at ijtimoiy hodisa ekanini, u davrlar o'tishi bilan o'zgarib turishini ko'rsatadi. Stendalning fikricha, san'at ijtimoiy maqsadlarga xizmat qilishi, o'z davrining o'tkir quroli bo'lishi kerak. San'atkor o'z san'atiga ommani ergashtirishi lozim.

Tanqidiy realizm romantizmdan farqli o'laroq, tasvirlayotgan voqea va hodisalarning asl mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. U har bir voqea va hodisaga tarixiy jihatdan aniq yondashadi. Shuning uchun tanqidiy realizm adabiyotida tarixiylik muhim rol o'ynaydi. Tanqidiy realizm adabiyoti vakillari zulumga asoslangan tuzumni, uning vakillarini ayovsiz fosh qilib tashlaydi. Agar yozuvchi tasvirlayotgan voqea-hodisalarga tanqidiy yondoshmasa, tanqidiy realizm adabiyotining vakili bo'la olmaydi. Chunki burjua tuzumi haqida haqiqatni gapirish o'sha tuzum illatlarini ko'rsatishni taqoza qiladi. Ajoyib ingliz romanistlar pleyadasini tashkil qiluvchi Dikpens bilan Tekkerey miss Bronte va mistris Gaskell hamda Balzaklar o'z asarlarida kapitalizm dunyosiga nisbatan ana shunday murosasiz munosabatda bo'lganlar. Bu yozuvchilar o'z qahramonlarining ichki dunyosini butun murakkabligi va ruhiyati bilan yoritib bera olganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tanqidiy realizm adabiyotining o'ziga xos taraqqiyot xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tanqidiy realizm adabiyoti romantizm adabiyotidan nimasi bilan farqlanadi?
3. Chet el adabiyotida tanqidiy realizm adabiyotining yirik maktablari qaysi mamlakatlarda shakllandi va ularning yirik vakillari kimlar?

4. Onore de Balzak fransuz tanqidiy realizmadabiyotiga qanday ulush qo‘shdi?
5. Onore de Balzak asarlarining etakchi motivlarini nimalar tashkil qiladi?
6. Onore de Balzak qalamiga mansub «Gorio ota» romanining asosiy g‘oyasini nimalar tashkil qiladi?
7. «Gorio ota» romani qahramonlariga xos xususiyatlarni aytib bering.
8. Tubandagi tayanch tushunchalarni izohlang: tanqidiy realizm adabiyoti, komediya, ijtimoiy roman, etyud, epopeya, ijodda tipiklik muammosi, qahramon xarakteri.

Adabiyotlar

1. Азизов Қ., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. (XVIII-XX асрлар). – Т.: «Ўқитувчи», 1987, 144-153-бетлар.
2. Бальзак О. Евгения Гранде. Роман. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1964.- 212 бет.
3. Бальзак О. Горио ота. Роман. Русчадан С.Муҳаммаджонов таржимаси. - Т.: Фафур Ғулом номидаги Бадий адабиёт нашриёти, 1968. - 296 бет.
4. Бальзак О. Сағри тери тилсими. Русчадан М.Мирзоидов ва М.Маҳмудов таржимаси. -Т.: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. - 296 бет.
5. Бойназаров Ф. Жаҳон адабиёти. Жаҳон адабиёти намояндалари портретларига чизгилар. Т.: «Зар қалам», 2006, 83-84-бетлар.
6. Моруа А. Прометей, или Жизнь Бальзака. – М.: «Радуга», 1983. – 672 с.
7. Грифков Б.А. Как работал Бальзак. – В кн.: Грифков Б.А. Психология писателя. – М.: Художественная литература, 1988. – 462 с. (Стр. 278 – 450).

KAVKAZ, SLAVYAN VA BOLTIQBO’YI XALQLARI ADABIYOTI

Reja:

1. *Mazkur adabiyotning o‘ziga xos jihatlari, jahon adabiyoti tarixida tutgan o‘rni.*
2. *Shota Rustaveli ijodi.*
3. *Nodar Dumbadze hayoti va ijodi.*
4. *Rus adabiyoti: A.Pushkin, L.Tolstoy, M.Bulgakov ijodi.*

Bu guruhga Kavkaz va Kavkazorti yashovchi o‘n beshga yaqin xalqlarning adabiyoti kiradi. Ulardan ozarbayjon, arman va gruzin adabiyotlari ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lsa, abxaz, lezgin, kabardin, osetin, qumiq, lak, darg’in kabi

xalqlarning yozma adabiyoti nisbatan birmuncha keyin shakllangan. Shunga qaramay, bu adabiyotlar o'rtasida ularning bir-biriga bog'lovchi qadimiy an'analar mavjud. Ozarbayjon hamda qumiq adabiyotlari bilan o'zbek adabiyoti o'rtasida ancha mushtarak, o'xshash xususiyatlar bor. Chunki ular bir tizimdagi qardosh milliy tillarda so'zlashib, Sharq mumtoz adabiyotining qadimiy, boy xazinasidan bahra olganlar. Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa"sigga kirgan dostonlar, Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" eposi, Mxitar Gay, Vardan Gayketsi masallari g'oyaviy-badiiy jihatidan yetuk asarlar sifatida o'sha zamondayoq alohida e'tirof etilgan edi.

Turli davrlarda Kavkaz va Kavkazorti xalqlari adabiyotida Voqif, Vidodiy, Sayat Nova, David Guramishvili, S.Orbeliani, X.Abovyan, M.Oxundov, G.Arstavi, G.Sandukyan, I.Chavchavadze, E.Ninashvili, A.Sobir, J.Mamatqulizoda, A.Akopyan, A.Sulukidze, S.Shaumyan, S.Spandaryan, Sulaymon Stalskiy, Efendi Kaptev, Gamzat sadasa, Rasul Gamzatov, M.Dishekov, Ladiko, Xusin Gashokov, A.Shortanov, A.Nishonov, Dmitriy Gulik, Ivan Tarba, Ivan Papaskirilar barakali ijod qilishdi.

Gruzin yozma adabiyoti o'zining ilk bosqichida (XI asrga qadar) ko'proq diniy-cherkov xarakterida bo'lib, bu gruzin qabilalarining ijtimoiy mohiyati bilan bog'liq edi. Gruzin qabilalarining Sharq va G'arbdan hujum qilib kelgan bosqinchilarga (IV asrdan VII asrgacha Vizantiya va Eron sasoniy podsholariga, VII asrdan XI asrga qadar arab-musulmon xalifalariga, XI asrda esa saljuqiylar hukmdorlariga) qarshi kurashini uyushtiruvchi yagona kuch gruzin cherkovi edi. Shuning uchun feodal munosabatlar zaminida yuzaga kelib, mamlakatdagi yetakchi madaniy kuchga aylangan xristian cherkovi tarixiy hayotning ma'lum bosqichida gruzin yozma adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Gruzin xalqining chet el bosqinchilarga qarshi, bir butun kuchli mustaqil davlat uchun olib borgan kurashi muvaffaqiyatli yakunlandi. XI-XII asrlarda Bunyodkor Dovud (XI asr), Georgiy (XII asr) va Tamara (XII asr) hukmronligi davrida Gruzin davlati davlati xalqaro miqyosda katta rol o'ynay boshladi. Bu davrda gruzin xalqining iqtisodiy va ma'naviy hayoti yuksala boshladi: qishloq xo'jaligi jonlandi, savdo-sotiq taraqqiy etdi; har xil inshootlar, yangi-yangi shahar, qishloqlar qurildi; adabiyot va san'at ravnaq topa boshladi. Diniy-cherkov adabiyoti o'rnini dunyoviy adabiyot egallay bordi. Dunyoviy adabiyot asarlarida oxirat haqidagi xayoliy-mistik afsonalar emas, balki kishilarning yuksak axloqiy intilishlari, real hayoti aks ettirildi. Keyinchalik gruzin xalqining genial shoiri SHota Rustaveli ijodida yorqin ifodalangan gumanistik g'oyalar kurtak ota boshladi.

XII asr – gruzin adabiyoti tarixiga klassik gruzin adabiyotining yaratilish davri bo‘lib kirdi. Biroq bu davrning yuksak madaniy merosi mo‘g‘ullar istilosi natijasiga yer bilan yakson qilinib, uning oz qismigina bizgacha aypim fermentlar shaklida yetib kelgan, xolos. Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” dostoni shular jumlasidandir. Bu doston o‘rta asr adabiyotining ko‘p asrlaridan o‘zining dogmatizm, sxolastika va diniy fanatizmdan xoli ekanligi bilan farq qiladi. Doston sodda, xalqqa tushunarli til bilan yozilgan. Shota Rustaveli bu asari bilan yevropada Uyg‘onish davrida ijod qilgan mutafakkir-shoirlardan o‘zib ketib, chinakam insoniy ishq-muhabbat, gumanizm, mardlik va qahramonlik tuyg‘ularining kuychisi sifatida tanildi. Dostonning Taniel, Avtandil, Tinatin, Neston-Darajon kabi qahramonlari vatan oldidagi burchini, uning baxt-saodatini hamma narsadan ustun qo‘yadilar. Shu bilan birga, xalqlar do‘stligi g‘oyalari ularning siyomosidp mujassamlashgandir. “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon”dostoni dunyo adabiyotining noyob durdonalaridandir. U gruzin adabiyotining XII asrdan keyingi taraqqiyotiga barakali ta’sir ko‘rsatdi.

Qadimgi gruzin adabiyotining yirik vakillaridan yana Vaxtang VI, Sulxan Saba Orbeliani, David Guramishvili, Mamuka Baratashvili, Taymuraz II, Besiki va Sayat Novalarni ko‘rsatish mumkin. Bu adiblar o‘z ijodlari bilan Taymuraz I va Archil o‘rtasidagi bahsni davom ettirib, gruzin adabiyoti taraqqiyotiga ma’lum hissa qo‘shdilar.

Sharqiy slavyanlar yevropa va Osiyo qit‘alarida yashovchi slavyan xalqlarining deyarli to‘rttdan bir qismini tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi rus, ukrain va belorus xalqlarining har biri o‘ziga xos, lekin shu bilan birga o‘zaro juda o‘xshash tarixiy taraqqiyot yo‘liga, shuningdek, adabiyot va madaniyat tarixiga ega. Bu xalqlarning ota-bobolari bo‘lgan elotlar IX asrda feodal davlat bo‘lib uyushgan Kiyev Rusida yashaganlar. Shuning uchun Kiyev Rusidagi yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodi haqli ravishda ruslarning ham, ukrain va beloruslarning ham adabiy merosi sanaladi.

XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida markazlashgan Rus davlati yuzaga keldi. Mamlakatda feodal munosabatlarning kun sayin mustahkamlana borishi zaminida rus, ukrain va beloruslar xalq bo‘lib shakllandilar. SHarqiy slavyan xalqlar qardoshligi ham shu vaqtlarda paydo bo‘ldi.

XVI asrda sharqiy slavyan xalqlarida kitob nashr ettirishning yo‘lga qo‘yilishi, shuningdek, Ukraina va Belorussiyada munozaraviy adabiyot deb atalgan progressiv kayfiyatdagi adabiyotning shakllana borishi XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus, ukrain, belorus adabiy aloqalarining keng rivojlanishi uchun zamin hozirladi.

O‘z vaqtida qo‘shni litva xalqining tili va yozuvi taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan belorus adabiyotida XVI- XVII asrlarga kelib Belorussiyaning Rossiyaga qo‘shilishini qo‘llab-quvvatlovchi progressiv-antikatoлик oqim tobora mustahkamlana boshladi. Bunday tendensiya ukrain adabiyotida ham mavjud edi. Stepan Razin, Kondratiy Bulavinlar boshliq xalq harakatlarida rus dehqonlari bilan bir qatorda ukrain va belorus dehqonlarining faol ishtirok etishi tasodifiy hol emas edi. Chunki bu qon-qardosh xalqlar yashagan umumiy tarixiy sharoit shuni taqozo qilar edi.

XVII asrning ikkinchi yarmida Ukrainaning, XVIII asrda esa Belorussiya tuprog‘ining Rossiyaga qo‘shilishi munosabati bilan rus va ukrain, rus va belorus adabiyotlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir va aloqa uchun qulay imkoniyatlar tug‘ildi.

XIX asrda rus klassik adiblari A. Pushkin, M. Lermontov, L. Tolstoylar T. Shevchenko, L. Ukrainka va I. Frankolarning ijodiy kamolotida ustod bo‘lib qoldilar.

Sharqiy slavyan yozuvchilari o‘rtasidagi o‘zaro ijodiy hamkorlikni mustahkamlashda, shubhasiz, rus tilidan ukrain va belorus tillariga, shuningdek, belorus va ukrain tillaridan rus tiliga qilingan tarjimalar ham katta ahamiyatga ega edi.

XIX asr rus ozodlik harakati Ukraina va Belorussiyadagi ijtimoiy ong taraqqiyotiga ham kuchli ta‘sir ko‘rsatgan.

Rus va ukrain afkor ommasining eng ilg‘or vakillari V.G.Belinskiy, A.I.Gersen, N.G.Chernishevskiy, T.G.Shevchenko, N.A.Dobrolyubov, N.A.Nekrasov, M.E.Saltikov-Shchedrin va Ivan Frankolar ijodi sharqiy slavyan xalqlari adabiyotidagi demokratizm va realizmning rivojida muhim rol o‘ynadi.

Shunday qilib, rus, ukrain va belorus xalqlarining tarixi va madaniyati taraqqiyotida o‘ziga xoslik mavjud bo‘lishiga qaramasdan, sharqiy slavyan xalqlari adabiyotidagi tarixiy, geografik umumiylik va ayniqsa til nuqtai nazaridan o‘xshashliklar ularga tegishli bo‘lgan ma‘lum belgi va qonuniyatni aniqlash imkoniyatini beradi.

Pushkin Aleksandr Sergeyevich [1799.26.5 (6.6), Moskva 1837.29.1 (10.2), Peterburg]—rus yozuvchisi, yangi rus adabiyotining asoschisi. Otasi Sergey Lvovich kadimgi dvoryanlar qavmidan, onasi Nadejda Osipovna esa Pyotr I qo‘lida tarbiya ko‘rgan habash — A.P.Gannibalning nabirasi bulgan. Pushkinda nafis so‘zga mehr-muhabbatning paydo bulishida rus xalq qo‘shiqlari hamda ertaklarini yaxshi bilgan enagasi Arina Rodionovnaning ta‘siri, ayniqsa, kattadir. O‘sha davrning eng nufuzli o‘quv yurtlaridan biri—Peterburg yaqinidagi sarskoye selo (hozirgi Pushkin shahri) litseyida o‘qish (1811—17) Pushkinning shoir va

erksevar inson sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan. Pushkin litseyni tugatgach, Peterburgga ko'chib borgan va tashqi ishlar kollegiyasida kotib lavozimida ishlagan. U Peterburgda xizmat qilgan yillar (1817—20) Rossiyaning tarixiy taraqqiyoti uchun muhim bir davr edi.

Pushkinning dastlabki she'rlari 1913-yilda matbuot yuzini ko'rdi. U litseyda o'qib yurgan kezarida 120 ga yaqin she'r va 2 doston (tugallanmagan) yozadi. Litsey bilan xayrlashuv kechasiga bag'ishlangan she'ri esa shu kechada qatnashgan G. R. Derjavinning yuksak bahosiga sazovor bo'lib, u Pushkinning buyuk shoir bo'lib yetishishini bashorat qiladi. Keyinchalik Pushkin rus jamiyatida uyg'onib borayotgan erksevarlik kayfiyati ta'sirida «Erkinlik» (1817), «Chaadayevga» (1818), «Qishloq» (1819) singari she'rlarni yaratadi.

Pushkinga qadar rus she'riyatida qasida, marsiya, xat singari har bir she'riy janr klassitsizm tomonidan belgilangan qat'iy qonun-qoidalar asosida yozilgan. Pushkin litsey lirikasidan farqli o'laroq, Peterburg davri ijodida she'riy janrlar o'rtasidagi chegaralar va uslubiy farqlarni bartaraf etib, rus she'riyati taraqqiyoti uchun yangi badiiy ufqlarni ochib bergan («Ruslan va Lyudmila», 1820).

Pushkin ijodining tadrijiy yo'lini shartli ravishda 4 bosqichga ajratish mumkin. Agar 1813—16 yillarni o'z ichiga olgan 1-bosqichda Pushkin o'z zamondoshlarining badiiy tajribasini o'zlashtirgan bo'lsa, 2-bosqich (1817-20)da Pushkin ijodining g'oya va mavzular olami kengayib, u o'z uslubiga erishish yo'lida badiiy izlanishlar olib borib, kitobiy til bilan jonli xalq tilini o'zaro yaqinlashtirdi. Shoirning 1820-24 yillar ijodida (3-bosqich) romantizm ustuvorlik qildi. Ammo ko'p o'tmay, Pushkin qahramonni poetiklashtirish va voqelikni ehtiros bilan tasvirlashda davom etgan holda romantik tasvir metodidan chekindi. Pushkin ijodining 1925 yildan boshlangan 4-bosqichida obrazlar va mavzular ko'lamini chegaralashning har qanday ko'rinishini rad etuvchi, fikr bilan tuyg'uni, haqiqatni tadqiq etish bilan «jonli tasavvur»ni o'zaro uyg'unlashtirishga asoslangan realistik tizimni ishlab chiqdi

Pushkinning rus jamiyatidagi erksevar kuchlar ta'sirida yozilgan zulm va krepostnoylikni fosh etuvchi she'rlari chor hukumatida norozilik kayfiyatini uyg'otdi. 1819 yilda Pushkinning «Yashil chiroq» to'garagida ishtirok etishi esa Aleksandr I ni nihoyatda g'azablantirdi. U 1820 yil mayida Pushkinni yekaterinoslavga surgun qildi. Shoir yekaterinoslavga yetib kelishi bilan xastalikka yo'liqadi va ittifokr shu yerda qo'noqda bo'lgan general N.N.Rayevskiyning oilasi bilan birga dastlab Kavkazga, keyin Qrimga yo'l oladi.

Rossiyaning janubida yashash Pushkin ijodida yangi davrning boshlanishiga imkon berdi. U dastlab J. Bayron ta'sirida romantik dostonlarini yozdi. Pushkin

romantizmining ilk namunasi — «Kavkaz asiri» dostoni (1820—21) 20-yillardagi erksevar yoshlar kayfiyatini ifodalagani uchun ular oʻrtasida katta muvaffaqiyat qozondi. Pushkin voqelikni romantik boʻyoqlar bilan tasvir etishda davom etib, «Aka-uka qaroqchilar» (1821—22) va «Boqchasaroy fontani» (1823) dostonlarini yaratdi. «Loʻlilar» dostoni esa Pushkinning ijodiy tadrijida roʻy bergan jiddiy burilishning samarasi boʻldi. Pushkinning romantik dostonlari va shu yillar lirikasi («Demon», «Dengizga» va b.) yagona gʻoyaviy-badiiy yoʻnalishga ega boʻlib, ular psixologik tasvirning teranligi, ruhiy olam, tabiat va tevarak-atrofdagi hayotiy hodisalar oʻrtasidagi aloqalarning rang-barangligi bilan ajraladi.

1824 yil Pushkin xizmat vazifasidan ozod etilib, Mixaylovskoye qishlogʻi (Pskov)ga surgunga yuboriladi. Ikkinchi marta tazyiqqa uchragan shoir qisqa muddatli ruhiy ezilishdan soʻng mutolaaga berilib, shu atrofdagi aholining ertak va qoʻshiklarini toʻplaydi, «Boris Godunov» tragediyasi (1825), «Graf Nulin» dostoni, «Qurʻonga tatabbu», «Andrey Shenʼe», «19 oktyabr» va boshqa mashhur sheʼrlarini yozadi, «Evgeniy Onegin» sheʼriy romani ustidagi ishni davom ettiradi. «Boris Godunov» Pushkinning dramaturgiya sohasidagi dastlabki tajribasi boʻlsada, shoir unda Shekspir anʼanalariga tayangan holda dramatik sanʼatning yangi yoʻllarini kashf etadi, xalq bilan hokimiyat oʻrtasidagi munosabatni asar markaziga olib chiqadi. «Boris Godunov»ni yaratish asnosida ishlab chiqilgan badiiy tamoyillar (tarixiylikka intilish, insoniy kechinmalarni barcha ranglari bilan mujassamlashtirish, xarakterlarga xos hayotiy murakkablikni ochish va b.) Pushkinning keyingi ijodida oʻz samaralarini berdi.

20-yillar oxiri — 30-yillar boshlarida Pushkin ijodida realizm tantana qilib, u «Graf Nulin»dan tashqari, «Poltava» (1828—9), «Kolomnadagi uy» (1830), «Mis chavandoz» (1833) dostonlari va keyinchalik shoirning «kichik tragediyalar»ini tashkil etgan baʼzi bir pyesalari hamda nasriy asarlari («Belkin qissalari», «Kapitan qizi» va b.)ni yaratadi. Pushkin shu davrda lirikada badiiy realizmning yuksak bosqichiga erishadi.

20-yillarning 2-yarmida Pushkin «Evgeniy Onegin» ustidagi ijodiy ishini davom ettirdi. Sheʼriy romanning 1833-yilda toʻla holda nashr etilishi rus adabiyoti tarixida ulkan voqea boʻldi. Garchand sheʼriyatning bu janri rus adabiyotida keyinchalik izchil davom ettirilmagan boʻlsada, bu asarda kashf etilgan yangi realistik tasvir metodi va yangi estetika tamoyillari rus adabiyotining keyingi taraqqiyoti uchun gʻoyat katta ahamiyatga molik boʻldi. Pushkin asarda polifonik tasvir usulining shunday yoʻllarini topdiki, ular voqelikni keng qamrab olish, muhim hayotiy muammolarni tasvir doirasiga olib kirish, epik va lirik ibtidolarni uzviylashtirish imkonini berdi. Natijada romanda Pushkin yashagan davrning

muhim masalalari o'z in'ikosini topdi, o'sha davrda keng tarqalgan kishilar xarakteri tarixiy, ijtimoiy va maishiy sharoit fonida zo'r mahorat bilan tasvir etildi.

Pushkin 1830-yil kuzini Boldino qishlog'ida o'tkazdi. Rus adabiyoti tarixiga «Boldino kuzi» sifatida kirgan bu davrda shoir «Kolomnadagi uy» dostoni, «Belkin qissalari», shuningdek, boshqa «kichik tragediyalar»ini ijod qildi. Bu asarlarning har biri, ayniqsa, «Xasis ritsar», «O'lat chog'idagi bazm», «Tosh mehmon», «Motsart va Saleri» «kichik tragediyalar»i olamshumul ahamiyatga molik masalalarni ko'targanligi bilan Pushkin ijodida alohida bir sahifani tashkil etadi.

Pushkin 1831-yil yozida sharoit taqozosi bilan davlat idoralarida ishlashga majbur bo'ladi. U tashki ishlar kollegiyasida xizmat qilar ekan, davlat arxivida ishlash imkoniyatidan foydalanib, Buyuk Pyotr tarixini yozmoqchi bo'ladi. Arxivda ishlash Pushkinga Rossiyaning tarixi va hozirgi davridagi murakkab masalalarni to'g'ri tushuntirish imkonini beradi. U siyosiy tuzum, «yangi ma'rifat», yevropa mamlakatlari mohiyati to'trisida o'ylab, tanqidiy xulosalarga keladi va feodal tuzumning chiriganiga ishonch hosil qiladi. Pushkinning «Mis chavandoz» dostoni uning dunyoqarashida ro'y bergan ana shunday o'zgarishlarning natijasi sifatida maydonga keladi. Rossiyaning yangi, kapitalistik taraqqiyot bosqichiga o'ta boshlagani Pushkinning «Pikovaya dama» (1833) qissasida o'z tajassumini topgan.

Pushkin 30-yillar Rossiya tarixi bilan qiziqib, Pugachyov qo'zg'olonining paydo bo'lish sabablarini qunt bilan o'rgandi, qo'zg'olon sodir bo'lgan joylarga borib, rus xalq qo'shiqlari, ertak va rivoyatlarni yozib oldi. Pushkin Pugachyov qo'zg'oloni haqida to'plagan bu materiallardan «Pugachyov tarixi» asari (1833), «Dubrovskiy» (1832-33) va «Kapitan qizi» (1833-36) qissalarida samarali foydalandi. Rus xalq og'zaki ijodi namunalariga qiziqish natijasida Pushkinning «Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak» (1830), «SHoh Sulton haqida ertak» (1831), «Baliqchi va baliq haqida ertak» (1833), «Oltin xo'rozcha haqida ertak» (1834) singari folklor motivlari bilan sug'orilgan asarlari maydonga keldi va bu asarlar Pushkin ijodi dagi xalqchillikning yanada oshishiga sababchi bo'ldi.

Pushkin 1831-32-yillarda do'stlari tomonidan nashr etilgan «Literaturnaya gazeta» («Adabiyot gazetasi»)da faol ishtirok etib, adabiyotda xalqchillik va realizmning tantana qozonishi uchun kurashdi. Uzoq davom etgan sa'y-harakatdan so'ng 1836 yil aprelida «Sovremennik» («Zamondosh») jurnalining 1-sonini chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Pushkinning rus adabiyoti oldidagi xizmatlari buyuklashgan va ijodiy faoliyati yangiyangi qirralar kasb etib borgani sayin uning

atrofidagi qora kuchlar tobora birlasha va faollasha boshladilar. Shuning natijasi o'laroq uning J.Dantes bilan dueli uyushtirilib, ulug' rus shoiri halok etildi.

Pushkinning rus madaniyati takdiridagi roli benihoya buyuk. U yangi rus adabiyotiga asos solish bilan birga rus adabiy tilining ham shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. Rus adabiyotida realizm va xalqchilik tamoyillarining, qator she'riy janrlarning shakllanishi va taraqqiyoti Pushkin nomi bilan chambarchas bog'liq. Pushkinning rang-barang ijodi nafaqat keyingi rus adabiyoti, balki musiqa, teatr, balet, rangtasvir singari san'at turlarining ham rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Boshqa qardosh adabiyotlar qatori 20-asr o'zbek adabiyotining taraqqiyotida ham Pushkin ijodining ta'siri sezilarlidir.

Lev Nikolayevich Tolstoy [1828), Tula gubernyasi Yasnaya Polyana qishlog'i — 1910.7(20).11, Lipetsk viloyati, hoz. Lev Tolstoy bekati; YAsnaya Polyana dafn etilgan]—rus yozuvchisi. Rossiyadagi qadimiy dvoryanlar sulolasidan, graf. Peterburg Fanlar Akademiyasi muxbir a'zosi (1873), faxriy akademigi. (1900). 1844-47 yillarda Qozon universitetining arab-turk va huquqshunoslik fakultetlarida o'qigan. 1851—53 yillarda Kavkazda bo'lib, janglarda ishtirok etgan. 1854 yil Dunay armiyasiga yuborilgan; iltimosiga ko'ra, qamaldagi Sevastopolga o'tkazilgan. Qrim urushida qatnashgan. Tolstoy 1855 yilda Peterburgga borib, N. A. Nekrasovning «Sovremennik» («Zamondosh») jurnali va jurnal atrofidagi yozuvchilar (I. S. Turgenev, I. A. Goncharov, N. G. Chernshevskiy va b.) bilan hamkorlik qilgan. Bolalik kezlari rus va arab xalq ertaklari, A.S.Pushkin she'rlari, shuningdek, Yusuf haqidagi Injil rivoyati ta'sirida she'rlar yozgan. Birinchi yirik asari — «Inson kamolotining to'rt davri» avtobiografik asari («Bolalik», 1852; «O'smirlik», 1852-54; «Yoshlik», 1855-57; «Yigitlik», yozilmay qolgan). Urush lavhalari va askarlarning maishiy turmushi Tolstoyning «Sevastopol hikoyalari» (1855) to'plamiga kirgan hikoya va ocherklarida o'z ifodasini topgan.

50-yillar Tolstoy ruhiy hayot lavhalari va maishiy turmush tafsillarini tarixiy voqealarning keng manzarasi, hayotning axloqiy-falsafiy asoslari tasviri bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Tolstoy ijodida shakllana boshlagan bu ijodiy tamoyil «Kazaklar» qissasi (1863)da, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bu asarda o'z in'ikosini topgan xalq hayoti mavzui va voqelikning epik tasviri Tolstoyning 60-yillar ijodida yanada teranlashadi.

Rus va jahon adabiyoti xazinasidan mustahkam o'rin olgan «Urush va tinchlik» (1863—69) epopeyasi Tolstoyning 60-yillarda ijodiy kamolotga erishganidan shahodat beradi. Ayrim sovet adabiyotshunoslari garchand bu asarni Tolstoyning o'z davri muammolaridan qochishi, deb baholagan bo'lsalarda,

yozuvchi «Urush va tinchlik» romani bilan o‘z davrida ro‘y bergan va o‘zi shaxsan guvoh bo‘lgan voqealarga faol munosabat bildirgan. Eng muhimi, u Napoleonning 1805-07 va 1812-14 yillardagi harbiy yurishlari mavzuiga murojaat etib, ko‘plab qahramonlar ishtirok etgan epik voqealar bilan birga qahramonlarning ruhiy tasvirlari ilk bor katta mahorat bilan uyg‘unlashgan tarixiy roman janrini yaratdi. Holbuki, 19-asr o‘rtalarida epik asarlar davri o‘tdi, degan fikrlar keng tarqalgan, 60-yillarda rus jamiyatida kuch ola boshlagan sinfiy ziddiyat va kurashlar esa «Urush va tinchlik»dek epopeyaning maydonga kelishi uchun unumli zamin bo‘la olmas edi. 1812 yilda Rossiyaning Napoleon qo‘shinlari tomonidan bosib olinishi mumkinligi bir-biri bilan kelisha olmagan turli tabaqa va sinflarni dushmanga qarshi kurash shiori ostida birlashtirdiki, Tolstoyning rus xalqi ongidagi ana shu uyg‘onishga murojaat etishi «Urush va tinchlik» romanining yuzaga kelishi uchun hayotbaxsh zamin vazifasini o‘tadi.

Tolstoyning 70-yillar ijodida «Anna Karenina» romani alohida mavqega ega. «Urush va tinchlik»dan bu romanni yozguniga qadar bo‘lgan davrda Tolstoyning rus jamiyatidagi ijtimoiy tenglik va adolat to‘g‘risidagi orzu umidlari ro‘yobga chiqmadi. 60-yillardagi islohot yozuvchi kutgan natijani bermadi. Mazkur romanda Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o‘ylari aks etdi. Romanda Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat 3 oilaning bir-biri bilan chatishgan, ammo mustaqil syujet chizig‘iga ega bo‘lgan tarixi tasvir etilgan. Tolstoy, aksar rus yozuvchilaridek, nasroniy diniga katta e‘tiqod qo‘ygan, hayotda ro‘y berayotgan voqealarga va kishilarning xatti-harakatlariga ham shu din nuqtai nazaridan yondashgan. Uning diniy qarashlari jamiyat va shu jamiyatda yashovchi kishilarga, binobarin, u yoki bu qahramoniga bo‘lgan munosabatiga, shak-shubhasiz, ta’sir o‘tkazgan. Tolstoyning oila masalasiga, chunonchi, Kareninlar oilasida sodir bo‘layotgan voqealarga yondashuvida ham diniy qarashlari seziladi. U jamiyat a’zolarida qanday chirkin xislatlar mavjud bo‘lmasin, kishilar diniy qonun-qoidalar doirasida harakat qilishlari lozim, aks holda jamiyat halokat sari boradi, degan fikrdan kelib chiqib, qahramonlar obrazini yaratadi.

70-yillarda ruhiy iztirob iqlimida yashagan Tolstoy o‘z hayot yo‘lini qayta nazardan o‘tkazdi va shu jarayonda ijtimoiy kelib chiqishi, tarbiyasi va hayot yo‘li bilan bog‘liq jamiyat qatlamining ma’naviy asoslari yolg‘onga asoslangan, degan xulosaga keldi. Uning bunday qarashlari «Iqrornoma» (1880) va «E‘tiqodim nimada?» (1884) asarlarida o‘z ifodasini topdi. Tolstoyning shu davrda yozgan asarlari orasida «Ivan Ilichning o‘limi» (1886), «Kreyser sonatasi» (1889) qissalari, ayniqsa, e‘tiborga loyiq.

Tolstoy 80-yillarda dramaturgiya janrlarida ham ijod qilib, «Zulmat hokimiyati» (1886) dramasi va «Maʼrifat mevalari» (1890) komediyasini yozadi. Bu asarlarda qishloq ahlidagi jaholat, shahar madaniyatining qishloqqa koʻrsatayotgan salbiy taʼsiri katta badiiy kuch bilan tasvirlangan.

Tolstoy dunyoqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning soʻnggi yirik asarlaridan biri—«Tirilish» romani (1889-99)da oʻz aksini topdi. Xdyotda boʻlib oʻtgan oddiy voqea — bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan jamiyatning ichki, maʼnaviy asoslarini ochib tashlaydi. Mazkur asardagi kishilar taqdiri bilan voqealarning oʻzaro chambarchas bogʻlikligi masalasi «Hojimurod» (1896-1904) qissasining ham asosini tashkil etgan.

Tolstoy dindor yozuvchi sifatida kishilar ruhiyatidagi ziddiyatlarni tasvir etibgina qolmay, oʻzi ham jamiyat va kishilar hayotidagi bunday ziddiyat va mayllardan jarohatlanib yashagan. Yozuvchidagi murakkab ruhiy holat uning soʻnggi asarlari («Tirik murda», 1890; «Baldan soʻng», 1903 va b.) da ham aks etgan. Tolstoy hayotining Yasnaya Polyanadagi soʻnggi kunlari ruhiy iztiroblar poʻrtanasida kechdi. U yaqin kishilari toʻqigan igʻvo va fasod toʻridan qochib, 1910 yil Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketadi va yoʻlda shamollab, vafot etadi.

Oʻzbekistonda Tolstoy ijodiga qiziqish u hayot paytlardayoq boshlangan. Uning «Odamlar nima bilan tirik?», «Xudo haqiqatni koʻrsa ham tezda ayta olmaydi» makrallari 1887—1902 yillarda «Turkiston viloyatining gazetisi»da oʻzbek tilida nashr etilgan. Tolstoy haqidagi «Rossiya mamlakatining mashhur yozuvchisi» degan maqola esa 1889 yil shu gazetada tanikli maʼrifatparvar Sattorxon Abdugʻafforov tarjimasida bosilgan. Tolstoyning bolalar uchun yozgan qator hikoyalari Saidrasul Aziziy («Ustodi avval», 1902), Aliasqar Kalinin («Muallimi soniy», 1903), Abdulla Avloniy («Birinchi muallim», 1909; «Ikkinchi muallim», 1912) singari jadid maʼrifatparvarlarining oʻquv qoʻllanmalari va darsliklarida eʼlon qilingan hamda usuli savtiya maktablarida oʻqitilgan.

Tolstoy nafakat buyuk yozuvchi, balki adolatparvar va xalqparvar inson sifatida ham oʻzbek jadidlarining eʼtiborini oʻziga jalb etgan. Birinchi oʻzbek advokati Ubaydulla Xoʻjayev 1909-yilda Tolstoyga uning yomonlikka yomonlik bilan javob bermaslik haqidagi taʼlimoti yuzasidan xat yozib, oʻsha yilning 50-iyunida undan javob olgan. Islom dinining taniqli arboblardan biri Abduvohid Qoriyev esa 1910-yil Yasnaya Polyanaga maxsus borib, Tolstoy bilan bir necha marta muloqotda boʻlgan. Ammo oʻzbek xalqining Tolstoy ijodi bilan yaqindan

tanishishi XX asrning 30-yillaridan boshlangan va uning barcha asosiy asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

TURKIY TILDA SO‘ZLASHUVCHI QARDOSH XALQLAR ADABIYOTI

Reja:

1. *Turkiy xalqlar adabiyotining mushtarak jihatlari.*
2. *“Alpomish”, “Manas”, “Dada Qo‘rqut” eposlari.*
3. *Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Maxtumdul ijodi.*
4. *Muxtor Avezov, Chingiz Aytmatov ijodida umuminsoniy muammolar masalasi.*

Turk-o‘g‘uz qabilalarining barchasiga taalluqli bo‘lgan madaniy meroslardan yana biri «Kitobi dada Qo‘rqut» nomli mashhur eposdir. Bu asar XV asrning oxirlarida Abdulloh nomli kishi tomonidan tuzilgan. Kitob mustaqil hikoyatlardan tashkil topgan 12 qissadan iboratdir. Birinchi qissada Dirsaxonning o‘g‘li Bug‘rochxon mard va jasur bo‘ladi. U otasining 40 ta navkari sotqin va qo‘rqoq ekanligini fosh qiladi. Ular esa Bug‘rochxonni otasiga yomonlab, unga tuhmat qiladi. Bunga ishonib g‘azablangan bek, o‘g‘lini o‘limga buyuradi. O‘g‘lini o‘limdan onasi zo‘rg‘a qutqarib qoladi. Oxir oqibat, ana shu navkarlar bekning o‘zini ham til biriktirib, o‘ldirmoqchi bo‘ladilar. Oxirgi vaziyatda o‘g‘li otasini 40 ta navkarning tajovuzidan saqlab qoladi. Bu qissada sotqinlik va baxillik qoralanadi.

Ikkinchi qissada esa O‘g‘uz qabilasi boshliqlaridan biri Qozon-Solar o‘z navkarlari bilan ovga chiqib ketganda, uning dushmanlari bo‘lgan gyaurlar bekning uyiga hujum qilib, xotini va bola-chaqalarini asir qilib olib ketadi. Lekin uning qo‘ylarini va yilqilarini olib ketolmaydi. Chunki oddiy cho‘pon katta mardlik va tadbirkorlik ko‘rsatib mollarni saqlab qoladi. Ovdan qaytgan Qozon-Solar dushmanlarga qarshi jangga kirib, oila a‘zolarini asirlikdan ozod etadi. Bu qissalarda qadimgi bosqinchilik urushlari qoralanadi va qabila sha‘nini himoya qilgan mard, jasur o‘g‘lonlar ta‘riflanadi.

Uchinchi qissada mard, jasur yigit Bomsibayroq haqida hikoya qilinadi. Ikki bek uzoq vaqt bolali bo‘lmaydi. Keyin esa ularning nolasi Tangriga etib biriga qiz, ikkinchisiga o‘g‘il farzand ato qiladi. Ular katta bo‘lishgach, bir-birini sevadi. To‘y bo‘layotgan kuni dushmanlar bostirib kelib kuyovni, Bomsibayroqni, asir qilib olib ketadi. U asirlikda o‘n olti yil bo‘lib, qaytib keladi. Kelgan kuni uning sevgan qizini boshqaga uzatayotgan bo‘ladi. Yigit qizni olib ketib o‘zi uylanib oladi. Keyin esa Bayburd qal‘asiga hujum qilib, qolgan asirlarni ham ozod qiladi. Bu qissadagi tasvirlangan voqealar turkiy xalqlarning ko‘pgina dostonlarida ham

uchraydi. Masalan, «Alpomish», «Shohsanam va g'arib», «Tohir va Zuhro» kabi dostonlarda ham shunga o'xshash epizodlar bor.

To'rtinchi qissada Qozonbekning o'g'li O'ruzbekni dushmanlar ov paytida tusatdan hujum qilib asirga oladi. Keyin Qozonbekning o'g'lini asirlikdan ozod qilish uchun olib borgan urushlari hikoya qilingan.

Beshinchi qissada Ozroyil kasal yigit Dumrulning jonini oladi. Lekin yigit Ozroyilning bu qilmishidan xudoga shikoyat qiladi. Xudo esa bu shakkok yigitga g'azab qiladi. Lekin yana rahmi kelib er yuzida agar sen uchun jonini beradigan biror bir kimsa topilsa, jonini qaytarishni shart qilib qo'yadi. Yigitning ota-onasi o'z jonlarini o'g'li uchun berishni xohlamaydilar. Yigitning xotini esa bunga rozi bo'ladi. Xudo ayolning bu mardligini ko'rib, yigitning jonini qaytaradi. Eru xotin bu dunyoda 140 yil baxtli hayot kechiradi.

Oltinchi qissada Qangli xo'jasining o'g'li Xon-To'ralining uylanishi bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Boshqa yurtidan uylangan yigitga o'sha yurtning yigitlari hujum qilgani va bu urushda Xon-To'ralining g'olib kelganligi tasvirlanadi. Ayniqsa, qizning otasi yigitga qo'ygan shartlarining bajarilishi ancha qiziqarli berilgan. Yigit sherni, qora ho'kizni va qora tuyani engib shartni bajaradi.

Etтинchi qissada Qaziliq xo'janing 15 yashar o'g'li o'g'uz urug'ining dushmanlariga qarshi olib borgan kurashi tasvirlangan. Sakkizinchi qissada o'g'uz qabilalariga hujum bo'lganda ular boshqa joyga qochib o'tadi. Ana shu ur-surda bir chaqaloq qolib ketadi. Uni ona sher topib olib, sutidan berib ulg'aytiradi. Bu yillar o'tib yana o'sha joyga ko'chib kelganda bola yana o'z qabiladoshlarini topadi. Bolaning otasi Arusxo'ja o'z o'g'lini taniydi va unga Basad deb ism qo'yadi. Bu erlarda Tepako'z nomli bir ko'zli bahaybat vaxshiy yashaydi. Uning otasi cho'pon, onasi esa parilardan bo'lgan ekan. Bu dev sifat vaxshiy juda kuchli va qo'rqinchli bo'lgan. Atrofdagi xalq har kuni unga 500 ta qo'y, 2 ta odam berib turgan. Basad ana shu qo'rqinchli devni yakkama-yakka olishuvda engadi va xalqni uning zulmidan ozodlikka chiqaradi.

To'qqizinchi qissada o'g'uz qabilalarining yangi bosib olgan joylaridagi hayoti tasvirlangan. Bunda Emram nomli mard yigitning jangda o'zi yarador bo'lgan otasining o'rnini bosib, qabilasini dushmandan himoya qilganligi yozilgan. Davlat chegaralari uchun olib borilgan janglar, ya'ni o'g'uzlar va gruzinlar urushi tasvirlangan.

O'ninchi qissada esa Ushunxo'janing katta o'g'li Egrek Gyaurlar bilan jangda asirga tushadi. Uni asirdan ozod qilish uchun esa ukasi Sergak urushga ketadi va akasini asirlikdan ozod qiladi. O'n birinchi qissada «O'g'uznoma» qahramonlaridan biri Qozon-Solarning g'aflatda qolib dushmanlar qo'lga tushgani

va uning o'g'li O'g'uzxon tomonidan ozod etilgani haqidagi rivoyatlar hikoya qilingan.

O'n ikkinchi yakunlovchi qissada o'g'uz qabilalarining mansab va lavozim talashib bir-biri bilan olib borilgan janglari yozilgan. Qozon-Solarning tog'asi Aruz beklar begi lavozimini egallash uchun Qozon-Solarga hujum qiladi. Uning yaqin yordamchisi Bamsi-Bayroqni o'ldiradi. Keyin Qozon-Solar Aruzbekka hujum qilib ularni engadi. Bu jangda Aruzbek ham vafot etadi.

Xullas, «Kitobi dada Qo'rqut»da o'g'uz-turk qabilalarining tarixi bilan bog'liq ko'plab voqealar hikoya qilingan. Bu asarning dastlabki qismlaridagi voqealar tasviridan ma'lum bo'lishicha, asar dastlab Turkistonda, ya'ni O'rta Osiyoda shakllangan. Keyingi qismlarida esa voqealar o'g'uz-turk qabilalarining yangi vatani bo'lmish Kavkaz va Kichik Osiyoda kechadi. Albatta, eposdagi barcha voqealar tarixiy bo'lib o'tgan deb bo'lmaydi. Ularning xalqning og'zaki ijodi deb tushunmoq kerak. Lekin o'g'uz-turk qabilalarining tarixi bilan bog'liq aniq voqealar tasviri ham eposda anchagina uchraydi. «Kitobi dada Qo'rqut» deb atalishining sababini ayrim tadqiqotchilar Qo'rqut degan baxshi Yoki islomgacha bo'lgan davrdagi Shamanning nomi bo'lishi mumkin deb taxmin qiladilar. Toshkentga yaqin joyda «Xorxud» degan joy nomi bilan bog'lovchilar ham bor. Nima bo'lsa-da, bu kitob turkiy xalqlarning muqaddas tarixiy eposi bo'lib, bu asrlar davomida xalqni botirlikka, jasurlikka o'z yurtini, elini or-nomuslarini dushmanlardan himoya qilishga o'rgatib kelgan.

“Chambil mamlakati hokimi Jig'alibek qarigan chog'ida hokimiyatni sevikli o'g'li Alibekka beradi. Alibekning homilador xotini farzand ko'rish oldidan vafot qiladi. Tez orada Alibek ham dunyodan o'tadi. Oradan ko'p o'tmay bir cho'pon Alibekning otasi Jig'alibekka podadagi echkilardan biri har kuni qabristonga borib, u erdagi nimaningdir bolasini emizib qaytishini xabar qiladi. Tekshirib qarasar, Alibekning xotini qabrda bir o'g'il bolani emizib qaytar ekan. Go'rda tug'ilgan bu bolaga Go'ro'g'li deb nom qo'yadi”. Yana bir rivoyatda esa Go'ro'g'li yoshligida bobosi Jig'alibek bilan Xunxor podhosi xizmatida bo'ladilar. Podsho Jig'alibekni yomon ot tanlagani uchun ko'zini o'ydiradi. Keyin shu otni berib saroydan haydaydi. Shu ot Go'ro'g'lining mashhur tulpori G'iro't edi. Shuning uchun Jig'alibekning nevarasini Ko'ro'g'li deb atashgan. Xullas, Go'ro'g'li nomi bilan bog'liq ko'pgina rivoyatlar turkman dostonchiligidan o'rin olgan. Go'ro'g'li obrazi mard, adolatli, dono xukmdor sifatida ishtirok etadi. Bu dostonning anchagina qismi nasrda yozilgan.

Yoki yana bir variantida Go'ro'g'li bobosi bilan Amudaryo bo'ylarida yashaydi. Ular bu erda ajoyib toychoqni olib tarbiyalaydi. Ana shu toychoq bir

kuni yo‘qolib qoladi. Bobosi uni izlab topishni Go‘rug‘liga buyuradi. U toychoqni izlab bir daraxtning tagida uxlab qoladi. Tushida qirq chiltanlarni ko‘radi. Ularning har biri Go‘ro‘g‘liga bir kosadan sharob beradi. Uyqudan uyg‘onganda esa uning oldiga Hazrat Ali keladi va u bir tovush qilgan edi, yo‘qolgan toychoq etib keladi. Hazrat Ali uni duo qilib, bir qilich beradi, bu qilich bilan har qanday dushmanni engish mumkin ekanligi aytiladi. Go‘ro‘g‘liga 120 yil yashaysan va 72 ta tilni bilasan deb duo qiladi, lekin farzand berishni rad qiladi. (Ozarbayjon eposida esa Darbendga borib kurd qiziga uylanadi va bir o‘g‘il ko‘radi).

Turkman klassik adabiyotida didaktika, ya‘ni pand-nasihat katta o‘rin egallaydi. Ozodiy, Mahtumquli, Mulla Napas singari shoirlar ijodining katta qismini pand-nasihat mavzusidagi asarlardan iborat. Turkman klassik adabiyotining taraqqiy etgan davri XVIII-XIX asrlarga to‘g‘ri keladi. Chunki bu davrda Shoir Shabondalining «Shoh Bohrom», «Gulu Bulbul», «Xo‘jamberdi» kabi dostonlari va ko‘plab she‘rlari, Ma‘rifiyning «Sayful-muluk», «Midhol shamol», «Yusuf va Ahmad», «Davlat er» dostonlari, SHaydoiyning «Qissai Sanobar» kabi dostonlari juda mashhur bo‘ladi.

Turkman klassik adabiyotining asoschisi Ozodiyning o‘g‘li Maxtumquli mamlakatda Eron shohlari hukmronlik qilgan davrda yashadi. U Xivada SHerg‘ozixon madrasasida ta‘lim oldi. Eron qo‘shinlari bilan bo‘lgan janglarda asir tushib, bir necha vaqt Eronda ham bo‘lgan. Maxtumqulining ijodi turkman klassik adabiyotining cho‘qqisi hisoblanadi. Hayotning achchiq-chuchugini totgan shoir, ko‘p safarlarda bo‘ldi. Katta hayot tajribasi, o‘zbek va tojik adabiyotini yaxshi o‘zlashtirgani sababli, u xalqqa manzur bo‘lgan ko‘plab g‘azallar, ruboiylar, qit‘alarni Firog‘iy taxallusi bilan yaratdi. Shoir ijodi juda mashhur bo‘lganligining sabablaridan biri, unda tasavvuf she‘riyatining an‘analari mavjudligida edi. Chunki shoir she‘rlarida tasavvuf falsafasi g‘oyalari targ‘ib qilindi. U xalq diliga yaqin bo‘lgan ozodlik va erk haqida she‘rlar yozdi. Masalan, «Baxt qushi», «Chaqiriq» nomli she‘rlari turkman xalqini birlashishga, ularni eron bosqinchilariga qarshi kurashga chorlaydi. Shoirning ko‘pgina misralari hikmat darajasiga ko‘tarildi. U mehnatkash xalqning noroziligini ifodalagan «Zamonlar», «Axtaradi», «Ko‘pning hayoti» kabi asarlar yaratdi. Maxtumquli she‘riyatining shuhrati o‘zbek kitobxonlari orasida ham keng tarqalgan. Uning ko‘pgina she‘rlari qo‘shiq qilib aytiladi. Tanlangan asarlari bir necha marta nashr qilingin.

Maxtumquli faqat turkman adabiyotining emas, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotining faxri hisoblanadi. Uning she‘rlari Turkmanistonda qanday e‘zozlansa, O‘zbekistonda ham xuddi shunday qadrlidir. Shoir she‘rlarida tasavvuf falsafasi ma‘naviyati kuylanadi. Ayniqsa, naqshbandiylik tariqati g‘oyalari

Maxtumqulining har bir she`rida uchraydi. O`rta Osiyo turkiy xalqlarining ruhiga mos ohanglar, uning she`riyatini juda mashhur qilib yuborgan. Shoirning «Ko`ring», «Raygon ayladi», «Bo`lmas», «Na`masan», «O`tib boradir» kabi she`rlaridagi pand-nasihat o`quvchiga juda ta`sirli qilib berilgan. Bu she`rlardagi aytilgan fikrlar «Qur`on» va «Hadis»dagi hikmatlarning aks-sadosiday jaranglaydi.

*Kimlar toju taxtda farmonlar bitib,
Kimlar saman minib, yo`llarni o`tib,
Kimlar padarini, elin xor etib,
Gunoh zindoniga botib boradir...*

*Maxtumquli, kimsa dashtlarda sarson,
Kimsa aylar bo`ldi zolimdek farmon,
Kimlar bu dunyoda chekadi armon,
Kimlar xandon bo`lib o`tib boradir.*

Ko`rinib turibdiki, bu misralarda davr va shaxs o`rtasidagi ziddiyatlar orqali hukmdorlarni, zolimlarni insofga chaqirmoqda. Shoirning ijodida bunday mazmundagi she`rlar anchagina bo`lib, ularda oddiy turkman xalqining orzu-umidlari, o`y-xayollari, kelajak haqidagi shirin xotiralari o`z aksini topadi. Vatanparvar shoir ijodi el-yurt dardi bilan hamohang bo`ldi. Adolatli hukmdorlar, insofli boshliqlar yurtni himoya qiladi, elni turli g`alamislarga talatgani qo`ymaydi. Agar boshliqlar noinsof bo`lib, ular faqat o`z manfaatini o`ylasalar, ishi-dardi pora olib, xalqni xonavayron qilsalar qiyomat degani shu bo`ladilar.

*Shohlarda qolmadi hukmi adolat,
Bir pul uchun mufti berar rivoyat,
Bil, bu ishlar nishonayi qiyomat,
Zolimlar betavba o`ta boshladi.*

Maxtumqulidan sal oldinroq yashab o`tgan mashhur o`zbek shoiri Turdi Farog`iy o`zbeklar yurtidagi bosh-boshdoqchilik, parokandalik, o`zaro kelishmovchiiklarni qattiq qoralab:

*Tor ko`ngullik beklar man-man demang, kenglik qiling,
To`qson ikki bari o`zbek yurtidur, tenglik qiling,*
deb xalqni birlashishga, inoq, ittifoq bo`lib yashashga chaqiradi.

Bundan sal keyinroq yashagan Turkman shoiri Maxtumquli Firog`iy esa o`zining «Turkman binosi» she`rida xuddi Turdi she`riga hamohang she`r yozib turkman urug`larini birlashishga chaqiradi.

*Taka, yovmut, yazir, go`klang, ahal eli bir bo`lib,
Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gullolasi.*

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu davrda Markaziy Osiyoda yashayotgan turkiy millatlarda o'z-o'zini anglash tushkunlik davridan o'zini o'nglab olishga intilishga harakat kuchaya borgan.

Qirg'iz yozuvchisi, davlat, jamoat arbobi, diplomat. Qirg'iziston xalq yozuvchisi (1968). Qirg'iziston Fanlar Akademiyasi akademigi (1974). Qirg'iziston Qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan (1953). 1956-58 yillari Moskvadagi yozuvchilar uyushmasi Oliy adabiyot kursi tinglovchisi. Asarlarini qirg'iz va rus tilida yozgan.

Ilk hikoyalari 1950-yillarda bosilgan. "Baydamtol sohillarida" (1955), "Yuzma-yuz" (1957) asarlari o'tkir syujet, kuchli ichki ruhiy ziddiyatlarga boy. "Jamila" (1958), "Sarvqomat dilbarim" (1961), "Bo'tako'z", "Birinchi muallim" (1962), "Momo yer", "Somon yo'li" (1963), "Alvido, ey Gulsari" (1966) kabi qissalarida muhabbat mavzui katta ehtiros bilan tarannum etilgan.

Aytmatovning "Tog' va cho'l qissalari" turkumiga kirgan asarlari yuksak baholandi. Aytmatovning "Oq kema" (1970) qissasida insoniy go'zallik, ezigulik va hayot ziddiyatlari, ekologiya muammolari teran tadqiq etiladi. "Oq kema" kinofilmi ham asar kabi shuhrat qozondi. "Dengiz yoqalab chopayotgan olapar" (1977) qissasida muhim ma'naviy masalalar, sho'ro davridagi hayotning mash'um manzaralari o'z ifodasini topgan.

"Asrga tatigulik kun" (1980), "Qiyomat" (1986), "Kassandra tamg'asi" (1990) romanlarida zamonamizning umuminsoniy tomonlari, ona Sayyoramizning taqdiri, kuchli falsafiy, axloqiy va ijtimoiy muammolar ko'tarilgan. O'tmishini unutgan, hissiz, hamma narsaga loqayd, itoat-u, buyruqni bajarishdan boshqa narsani bilmaydigan, tuyg'u, noziq hissiyotlari so'ngan manqurt obrazi tasviri Aytmatov ijodining muhim qirralaridan biri bo'ldi.

Aytmatovning «Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori» (M. Shoxonov bilan hamkorlikda) asari ma'naviyatga bag'ishlangan. Aytmatov prozasida ruhiyat tahlili an'anaviy folklor, mifologiya, obrazlilik bilan uyg'unlashib ketadi. Unda masal, ramziylikka moyillik sezilarli darajadadir.

Chingiz Aytmatov "Inostrannaya literatura" (Moskva) jurnaliga muharrir (1980-90), 1990 yildan Rossiya Federatsiyasining, 1991-yildan Qirg'iziston Respublikasining Lyuksemburg, Belgiyadagi elchisi. Aytmatov tashkil etgan "Issiqko'l forumi" xalqaro tinchlik harakati, muhim ijtimoiy masalalarni hal etishda samarali ta'sir o'tkazmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti (1995-2008).

Aytmatovning asarlari jahonning 154 tiliga tarjima qilinib, 20 mln.dan ortiq nusxada chop etilgan (1999). "Sarvqomat dilbarim" ("Dovon"), "Bo'tako'z"

("Jazirama"), "Birinchi muallim", "Jamila", "Alvido, ey Gulsari" va boshqa ekranlashtirilgan, o'zbek va chet el teatrlarida sahnalashtirilgan. «Momo yer» asariga I. Akbarov musiqa yozgan. Aytmatovning qariyb hamma asarlari o'zbek tilida nashr etilgan.

Aytmatov o'zbek adabiyoti, umuman, o'zbek madaniyati tarixini yuksak baholab, "Qadim-qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning Qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin", deb hisoblaydi. Aytmatov O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» (1995), «Buyuk xizmatlari uchun» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qirg'iziston Respublikasida Xalqaro Chingiz Aytmatov nomidagi «Oltin medal» mukofoti ta'sis etilgan (1999).

HOZIRGI ZAMON SHARQ ADABIYOTI

Reja:

1. *Xitoy adabiyoti va uning shakllanish bosqichlari.*
2. *Yapon adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Koreys adabiyoti haqida.*

Xitoy adabiyoti Qadim va mumtoz davr xitoy adabiyoti Xitoy adabiyotini davrlashtirish masalalari. «Shi szin» yozma yodgorligining mumtoz Xitoy adabiyoti shakllanishida tutgan o'rni. Notiqlik san'ati va falsafiy maktablarning paydo bo'lishi. Qadimgi Xitoy mifologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Ilk individual shoirlar ijodi. Xan davri she'riyati. Ilk o'rta asr adabiyotining shakllanishi. Olti sulola davri adabiyot merosi. Jianan she'riyati namoyandalari. O'rta asr xitoy lirikasining asoschisi Tao YUanmin ijodining o'ziga xos xususiyatlari. Tan davri she'riyati asoschilari ijodining shakllanish omillari. Uyg'onish davrining xususiyatlari (VIII-XII asrlar). Van Vey ijodida Renessans elementlari ifodasi. Li Bo ijodida romantik tuyg'ularning ifodasi. Xalq qayg'usi kuychisi – Du Funing ijodiy merosi. Xitoy adabiyotida kichik epik janrlarning paydo bo'lishi. VIII-X asr hikoyanavisligi. Tan novellistikasi. Mo'g'il istilosi davri (XIII-XIV asrlar). Dramaturg Guan Xan sinning ijodi (YUan dramasi). Chuanchi janrida yozilgan novellalarning genezisi. Yangi davr va zamonaviy xitoy adabiyoti O'rta asr Xitoy adabiyotida janrlar xilma xilligi. Xitoy adabiyotida ilk ma'rifparvarlik davri. Xitoy adabiyotida romanchilikning paydo bo'lishi. (XVI asrning birinchi yarmi-XVII asrning ikkinchi yarmi). Xitoy adabiyotiga yangi davr siyosiy o'zgarishlarning ta'siri. Li YUy (1611-1680) va uning dramaturgiyadagi o'rni. «Dramaturgiya» traktati. Xun SHen dramaturgiyasi, «Mangulik qasri»

dramasining g'oyasi. Kun SHanjen va uning «SHAftoli gulli yelpig'ich» dramasi. Pu Sun Linning novellistikasi. sao Syuetsin va uning «Qizil saroydagi tush» romani. Xitoy eng yangi davr adabiyoti rivojlanishi va «4 may xarakati». Lu Sin «Telbaning xatlari» hikoyasining taxlili. Mao Dunning xayoti va ijodi. 1966-1976 yillar davomidagi «madaniy revolyutsiya»ning adabiyotga ko'rsatgan ta'siri. Lao She ijodida g'arb falsafasining o'rni va ijodidagi ifodasi. Yapon adabiyoti Qadim va mumtoz davr yapon adabiyoti YApon adabiyotini davrlashtirish masalalari. Kodziki adabiyoti ilk afsonaviy asar. XV-XVI asrlarda shahar adabiyotining rivoji. Simadzaki Toson va yangi she'riyat. Man'yosyu antologiyasida she'riy janrlar. Xeyan davri adabiyoti. Taketori-monogatari monogatari janridagi ilk asar. Sey Syonagon ijodi va «Makura no Sosi» asarining badiiyati. «Kokinsyu» antologiyasi qadimiy yapon she'riyati to'plami. Kabuki i Dzyoruri teatrlarining o'ziga xosligi. «Ise monogatari» asarining lirik qissalarida sevgi mavzusi. Murasaki Sikibu va uning «Gendzi monogatari» romani haqida. Yangi davr va zamonaviy yapon adabiyoti Yaponiyada ma'rifatchilik davri adabiyoti. Miamoto YUriko hayoti va ijodi. Realizm taraqqiyoti. Ftabatey Sitey ijodi. Mori Ogay ijodining o'ziga xosliklari. Abe Kobo ijodi. YAponiya adabiyotida yoshlar mavzusi. Naturalizm. Simadzaki Toson nasri. Adabiy to'garaklar faoliyati. Tanidzaki Dzyun'itiro ijodida an'ana va novatorlik. Noma Xirosi ijodi 14 An'analarning davom etishi. Kavabata Yasunari ijodida estetik qarashlar. Realizmning taraqqiy etishi. subouti Syoyo ijodining o'ziga xosligi. Adabiyotda urush mavzusi. Gomikova Dzyumpey ijodi. Koreys adabiyoti Qadim va mumtoz davr koreys adabiyoti Koreys adabiyotini davrlashtirish masalalari. XIV asrgacha bo'lgan koreys adabiyoti. Koreya adabiyotining ilk davri (X asr o'rtalarigacha). Tarixiy nasrning taraqqiyoti. Buddizmning koreys adabiyoti va madaniyatiga ta'siri. Koreys adabiyoti tarixining ikkinchi bosqichi. (X-XIII asrlar). Klassik yodgorliklarning yaratilishi. Koreys adabiyoti tarixining uchinchi bosqichi. (XII-XIV asrlar). Xangilda she'rlarning yaratilishi (xyanga). Kichik shakldagi «pxesol» janrining paydo bo'lishi. Koreys alifbosining yaratilishi va koreys tilidagi ilk adabiy manbalar Poemalar yaratilish davri («sijo», «kasa») Qissa janrining shakllanishi. «Pxesol» adabiyotining ravnaqi. Rivoyat, novella, ocherklar. Koreyaning XVII asrda ijtimoiy-tarixiy sharoit va adabiy jarayon. Yangi davr va zamonaviy koreys adabiyoti «Chansijo» ning shakllanishi. Xanmunda nasr. Hikoya, roman janrlarining rivoji. Koreys yangi davr adabiyoti (1945 yildan to bugungi kungacha). Ozod Koreya adabiyoti. Zamonaviy nasr va uning taniqli namoyandalarining ijodiy merosi. Koreys adabiyotidagi an'anaviy yo'nalishlar. Zamonaviy she'riyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Teatr san'ati, dramalarda koreys milliy ruhining aks etishi. XX asr ikkinchi yarmi

adabiyotining rivojlanish omillari (Nasr. She'riyat. Dramaturgiya) Turk adabiyoti Qadim va mumtoz davr turk adabiyoti Turk adabiyotini davrlashtirish masalalari. Jalolidin Rumiylarning xayoti ijodi. Boqiy poeziyasi. Axmad Poshsho ijodi. Turk adabiyotida lola davri. Axmad Nodim. Turk didaktik dostonlari. Yusuf Nabi. O'rta asr turk adabiyoti satira. SHayxiy, Umar Nafi. Yangi davr va zamonaviy turk adabiyoti Saboxiddin Ali romanlari. Nozim Xikmat she'riyati. Aziz Nesin satirasi. O'rxon Pomuq romanlari. Umar Sayfiddin hikoyanavis. Yashar Kamol ijodida folklorizm.

XX asr Sharq adabiyotining nazariy masalalari Jahon adabiyoti tarkibida barqarorlik va rivojlanish dinamikasi. Adabiyotning mintaqaviy va milliy o'ziga xosligi. Madaniy an'analarning adabiyot uchun ahamiyati. Xalqaro adabiy aloqalar. Adabiy tushunchalar va oqimlarning almashinuvi – adabiy jarayonning asosiy omili. YAngi davr jahon adabiyoti va milliy adabiyotlar. Yangi davr Sharq xalqlari adabiyotidagi o'zgarishlar va ularning tarixiy-ijtimoiy omillari. Yangi davrda yevropa adabiyoti va falsafiy estetik oqimlarining sharq xalqlari adabiyotiga ta'siri. Yangi sharq adabiyotida ijodiy metod va uslublar rangbarangligi. XX asr Sharq adabiyotida yangilanishlar. XX asr realizmining o'ziga xosligi va oldingi davr realizmidan farqi. Realizmning ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy - falsafiy, qahrmonlik va boshqa chizgilari. Neorealizm. Magik realizm. Intellektual realizm. SHarq adabiyotida ularning namoyon bo'lishi. Neorealistik oqimlar modernizm arafasida. Simvolizm va naturalizm. Modernizm va ularning ko'rinishlari: ekspressionizm, syurrealizm, absurd, ekzistensializm va boshqalar. SHarq adabiyotida modernizm unsurlari. “Ong oqimi”–modernizmning uslubiy usuli. Postmodernizm, uning modernizmdan farqi va asosiy belgilari: tazminlash, intertekstuallik va hokazo. Milliy sharq adabiyotlarida (turk, hind, arab) postmodernizm tamoyillari.

LOTIN AMERIKASI ADABIYOTI

Reja:

1. *XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti vakillari ijodi: P.Neruda, G.Markes.*
2. *Lotin Amerikasi adabiyotida “Sehrli realizm” istilohi.*
3. *Kortasar, Borxes, Onetti ijodi.*

Kolumbiya adabiyoti mamlakat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, tarkibiga ko'ra nihoyatda xilma-xildir. Ispan, hindu va afrika (bu o'lkaga qul sifatida keltirilgan xalqlar) madaniyati va adabiyoti ta'sirida ko'plab janr va yo'nalishlar shakllangan.

Jahonda munosib o'ringa ega bo'lgan Kolumbiya adabiyoti Kamilo Torres, Xorxe Isaaks, Xulio Arboleda Pombo, Rafael Pombo, Gabriel Garsia Markes, Alva-ro Mutis, Manuel Mexia Valexo, Fernando Valexo, Vilyam Ospina, Luis Karlos Barragan Kastro singari yozuvchilari bilan haqli ravishda faxrlanadi. Faqatgina G.Markes va A.Mutislar xalqaro miqyosda erishgan yutuqlarning o'ziyoq ushbu mamlakatda adabiyot nechog'li rivojlanga-nini anglatadi. Jumladan, vatanining dong'ini butun dunyoga tanitgan **Gabriel Garsia Markes** adabiyot sohasidagi Neyshtadt xalqaro mukofoti (1972 yil, AQSH) hamda Nobel(1982 yil, Shvetsiya) mukofotlari sohibi bo'lsa, Alvaro Mutis eng yaxshi xorijiy roman yo'nalishi bo'yicha Fransuz akademiyasining Medichi(1989 yil, Fransiya), Asturiya malikasi nomidagi mukofot(1997 yil, Ispaniya), iberoamerika she'riyati bo'yicha malika Sofiya mukofoti(1997 yil, Ispaniya), "Migel de Servantes" (2002 yil, Ispaniya) va Neyshtadt xalqaro mukofoti(2002 yil, AQSH), shuningdek, bir qancha milliy mukofotlar bilan taqdirlangan.

Bundan tashqari, Gabriel Garsia Markes(1972 yil, "YOlg'izlikning yuz yili" romani uchun), Manuel Mexia Valexo(1989 yil, "Ikki pal-ma ostidagi uy"), Fernando Valexo(2003 yil, "Jar"), Vilyam Ospina (2009 yil, "Dorivorlar mamlakati") Lotin Amerikasining adabiyot sohasidagi oliy mukofoti— Romulo Galegos nomidagi mukofotga sazovor bo'lishgan.

Lotin Amerikasi adabiyotidagi portlash 1960–1970 yillarda Lotin Amerikasiga xos"portlash" adabiy harakatining vujudga kelishi kolumbiy adabiyoti uchun nihoyatda foyda-li bo'ldi. Ushbu davr vakillarining bir qanchasi jahoniy mashhurlikka erishdilar. Ular qatorida Gabriel Garsia Markes, Eduardo Kabalero Kalderon, Manuel Mexia Valexo, Alvaro Mutis, Manuel Sapata Olivelya, Andres Kaysedo, Alfredo Iriarte, Xerman Arsinegas, Alvaro Sepeda Samudio, Nikole Kammerer singari ijodkorlar bor.

Argentina adabiyoti Lotin Amerikasi adabiyotining ko'pohangli, serjilo, sermahsul qismidir. Bu hududda yashagan qadim qabilalarning folklor matnlari yetib kelmagan. Ammo xalq she'riyatidagi o'ziga xoslik ke yingi davrlarda o'zlashtirilgan adabiy ohanglar, obrazlar, uslublar bilan qorishiq holatda yashashda davom etdi va milliy adabiyotni yuzaga keltirdi. Ar-gentina adabiyoti bir necha davriy bosqichlarni o'tagan bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'lanishga ega.

Mustamlakachilik davri adabiyoti. XIV–XIX asrlarda adabiyot ispan madaniyati ta'sirida bo'ldi va ispan tilida yaratila boshlandi. Davrning ilk yozuvchi va shoirlari Luis Pardo, Mateo Roxas de Okendo va Bernal Dias del Kastilo bo'lishgan. Ulrix SHmidl bo'lsa"Isپaniya hamda Hindistonga safar va yo'l" nomli tarixan davrlashtirilgan ilk tadqiqotning muallifi edi. XVIII asr oxiri va XIX asr

boshlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari keng yoyildi, shu mazmundagi M.de Lavarden, D. de Asuenaga asarlari paydo bo'ldi. Mustaqillik davri adabiyoti. 1810–1826 yillarda Ispaniyaga qarshi olib borilgan urush harakatlari natijasida B. de Monteagudo, V.Lopes-i-Planes, X.Kruves Varela ijodida vatanparvarlik ruhidagi klassitsizm yo'nalishi yetakchilik qildi.

Argentinaning o'ziga xos adabiyoti va uning ilk kurtaklari 1812 yildagi Argentina mustaqilligidan so'ng, kreol hamda gaucho madaniyati zaminida taraqqiy eta boshladi. Bu adabiyot tashqi dushmanlarga qarshi turish, shuningdek, gaucho hayoti hamda yangi yerlarni kashf etish g'oyalarini ifoda etar edi. Manbalarda aynan mana shu davr adabiyoti zamonaviy Argentina adabiyotining asosi deya qaraladi. Milliy adabiyot E.Echeverria, X.M.Guterres, D.F.Sarmento she'rlari, dramalari, nasriy va publitsistik asarlari bilan qad tiklay boshladi.

XIX asrning o'rtalarida taraqqiy etgan gaucho madaniyati ayni shu davrdan zamindorlar kirib kelishi bilan so'nish davrini boshlab yubordi. Bu adabiyot yaratgan obrazlar hayotiy zamindan uzilib poetik zaminga o'tishga majbur bo'ldi. SHunday qilib, XIX asrning ikkinchi yarmida pampa folklori kayfiyatidagi“gaucho adabiyoti” asosiy adabiy yo'nalishga aylandi.

Bartolome Idalgo (1788–1822) birinchilardan bo'lib folklor ifoda shakllarini tiklashga uringan. I.Askasubining siyosiy va lirik she'rlari, “Santos Vega” she'riy romani(1851), X.Marmolning“Amaliya” romani(dastlabki milliy roman, 1855), X.Ernandesning “Martin Ferro” qahramonlik dostoni(1872) yaratildi. Dostonda gaucho Martin Ferroning mardonavor hayoti kuylanadi, uning intilishlari milliylik darajasida qabul qilinadi.

Argentina romantizmi Esteban Echeverriya va uning “Qushxona” hikoyalar to'plami hamda“Asira” poemasi bilan bog'liq. 1880 yillardan Buenos-Ayresda adabiy ko'tarilish kuzatildi. Almafuyerte she'riyati, X.M.Estrada, X.Gonsales, P.Go yen, M.Kane, E. Kambaseras, X.Martel nasri aynan shu davrga aloqador.

Ma'lum bo'ladiki, XX asrga qadar kechgan Argentina adabiyotining asosini folklor ruhidagi adabiyot tashkil qilgan. Folklor aynan to'ldira olmagan o'rinlar, xususan, milliy qahramonlik dostonlarini yaratish alohida mualliflar zimmasiga tushdi. Ammo bu milliy adabiyot G'arbiy yevropa xalqlari madaniyatidan xoli bo'lmagan, aytish mumkinki, ular ta'sirida vujudga kelgandir. Argentina yuqori tabaqalari Parijni o'zlarining ikkinchi vatani hisoblar, XIX asr Argentina siyosiy va falsafiy tafakkur tarzi fransuzlarga ergashgan edi. Argentina adabiyotida Angliya va Italiya ta'siri ham katta bo'lgan. Bunday yasalgan qorishiq madaniyat zaif, ammo unutilmas gaucho madaniyati izidan ergashdi. Gaucho madaniyati ham sof milliy hodisa emas. Mintaqaga kirib kelgan yevropa xalqlari boyliklarni

o'zlashtirish uchun mahalliy xalqlar bilan yaqinlashdi, bu jarayon natijasi-da paydo bo'lgan qarishiq irq vakillari gaucho madaniyatini yaratgan edilar.

XX asrda siyosiy hayotning me'yorga tushishi bilan adabiyotda yangi davr boshlandi. 1910–1920 yillarda Argentina avangardchilari yevropada keng tahlil qilinayotgan inson va taraqqiyot tanazzuli muammosiga berildi. Asrning 20-yillari ijtimoiy romanlar davri bo'ldi. Bu davr ham gaucho madaniyatini yangi qiyofada tiklashga intilgan. 1925 yilda Buenos-Ayresda yosh yozuvchi, shoirlar milliy adabiyotni tiklash uchun birlashdilar. Bu tamoman yangi uslub, yangi obrazlarga ega, ramzlarning cheksiz olamiga yo'l ochadigan tango ruhidek yovvoyi, jozibali, poeziyani yaratish istagi bilan aloqador edi. Ularning “Martin Ferro” nashr idorasi milliy syujetlar qolipidagi avangard adabiyot namunalarini chop eta boshladi. R.Guiraldes, B.Linch romanlari gaucho davrini romantik tarzda ifoda etgan. SHoir Leopoldo Lugones milliy tiplar va syujetlarni izohlovchi simvolik asarlar yaratdi. E.M.Estrada o'z esselarida gaucho madaniyatini tadqiq etdi. Dramaturg, shoir, tarixchi Rikardo Roxas(1882–1957); shoira Alfonsina Storni(1892–1938); bastakor Evaristo Karrego(1883–1912) tango ruhidagi poetika va musiqaga ergashdilar, ular “Sur” (“Janub”) adabiy jurnalida uzluksiz chiqish qilar edilar.

Leopoldo Lugones(1874–1938) Lotin Amerikasi modernizmining yetakchi vakillaridan biridir. U zamondosh modernist-shoirlar bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan, adabiy oqimlardagi har bir yangilikni kuzatib borgan va milliy adabiyotga tadbiq etishga uringan. Uning birinchi she'rlar to'plami “Oltin tog'lar” (1897) nomi bilan chop etilgan. U ifodalarda Edgar Po, Sharl Bodler va Braziliya simbolisti Kruz-e-Souzaga vorislik qilgan. Shu birgina to'planning o'zi muallifning qiyofasini yetarlicha ko'rsatib berdi. Satrlarda yuksak ohanglar, obrazlar nafosati va estetizmi, mistik tasavvurlarga ishqibozlik namoyon bo'lar edi. Shoirning “Asrlarga qasida” (1910) to'plami ham butun Lotin Amerikasida mashhur bo'lib ketdi. Leopoldo Lugones “Tasvirlar kitobi” (1917), “Rio-Seko romanslari” (1939) kabi she'riy, “Yot kuchlar” (1906), “YOziqdagi hikoyalar” (1926) nasriy to'plamlar muallifi hamdir.

1930 yilning boshlarida Argentinada adabiy an'analarga sodiqlik va ayni vaqtda adabiy tajribalar shu qadar sinkretik tarzda namoyon bo'ldiki, bu jarayon X.L.Borxes, X.Kortasar ijodi misolida ham ko'rinadi. Butunlay yangicha tajribaviy yo'ldan borgan Borxes adabiy-estetik bilimlarga to'yingan vaqtda an'anaviy vaznda she'rlar yozdi, so'ng yana tajribalar yo'lga o'tib bordi. Fantastik, she'riy hikoyalar, boshqotirma detektivlar yaratish kuchaydi. Xorxe Luis Borxes(1899–1986), Adolfo Boy Kasares (1914–1999), Leopoldo Maregal(1900–1970), Eduardo Malea(1903–1982) ijodida aynan shunday janrlar yetakchilik qildi.

60-yillarning boshlariga kelib Lotin Amerikasi adabiyotida “sehrli realizm” nomli yangi adabiy oqim yuzaga keldi. Bu oqim vakillari o’z individual miqlarini (reallikdan uzilgan, alohida xronotopga joylashtirilgan) yaratishga urindilar. Bu miqlarda hindu, gaucho, ispan, fransuz, ingliz, portugal an’analari qorishar va yangi nasr, xususan, yangi roman ufqlarini ochar edi. Bu davr avlodi vakillari orasida uch yozuvchi: *X.L.Borxes, Ernesto Sabato va Xulio Kortasar* dunyo miqyosida tanildilar.

Xorxe Luis Borxes (1899–1986) nosir, shoir, esseist, publitsist, tarjimon hamdir. U falsafiy, xayoliy, tarixiy tasavvurlarni umumlashtirib, o’z uslubini yaratgan ijodkor. Borxesning qonida bask, andalus, yahudiy, ingliz, portugal, norman qoni qanday qorishgan bo’lsa, asarlarida falsafa, san’at, adabiyot, tarix shunday qorishiq va bir butun tarzda namoyon bo’ladi. 1914 yili oilasi bilan Jenevaga ko’chgan Borxes Jeneva kollejida o’qib, fransuz tilini o’rganadi, shu tilda she’rlar yoza boshlaydi. 1918 yili Ispaniyada bo’lib, shoirlarning avangard guruhiga yaqinlashadi. “Gretsiya” ispan jurnali uning ilk she’rlarini nashr etadi.

U 1921 yili Buenos-Ayresga qaytdi va o’zining “Ultraizm” sarlavhali maqolasini e’lon qildi. Shu tariqa Argentina adabiy muhitini ispan avangardizmi tamoyillari bilan tanishtirdi. Yangi ifoda shakllarini ko’rsatib berish uchun Buenos-Ayres haqida erkin vaznda she’rlar yaratdi. 1923 yili 33 she’rdan iborat “Buenos-Ayres jazirasi” nomli ilk she’rlar to’plami, “Uydirmalar” (1944), “Jimjimalar” (1960) kabi fantaziyaga to’yingan nasriy asarlari chop etildi. 1930 yillardan Argentina adabiyoti, san’ati, tarixi, kinosi haqida ko’lamdor esselar, adabiy jurnallar uchun dunyo adabiyotining sara asarlari haqida taqrizlar yozdi. Virjiniya Vulf asarlarini tarjima qildi. 1937 yilda Argentina mumtoz adabiyoti antologiyasini nashr ettirdi. 1950 yilning boshlarida Borxes an’anaviy o’lchovdagi ma’yus ohangli she’rlar yozdi. 1955–1973 yillarda Argentina Milliy kutubxonasida direktor vazifasida ishladi. 1972 yilda AQSH universitetlarida ma’ruzalar o’qidi. Juda ko’plab milliy va xalqaro mukofotlar sohibi X.L.Borxes 1986 yil Jenevada vafot etdi.

Xorxe Luis Borxes zamonaviy dunyoga o’ta metaforik va falsafiy mubohasalar ko’zi bilan qaragan, bu yondashuvi bilan tarixga yo’llangan yangi yo’lni ochib borgan shoir-yozuvchidir. U olamni bir vaqtning o’zida ham shoir, ham nosirdek o’zlashtirdi va ifodaladi. Borxes metafizika va reallik o’rtasidagi shaffof devor ustida o’tirib fikrlaydi, yozadi. Xayoliy va sehrli tasvirlarni– Borxes miqlarini yaratadi, ularning borligiga ishontiradi.

“Shekspir xotirasi” nomli hikoyasida bir kishiga tegishli o’tmishni boshqa bir xotiraga o’rnatadi, bu xotira o’ta sirli tarzda o’z egalarini birma-bir almashtirib

turadi, ularning hayotiga daxl qiladi. O'lis o'tmishning hozir va kelajak bo'lib xotirada xuddi tirik jonzotdek harakatlanishi hayrat va sirdoshlik uyg'otadi. Real makon va zamonda tug'ilgan mangu xotira yillarning shaffof devoridan sekin, sassiz irreal holatda sirg'alib chiqadi-da, real makon va zamonda o'ziga sohib izlaydi. Hikoyaning qo'rquv uyg'otuvchi sehri shundaki, bu xotira oramizdagi kimdadir uyg'onib qolishi, balki hikoya o'qiyotgan kitobxonga o'rnashib, uni shaxsiy xotirasidan mahrum qilishi mumkin.

Xulio Kortasar (1916–1984) adabiy faoliyatini 1940 yillarda boshlagan. U “Hozirlik” nomli ilk she'rlar kitobi(1938), “Bestiariy” hikoyalar to'plamida(1951) Borxesga shogirdlik qildi. Uning“Ishg'ol qilingan uy” nomli ilk hikoyasi (1946) ham Borxes tomonidan tashkil etilgan adabiy jurnalda chop etilgan edi. Kortasar1951 yili Fransiyaning adabiy yo'nalishdagi stipendiyasini qo'lga kiritganligi, shuningdek, Argentinadagi siyosiy hayotdan noroziligi sabab vatanini tark etdi. Parij adabiy, madaniy hayotiga kirib bordi, YUNESKO idorasida tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullandi. Um-rining so'ngiga qadar Fransiyada yashadi.

Muallif ijodidagi alohida bir jihat shundaki, uning o'zi nashrga tayyorlagan ayni hikoyalar har gal har xil holatda nashr bo'lgan. Ular doi miy ish-langan, boyitilgan, syujet qobig'ida turli munosabat qavatlari paydo bo'la borgan. Bu esa uning asarlari haqidagi adabiy qarashlarning, tarjimalarning uzluksiz o'zgarib borishiga olib keladi. Yillar davomida e'lon qilingan “Imtihon”, “Yutuqlar”, “Klassiklar o'yini”, “62. To'plam uchun andoza” ro-manlarida, “Zahar”, “Mixlab tashlangan eshik”, “Sariq gul”, “Sirli qurol”, “Hamma olovlar– olovdur”, “Janubiy shosse” hikoyalarida o'qish va yaratish birdek davom etadi. G'oya ichida g'oya, syujet ichida syujet, obraz ichida obraz va ular yuzaga keltirayotgan matn ichida matnlar o'quvchi shuurini domiy band qilib turadi, oxiri yo'q voqelarning yakunini o'zi yaratishga majbur qiladi.

Qayta-qayta o'qish, har gal o'qilganda har xil tushunish, tushunishning o'quvchi dunyoqarashiga mos tarzda kengayib va torayib borishi asar o'qishdagi asosiy jarayonga aylanadi. Bir qahramonni turli qiyofada ikkilantirish, uchlantirish va ularni harakatning umumiy oqimida uchrashtirish kabi poetikaning yangi o'yinlari rebusni yechgandagi huzurni beradi, o'quvchilarda yangi adabiy ehtiyojni tug'diradi va bu ehtiyojni uning o'zi qondiradi.

“O'yinning tugashi” hikoyasida ichki qiyofaning o'yinda, niqobda tashqi olamda namoyon bo'lishi ifodalangan. Tashqi olam kasalmand qizning asl holatini yoqtirmadi va u yashashning yangi shaklida– o'yin ichida, niqobda harakatni

boshladi. Simvolika, tabiiy psixologizm, oddiy syujetning tig'iz va murakkab qavatlari asarda "sehrli" kuch yashirinib yotgandek tasavvur uyg'otadi.

Borxes, Sabato, Kortasar asarlarida realizm, sehrli realizm, modernizm, postmodernizm belgilari qorishiq holatda namoyon bo'ladi. Bu davrga kelib ham Argentina adabiyoti sinkretik xossasini saqlab qolgani ma'lum bo'ladi. Keyingi davr Argentina romannavislari David Vinyas(1920), Manuel Puig (1932–1990), Rikardo Pilya(1941), Osvaldo Soriano(1943–1997) bo'ldilar.

AQSH va KANADA ADABIYOTI

Reja:

1. *Amerika adabiyoti taraqqiyoti.*
2. *Jek London hayoti va ijodi.*
3. *J. London romanlari va hikoyalari.*
4. *E.Xemenguey hayoti va ijodi.*
5. *"Chol va dengiz" asari tarjimasi va tahlili.*

Tayanch tushunchalar: jahon adabiyoti, Amerika adabiyoti, Lotin Amerikasi adabiyoti, rus va o'zbek adabiyoti, adabiy tur va janrlar, romanchilik maktablari, realizm, tanqidiy realizm, tarjima, adabiy ta'sir.

Jek London – XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida yashab ijod etgan Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, keng xalq ommasining o'z huquqlari uchun kurashini aks ettirgan mashhur realist yozuvchi.

Jek London Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida kambag'al fermer oilasida tug'iladi. U bolalik chog'laridanoq hayotning hamma og'ir mashaqqatlarini boshidan kechiradi – o'n yoshidan ko'chalarda gazetalar sotadi. Jek o'smir yoshiga yetgach, konserva fabrikasida 12-14 soatlab ishlaydi. Bunday ish uni, shubhasiz, holdan toydiradi. Jek ustritsa balig'ini yashirincha ovlash bilan ham shug'ullanadi. Matros bo'lib Uzoq Sharqqa qatnaydi, bir necha muddat elektrostansiyada o't yoquvchilik qiladi. Ko'p o'tmay ishsiz qolib, mamlakat bo'ylab kezib chiqadi.

Jek London 1895-yilda ishchilar partiyasiga a'zo bo'lib kiradi va uning tashviqotchilik va targ'ibotchilik faoliyati boshlanadi. 1896 yilda u yozuvchilikka berilib, o'z kuchini turli janrlarda sinab ko'radi. Universitetga kirib bir yil o'qiydi, ammo iqtisodiy ahvoli o'qishni tashlab ketishga (1897) majbur etadi. Kir yuvish korxonasiga ishga kirganida, og'ir mehnat uning tinkasini quritadi. Shundan so'ng

u oltin koni topilgan Alyaskada ishlab, katta hayotiy tajriba orttirib qaytadi. Yosh Jek har qadamda burjua jamiyati tugʻdirgan dahshatlar nimadan iborat ekaninn oʻz koʻzi bilan koʻrib ulgʻayadi.

Jek Londonning ijodi shunday ogʻir sharoitda boshlanadi. 1899 yilda Amerika jurnallarida Shimol hayotidan olib yozilgan «Yoʻldagilar sharafi uchun», «Oq sukunat», «Boʻrivachcha», «Qirq mil narida» va boshqa hikoyalari paydo boʻladi. «Otalar xudosi» (1901), «Sovuq bolalari» (1902) hikoyalar toʻplami yozuvchiga katta shuhrat keltiradi.

1905-1910-yillar Jek London ijodining yuqori choʻqqisi hisoblanadi. U shu davrda «Temir tovon» va «Martin Iden» kabi eng yaxshi romanlarini yozadi.

Jek Londonning hayoti qisqa, lekin ijodi sermahsuldir. U juda koʻp hikoya, qissa, ocherk, pyesa va romanlar yaratadi. Hikoyalarining aksariyati Uzoq Shimoldagi mashaqqatli turmushga bagʻishlangan. Mangu sovuq va Oq sukunat oʻlkalaridagi ogʻir hayot romantik qahramonlarni tasvirlashga material boʻlib xizmat etadi. Zoʻravon jamiyat siyosatlaridan uzoqdagi bu yerlarda haqiqiy insoniylik sinovdan oʻtadi, xudbinona intilishlar shaxsni qanday fojiali ahvolga olib borishi mumkinligi oʻzining real ifodasini topadi. Oʻsha yerlarda kapitalistik madaniyat va uning yaramas xulq-atvoriga goʻzal tabiat va uning keng bahrida ishlayotgan odamlarning juda qiyin va erkin hayotlari qarshi qoʻyiladi.

Shimol haqidagi hikoyalarining personajlari turli toifa kishilaridir. Ular orasida oltin izlovchilar va ovchilar, sayyohlar, avanturist va boshqalar bor. Shimol muhiti odamlarga taʼsir etmay qolmaydi. Masalan, «Jis-Uk» hikoyasida Bonnar chekka yerga borib qolib, oʻsha yerda besh yil yashaydi. Mehnat uni yalqovlik va yengil-yelpi harakatlardan qutqaradi va endi u haqiqiy inson boʻlib yetishadi.

«Smok Bellyu» hikoyasining qahramoni ham Shimolga borgach, ogʻir mehnat tufayli oʻzgarib, jasur kishiga aylanadi.

Bu asarlarda kishilar erkinlikka intiladilar, oʻz insoniy burch va ishlarini qiyin sharoitda sinab koʻradilar va toblanadilar. Ular ogʻir ahvolda qolganlarida ham odamiylikni yoʻqotmaydilar. Londonning shu tipdagi qahramonlari Mezon, Kid, Charli, Passuk va boshqalardir.

«Oq sukunat» hikoyasida ruhan kuchli, olijanob kishilar Shimolning ogʻir sharoiti fonida berilgan. Qaragʻay yiqilib Mezon ustiga tushgan va uni majaqlagan. Qattiq azob ichida qolgan Mezon doʻstidan oʻzini otib oʻldirishni soʻraydi, vafodor xotini indianka Rufi ahvolidan xabar olib turishini iltimos qiladi. Sherigi Malmut Kid uni qutqarib olib ketish ilojini topolmay, Mezonning iltimosini bajaradi. Soʻngra Kid hamma yoqni qoplab yotgan oppoq qor

bo'shlig'ida yo'lini davom ettiradi. U kuchli bo'ron, suv to'lqinlari, zilzila dahshatlari oldida ham qo'rquvga tushmaydi. O'shanday sharoitni yaxshi biladigan tajribali va mard kishilar oq sukunat hukmronligini ham o'zlariga bo'ysundiruvchi odamlardir.

Yozuvchining «Hayotga muhabbat» hikoyasida ham insonning turmushga bo'lgan zo'r intilishi ko'rsatilgan. Asar qahramoni uzoq yo'l bosib, och qolib tinkasi quriydi. Emaklab va sudralib olg'a qarab harakat qiladi. Uning butun qo'l-oyoqlari qonab, momataloq bo'lib ketgan. U bilan yonma-yon och bo'ri ham bormoqda. Ulardan biri ikkinchisini yeb omon qolishga intiladi. Nihoyat, odam butun kuchi va irodasini to'plab, yoniga sudralib kelgan va uni yeyishga urinayotgan bo'rining bo'yniga tishlarini botirib, qonini so'rib jonlanadi. Mo'ljal qilgan yeri – Yukon portiga yetib boradi. Shunday qilib, inson sovuqni ham, ochlikni ham, bo'rini ham yengadi. Hayot o'limdan ustun chiqadi. Kishining yashashga bo'lgan muhabbati g'alaba qiladi.

«Ayolning jasorati» hikoyasida negr ayolining matonati, latofati va g'amxo'r inson ekani chuqur samimiylik bilan tilga olinadi. Passukning o'z eriga sadoqati zo'r. Ayolning eri Sitki Charli – mard kishi. U Shimolning bepoyon qor tepaliklaridan yurib o'tib, muhim topshiriqni dengiz qirg'og'iga yetkazishi kerak. Shuning uchun Passuk eriga yordam berish tashvishi bilan yashaydi. U o'zi yeydigan oz miqdordagi oziq-ovqatning bir qismini yig'ib boradi va uzoq yo'lga chiqqan eriga beradi. O'zi esa och qolib vafot etadi.

Shimol romantikasi bilan bir qatorda hayvonlar hayoti tasviri ham Jek London ijodida alohida o'rin egallaydi. Masalan, «Oq kurak tish» (1906) qissasida yozuvchi hayvonlarning harakati va ruhiyatini mohirona ko'rsatgan. Asarda it-bo'ri tarixi hikoya qilinadi. Ovchi hindi Seriy Bobr o'rmonda kichik bo'ri bolasini ushlab, kulbasiga olib keladi va unga «Oq kurak tish» deb nom qo'yadi. U ota qoniga tortib, o'rmonga –bo'rilar orasiga qochib ketadi. Biroq bunday hol xo'jayini Seriy Bobrning chaqirig'i oldida kuchsiz bo'lib chiqadi va ortiga qaytadi. U qo'rqib-писib ovchi tomon sudralib keladi va uning oyog'i tagiga yotadi, ya'ni o'z istagi bilan bo'ysunadi. Lekin u jazolanishdan qo'rqadi. Ovchining qo'li yuqoriga ko'tariladi-yu, ammo urmaydi, aksincha yeb turgan go'shtining yarmini unga uzatadi. Oq kurak tish uni ehtiyotkorlik bilan oladi va yeya boshlaydi. Bu vaqtda xo'jayin uning yoniga boshqa itlarni yaqinlashtirmaydi. Endi Oq kurak tish sovuq va qorong'i o'rmon ichida emas, balki ovchilar orasida, issiq gulxan yonida yashayajagini biladi. Shunday qilib, u endi odamga o'z xohishi bilan tobe bo'lib qoladi.

«Oq kurak tish» qissasida muallifning kuzatishlari sezgir hayvonning idrok qilishi orqali ko'rsatiladi. Oq kurak tish yirtqich hayvonlar dunyosidan insonlar orasiga tushib qolar ekan, odamlar jamiyatining ham shafqatsizligini biladi. Pul hukmronligiga asoslangan jamiyatdagi vahshiylarcha munosabat hayvonlar dunyosiga ham olib kiriladi. Bu narsani yangi xo'jayin Smitning Oq kurak tishga nisbatan yovuzlarcha munosabatida ochiq ko'rish mumkin. Smit obrazida zo'ravonlikka asoslangan qo'pol kuch, zo'ravon jamiyatning qabohatlarini o'zida mujassamlantirgan shaxs qoralanadi. Injener Skott esa hayvonlarga azob beruvchi shaxslarni nafratlaydi. Shu jihatdan u yozuvchi qarashlarini ifodalovchi ijobiy qahramondir.

Mehnatkash xalqning zulm va zo'ravonlikka qarshi kurashi Jek Londonning ijtimoiy utopik romani «Temir tovon»da o'zining yorqin ifodasini topgan. «Temir tovon» (1907) romanining bosh qahramoni ishchi oilasidan kelib chiqqan inqilobchi Ernst Evergard. U yoshlik vaqtidanoq fabrikaga ishga kiradi. Mutolaa qilish yo'li bilan bilimini oshiradi va mehnatkash omma o'rtasida tashviqot-targ'ibot ishlarini olib boradi. Evergard fashistik tipdagi burjua davlati – Temir tovonga qarshi kurashga o'tlanadi. Lekin burjua hukumati uni qamoqqa tashlaydi. Ernst o'sha yerda turib, mehnatkashlar qo'zg'oloniga rahbarlik qiladi. Biroq Temir tovon xufyalari uni yovuzlarcha o'ldiradilar. Rahbar yo'q etilgan bo'lsa ham, lekin mehnatkash omma kurashini davom ettiradi va uzoq yillardan so'ng Temir tovon hokimiyati yirik monopoliyalar hukmronligini yemirib tashlaydi.

XX asrning boshlariga oid bo'lgan bu kitobdagi voqea inqilobchi Ernst Evergardning xotini Evis Evergard xotirasi asosida beriladi. Evisning maktublari go'yo bir necha asr o'tganidan so'ng (XXIII asr) topiladi va uni o'sha davr tarixchi olimi Antoni Meredit tahlil qiladi, izohlaydi.

Romanning xarakterli xususiyatlaridan biri – uning munozara asosiga qurilganligi. U mehnatkash ommaning o'z haq-huquqini himoya qilib, erk va ozodlik uchun kurashganligini badiiy aks ettirgan roman sifatida dunyo taraqqiyparvar adabiyotining eng yaxshi asarlaridan biridir.

«Martin Iden» (1909) romanida romanida Jek London xalq ichidan chiqqan qobiliyatli yozuvchining burjua jamiyatidagi og'ir ahvoli va fojiali hayotini ko'rsatadi.

Asarning qahramoni xalq farzandi, aqliy va jismoniy kuchli shaxs matros yigit Martin Idendir. U yozuvchi bo'lishga intiladi, og'ir sharoitda qiyinchiliklarni yengib, hikoya va qissalar ijod eta boshlaydi. Lekin uning yozgan asarlari uchun o'sha jamiyat gazeta va jurnallarida o'rin yo'q, chunki uning xalq manfaati aks etgan realistik hikoyalari hukmronlarga yoqmaydi.

Matros Martin badavlat Morzlar saroyida tasodifan boʻlgan vaqtida dastlab shoshib qoladi, koʻp narsalarga koʻzi tushadi. Ayniqsa, Morzning qizi Ruf xonasidagi javonlardan joy olgan qator-qator kitoblarga nazar solganida, bu yerda yuksak madaniyat hukmron ekan, degan xayolga keladi. Ruf ham universitetni bitirgan, sanʼat va adabiyotdan xabardor, bilimdon qiz boʻlib koʻrinadi. Martin ancha vaqt shunday taassurotlar ichida yashaydi. Haqiqatda Ruf Morzlar xonadoni madaniyatdan uzoq, faqat boylikka sigʻinuvchi tipik burjua oilalaridan biri edi. Bankir Morz katta boy, u puli yoʻq kambagʻallarni nazar-pisand qilmaydi. U Martin Idenga oʻxshagan xalq ichidan chiqqan kishilarga zararli fikrlar bilan ogʻrigan yoʻqsil, deb qaraydi. Shu boisdan u Martinning kelajakda qiziga loyiq er boʻlolmasligini oʻylab, Rufni undan uzoq turishga undaydi. Morzning xotini ham tamagir bir ayol. U ham Martinga qizining nozik didlariga javob berolmaydigan qoʻpol, tarbiyasiz, kambagʻal yigit, deb qaraydi. U qizining bu «yalangoyoq, muttaham, matros, kovboy, kontrabandachiga... emas», balki kelajagi porloq badavlat kishiga erga tegishi kerakligini oʻylaydi. Ruf ham dunyoqarashi jihatidan ota-onasidan ortiqcha farq qilmaydi. Toʻgʻri, bu qiz «begona» odamning gʻayrat-shijoati, qobiliyatini yoqtirsa ham, uning oʻziga xos xarakterini tushunib yetmaydi. Lekin uni oʻz muhiti ruhida, oʻzi va ota-onasi didiga mos qilib qayta tarbiyalashga, unga burjuacha odatlarni singdirishga intiladi. Qiz bu ishchan, bilimga oʻch yigitning kelajagiga ishonmaydi. Reaksion matbuot Martinni qoralayotgan vaqtda Rufning ruhan qashshoq sevgisi yuzaki ekani maʼlum boʻladi. U Martinni qoʻllash, unga dalda berish oʻrniga, aksincha undan aloqani uzadi. Ruf Martin bilan uchrashganida: «Ota-onam haq ekanlar, biz bir-birimizga toʻgʻri kelmas ekanmiz», – deydi.

Bankir Morz oilasi va oʻsha doiradagilarning asl basharasi fosh etilib boradi. Bular tamagir, yuzaki sudya Blount, savdogar, huquqshunos va shular qabilidagi kishilardir. Ular dastlab kambagʻal Martinga mensimay qaragan boʻlsalar, keyinroq uning puldor, mashhur yozuvchi boʻlib yetishganini koʻrishgach, endi unga ayyorona xushomadgoʻylik bilan muomala qila boshlaydilar. Rufda ham qizlarga xos magʻrurlik va kamtarinlik hissi koʻrinmaydi. Martinning tez shuhrat qozonib, puldor kishiga aylanganini eshitgach, u bilan topishishga shoshiladi, unga tegishga rozi ekanligini bildiradi. Ota-onasi va akasi hamuni Martin bilan yaqinlashtirishga harakat qiladilar. Endi Martin ularga zarar emas, balki foyda keltirishi mumkin boʻlgan kishiga aylangan edi.

Asarning bosh qahramoni Martin Iden mehnatkash ommaning eng yaxshi xususiyatlari – ishchanlik, ijodkorlik, odamiylik kabi fazilatlarini mujassamlantirgan realistik obrazdir. U asar boshida oddiy ishchi yigit sifatida

tasvirlanadi. U ko‘p mashaqqatlarni boshdan kechirib, qiyinchiliklarni bartaraf etadi, o‘qimishli kishiga aylanadi, burjua matbuoti bilan keskin kurash olib boradi, mashhur yozuvchi bo‘lib yetishadi. Agar Martin Ruf bilan turmush qurib Morzlar oilasi bilan yaqinlashib ketganida edi, o‘sha muhit uning ijodini bo‘g‘ib qo‘ygan bo‘lar edi. Shuning uchun Martin keyinchalik Rufga «Sal bo‘lmasa siz mening... ijodim va kelajagimni nobud qiluvdingiz» deya uning yuzaki istak-xohishini rad etadi.

Yozuvchi haqiqiy sevgi, do‘stlik va odamiylikni xalq ichidan chiqqan kishilarda ko‘radi. Ko‘p bolaning onasi kambag‘al ayol Mariya Silva og‘ir ahvolga tushib qolgan Martinga samimiy yordam qo‘lini cho‘zadi. Jo va Jimmilar ham uning haqiqiy do‘stlaridir. Kambag‘al ishchi qiz Lizzi Konolli ham o‘z odobi va samimiyligi bilan boy qizi Rufdan beqiyos yuqori turadi. Ruf Martinning boyligiga qiziqsa, Lizzi uning o‘zini sevadi. U bilan barobar gaplashish uchun o‘qib bilimini oshiradi. Bu kishilar obrazida adolatli jamiyat quruvchilarining asosiy belgilari ko‘rinib turadi.

Martin Iden va uning muhitidagi kishilar jafokash xalq vakillari va ular tomonidan tarbiyalangan haqiqiy insonlardir. Shuning uchun Martin qattiq mehnat qilib, o‘z qobiliyati va iste’dodini chiniqtiradi va uni realistik san’at manfaatiga xizmat ettiradi.

Martin Iden hayotining oxirlarida soxtaliklar avj olgan burjua jamiyati sharoitida (Morz va Betlerlar doirasida) o‘zining hech kimga kerak emasligini va yolg‘izligini sezadi. O‘sha muhitga nafrat bilan qaraydi, ayni choqda o‘ziga ruhan yaqin odamlar orasiga qaytishga ham yo‘l topolmaydi, chunki unga Nitsshening zararli – qudratli shaxs falsafasi ta’sir etgan edi. Shu falsafa uning o‘z muhitiga qaytishi yo‘lidagi katta to‘siq edi.

Jek London burjua shaxsiyatparastligiga xalq ommasining kurashi va aql-idrokini qarshi qo‘ya olmadi. Martin Iden nazariy jihatdan Nitsshe qarashlariga berilgani holda, amalda bu falsafaga rioya qilmaydi, roman va qahramondagi ziddiyat uning shunday harakati natijasidir.

«Men individualistman, – deydi Martin Spenserning siyqasi chiqqan falsafasini qaytarib, – yugurishda ildam, kurashda kuchli g‘alaba qilishga ishonaman». Jek London bu masalada ham Martindan yuqori turadi. U o‘z qahramonini tanqid qiladi. Uning nitsshechiligi asossizligini ko‘rsatadi. Burjua jamiyatida yakka-yolg‘izlikda qolgan va to‘g‘ri yo‘lni topolmagan Martin oxirida o‘zini halok etadi.

«Martin Iden» romanida ko‘ringan ziddiyatlar yozuvchining bundan keyingi asarlarida kuchayib, isyonkorlik ruhi zaiflashib boradi. Ishchilar harakatiga qarshi

xurujlar, Jek Londonga qilingan igʻvolar (1906) uning ruhiy holati va ijodiga jiddiy taʼsir etmay qolmaydi. U ishchilar harakatidan chetlashadi. Endi u sirdan qiziqarli, lekin yuzaki voqealar tasviriga diqqat qila boshlaydi. Bu uning «Sarguzasht» (1910) romanida gʻaroyib bir amerikalik juvonning ingliz yigiti bilan birga kakao ekinzorlarida mahalliy aholiga zulm oʻtkazib, tahqirlashlari tasvirida ochiq koʻrinadi. Lekin bu vaqtda ham Jek London zoʻravon jamiyat qabohatlarini qoralovchi asarlar yozadi. «Oʻgʻrilik» (1910) pyesasida Amerika hukmron doiralarning asosiy kasbi talovchilik va oʻgʻrilik boʻlib qolganini koʻrsatadi. Lekin «Oydin vodiy» (1913) romanida boshqacha manzara aks etadi. Amerika ishchilar harakatining faollaridan boʻlib, zulm va zoʻravonlikka qarshi ish olib borgan Billi Roberts sinfiy kurashdan voz kechib, shaharni tashlab oʻz rafiqasi Sekson bilan fermaga ketadi va baxtni betashvish qishloq hayotidan izlaydi.

Jek Londonning ijtimoiy maʼnosini yoʻqotgan bir nechta sarguzasht mavzudagi asarlari ham mavjud. Bular «Katta uyning kichik bekasi» (1915) va «Uch qalb» (1916) romanlaridir. Bu tipdagi asarlarini yozar ekan, u qimmatli vaqtini bekorga sarf qilayotganidan qaygʻuradi. Bu kitoblar «Temir tovon» romanidagi inqilobiy ruhga, «Martin Iden»dagi haqiqiy realizmga ziddir.

Jek London: «Martin Iden – mening oʻzim», – deb eʼtirof etadi. Garchi romandagi koʻp lavhalar yozuvchining tarjimai holiga oʻxshasa ham, lekin «Martin Iden» uning avtobiografiyasigina emas. Iden obrazi – badiiy toʻqima. Martin yozuvchi fikrlarini ifodalovchi realistik obrazdir.

Jek London 1916 yilda vafot etdi. Yozuvchi ijodining eng yaxshi namunalari uning xalq ommasiga yaqin turgan va oʻz ozodligi uchun kurashayotgan davriga toʻgʻri keladi. «Temir tovon» va «Martin Iden» Jek Londonni butun dunyoga tanitgan muhim asarlardir.

Tabiiyki, bu ijtimoiy voqealar oʻz davri adabiyotida yorqin aks ettirildi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida adabiyotni hayotga yaqinlashtirishda maʼlum xizmat qilganlardan biri Ernest Xeminguey boʻldi. U Amerika realistik adabiyotining mashhur vakillaridan biridir.

Ernest Xeminguey 1899-yilda Amerikaning Ouk-Park shahrida vrach oilasida tugʻilgan. Boʻlajak yozuvchi maktabni bitirganidan soʻng kichik bir gazetada ishlaydi. Yevropaga borib, avval Fransiyada, keyin Italiyada joylashgan Amerika tibbiy qismlarida turib, birinchi jahon urushida qatnashadi. Urushdan soʻng u Amerika gazetalarining muxbiri sifatida Parijda yashab ijod etadi. 20-yillarning oxirlarida oʻz mamlakatiga qaytib, Florida sohillarida istiqomat qiladi. Xeminguey Ispaniya respublikachilarining fashist fitnachilariga qarshi olib borgan kurashlarida faol qatnashgan va bu haqda koʻp asarlar yozgan, ikkinchi jahon

urushi yillarida aviatsiya qismlarida muxbir bo‘lib ishlagan. Ittifoqchilar armiyasining Fransiyaga bostirib kirishida ishtirok etgan. Urushdan so‘ng Amerikaga qaytgan va hayotining oxirgi yillarini Kubada o‘tkazgan.

Xeminguey ijodining boshlanishi birinchi jahon urushidan keyingi yillarga to‘g‘ri keladi. «Bizning zamonda» kitobiga kirgan hikoyalarda yozuvchi, birinchidan, asarning lirik qahramoni Nik Adamsning yoshligi, o‘smirlik yillari, sevgisi va oilasi haqida hikoya qilsa, ikkinchidan, tinch hayot haqidagi xayollarga qonli urush voqealarini qarama-qarshi qo‘yadi. Individualistik xarakterda bo‘lsa ham, asarda qahramonning razil urushga qarshi noroziligi bayon etiladi.

Imperializm keltirib chiqargan bosqinchilik urushlarini la‘natlashga bag‘ishlangan «Alvido, qurol!» (1929) romani yozuvchi ijodida muhim bosqichni tashkil etadi. Asarda birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Italiya frontida ro‘y bergan voqealar hikoya qilinadi. Tibbiy xizmat leytenant amerikalik Genri urushning butun dahshatlari – ochlik, ifloslik, o‘zaro qon to‘kish va son-sanoqsiz begunoh kishilarning o‘lib ketayotganliklarini ko‘rib, urush haqidagi fikrlarining puch xayollardan iborat ekanini biladi va umidsizlikka beriladi. Italyan soldat va ofitserlari bilan samimiy suhbat va aloqalar uni milliy xudbinlik va mag‘rurlikdan xoli qiladi. Shuning uchun leytenant Genri urushdan yuz o‘girib, qurolini tashlab, betaraf mamlakat Shveytsariyaga o‘tib ketadi. Yozuvchi urush qabohatlariga shaxsiy hayotni qarshi qo‘yadi. Genri Ketrin Barkliga bo‘lgan sevgisi bilan urush dahshatlaridan ham, tashqi dunyo mashaqqatlaridan ham qutulishga intiladi. Lekin u shaxsiy hayot va muhabbatdan ham baxt topolmaydi. Ketrin tug‘ruqxonada o‘lganidan so‘ng Genri butunlay umidsizlik ichida qoladi.

«Alvido, qurol!» romanida birinchi jahon urushi qoralangan bo‘lsa-da, lekin unda bayon etilgan norozilik shaxsiy yo‘sindadir.

«Bu kitobning muallifi, – deb yozadi Xeminguey asar so‘z boshisida, – ongli suratda shu fikrga keldiki, urushlarda jang qilayotgan odamlar dunyodagi eng ajoyib odamlardir, frontning qizg‘in qismlariga kirib borganing sari bunday ajoyib kishilarga ko‘proq duch kela boshlaysan. Lekin urushni boshlaganlar, uning oloviga yana olov tashlab turganlar, iqtisodiy raqobatdan, foyda undirishdan boshqa narsani o‘ylamaydigan to‘ng‘izlardir... Men urush olovini yoqqanlar... otib tashlanmog‘i zarur, deb hisoblayman».

Xeminguey 30-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan asarlarida tashqi dunyoga munosabati ziddiyatli va individualist ijodkorligicha qoladi. O‘sha yillari ocherk shaklida yozgan «Tushdan keyingi o‘lim» (1932) kitobida o‘lim mavzusi yana ham ochiq ko‘rinadi. Asarda buqalar urushi va unga bog‘liq qoidalar batafsil beriladi. Buqalarni o‘ldiruvchi matadorlar yoki matadorlarni halok etuvchi buqalar,

otlarning yorilib ketgan qornidan otilib chiqayotgan qonlar, fojia ustiga fojia va ayniqsa, jarohatlangan odamning o'limi oldidan kechirgan azoblari umidsizlik ruhida tasvirlanadi.

«Afrikaning yashil tepaliklari»da (1935) ham yuqoridagi kitobiga xos bo'lgan o'lim masalasi ko'rsatiladi. Agar «Tushdan keyingi o'lim» matador bilan buqa o'rtasidagi olishuvda ikkalasidan birining halok etilishi bilan tugasa, bunda ovchi haqida gapiriladi. Va albatta, voqea ovchining g'alabasi va hayvonning o'limi bilan yakunlanadi.

Yolg'izlik, umidsizlik yozuvchining boshqa asarlarida ham aks etadi. Masalan, «Toza va yorug' joyda» (1936) kitobi qahramoni kecha qorong'uligidan vahimaga tushadi, uning uchun yagona makon toza va yorug' mayxona bo'lib qoladi.

30-yillarning o'rtalarida Xeminguey ijtimoiy voqealarga murojaat etadi. Shu davrga xos romani «Hayot yoki mamot» (1937) qahramoni Garri Morgan o'z oilasini boqish yo'lida tinmay ishlaydi, ammo kuchayib borayotgan iqtisodiy inqiroz uning xo'jaligiga ham ta'sir etadi. Uning motorli qayig'ini ijaraga oluvchi boy sayyohlarning kamayishi tufayli daromadiga putur etadi. Endi Garri o'ziga boshqa ish, xavfli kasbni tanlashga majbur. «Qonunlarni kim o'ylab chiqarishini bilmayman. Lekin men odam och qolsin, degan qonunning yo'qligini bilaman», – deydi u. Garri yashashga bo'lgan tabiiy ehtiyojini qondirish maqsadida burjua jamiyatining vahshiylikka asoslangan qonunlariga tayanib o'zini ham ayamaydi, boshqalarga ham shafqat qilmaydi, hatto odam o'ldirishgacha borib yetadi. U faqat o'zining shaxsiy kuchiga ishonadi. Kuba anarxistlari bilan to'qnash kelgan va qattiq jarohatlangan Garri Morgan o'limi oldidan yolg'iz odam hech narsa qila olmaydi, degan fikrga keladi. Qahramonning fojiali halokati yozuvchidagi individualistik qarashlarning samarasizligini ko'rsatadi.

Ilgari jamiyat hayotidan chetda turgan va faqat o'z kuchiga ishongan Xeminguey endi ijtimoiy voqelikka qiziqib qaraydi. Ispaniyadagi hodisalar, respublikachilarning fashistlar to'dasiga qarshi kurashlari uning diqqat markazida turadi. Yozuvchi respublikachilarni qo'llaydi, ularga moddiy yordam beradi, tez-tez frontga boradi. Bu voqealar endi uning ijodi uchun material bo'lib xizmat qiladi. «Beshinchi kolonna» pyesasi bunga misol bo'ladi. Asar qahramoni amerikalik Flipp Raulings qalban xasta, bo'shashgan shaxslardan emas. U og'ir ahvolda beshinchi kolonna josuslari bilan kurash olib boradi, josus va qo'poruvchi shaxslarni qo'lga tushiradi. Bu jasur kishi o'zidagi individualizmni butunlay bartaraf etgan emas.

Flipp Raulings yosh, boy va go'zal amerikalik ayol Dorotini ko'rgach, o'zgaradi. Bu ayol uni o'zi bilan birga bu yerdan ketishni taklif qiladi. Jiddiy ishdan toliqqan Raulings bunday fikrga qo'shiladi ham. So'ngra u o'zida tug'ilgan bunday xudbinlik hissini bartaraf etadi va Dorotidan aloqani uzib, Ispaniyada qoladi. Maks ismli qahramon uning qarashlariga ta'sir ko'rsatadi. U Raulingsning ko'pchilik uchun xizmat qilishi zarurligini eslatib, Raulingsni tetiklashtiradi. Shunday qilib, Flipp Raulings o'zining shaxsiy intilishlarini jamiyat manfaatiga bo'ysundirgan, fashizm yirtqichlariga qarshi kurashuvchi ijobiy qahramon bo'lib yetishadi.

Raulings Maks bilan fashistlarning kuzatuv punktiga dadillik bilan hujum uyushtirib, frankochi polkovnikni asir oladilar va fashistlarning yangi hujumini barbod etadilar. Bu asarida Xeminguey murakkab va chalkash, ziddiyatli yo'lni bosib o'tadi va ijobiy qahramon yaratishda katta yutuqqa erishadi.

Xeminguey Amerika adiblarining II kongressida «Yozuvchi va urush» (1937) mavzuida so'zlagan nutqida fashizmni qonli jinoyatchilar to'dasi, deb qattiq qoralaydi. U ispan respublikachilarining mag'lubiyatidan aziyat chekadi. Fashistlar zo'ravonlik qilib davlatni bosib olganlaridan so'ng, yana unda yakka-yolg'izlik qobig'iga o'ralib, umidsizlikka berilish kayfiyati yuz beradi. Bu hol adibning «Qo'ng'iroq nimadan darak beradi» (1940) romani misolida ko'rinadi. Asar qahramoni Robert Jordan erk va saodat uchun kurashib, hayotni emas, o'limni o'ylaydi, g'alabaga emas, balki o'limga tayyorlanadi. Bu esa shu davrda yozuvchi ongida tug'ilgan g'oyaviy parokandalikning ko'rinishi edi.

«Daryoning narigi tomonidagi daraxtlar soyasida» (1950) asarida ijtimoiy hayotdan chetda turuvchi yakka qahramon paydo bo'ladi. Bu ikki urushda qatnashgan amerikalik polkovnik Richard Kentuellidir. Unga xos xususiyat shuki, u hamma vaqt o'lim xayoli bilan yashaydi. Bu esa povestning g'amgin ruhini ko'rsatadi.

Xeminguey so'nggi «Chol va dengiz» (1952) qissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Asar qahramoni chol Santyago baliq oviga chiqqaniga ancha kunlar bo'lsa ham, lekin ishi yurishmaydi. Uningcha, yelkaniga «ko'p yamoq tushgan» qayiqqa qanday qilib ham baliq ilinsin. Santyago keksa bo'lsa ham, lekin o'zi tetik. Shuning uchun yozuvchi bu odam «taslim bo'lmaydi», deb uqtiradi. Chol to'riga katta baliq tushganda cheksiz sevinadi. «Baliq, – deb chaqirdi u sekingina, – o'lsam o'lamanki, sendan ajralmayman». Chol butun kuch-g'ayratini ishga solib, baliq bilan olishadi va yengadi. Uning: «Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni bo'ysundirish mumkin emas», degan so'zlari inson qudratiga yozuvchining cheksiz ishonchini ko'rsatadi.

Baliqqa bir gala akula hujum qilganida ham, Santyago bo'shshmasdan kurashini davom ettiradi. Bir akulani o'ldirganida, ikkinchisi o'ljaga tashlanadi, shu tariqa olishuv ancha davom etadi. Uning pichog'i sinib, qo'llari qonga belansada, to'qmoq bilan akulalarning boshiga urishda davom etadi. Santyago qirg'oqqa yetib borganida katta baliqning faqat gavda suyagigina qolgan edi. «Kim ham seni yenga qoldi o'zi, chol, – so'radi o'z-o'zidan, – hech kim, – javob berdi u. – Aybim shuki, men dengizda haddan tashqari uzoqqa ketib qolibman».

Santyago uchun umidsizlik gunohdir. U kitobxon ko'z o'ngida mag'lubiyatni bilmaydigan, irodali inson timsolida namoyon bo'ladi. Santyago shu jihatdan yozuvchining oldingi asarlari qahramonlaridan farq qiladi. Uni qirg'oqda kutib olgan bola navbatdagi baliq ovida chol bilan birga borishni va undan ko'p narsa o'rganishi zarurligini aytadiki, bu – Santyagoning yolg'iz emasligiga ishoradir.

Ernest Xeminguey bosib o'tgan murakkab va ziddiyatli yo'l ko'p chet el yozuvchilari uchun xarakterlidir. Ular jamiyatda kuchayib borayotgan tushkunlikni, pulga asoslangan jamiyat qonun-qoidalarini tanqid qilish yo'lidan boradilar. Xeminguey ham G'arbning yirik insonparvar yozuvchilari qatorida burjua jamiyatining istiqboli yo'q ekanini tobora kengroq tushunish bilan uning illatlarini o'z ijodida aks ettirgan yirik realistlardan biridir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jek London qaysi davr Amerika adabiyoti rivojiga hissa qo'shdi?
2. Amerika demokratik adabiyotining asosiy maqsadi nimaga yo'naltirilgan edi?
3. Jek London qaysi asarlari bilan Amerika demokratik adabiyotini boyitdi?
4. Jek London qanday hayot yo'lini bosib o'tdi?
5. «Temir tovon» romani qaysi xususiyatlari bilan dunyo taraqqiyparvar adabiyotining eng yaxshi asari darajasida baholanadi?
6. «Martin Iden» romanining yetakchi g'oyasi nimadan iborat?
7. «Martin Iden» romanida qanday ijtimoiy ziddiyatlar real aks ettirilgan?
8. Martin Iden halokatiga nima sabab bo'ldi?
9. Quyidagi tayanch tushunchalarni izohlang: ocherk, pyesa, demokratik adabiyot, bosh qahramon, individualizm, romantika, sotsial (ijtimoiy) utopik (xayoliy) roman.
10. XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika ijtimoiy hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

11. XIX asrning oxiri va XX asrning boshidagi Amerika realistik adabiyotining mashhur vakillari kimlar?
12. Ernest Xeminguey qaysi asarlari bilan Amerika realistik adabiyotini boyitdi?
13. «Chol va dengiz» qissasi uchun yozuvchi nega Nobel mukofotiga sazovor koʻrildi?
14. «Chol va dengiz» qissasi bosh qahramoni – cholga xos ijobiy fazilatlarni aytib bering.
15. Ernest Xeminguey ijobiy qahramon yaratishda qanday muvaffaqiyatlarga erisha olgan?
16. Quyidagi tayanch tushunchalarni izohlang: ijtimoiy mavzu, adabiyotning ijtimoiy mohiyati, realistik adabiyot, ijobiy qahramon, bosh mavzu, yetakchi gʻoya, qissa, povest.

MODERN ADABIYOTI. F.KAFKA VA A.KAMYU HAYOTI VA IJODI.

Reja:

1. Yevropada modernistik adabiyot maydonga kelishining ijtimoiy va madaniy omillari.
2. Modern adabiyotning oʻziga xos xususiyatlari.
3. Modernistik yoʻnalishlar va ularning oʻziga xos xususiyati.
4. F.Kafka ijodi.
5. A.Kamyuning hayoti va ijodi.

***Tayanch tushunchalar:** realizm, modernizm, adabiy oqim, psixologizm, ijtimoiy tanqid, absurd, modern adabiyoti, kafkashunoslik, kamyucha ekzistensial tafakkur, modernistik oqim, yangicha tafakkur tarzi.*

XX asr boshlarida Yevropada modern adabiyoti yuzaga keldi. Bu adabiy yoʻnalishning paydo boʻlishiga Gʻarb mamlakatlaridagi ijtimoiy hayot tarzi va fikrlash yoʻsini sabab edi. Bu davrga kelib, koʻpchilik Gʻarb mamlakatlarida fan-texnika, ilm-fan tez rivojlandi, ishlab chiqarish unumdorligi ortdi, odamlarning boyish imkoniyati koʻpaydi. Odamlar oldingi davrlardagiga qaraganda kamroq qiynalib, koʻproqsamaraga erishish va yaxshiroq yashash imkoniyatiga ega boʻldilar. Lekin bu imkoniyat alohida odamni ham, butun insoniyatni ham baxtli qilolmadi. Inson aqlining kuchi ommaviy qirgʻin qurollari yaratishga, bir-birini oʻldirishga xizmat qildirildi. Bu narsa inson baxti taraqqiyotda, ilm-fan rivojida

deb bilgan kishilarni dovdiratib qo‘ydi. Ilm-fan yomonlikka xizmat qilishi ham mumkinligi ayon bo‘ldi.

Shuning uchun ham bu davrda ishonchsizlik, ezgulikdan umidqilmaslik kayfiyatlari hamda, hayot, umr, odam va uning intilishlari samarasiz vabema’nidir degan qarash keng yoyildi. Bu hol adabiyotda modern (fransuzcha yangi, zamonaviy so‘zidan) yo‘nalish paydo bo‘lishiga olib keldi. Modern yozuvchilar olamni ko‘proq qora ranglarda ko‘rdilar va tasvirlay boshladilar. Ular bugunga ham, ertangi kunga ham ishonmay qo‘ydilar. Fan va texnikaning rivoji odamning tabiatini o‘zgartirib yuborgandi. Shu bois modern adiblar odamzodni shu vaqtga qadar ko‘nikilmagan holatlarda turli-tuman umidsiz yo‘sinlarda tasvirlash yo‘lini tutdilar. Modern ijodkorlar oldingilariga o‘xshamagan hayotda yashayotgan avvalgilarga o‘xshamaydigan odamlarni oldingilarga o‘xshamaydigan badiiy shaklda tasvirlay boshladilar. Ular odamzodning kutilmagan jihatlarini aks ettirishga urindilar.

Avstriyalik adib Frans Kafkaning asarlari modern adabiyotining mumtoz namunalari. Modern adabiyotida deyarli hech narsa o‘z oti bilan atalmaydi. Unda tasvir butunlay ramzlar va imo-ishoralarga asoslanadi. Shuning uchun ham Kafkaning «Jarayon» romani qahramoni Yozef K. ustidan qo‘zg‘atilgan jarayon aslida odamning mushkuldan mushkul hayotidir. Kafkaning talqinida odam yashamaydi, balki bir umr sudlanadi. Odam boshqa odamlarga kerak emas, kimsasiz va unga hech kim yordam bermaydi. Shu bois odamning hayotida yorug‘lik bo‘lmaydi. Lekin ana shu shafqatsiz hukmu xulosalar g‘oyat ta’sirchan va o‘ziga xos tarzda ifoda etilgani uchun ham yuksak badiiy qimmat kasb etadi.

Frans Kafka (1883-1924). XX asr adabiyoti taraqqiyotini yangi yo‘nalishga solib yuborgan, inson va uning umriga o‘zgacha munosabatni qaror toptirgan Frans Kafka dunyodagi eng g‘aroyib va tushunarsiz taqdir egasi bo‘lgan ijodkordir, deyish mumkin. Millatiga ko‘ra juhud, tug‘ilgan va yashash joyiga ko‘ra pragalik, tiliga ko‘ra nemis, tayangan madaniy an‘analariga ko‘ra avstriyalik bo‘lgan yozuvchi o‘zida mutlaqo kelishtirib bo‘lmaydigan qarama-qarshilik, chigalliklarni jamlagan odam edi. Kafkaning asarlari inson tafakkurini o‘zgartirib yubordi, uning adabiyot haqidagi tasavvurini yangiladi, odamga o‘zgacha estetik nuqtai nazardan qarash mumkin ekanligini isbotladi. Uning asarlari kishilarga G‘arbdan oftob chiqqanini ko‘rishday ta’sir qiladi. Qizig‘i shundaki, F.Kafkaning ijodiy taqdiri ham shaxsiy hayotiga o‘xshash chigal edi. Undan uch roman qolgan bo‘lib, uchalasi ham tugallanmagan edi, uchovi ham adibning o‘limidan keyin chop etildi. Adibning shaxsiyati, hayot va ijod yo‘li. Shaxsiyati, hayoti va ijodiy qismati hanuzga qadar ko‘pchilik uchun jumboq bo‘lib kelayotgan Frans Kafka 1883

yilning 3 iyulida o'sha paytlar Avstro-Vengriya imperiyasi tarkibida bo'lgan Praga shahrida tug'ildi. Otasi, qishloqdagi o'ta qashshoq yog'och o'ymakorining o'g'li – sog'lom, mehnatkash, tirishqoq va baquvvat kishi shaharga kelib, intiluvchanligiva tadbirkorligi orqasidan o'ziga to'q odamga aylandi, kichikroq fabrikaning egasi bo'ldi. Uch qizi va o'g'li Fransning kamchilik ko'rmay o'sishlari uchun hamma narsani qildi. Ularga mehr ko'rsatdi, kelajagini ta'min etmoqchi bo'ldi. Lekin o'zining tamomila teskarisi bo'lgan yolg'iz o'g'li bilan bir umr kelisholmay o'tdi. Fransning onasi ruhoniylar oilasidan edi. Erining qosh-qovog'iga qaragan bu xokisor ayolning oilada bor-yo'qligi unchalik ham bilinmasdi.

Fransning bolaligi g'alati o'tdi. U g'oyat ichimdan top, boshqalarga qo'shilmaydigan, tengdoshlariga o'xshab shovqin-suron qilmaydigan, hatto buni yoqtirmaydigan bola edi. Kafka Pragadagi nemis gimnaziyasini tugatib, 1901-1905-yillarda mashhur Praga universitetida huquqshunoslikni o'rgandi. Shuningdek, san'at tarixi va olmonshunoslik bo'yicha ham ma'ruzalar tingladi. 1906-1907-yillarda Praga shahar sudining advokatlar idorasida amaliyot o'tadi. 1907 yilning oktabridan boshlab, xususiy sug'o'rta jamiyatiga xizmatga kirdi. 1908 yilda Praga tijorat akademiyasida shu ixtisoslik bo'yicha malakasini oshirdi. Shu yilning o'zida ishlab chiqarish jarohatlari bilan shug'ullanadigan yarimdavlat sug'urta idorasiga ishga kirdi. U doktorlik ilmiy darajasiga egaligiga hamda o'zi qilayotgan ishga g'oyat jiddiy munosabatda bo'lganiga qaramay bir umr kam haq to'lanadigan kichik lavozimlarda ishladi. 1917 yilda sil kasaliga duchor bo'ldi. Shu yildan e'tiboran xizmatga muntazam qatnamaydigan, tez-tez ta'til oladigan bo'ldi. 1922 yilda esa salomatligiga ko'ra nafaqaga chiqdi. Shundan so'ng, 1923 yilda Berlinga ketdi. U erda biroz davolanib, adabiy yumushlar bilan shug'ullanmoqchi bo'ldi. Lekin sog'lig'ining keskii yomonlashib ketganligi tufayli adib Pragaga qaytishga majbur bo'ldi. Frans Kafka 1924yilning 3iyunida Vena shahri atrofidagi Kirlin sanatoriyasida vafot etdi.

Shunisi qiziqki, Frans Kafka ijodini muayyan bosqichlarga bo'libo'rganishning, uning qaysi asari qachon yozilib, qachon chopetilganini aniqlab, uning mahorati qanday o'sib borganligini aniq tayin qilishning imkoni yo'q. Negaki, u ko'proq o'zi uchun yozadigan adib edi. Shu bois bitganlarini eng yaqin kishilariga, shunda ham unchalik xushlamay ko'rsatar, tirikligida chop etilgan bir necha asarini esa do'stlarining zo'rlorlari bilan nashriyotga topshirgan edi. Ko'pincha uning yozganlari stoli tortmasida qolar edi. Shuning uchun ham dunyo adibning adabiy merosi miqyosidan uning o'limidan so'nggina xabardor bo'ldi. Kafka o'z asarlarini yaxshi ko'rmas, ularni chop ettirishga deyarli qiziqmas, hatto o'limi oldidan do'sti Maks Brodga o'zining chop etilmagan barcha

qo‘lyozmalarini tezda yo‘qotib tashlashni vasiyat qilgan edi. „Menda adabiy qiziqishlar yo‘q, men o‘zim adabiyotdan iboratman“, —degandi F.Kafka do‘stlaridan biriga. U o‘z asarlari haqida: „Menularni yaratgan onlarnigina hurmat qilaman, xolos“, — derdi. Shunga qaraganda, Frans Kafka asarlarini shuhrat orttirish yoki qalam haqi uchun emas, balki yozmaslikning ilojini topmagani uchunгина yozgan deyish mumkin.

Adabiyotshunoslar Kafkaning birinchi asari «Bir kurash tarixi» hikoyasi bo‘lib, taxminan 1902-1903-yillarda yozilgan, so‘nggi asari esa adibning kasali avj olgan 1923 yilda yaratilgan «Qurilish» hikoyasi, deb hisoblashadi. Boshqa hikoyalarning qachon yozilgani ma‘lum emas. Shunisi borki, yozuvchining romanlari yaratilgan yillar aniqlangan. Mutaxassislar adibning birinchi romani «Amerika» 1911-1916-yillarda, ikkinchi romani «Jarayon» 1915-1918- yillarda, so‘nggi romani «Qo‘rg‘on» esa 1921-1922-yillarda yaratilganini aytishadi. Yozuvchining «Evrilish», «Hukm», «Jazo koloniyasida», «Ochlik ustasi» singari hikoyalari, «Otanga xat» essesi hozirda juda mashhurdir.

Kafka bitgan asarlarni o‘qiganda, dastlab hech narsa tushunmaslik mumkin. Kafkaning asarlaridagi chigallik, tushunarsizlik, betayinlikka o‘xshash holatning sababini bilish uchun uning shaxsiyatiga xos xususiyatlardan xabardor bo‘lish talab etiladi. Negaki, u olamni, odamni, hodisalarni boshqalar singari emas, balki o‘zicha ko‘radi va olamni boricha emas, balki o‘zi ko‘rganicha aks ettiradi. Uning yozuvchi sifatidagi nigohi, qarashlari esa odam sifatidagi qarashlari o‘zgachaligining in‘ikosi edi.

Aytilganidek, Kafka g‘alati shaxsiyat egasi bo‘lgan. G‘oyat qobiliyatli, o‘ziga xos Frans bolaligidanoq hech kimga o‘xshamasdi. Jismonan ojiz, kasalmandroq bola juda ta’sirchan va asabiy bo‘lib o‘sdi. U hamma narsadan ko‘ra ozodlikni, erkni sevar, lekin hech qachon erksevarligini ochiq namoyon etmas, ozodlikdan quvonib ketmasdi. Adib yolg‘izlikni yaxshi ko‘rib, intilar va ayni vaqtda, tanholikdan o‘tdan qo‘rqqanday qo‘rqardi. Frans onasini yaxshi ko‘rar, lekin sira tushunolmasdi. Otasidan juda cho‘chir, uni o‘zicha ayamoqchi, ko‘nglini olmoqchi bo‘lardi. Yaratib bergan barcha imkoniyatlari uchun otasi oldida o‘zini qarzdor his qilar, shu bilan birga, o‘zidagi tortinchoqlik, kuchiga ishonmaslik va ikkilanuvchanlikning sababchisi sifatida uni juda yomon ko‘rardi. Kafka shaxsiyati qarama-qarshi tuyg‘ular, xislatlar, qarashlarning uyumi bo‘lgan, deyish mumkin.

Kafka alohida har bir odamni yaxshi ko‘rib, ayagani, uning baxtiyor bo‘lishini istagani holda odamlardan imkon qadar chetda turishga, o‘z holicha yashashga intilardi. Yozuvchi: «Uylanish, oila qurish, menimcha, odam qilishi mumkin bo‘lgan ishning eng yuksagi», — deya e’tirof etgan. U Yuliya Voxrshek

degan qizga bir marta, Felisiya Bauyer degan qizga ikki marta unashirilganiga qaramay, oila ham qurmadi, farzand ham ko'rmadi. Yaqin odamlari ko'p bo'lsa-da, uni tushunadigan chin do'sti yo'q edi. Intizomli va bilimdon xodim bo'lishiga qaramay, xizmat vazifasida ko'tarilmadi. O'zini «adabiyotman» degani holda, bor kuchini sarflab ijod qilmadi. Lekin uning, sirtidan qaraganda, ermakka qilgan ijodi odam va uning tasviri mohiyati haqidagi estetik qarashlarni ostin-ustun qilib yubordi. Chunki Kafka olamni ham, odamni ham tamomila o'ziga xos ko'rardi va o'ziga xos tasvirlashdan qo'rqmasdi. U o'zidan tashqaridagi borliqdan ta'sirlansada, asarlarida undan nusxa ko'chirmas, voqelikni aks ettirmas edi. Yozgan asarlari vositasida adib o'z ichki dunyosidagi ruhiy talotumlarni tashqari chiqarib, ularning zug'umidan qutulishga harakat qilardi. Shu sababli ham Kafkaning bitiklari tamomila kutilmagan va o'ziga xosdir.

Adibning hikoyalari. Odatdagi asarlarni o'qib o'rganganodam F.Kafka hikoyalarni o'qib, dastlab hech narsa tushunmaydi. Buning ustiga, bu hikoyalar kishida qo'rquv, hatto ayrim o'rinlardajirkanish tuyg'ularini uyg'otishi ham mumkin. Faqat jiddiy e'tibor qilib, o'zini Kafkaning o'rniga qo'yib ko'rgan o'quvchigina nimanidir anglaganday bo'ladi va uning hikoyalari biz sevgan realhayotdan qo'rqinchliroq emasligini tushunadi. Bu hikoyalarning qahramonlari o'zlarini doim gunohkor his etishadi, ammo gunohi va qo'rquvi sababini o'zlari ham bilishmaydi, o'quvchiga hamanglatishmaydi. Kafka Allohga ishonishni istagan, ammo uning borligini aqliga sig'dirolmaydigan dahriy edi. Shuning uchun ham Allohning eng mukarram yaratig'i bo'lmish odamlarni astoydil sevolmas, ulardan ezgulik kelishiga ishonmasdi. Adib alohida olingan odamni suygani va ayagani holda butun insoniyatga ham, inson tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga ham ishonchsizlik va nafrat bilan qarar, ulardan faqat yomonlik keladi deb hisoblar edi. U shu holatdan umr bo'yi azob chekkan va tortayotgan azoblarini adabiy qahramonlariga ham o'tkazgan yozuvchidir.

Adib ijodida ham, XX asr adabiyoti taraqqiyotida ham uning«Evrilish» hikoyasi juda katta o'rin tutadi. Hikoya qahramoni savdo korxonasi tashqari xizmatchisi, yaqinlariga juda mehribon Gregor Zamza kunlarning birida uyqudan qandaydir jirkanch hasharotga aylangan holda uyg'onadi. Kafka bu voqea qanday bo'lganini, nima uchun bo'lganini tushuntirib ham, izohlab ham, o'quvchini ishontirishga urinib ham o'tirmaydi. Adib uchun muhimi, uning nima uchun va qanday qilib qirqoyoqqa aylangani emas, balki uning hasharotga aylangandan keyingi sezimlari, tuyg'ularini ko'rsatish edi. Yozuvchi kechagina ham otanasining, ham singlisining yolg'iz tirgagi bo'lgan yigitning bedavo hasharotga aylangach, hech kimga kerak bo'lmay qolgani, bora-bora oiladagilarga ortiqchalik

qilib, oldiniga e'tibordan qolgani, keyinchalik undan qutulishga harakat qilishgani, mehru muhabbat ko'rsatisho'rniga himoyasiz va notavon yigitni o'z holiga tashlab qo'yganlari tasvirini beradi.

Asarda F.Kafka odamlar orasidagi munosabatlar faqat manfaat uchungina ekanligini butun yalang'ochligi bilan shafqatsiz tarzda aks ettiradi. Hatto Gregorning onasi qirqoyoqqa aylanib qolgan yolg'iz o'g'lini ko'rgisi kelmasligini tasvirlar ekan, adib insondagi oqibatsizlik chegara bilmasligini aks ettiradi. Yigitning otasi esa o'g'li haqida qayg'urish u yoqda tursin, qirqoyoqni urib haydaydi, ko'ziga ko'rinishini istamaydi. Necha oylar davomida biror marta eslab ham qo'ymaydi. Dastlabki vaqtlarda mehribonliklar ko'rsatgan, akasi boshiga tushgan dahshatli fojiani yengillatishga iloji boricha uringan singlisi Greta ham bora-bora uning xonasini tozalamaydigan bo'ladi, akasining ovqat egan-emagani bilan qiziqmay qo'yadi. Xullas, boshiga mushkulot tushgan ojiz odam o'zining eng yaqinlari tomonidan unutilishga, yolg'izlikka, o'limga mahkum etiladi. Holbuki, Gregor sog'lomligida yaqinlari hisoblanmish shu odamlar uchun tinim bilmas, o'shalarining halovati uchun o'zini o'tga-cho'qqa urardi. Hikoya so'ngida qirqoyoqqa aylangan baxtsiz yigit odamlarning oqibatsizligi tufayli o'ladi. Dahshatlisi shundaki, uning o'limi yaqinlarini qayg'uga solmaydi, balki quvontiradi. Hatto ular shu hodisani o'ziga yarasha nishonlashadi ham. Shu munosabat bilan shahar tashqarisida, toza havoda bayram qilishib, aylanib kelishadi.

Hikoyadagi voqealar tasviri, ayniqsa, hasharotga evrilgan yigit o'ylari, iztiroblari, umidlari, iltijolari va nihoyat, o'limi tasviridan o'quvchi larzaga tushadi. Kafka odamni hech ham aql bovar qilmaydigan holatga soladi-da, uning asl mohiyatini kaftdagiday ko'rsatadi. Hatto aytish mumkinki, yozuvchi qahramonni emas, o'z holatini tasvirlayotganday bo'ladi. Shuning uchun ham ro'y bermaganligi, hatto ro'y berishi mumkin ham emasligi shundoqqina ko'rinib turgan voqealar tasviri kishini o'ziga jalb qiladi, o'yga toldiradi, munosabat paydo qiladi.

Frans Kafkaning mashhur hikoyalardan yana biri «Jazo koloniyasida» deb ataladi. Yozuvchi bir umr jamiyat inson erkini bo'g'adi, uni hamisha o'zi istamagan ishni qilishga, o'zi xohlamaganiday yashashga majbur etadi deb hisoblar edi. Shuning uchun ham uning deyarli barcha asarlarida jamiyatning yovuz, g'ayriinsoniy mohiyatini ko'rsatish asosiy o'rin tutadi. «Jazo koloniyasida» hikoyasida bu hol yanada bo'rtibroq namoyon bo'lgan. Hikoyada qahramon deb atash mumkin bo'lgan timsolning o'zi yo'q. Shunchaki personajlarga ishtirok etishadi. Hatto bu personajlarga ism ham berilmagan. Biri

sayohatchi, ikkinchisi ofitser, uchinchisi mahkum, to'rtinchisi soqchi va hokazo. Yozuvchining mahorati shundaki, u asardagi timsollarga nom bermaganligining o'zi bilan ularning umumlashtirish ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatishga erishgan. Avvalo, asarda jazo koloniyasi misolida jamiyat tasvirlangani uchun ham qatnashchilarga nom berilmagan, balki faqat ularning ijtimoiy mavqeigina ko'rsatilgan. Ikkinchidan, adibning fikricha, jamiyatning mohiyati shundan iboratki, u o'ziga tarafdor bo'ladimi yoki unga qarshi turadimi, baribir, har qanday shaxsni qiyofasiz kimsaga aylantirib tashlaydi.

«Jazo koloniyasida» hikoyasida mahbuslar jazo o'taydigan koloniya inson yashaydigan jamiyat ramzini ifoda etadi. Bu erda shunday tartib o'rnatilganki, mahbuslarni bir kishining o'zi sud qiladi, ular ustidan o'zi hukm chiqaradi, o'zi ijro etadi va eng dahshatlisi shundaki, mahkum bu jarayonda mutlaqo ishtirok etmaydi, taqdiri qanday hal bo'lganidan bexabar qolaveradi. Ham sud, ham ijrochi martabasida bo'lgan, jazo mashinasining tinimsiz ishlab turishini astoydil orzu qiladigan ofitser mahkumni hukmdan xabardor qilishni tamomila ortiqcha deb hisoblaydi. Uni sud qilish, unga o'zini oqlash imkonini yaratish-ku xayoliga ham kelmaydi. Kafkaning talqinida odam jamiyatning iskanjasida xuddi shu koloniyadagi mahbus singari ojiz, nochor, huquqsiz va erki toptalgan holatda bo'ladi.

Ofitser – jallodlik va yovuzlikdan iborat jazo mashinasini qo'llashning astoydil tarafdori. Shunisi g'alatiki, bu mashina o'z qurbonlarining tanasiga – «Adolatli bo'li!», «Boshlig'ingni hurmat qil!» singari shiorlarni tig' bilan o'yib yozishga mo'ljallangan va bu ish odil sud namunasi hisoblanadi. Ofitserning fikriga ko'ra, sud jarayonida har qanday odamga nisbatan «Aybdorligiga shubha yo'q» qoidasiga amal qilish yaxshi samara beradi. Uning qarashicha, har qanday odam aybdordir va u jazoga loyiqdir. Ofitser – jamiyat tartiblarining to'g'riligiga mutaassiblarcha ishongan kimsa. Shuning uchun ham sayohatchi uning g'oyalarini qo'llamagani, jazo koloniyasining yangi komendanti esa u o'rnatgan tartiblarni o'zgartirmoqchi bo'layotganini ko'rib, o'zi aybdor deb hisoblagan kishilarni azoblab o'ldirib, rohatlanadigan ofitser o'zini o'zi jazo mashinasiga solib, tilka-pora qilib o'ldiradi. Shu bilan mashinasining nihoyatda yaxshi ishlashini, bu xildagi jazo eng adolatli ekanligini isbotlamoqchi bo'ladi. Mazkur hikoyada jamiyatning alohida odam ustidan o'rnatgan cheksiz hokimiyatidan norozilik ufurib turadi, ijtimoiy tartiblarning g'ayriinsoniy qiyofasi hech qanday bo'yoqsiz ko'rsatiladi.

Kafka hikoyalarda inson ko‘pincha ilojsiz, mahkum, ezilgan, cheklab va qisib qo‘yilgan holda aks ettiriladi. Bu adibning jamiyat va inson, odam va uning hayoti mazmuni haqidagi qarashlarining oqibati edi.

Kafka romanlari. Kafka ijodiy umri davomida uch roman yaratgan. Lekin ularning birortasi ham adib tomonidan to‘liq tugallangan ham emas, tirikligida e‘lon ham qilinmagan. Uning birinchi romani «Amerika» deb atalib, 1911-1916-yillarda yaratilgan. Asarning bosh qahramoni – o‘n olti yoshli o‘spirin Karl Rossman. O‘ta sodda, ishonuvchan, kamtar va oliyjanob bu yigitcha axloqsiz xizmatkor ayol tomonidan yo‘ldan urilgani uchun jazo sifatida Amerikaga jo‘natiladi. Kafkaning barcha asarlarida odam muhitning qurboni hisoblanadi. Chunki muhit, adibning nazarida, hamisha odamga begona. Amerikaning tamomila yot muhiti esa yosh yigitchaga ikki karra begonadir. Yozuvchi eng baland insoniy tuyg‘ularga ega inson muhit tomonidan qanday g‘ajib tashlanishini Karl timsolida ta’sirli qilib ko‘rsatib beradi. Rossman halok bo‘ladi. Uning aldov, zo‘rluk, yovuzlik asosiga qurilgan bu ayovsiz muhitda tirik qolishi mumkin ham emasdi.

1921-1922-yillar orasida yozuvchining «Qo‘rg‘on» romani yaratildi. F.Kafka ijodiga, ayniqsa, uning romanchiligiga sinchiklab qaragan kishi qiziq bir holning guvohi bo‘ladi: uning birinchi romani qahramoni Karl Rossman deb atalsa, ikkinchi romani qahramonining ismi Yozef deb ataladi-yu familiyasi birgina K. harfi bilan belgilanadi. Uchinchi «Qo‘rg‘on» romani qahramonida na ism va na familiya bor. U faqat K. tarzida ataladi, xolos. Albatta, bu shunchaki tasodif yoki yozuvchining o‘z qahramonlariga ot topolmay qolganidan emas. Balki bu holat tagida ham jiddiy ijtimoiy-estetik ma’no bor. Chunonchi, Kafkaning fikriga ko‘ra, jamiyat shaxsni ezadi, sindiradi, qiyofasizlantiradi. Qiyofasiz odam esa qanday atalgani bilan qiyofasizligicha qolaveradi. Shu bois yozuvchi qahramoniga nom bermaslik orqali uning shaxssizligini, qiyofasizligini bo‘rttirib ko‘rsatishga erishadi.

«Qo‘rg‘on»ning qahramoni K. hayotidagi eng katta maqsad –graf Vestvest tasarrufidagi qishloqda qolib yashash uchun uning idorasi joylashgan qo‘rg‘onga kirib olishdan iborat. U tunu kun harakat qilib, turli nayranglar ishlatib ham shu maqsadiga erisholmaydi. Muallif talqinicha, qo‘rg‘on bu – jamiyat. Alohida odam jamiyatni tushunishi, uning tartiblarini anglashi, unga moslashishi va uning bag‘rida yashashim mumkin emas. Romanda hayotning ma’nisiz, inson umrining foydasiz va nursiz ekanligi aks ettirilgan. Qo‘rg‘onga kirish uchun urinaverib, holdan toygan K. o‘lim to‘shagida yotganida Qo‘rg‘ondan qishloqda yashash va ishlashga ruxsat berilgani haqda qaror keladi. Ma’lumki, o‘lik na yashay va na ishlay oladi.

Frans Kafkaning nomini butun dunyoga yoygan va badiiy adabiyotda odamga o'zga bir badiiy nazar bilan qarab, uni o'zgacha rakursda tasvirlash mumkinligini ko'rsatgan asari «Jarayon» romanidir. To'qqiz bobdan iborat bu roman 1915-1918-yillar davomida yaratilgan. Asarning o'ziga xosligi shunchalikki, uning boblariga muallif nom qo'ygan bo'lsa-da, yozuvchi tomonidan ularning tartibi aniq belgilab berilmagan. YA'ni, aslida, qaysi biri birinchi bob, qaysinisi ikkinchi, qay birito'qqizinchi ekanligi aniq emas. Kafka ijodiy merosiga vasiy bo'lib qolgan M. Brod asarning ichki mantiqidan kelib chiqib, boblarni joylashtirgan. Romanning har bir bobi o'z holicha mustaqil ma'noga ega va bu hol ham jamiyatda izchillik, mantiqiylik, davomiylik yo'qligini ta'kidlashga xizmat qiladi.

Kafkaning barcha asarlari singari «Jarayon» romanini tushunish uchun ham yozuvchining dunyoqarashini yaxshi bilish talab etiladi. Adib insoniyat hayotida mantiq va tartib borligini tan olmaydi. U butun mavjudlikni insonga dushman, uning erkini, istaklarini bo'g'adigan yovuz kuch hisoblaydi. Shuning uchun ham yozuvchi nasrining har bir satri biror-bir ezgu, odamga foyda keltiradigan narsaning mavjudligiga, inson umrida ma'no bo'lishiga ishonmaslik, absurd, ya'ni ma'nisizlik g'oyasi bilan sug'orilgan. Kafka asarlarining asosiy xususiyati odam ham, uning umri ham, narsalar ham, mavqe ham, fikrlar ham, so'zlar ham qumga qurilgan imorat kabi, qo'l bilan ushlashga urinilgan suv singari omonat, o'tkinchi. Faqat hayotning bu xil o'tkinchiligi, tushunarsizligidan qoladigan chalkash va chigal ma'nisizlikkina doimiydir, degan fikrni ifodalashidir.

Shuning uchun ham F. Kafkaning barcha asarlarida inson faqat qurbon sifatida tasvirlanadi.

«Jarayon» romani bosh qahramoni sog'lom, baquvvat, ishchan, bilimdon, hayotda yaxshigina mavqega ega Yozef K. muhitning ana shunday kutilmagan va tushunarsiz zarbasiga duch keladi. Gunoh qilganlikda ayblanib, uning ustidan jinoiy ish qo'zg'atiladi. Yozuvchi Yozefning qanday jinoyat qilganligini aytmaydi, buni hatto ishora bilan bo'lsin, bildirmaydi. Go'yo jinoyat qilingan-qilinmaganligining sud uchun ham, turli-tuman tushunarsiz va sirli idoralar uchun ham, yozuvchi va o'quvchi uchun ham mutlaqo ahamiyati yo'qday. Chunki jamiyatda istagan odam ustidan, istalgan vaqtda ish qo'zg'atilishi, jarayon boshlanishi mumkin. Inson qonundan himoya kutadi, ammo aslida, odam ana shu qonunning o'zi tomonidan eng ko'p jabrlanadi. Yozuvchi Yozef K. taqdiri misolida bu holatni butun shafqatsizligi, dahshati, mantiqsizligi, yovuzligi bilan ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham K. qamab qo'yilmaydi, balki ishga boradi,

doimgiday hayot kechiradi, nimadandir quvonadi, nimadandir xafa bo‘ladi. Adib shu tariqa, qamoq bilan ozodlikning farqi yo‘qligiga ishora qiladi.

Romandagi tasvir boshdan oyoq kishida qo‘rquv, ilojsizlik tuyg‘ularini paydo qiladi. Qahramonni hech qanday asosu izohlarsiz jinoyatchiga chiqaradilar, ustidan ish qo‘zg‘aydilar, ya’ni sud jarayoni boshlaydilar. U atrofdagilardan, qonun himoyachilaridan yordam kutadi. Hamma yordam bermoqchi bo‘ladi va ayni damda barcha urinishlar befoyda ekani, ish boy berilishiga ishora qiladi. Qahramon ishga ketayotib yoki undan qaytayotib, o‘z-o‘zidan sirli va ixtiyorsiz ravishda turli darajadagi sud mahkamalarida paydo bo‘lib qolaveradi. Mahkamalarning hammasi qorong‘i, iflos, havosi yo‘q xonalarga joylashgan. U erdagi mijozlar ham, xizmatchilar ham ilojsizlik iskanjasida. Ular o‘z irodayu istaklari bilan emas, balki vaziyatning talabi, muhitning yo‘rig‘i bilan ish tutishga mahkumlar. Odamning intilishi, urinishi, aqli, topqirligi hech narsani o‘zgartirmaydi, hayot xuddi taqdir singari shafqatsiz va beomon. Odam – faqat qurbon, mazlum, jabrdiyda. «Sen boshqalardan haddan ortiqcha yordam kutasan, – deydi ruhoniy K. ga. – ...Nahotki, sen bu erda yordam hech qachon astoydil bo‘lmasligini sezmagan bo‘lsang?» Mana shu holat, ya’ni biror ishning astoydil qilinmasligi, hech narsaga ishonch bo‘lishi mumkin emasligi kishini vahimaga soladi.

«Jarayon» romani qahramoni K.ning tergovchilarga qarata: «...hammalingiz sotilgan, zanjiri bir-biriga bog‘liq to‘dasiz... sizlar hidlab-iskab topmoq, o‘z ko‘zlariningiz bilan ko‘rib, o‘z quloqlaringiz bilan eshitmoq uchun bu yerga yopirilib kelgansiz va ko‘zni shamg‘alat qilib, chalg‘itish uchungina ikki guruhga bo‘linib, meni olqishlab turgan ekansiz; bu bilan mening misolimdagi begunoh bir kishini qanday qilib qiynab-azoblashni tajribada sinab ko‘rmoqchi bo‘lgansizlar», – degan gaplarida insonga yot, uni qiynab rohatlanadigan ijtimoiy tartiblar tizimining mohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki unda inson taqdiriga beparvo, uni ovora qilish, qiynash, chalg‘itish va bir balo qilib, bo‘yniga ayb qo‘yish istagidagi qatlam vakillarining asl niyati fosh etilgan. Gap bu erda faqat sud haqida emas, adibning tasavvuri va tasviriga ko‘ra, inson hayotining o‘zi sud jarayoniga o‘xshaydi. E’tibor qilinsa, K. o‘zini nima uchun sud qilishayotgani bilan unchalik qiziqmaganday tuyuladi. U o‘zini aybsiz deb biladi, lekin ayni vaqtda, jazo belgilanishidan qo‘rqadi. Demak, odam aybdor bo‘lishi uchun ayb qilishi, qonun buzishi shart emas. Chunki insonlar tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar mohiyatan yovuz, odamlarga qarshidir.

Yozef K. turli mahkamalarda turlicha ko‘rinishli, turlicha lavozimlarni egallagan, ammo taqdiri qo‘llarida bo‘lgan odamga bir xilda beparvolik bilan

qaraydigan kimsalar bilan ko'p uchrashadi. Shu asnodda u bu amaldor zotlarning maqsadi odamga yordam berish emas, balki aksincha, uni hayotdan bezdirib, xarob qilish ekanligini anglab etadi. Shuning uchun ham ularga qarshi o'ziga xos isyon qiladi. Lekin uning noroziligi biz kutganday va biz o'ylaganday emas, chinakamiga o'ziga xos: ketib qolish, gaplashmaslik, kelmay qo'yish, quloq solmaslikdan iborat bo'ladi.

Kafka inson hayoti ma'nisizligi asosini odam intilishlarining cheksizligi va voqelik beradigan imkoniyatlarning chegaralanganligi o'rtasidagi tunganmas qarama-qarshilikda deb biladi. Odam juda ko'p narsaga erishmoqchi bo'ladi, o'shalarga tinim bilmay intiladi, o'zidan kechadi, lekin ko'pincha hech qanday natijaga erisholmaydi. Kafka asarlarida inson zotining mana shu ojizligi butun fojiasi bilan aks ettirilgan.

«Jarayon» romanidagi timsollardan biri savdogar Blokning: «...go'yo ayblanuvchining taqdiri uning qiyofasida, ayniqsa, uning lablarida shundoq ko'rinib turarmish. Ha, hakam sizning lablaringizga qarab hukm chiqaradi...», – degan gapi sudlarning nechog'lik «jiddiy»ligini ko'rsatishi jihatidan muhimdir. Ko'rinadiki, inson hayoti, uning umri sudlar uchun sariq chaqachalik qimmatga ega emas, sudlovchilar javobgarining lab bichimiga qarab turibgina hukm chiqarishi mumkin. Adolat, qonun degan tushunchalar umumjahon yovuzligi oldida hech narsaga arzimaydi. Bu qadriyatlar hech kimga kerak emas.

Inson – ojiz, ilojsiz, mahkum. Odamning bu holati Blok tilidan aytilgan: «Bilganingizdek, men savdogarman, birinchi navbatda, hozirgiga qaraganda ham ko'proq savdo ishlari bilan shug'ullansam derdim, buning uchun esa ish oxirigacha yetib borishi yoki hech bo'lmaganda, qandaydir darajada ravnaq olishi kerak edi. Buning o'rniga, ma'no-mazmuni bir xil bo'lgan adoqsiz tergovlar olib borilardi, men ulardagi javoblarni, xuddi ibodatdagi oyatlar kabi yoddan, hech narsani o'ylamasdan aytib bera olaman, har haftadabir necha marta suddan idoramga yoki uyimga... tinimsiz chaqiruv qog'ozi yuboriladi, ...ammo yaqin kunlarda, hech bo'lmasa, ishni ilk bor ko'rish haqida biron-bir alomat ko'rinay demasdi». Bu gaplar ijtimoiy muhit va inson munosabatlari mohiyatini ochishi jihatidan katta ahamiyatga egadir.

F.Kafkaning asarlari og'ir o'qiladi. Ularni o'qib orom olish, lazzatlanish mumkin emas. Avvalo, ularni tushunish, qahramonlarning ruhiy holatini tuyish juda og'ir kechadi. Chunki bu qahramonlarni yaratgan yozuvchining o'zi boshqa odamlarga mutlaqo o'xshamaydi. U olamni o'zigagina xos ko'z bilan ko'radi. Birinchidan, Kafka hayotdan nusxa olmaydi, undan o'rganmaydi, balki asarlarida o'z bilganicha hayot yaratadi. Uning asarlari qahramonlari ham adib yaratgan ana

shu hayotning qonunlariga muvofiq umr kechirishadi, mavjud bo'lishadi. Ikkinchidan, ijtimoiy tuzumning har qanday mexanizmida faqat insonga zug'um qiluvchi, zulm o'tkazuvchi vositani ko'rgan adib, insonni qora ranglar qurshovida, adoqsiz baxtsizliklar og'ushida tasvirlaydiki, bu kitobxonni ruhan toliqtiradi, muvozanatdan chiqaradi, unda umidsizlik paydo qiladi. Lekin insonni o'zgacha bir holatda ko'rmoqchi, odam va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkabligini anglamoqchi bo'lgan kishi Kafkaning asarlaridan xabardor bo'lishi kerak. Chunki Frans Kafka tasvirlagan odamlar faqat uning asarlaridagina mavjud. Lekin ularning tuyg'ulari, hissiyoti hammaniki qatoridir.

Yozuvchi sifatida Frans Kafka hech adabiy maktabga a'zo emasdi. U hech qanday yozuvchini hech qaysi jihatdan takrorlamaydi. Xuddi shuningdek, uning adabiy maktabi bo'lishi ham mumkin emas. Chunki bu maktabdan bo'lish uchun Kafka kabi yozish talab etiladi. Kafka kabi yozish uchun Kafka kabi yashash, tuyish, ta'sirlanish kerak bo'ladiki, buning aslo iloji yo'q. Chunki inson taqdiri betakror va variantsizdir. Kafkaning asarlari betakror va o'xshashsiz insonlarning qaytarilmas hamda g'aroyib hayoti tasviridan iborat bo'lgani uchun ham qimmatlidir. «Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotdan iboratman», – degandi F.Kafka do'stlaridan biriga. Uning bu gapini chin ekanligini vaqt isbotladi.

Alber Kamyu.1913 yilda Jazoirida tug'ilib o'sgan. U asli fransuz bo'lsa-da, qora tanli jazoirliklarni sevardi. Uning qora tanli jazoirlik bolalardan do'stlari ham ko'p edi. O'sha davrda Jazoir fransuzlar qo'l ostida bo'lib, mahalliy xalqni bosqinchilar nihoyatda ezib, og'ir azoblarga solib ishlatardi. Xat-savodi past bo'lgan jazoirliklar bu og'ir qiyinchiliklarni peshanaga yozilgan taqdir taqozosi deb tushunardi.

Alber boy-badavlat fransuzlardan ko'ra, jazoirlik mehnatkash va qashshoq xalqqa ko'proq xayrixoh edi. Hattoki u Jazoiridagi fransuz bosqinchilariga bir qadar nafrat ko'zi bilan qaraydi. Bosqinchilikka qarshi g'azab tuyg'usi bir umr yuragida tosh bo'lib qotadi va butun ijodi davomida nafrat ifodasiga aylanadi.

«Baxtli olam» romanida, «Inqiroz» qissasida, «Qamal holati» pyesasida, «Nigoh», «Quvg'inlik va saltanat», «Ijod va erkinlik» kabi hikoyalarda adibning atrof-muhitga nisbatan teran nigohini ko'rish mumkin. Olamni ziyrak anglash, chuqur idrok etish hissi yozuvchi ijodining g'oyaviy yo'nalishiga singib ketgan.

XX asr jahon adabiyotining nodir namunalaridan biri deb tan olingan «Begona» qissasining qahramoni o'z dunyoqarashiga va o'z fikriga ega bo'lgan Merso obrazidir. Ayni chog'da romanning bosh obrazi Merso – metin iroda egasi. U bukilib, xushomad qilib yashashni inson uchun pastkashlik alomati deb biladi.

Kamyu o'z qahramoni zimmasiga XX asr insonlariga xos fazilatlarni yuklaydi. Bu qiyofa Uyg'onish davri yoki keyingi davrlar ijtimoiy hayotidagi insonlardan keskin farq qiladi. Eng muhimi, yozuvchi inson obrazini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

«Begona» qissasi chop etilgan kezlarda qizg'in munozaralarga sababchi bo'ldi. Yozuvchiga son-sanoqsiz maktublar keldi. Mersoning advokat bilan, prokuror bilan suhbat ham o'quvchini o'ylantirib qo'yadi. Dialoglar va voqealar bayonida o'ziga xos falsafa yashirinib yotibdi. Voqea qamoqqa tushgan Merso tilidan bayon qilinsa-da, uning ichki hissiyotlari ko'rsatib berilgan. Merso kamgap, o'limdan qo'rqmaydi. U o'lim hukmini eshitganda ham o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Uning o'z fikri, dunyoqarashi bor.

Har bir adibning o'z tasvir uslubi mavjud. Alber Kamyuning ham o'ziga xos ovozi va betakror tasvir uslubi bor.

Alber Kamyu Jazoir universitetida o'qib yurgan kezlari dayoq chin insoniy qalbgaga ega bo'lgan do'stlar topadi. U boy-badavlat oiladan yetishib chiqqan talabalar bilan emas, ko'proq o'rtamiyona va qashshoq oilaning bolalari bilan do'st tutinadi. Alber Kamyu bor-yo'g'i 47 yil umr ko'rdi. Umrining oxirigacha Parijda yashadi. Shu qisqa umri davomida ulkan ishlar qilishga, ko'plab asarlar yozishga ulgurdi. Uning asarlari ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

XX asrning 50-60-yillari G'arb adabiyoti uchun ulkan yutuqlar bilan birga quvonchli xabarlar yili bo'ldi. Bir qator adiblar Amerika adabiyotining atoqli namoyandalari Jon Ernest Steynbek (1962), Uilyam Folkner (1950), Ernest Xeminguey (1961), Salvador Kvazimodo (1959), fransuz adabiyotining ulug' yozuvchilari Sen-Jon Pers (1960), Alber Kamyu (1957) xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Alber Kamyu o'zining otashin nutqi bilan, badiiy tasvir vositalari bilan davrning muhim muammolarini yechib berishga shoshiladi. Yozuvchi uchun eng muhim muammo dahshatli va yovuz urushni tezroq bartaraf etish, insoniyat kelajagini mana shu urush balosidan qutqarib qolish edi. Shuning uchun ham Alber Kamyu xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Fransuz adibi partizanlar haqida maxfiy yo'llar bilan ma'lumotlar to'playdi. Bu ma'lumotlarni to'plab, yashirin yo'llar bilan nashr qiladi. «Nemis do'stinga xat» nomli kitobchasi 1943-1944 yillarda muttasil nashr qilinib, Germaniyaga va boshqa mamlakatlarga yuborilib, xalqni fashistlarning yovuz niyatlariga qarshi kurashga chorlaydi.

Alber Kamyu 1945 yilda yashirincha chiqadigan «Kurash» gazetasiga muharrirlik qiladi. Yozuvchi o'zining «Sizif haqida mif» (1942) nomli essesi bilan

Yevropani o‘rab olayotgan urush to‘fonidan qutqarib qolish haqida da‘vat bilan chiqadi. Alber Kamyuning «Kaligula» (1944) tragediyasi tarixiy voqelikka bag‘ishlangan bo‘lib, 1945 yilda sahnaga chiqadi. Yozuvchining «Tashqi olam» (1940) asari urush davri adabiyotining yorqin namunalaridan biri bo‘ldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Alber Kamyu Oranda yashaydi. Bu davrda yaratilgan va yozuvchi nomini mashhur qilgan asari «Vabo» roman-hikmati yuzaga keldi. Bu roman ustida yozuvchi qariyb besh yilga yaqin mehnat qiladi va nihoyat, 1947 yilda roman yorug‘ olam yuzini ko‘radi. Adib o‘z romani haqida to‘xtalib: «Vabo» Yevropada avj olib ketgan millatchilik, irqchilik balosiga qarshi kurash nuqtai nazarida dunyoga keladi», – deb ta’kidlaydi.

Romanda Jazoirning Oran shahrida bo‘lib o‘tgan voqea qalamga olinadi. Unda yoppasiga qirg‘in balosini keltirgan kasallik ofatlari haqida hikoya qilinadi. Roman qahramoni Rie tabib (vrach) kasallikning kelib chiqish sabablarini o‘rganib, zaharlangan kalamushdan tarqalgan degan xulosa chiqarib, aniq fikriy to‘xtamga keladi.

Muallif o‘z romanida insoniyat boshiga qirg‘in keltirgan vabo tarixiga to‘xtaladi. Konstantinopolda har kuni o‘n minglab odamlarni hayotdan olib ketgan kasallik yoki yetmish yil ilgari Kantonda boshlangan yoppasiga o‘lim voqealarini qalamga olar ekan, bosh qahramon Rie tilidan muhim manbalarni keltirib o‘tadi. «O‘n ming, yuz ming aytishga oson, – deydi vrach Rie, – biroq shuncha odamni bir maydonga yig‘ib o‘ldirib yuborsangiz qanaqa dahshatli ko‘rinish bo‘lishini o‘ylab ko‘ring. Bir kishining o‘limiga qanchalik achinish bilan qaraymiz. Bu beparvogina mulohaza yuritiladigan voqea emas». Bu jihatdan tabib Rie bilan asarning yana bir qahramoni Kastel o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbat ham e’tiborlidir. Romanda faqat Oranda tarqalgan kasallik voqeasi berilibgina qolmasdan, boshqa qirg‘inlar, jumladan, Afinada qadimda bo‘lib o‘tgan urush dahshatlariga ham to‘xtab o‘tilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Modern» so‘zining mohiyatini izohlang.
2. Modern adabiyotining asosiy yo‘nalishi nimaga qaratilgan?
3. Modern adabiyoti yuzaga kelishiga qanday ijtimoiy omillar sabab bo‘ldi?
4. Modern adabiyotining ko‘zga ko‘ringan vakillari kimlar?
5. O‘zbek adabiyotida modern hodisasi kimning ijodida bo‘rtib ko‘rinadi?
6. Frans Kafka ijodiga uning oilaviy muhiti qanday ta’sir ko‘rsatganligini aytib bering.

7. Bo'lajak yozuvchi shaxsiyati va uning ijodi o'rtasidagi bog'liqliknitushuntiring.
8. Kafkaning asarlaridagi tunganmas g'am, adoqsiz umidsizlik manbaiqaerdaligini ko'rsating.
9. Yozuvchining «Evrilish» hikoyasidagi ota, ona, singil timsollari tabiatini sharhlang.
- 10.«Jarayon» romanining bosh qahramoniga xos xususiyatlarni aytib bering.
- 11.A.Kamyuning modernistik asarlari haqida nimalar bilasiz?
- 12.Tubandagi tayanch tushunchalarniizohlang: modern, modern adabiyoti, modern yozuvchi, modernizm, modernistik asar.

“JAHON ADABIYOTI” fanidan test savollari

1. Yevropada yaratilgan ilk sahna asari va uning muallifini ko'rsating. A) Shekspir, “Qirol Lir” B) Kristofer Marlo, “Buyuk Temur” C) Jan Bates Moleer, “Xasis” D) Bekket, “Godoni kutish”
2. “Kikosning o'limi”, “Pahlavon Nazar”, “Qum va mushuk”, “Asal tomchisi” kabi asarlar muallifini ko'rsating. A) Ovanes Tumanyan B) Yasunari Kavabata C) Onetti D) Xuleo Kortasar
3. Shayx Sa'diy va uning asarlari haqidagi to'g'ri fikrni ko'rsating. 1) “Bo'ston”-shoir Chustiy tomonidan tarjima qilingan; 2) “Guliston”- G'afur G'ulom, Sh.Shomuhamedov, R.Komilovlar tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan; 3) “Guliston” asari so'nggi olti-etti asr davomida o'zbek tiliga bir necha marta tarjima qilingan; 4) “Guliston” asarini Sayfi Saroyi va Ogahiy tarjima qilgan. A) 1,3,4 B) 1,2,3,4 C) 1,4 D) 2,3,4
4. Fors-tojik adabiyotida kim “Tazkirat ul avliyo” asarini yaratib, unda 97 ta shayx va avliyo hayoti va faoliyati haqida ma'lumot bergan? A) Imomiddin Nasimiy B) Jaloliddin Rumiy C) Farididdin Attor D) Abdurahmon Jomiy
5. Rus adiblaridan kimlar Nobel mukofoti sohiblari sanaladi? 1) B.Pasternak; 2) I.Brodskiy; 3) M.Gorkiy; 4) L.Tolstoy; 5) M.Sholoxov; 6) A.Soljenetsin; 7) A.Blok; 8) I.Bunin. A) 1,4,5,6 B) 2,5,7 C) 1,2,5,6,8 D) 1,5,6,7,8
6. “Og'ir xastalik” (1928), “Doktor Jivago” (1958), “Odamlar va vaziyatlar” (1957) kabi o'ta keskin ruhdagi ijtimoiy-badiiy asarlari uchun qaysi rus adibi 1958 yilda Nobel mukofotini qo'lga kiritgan? A) A.Blok B) A.Soljenetsin C) I.Brodskiy D) B.Pasternak
7. 2012 yilda syurrealistik ruhda yozilgan “Musalas o'lkasi”romani uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlagan adibni ko'rsating. A) O'rxo'n Pamuq B) Mo Yan C) D.Alekseva D) Yasunari Kavabata
8. Ingliz yozuvchisi, tarixiy roman janrining asoschisi. Asarlari: “Shodland qo'shiqlari” (shotland xalq balladalarini to'plab yaratgan), “Puritanlar”, “Ueverli”, “Lord Bayronning o'limi”. Berilgan fikrlar kim haqida? A) Valter Skott B) Charlz Dekkins C) Jek London D) Jyul Vern
9. Lev Tolstoy qaysi fransuz adabiyotida yaratilgan asar haqida: “Bu roman franquz adabiyotidagi “Xo'rlanganlar”romanidan keyin ikkinchi shoh asardir” deb yuksak baho bergan? A) Emil Zolya, “Qamal” B) Gide Mopassan, “Hayot” C) O. Balzak, “Gobsek” D) Stendal, “Qizil va Qora”
10. Qaysi fransuz dramaturgining “Tartyuf”, “Zo'raki tabib”, “Xasis” kabi komediyalari o'zbek tiliga tarjima qilinib, teatr sahnalarida bir necha bor namoyish

- etilgan va o'zbek tomoshabinlar e'tirofiga sazovor bo'lgan? A) Jan Batist Moler B) Kristofer Marlo C) Edgar Po D) Samuel Bekkit
11. Jahon adabiyotida yuzaga kelgan XX asr adabiyotidagi yangi yo'nalishlar tadqiqiga bag'ishlangan "XX asr modern adabiyoti manzaralari" kitobining muallifini ko'rsating. A) N.Eshonqul B) T.Jo'rayev C) M.Xolbekov D) U.Jo'raqulov
12. Balzak va uning "Gorio ota" asari haqidagi: "Aynan "Gorio ota" romanida Balzak tomonidan yaratilgan dunyo shu qadar ishonchli sifatlar kasb etadiki, ularni haqiqiy hayotdan farqlash qiyin bo'lib qoladi" degan fikr egasini toping. A) Andre Morua B) Gide Mopassan C) Lev Tolstoy D) Emil Zolya
13. "Ilohiy komediya" (Dante) asarining "Do'zax" qismidagi to'qqizinchi doiraga shoir kimlarni joylashtiradi? A) diniy ulamolar, arxiyepiskop, olimlarni B) vataniga, do'stlariga, ustozlariga xoinlik qilganlarni C) oqsuyak, ilmliz, olifta tabaqa vakillarini D) o'zi yaxshi bilgan zamona ahlini
14. Qaysi asarning tuzilishi quyidagicha ko'rinishda: qo'shiqlarning jami miqdori 100 taga boradi; ulardagi satrlar uch misrali band (tersina) rusumida joylashtirilgan; 3 va to'qqiz ramziy raqamlari nasroniy dinidagi "troitsa", ya'ni uch ilohiy kuch g'oyasini eslatadi. A) "Don Juan" B) "Illiada" C) "Ilohiy komediya" D) "Faust"
15. Qaysi fransuz adibi o'zining "Tuzoq", "Hamal" romanlarida oddiy mehnatkashlarning oliyjanoblighi, insoniy fazilatlarini yorqin bo'yoqlarda gavdalantirgan? A) Emil Zolya B) Gide Mopassan C) Edgar Po D) Onore de Balzak
16. Qaysi adibning nomi "nayza o'ynatadigan", "nayza o'ynatuvchi" degan ma'nolarni anglatadi? A) Valter Skott B) Fransua Moler C) Vilyam Shekspir D) Viktor Gyugo
17. Adabiyot sohasidagi birinchi Nobel mukofoti sohini ko'rsating.
A) Alber Kamyu B) Arman Syulli-Pryudom C) Pablo Neruda D) Bernard Shou
18. Samson Karrasko (Salaman universitetining bakalavri, hazilkash yigit) obrazi qaysi asarda uchraydi? A) "Gulliverning sayohatlari" B) "Robinzon Kruzo" C) "Don Kixot" D) "Gorio ota"
19. Don Juanning Rum, Turkiyadagi, shuningdek, Rossiyadagi sarguzashtlari she'riy romanning nechanchi qo'shiqlarida ro'y beradi? A) oltin va sakkizinchi B) beshinchi C) uchinchi va beshinchi D) sakkizinchi va o'ninchi
20. Jahon adabiyotining mashhur "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar", "O'lik uydan maktublar", "Aka-uka Karamazovlar", "Iblislar" romanlar muallifini ko'rsating. A) L.Tolstoy B) M.Bulgakov C) M.Dostoyevskiy D) Boris Pasternak

21. "... inson hayotini favqulodda holatlarda ko'rdi: telbada dahoning tafakkuri, qotilda oliyjanob maqsad, qimorbozda mardlik tuyg'usi bo'lishi mumkinligini badiiy dalillashga intildi". Quyida berilgan ta'rif qaysi adib ijodiga xos? A) L.Tolstoy B) Jek London C) S.Esenin D) F.Dostoyevskiy
22. Jahon adabiyoti namunalaridan A. Kamyuning "Isyon va san'at", urugvaylik yozuvchi Onetti hikoyalari tarjimoni nomini toping. A) Isajon Sulton B) Ibrohim G'afurov C) Eshqobil Shukur D) Nazar Eshonqul
23. Qaysi asar muqaddimasida teatr direktori, shoir va qiziqchi obrazlarining o'zaro suhbat berilgan? A) "Faust" B) "Ilohiy komediya" C) "Don Juan" D) "Tartyuf"
24. Jahon adabiyoti vakillarining qaysi biri ijodida "Mug'anniynoma", "Hofiznoma", "Ishqnoma", "Tafriqnoma", "Ranjnoma", "Hikmatnoma", "Zulayhonoma", "Temurnoma", "Soqiynoma", "Matalnoma", "Forsiynoma" kabi bo'limlardan ibrat devon uchraydi? A) V.Gyugo B) A.Dante C) Y.Gyote D) Volter
25. "Don Kixot" romanida kim Don Kixotni jangda yengib unga quyidagi shartlarni qo'yadi: "uyga qaytish va bir yil mobaynida qo'lga qurol olmaslik, ritsirlik liboslarini kiymaslik". A) Gersog B) Kardeno C) Samson Karrasko D) Doktor Pedro
26. Dunyo adabiyotida kimni G'arbda obrazli qilib "Butun boshli avlodning cho'qintirilgan otasi" deb atashadi? A) Tomas Mann B) Ernest Xeminguey C) Jeyms Joys D) Alber Kamyu
27. "Chol va dengiz" asaridagi baliqchi Santyagoga shogird tushgan bolaning ismi nima? A) Emmanuel B) Karraso C) Manolin D) Blum
28. Uni tongga tirab otdilar... U yiqildi, So'ng yana turdi Va yoshgina, Bukri bir askar Qo'ndiq bilan boshiga urdi. ("Lorkaning o'limi") Berilgan she'riy parcha qaysi shoir qalamiga mansub? A) Usmon Azim B) Shavkat Rahmon C) Xurshid Davron D) Rauf Parfi
29. Adabiy termin sifatida "Edip kompleksi" tushunchasi kim tomonidan fanga olib kirilgan? A) Erix Fromm B) Z.Freyd C) Karl Yung D) Borxes
30. "Shoh Edip" fojeasi haqidagi: "Bu mif onasiga uylanishning timsoli emas, balki o'g'ilning patriarxat otaga va uning tartiblariga munosabati timsolidir" deb ko'rsatgan fikr egasini toping. A) Z.Freyd B) Erix Fromm C) Gegel C) Baxofen

ADABIYOTLAR:

1. The Norton Anthology of World Literature. Shorter Edition. Ronald Goltesman, Laurens B.Holland, David Kalstone, Francis Murphy, Hershel Parker, William A. Pritchard. W.W. Norton and company. New York. London. 2009-2012.
2. World Book Encyclopedia. – Chicago, London, Sydney, Toronto: A Scott Fetzer Company, 1995, 26 volumes.
3. Aristotel. Poetika. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.
4. Alimuhamedov. Antik adabiyot tarixi. – T.: “O’qituvchi”, 1969.
5. Gegel. Estetika. – T.: “Sharq yulduzi” jur., 1-6-sonlar, 2014.
6. Kramer S. Istoriya nachinaetsya v Shumere. – M.: “Nauka”, 1991.
7. Ziyotov Z. Shumerlar va Turon qavmlari. – T.: “Mumtoz so’z”, 2012.
8. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. – T.: Cho’lpon, 2008.
9. Siddiqov A., Qosimov A. Jahon adabiyoti. Farg’ona, 2015.
10. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. – T.: “Barkamol Fayz Mediya”, 2017.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Belinskiy. Adabiy orzular. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1977.
2. Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. (XVIII-XX asrlar). – T.: “O’qituvchi”. 1987.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. – T.: 1999.
4. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T.: 2008.
5. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – T., “O‘zbekiston” 1997.
6. Saidov U. Sharq va G‘arb: madaniyatlar tutashgan manzillar. – T.: “Yangi asr avlodi” 2009.
7. M.Xolbekov. XX asr modern adabiyoti. – T.: “Mumtoz so‘z” 2014.
8. H.Boltaboyev. M.Mahmudov. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2 jildlik. – T.: “Mumtoz so‘z” 2013-2016.

Badiiy adabiyotlar:

1. Bilgamish. (Ziyotov Z. Shumerlar va Turon qavmlari). – T.: “Mumtoz so’z”, 2012.
2. Gomer. Iliada. – T.: “O‘zbekiston”, 2013.

3. Firdavsiy. Shohnoma. – T.: “Adabiyot va san’at”, 1984.
4. Dante. Ilohiy komediya. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 2000.
5. Servantes. Don Kixot. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1990.
6. Gyote. Faust. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1974.
7. Shekspir. Saylanma. 3 jildlik – T.: “Fan”, 2007.
8. Navoiy A. Lison ut tayr. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 2015.
9. Radiy Fish. Jaloliddin Rumi. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016.
10. Balzak. Gorio ota. – T., “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1968.
11. Stendal. Qizil va Qora. – T.: “O‘zbekiston”, 1986.
12. Mopassan. Novellalar. – T.: “O‘qituvchi”, 1987.
13. Pushkin. Evgeniy Onegin. – T.: 1988.
14. Lermontov. Zamonamiz qahramoni. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
15. Gogol. Revizor. – T.: “O‘qituvchi”, 1974.
16. Turgenev. Otalar va bolalar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015.
17. Tolstoy. Tirilish. 5 tomlik, 5-tom, – T., 1978.
18. Dostoevskiy. Jinoyat va jazo. – T.: 1977.
19. Chexov. Tanlangan asarlar. 3 tomlik. 1-tom, – T.: “O‘zbekiston”, 1957.
20. Usta va Margarita. – T.: “Sharq”, 2008.
21. Xeminguey. Chol va dengiz. – T.: “Yosh gvardiya” 1986.
22. Jek London. Martin Iden. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2015.
23. Gabriel Garsia Marques. Yolg‘izlikning yuz yili. – T.: “Sharq”, 2005.
24. Poelo Koelo. Alkimyogar. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.
25. Kafka. Jarayon. – T.: “Sharq”, 2015.
26. Kamyu. Begona. – T.: “Yozuvchi”, 1995.
27. Jeyms Joys. Navqiron san’atkorning yoshlikdagi siyrati. – T.: “Akademnashr”, 2014.
28. Hesse H. Cho‘l bo‘risi. – T.: “Sharq”, 2006.
29. Aytmatov Ch. Qiyomat – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1989.
30. Nodar Dumbadze. Abadiyat qonuni. – T.: “Sharq”, 2006.
31. Robindranat Tagor. Hikoyalar. – T.: “O‘qituvchi”, 2004.
32. Kobo Abe. Yashik odam. – T.: “O‘qituvchi”, 2017.

MUNDARIJA

Kirish. “Jahon adabiyoti” fanining predmeti va mazmuni.....	3
Mif va badiiy ijod.....	6
Qadimgi Sharq adabiyoti.....	11
Antik davr yunon adabiyoti.....	20
Qadimgi Rim adabiyoti.....	48
O’rta asrlar Sharq adabiyoti.....	55
O’rta asrlar G’arb adabiyoti.....	63
Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy.....	69
Italiya va Ispaniyada Uyg’onish davri adabiyoti.....	79
Angliya va Fransiyada Uyg’onish davri adabiyoti.....	91
Klassitsizm adabiyoti.....	95
Ma’rifatchilik adabiyoti.....	99
Romantizm adabiyoti.....	112
Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti.....	118
Kavkaz, slavyan va Boltiqbo’yi xalqlari adabiyoti.....	134
Turkiy tilda so’zlashuvchi qardosh xalqlar adabiyoti.....	144
Hozirgi zamon Sharq adabiyoti.....	150
Lotin Amerikasi adabiyoti.....	152
AQSh va Kanada adabiyoti.....	158
Modern adabiyoti. F.Kafka va A.Kamyu hayoti va ijodi.....	169
“Jahon adabiyoti” fanidan test savollari.....	184
Adabiyotlar ro`yxati.....	188

СОДЕРЖАНИЕ

Вступление. Предмет и содержание предмета «Мировая литература».....	3
Миф и художественное творчество.....	6
Древняя восточная литература.....	11
Древнегреческая литература.....	20
Древнеримская литература.....	48
Средневековая восточная литература.....	55
Средневековая западная литература.....	63
Мировая литература и Алишер Навои.....	69
Литература эпохи Возрождения в Италии и Испании.....	79
Литература эпохи Возрождения в Англии и Франции.....	91
Литература классицизма.....	95
Литература Просвещения.....	99
Романтическая литература.....	112
Реализм и литература критического реализма.....	118

Литература народов Кавказа, славян и балтов.....	134
Литература тюркоязычных братских народов.....	144
Современная восточная литература.....	150
Латиноамериканская литература.....	152
Литература США и Канады.....	158
Современная литература. Жизнь и творчество Ф. Кафки и А. Камю...	169
Контрольные вопросы по предмету «Мировая литература».....	184
Использованная литература.....	188

CONTENT

Introduction. Subject and content of the subject "World literature"	3
Myth and artistic creation.....	6
Ancient Oriental Literature.....	11
Ancient Greek literature.....	20
Ancient Roman literature	48
Medieval Oriental Literature	55
Medieval Western Literature	63
World literature and Alisher Navoi.....	69
Renaissance literature in Italy and Spain.....	79
Renaissance Literature in England and France.....	91
Literature of Classicism.....	95
Literature of Enlightenment	99
Romantic literature.....	112
Realism and the Literature of Critical Realism.....	118
Literature of the peoples of the Caucasus, Slavs and Balts	134
Literature of the Turkic-speaking fraternal peoples.....	144
Contemporary Oriental Literature	150
Latin American Literature	152
Literature of the USA and Canada.....	158
Modern literature. The life and work of F. Kafka and A. Camus.....	169
Control questions on the subject «World literature».....	184
Used literature.....	188

